ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN LANGUAGE & CULTURE

O‘ZBEKISTON
TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK

2024 Vol. 3 (2)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

COMPARATIVE LITERATURE STUDIES, CONTRASTIVE LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES

2024 Vol. 3 (2)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: Uzoq Jo‘raqulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Mas’ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir kengashi

Islomjon Yoqubov, Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidaxon Bumatova, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Gulnoraxon Niyazova, Ra’noxon Xudjayeva, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya To‘xtaxadjayeva, Shahnoza Asqarova, Ma’suma Obidjonova, Parviz Izzatillayev.

Jurnal haqida ma’lumot

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi №308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik” seriyasi – filologiyaning ayni sohalarini qamrab olgan “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

O‘zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlctscls.@navoiy-uni.uz
Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy editor-in chief: Uzok Djurakulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboeva

Executive secretary: Mahmadiyor Asadov

Editorial Board

Islomjon Yoqubov, Bahodir Holiqov, Komiljon Hamroev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidakhon Bumatova, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Gulnoraxon Niyazova, Ra'noxon Khudjayeva, Yulduz Ziyaeva, Zulfiya To'xtakhadjaeva, Shahnoza Asqarova, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillaev.

About the Journal

Uzbekistan: Language and Culture. Comparative Literature Studies, Contrastive linguistics and Translation Studies series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary studies, contrastive linguistics and translation studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be Uzbek, English and Russian. Other Turkic languages are also welcome.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.trans.compliterary.tsuull.uz

MUNDARIJA

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Mahmadiyor Asadov
“Yolg‘izlik motivi”ning ikki talqini: Kamyu va X.Do‘stmuhammad ..8

Aidaxon Bumatova
Hofiz She’roziy: hofiz va shoir simbiozining g‘azallarda aks etishi 16

Gulchehra Qo‘yliyeva
Ritsarlik romanlarining uch tipi va sharq adabiyoti 26

Nilufar Dilmurodova
Badiiy ijod tabiati va ijodkor qalamining charxlanishi 35

Mohigul Ergasheva
Tatar ma’rifatparvarlari Begali Qosimov talqinida 42

Munira Niyazova
Sentimental nasr: asosiy xususiyatlari va tipologiyasi 48

Dildora Aliqulova
Badiiy-psixologizm maishiy muammolarni badiiy talqin etish vositasi sifatida 56

Laylo To‘ychiyeva
Kareta va tralleybus xronotopining tipologik xususiyatalari 63

Elmurod Tursunov
O‘zbek va xorijiy qodiriyshunoslikni qiyosiy rejada o‘rganish 70

Elyor Murtazayev
Remark romanlarida “yo‘qotilgan avlod” tushunchasi talqini 78

Madina Elboyeva
Jek London hikoyalarida psixologik tasvir vositalari 85

Dilrabo Hakimjonova
Majusiy zohid qismati 96

Sarvarbek Tuliboyev
Turkiy matbuot va Turkiston madaniy hayoti 102

Rushana Zaripova
Qahramon ruhiyatini yoritishda konfliktning o‘rni 113

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Aidaxon Bumatova
Mumtoz g‘azallarda an’anaviy obrazlar va ularning tarjimalari .121

Matluba Qudratova
Ekvivalentlikka doir nazariy qaydlar 129

CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Gulmira Absalamova
Fransuz Uyg‘onish adabiyotining til xususiyatlari 140

Boburjon Samigov
Indonez tilidagi inglizcha o‘zlashmalarning pragmatik xususiyatlari 147

Nargiza Erkaboyeva
O‘zbek tilida mehmonnavozlik konseptining lingvopragmatik tahlili 154

Shaxnoza Asqarova
“Alpomish” dostonida milliy marosimlarning tasvir xususiyatlari 159

CONTENTS

TYPOLOGICAL ANALYSES AND THE WORLD LITERATURE

Mahmadiyor Asadov
Two interpretations of the "motive of loneliness": Camus and H. Dostmuhammad 8

Aidakhon Bumatova
Hafez-e Shirazi: the reflection of the symbiosis of a hafiz and poet in ghazals 16

Gulchehra Koylieva
Three types of chivalric novels and oriental literature 26

Nilufar Dilmurodova
The nature of artistic creativity and sharpening the artist's pen .35

Mohigul Ergasheva
Tatar intellectuals in the interpretation of Begali Kasimov 42

Munira Niyazova
Sentimental prose: main characteristics and typology 48

Dildora Alikulova
Artistic psychology as a means of artistic interpretation of domestic problems 56

Laylo Tuychieva
Typological characteristics of the carriage and trolleybus chronotope 63

Elmurod Tursunov
Comparative study of Uzbek and foreign Qadiri scholars 70

Elyor Murtazaev
Interpretation of the concept of "lost generation" in Remarque's novels 78

Madina Elboeva
Means of psychological imagery in the stories of Jack London 85

Dilrabo Hakimjonova
Christian Saint's Fat 96

Sarvarbek Tuliboev
Turkish press and cultural life of Turkestan 103

Rushana Zaripova
The role of conflict in illuminating the psyche of the hero 113

TRANSLATION AND TRANSLATION STUDIES

Aidakhon Bumatova
Traditional images of the classical ghazal and their translations..121

Matluba Qudratova
Theoretical notes on equivalence 129

CONTRASTIVE LINGUISTICS

Gulmira Absalamova
The significance of French linguistic terms in Renaissance use ...140

Boburjon Samigov
English loanwords in Indonesian language and its pragmatic features 147

Nargiza Erkaboeva
Lingua-pragmatic analysis of the concept of Hospitality in Uzbek language 154

Shakhnoza Askarova
Image characteristics of national ceremonies in the epic "Alpomish".....159

ISSN 2181-922X 8—15

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

“Yolg‘izlik motivi”ning ikki talqini: Kamyu va X.Do‘stmuhammad

Mahmadiyor Asadov[1]

Abstrakt

Hozirgi ilm-fan, texnika taraqqiy etgan davrda, adabiyotda modernizm, postmodernizm oqimlari yetakchi bo‘lib turgan ayni paytda psixologiya, falsafa, estetika, adabiyot sohalarida global masalaga aylangan shaxs yolg‘izligi bugun tom ma’noda sindrom darajaga ko‘tarildi. Yolg‘izlik mavzusi ayni damda adabiyotda ham global masala ekanligidan kelib chiqib, mazkur maqolada “yolg‘izlik motivi”ning ayrim talqinlari tahlil etilgan. Maqolada Alber Kamyuning “Begona” hamda Xurshid Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif” romanlari qahramonlarining yolg‘izlik holatlari, ular yolg‘izligining tarixiy-mifologik, badiiy-psixologik omillari nazariy asoslangan, ayni obrazlararo umumiy va farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *yolg‘izlik, kimsasizlik, begonalik, absurd holat, milliy ruh, xarakter, jamiyat, axloq.*

Kirish

Jahon adabiyotshunosligida, asosan, XX asr boshlaridan e’tiboran “yolg‘izlik” muammosiga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so‘ng ushbu ijtimoiy-psixologik holatni tadqiq etishning ko‘lami global darajaga chiqdi. Yolg‘izlik murakkab ruhiy hodisa sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar – sotsiologiya, falsafa, antropologiya, psixologiya, estetika kabi fanlar qatori adabiyotshunoslikning ham obyektidir. “Yolg‘izlik motivi”ni turli xalqlar adabiyoti doirasida tipologik o‘rganish jahon adabiyotining ravnaqi uchun tarixiy-estetik asos hisoblanadi.

Dunyo xalqlari adabiyoti muntazam ravishda adabiy aloqalar hamda bir xalq madaniyati va adabiyotiga doir tajribalarning

[1] *Asadov Mahmadiyor Turayevich* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: asadov@navoiy-uni.uz
ORCID ID: 0000-0003-1550-1281
Iqtibos uchun: Asadov, M.T. 2024. “Yolg‘izlik motivi”ning ikki talqini: Kamyu va X.Do‘stmuhammad”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3 (2): 8-15.

boshqa bir xalq tomonidan ijodiy o‘zlashtirilishi natijasida ham taraqqiy etib boradi. XIX asr oxirlarida Yevropada paydo bo‘lgan modernizm adabiyoti insonning ruhiyatini, ichki olamini tasvirlaydi. Modernizm adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri Alber Kamyu hisoblanadi. Uning qahramonlari tushkun kayfiyatni, ijtimoiy begonalikni, umidsizlik va yolg‘izlikni boshidan kechiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, modernist yozuvchining adabiy-estetik pozitsiyasi va ijod jarayonini o‘rganish badiiy asardagi ustuvor g‘oyalarni belgilash imkonini beradi.

Muayyan millat adabiyoti o‘zga xalq adabiyotiga to‘laligicha ta’sirini o‘tkaza olmaydi. Uslub, shakl va mazmun, syujet, obraz, epizod kabi jihatlarda ijodiy ta’sirlanishlar kuzatiladi, ayrim asarlarda hatto qahramon nomlarining ham ko‘chib o‘tish holatlari ko‘zga tashlanadi. Bunday holatlarni ba’zan mualliflarning favqulodda ijod mahsuli yoki adabiy ta’sirlanish, adabiy sintezlashuv jarayoni sifatida ham baholash mumkin. Jumladan, Said Ahmad, Abdulla Qahhor hikoyalarida Mopassan va Chexovning poetik mahorati, O‘tkir Hoshimov romanlarida Folkner va Remarkning badiiy uslubi sezilsa, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam ijodida esa ko‘proq Kafka, Kamyu an’analari kuzatiladi. Ayni adabiy hodisadan Xurshid Do‘stmuhammad ijodi ham holi emas. Xususan, “Donishmand Sizif” romani yozilishida Kamyuning “Sizif haqida afsona” essesi bevosita ta’sir qilganini o‘zaro suhbatimizda muallif inkor etmagan. Biroq, romanni g‘arbga taqlidan yozilgan asar deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Muallif asar syujetini qurishda yunon mifologiyasi, qadim yunon dostonlariga tayanadi. Qahramon xarakteri esa bir qancha obrazlarning gibridlashuv jarayonida shakllantiriladi. X.Do‘stmuhammadning Sizif obrazi D.Defoning Robinzon Kruzo obrazi, Xemingueyning Santyagosi, Kamyuning Mersosi, Dostoevskiyning Raskolnikovi kabi bir nechta obrazlar hamda milliy folklor motivlarining sintezlashuv hosilasidir. Ayni hodisa o‘laroq Sizif obrazi o‘zigacha bo‘lgan talqinlaridan bir qadar universalroq, mukammalroq ko‘rinadi.

“Donishmand Sizif” romani syujeti yunon dostonlari, Kamyu va X.Do‘stmuhammad asarlarida o‘xshash bo‘lsa-da, qahramon xarakterini yaratish masalasida esa muayyan tafovutlar yuzaga keladi. Har ikki asarda xarakter yaratish individual yondashuv va milliy mentalitet mezonlari asosida belgilanadi. Muallif asar badiiy konsepsiyasini sharqona ma’naviyat va estetik tafakkur qarashlari negizida shakllantiradi.

X.Do‘stmuhammad o‘zigacha bo‘lgan Sizif talqinlarini

barchasini koʻradi, kuzatadi, uning holati haqida tafakkur qiladi. Bu obrazni badiiy sintezlab, unga milliy ruh va xarakter beradi. Shu oʻrinda, adabiyotshunos A'zamxon Qozixoʻja ta'kidlaganidek, "*ijodkor shaklni tashqaridan olishi mumkin, lekin mohiyat, mazmun oʻziniki boʻlmasa, u shunchaki taqlidchidan nariga oʻta olmaydi*" [Қозихўжа 2021:167].

Sizif obrazining badiiy-tarixiy omillariga e'tibor qaratadigan boʻlsak, Gomerda oʻta ayyor, makkor sifatida tasvirlangan Sizifga Kamyu falsafiy omil sifatida qaraydi. Gomerda koʻproq Sizif voqeligi, uning jamiyatdagi yurish-turishi, xatti-harakatlari, ma'budlarga isyoni va jazolanishiga katta oʻrin ajratilsa, Kamyuda inson va jamiyat munosabatlarining keskinlashuvi aks etgan ijtimoiy-falsafiy ramz sifatida qaraladi. Kamyu Sizifga jamiyatda insonning azobsiz, zulmsiz, kishanlarsiz yashashini istovchi timsol sifatida yondashadi, ayniqsa, asosiy e'tiborni uning yolgʻizlik holatiga qaratadi. Kamyu oʻz essesida Sizifning xarsangni yumalatish bilan bogʻliq harakatlarini absurd deb biladi. Xurshid Doʻstmuhammadda esa Sizif mehnatda chiniqqan, qat'iyatli, har narsadan hikmat izlovchi, mulohazali, donishmand inson obraziga aylanadi.

Yunon mifologiyasida ma'budlar tomonidan la'natlangan va abadiy jazoga mahkum etilgan bu isyonkor odam, uning yolgʻizlik holatlari bugungi kunga kelib mana shu kabi turlicha talqin etilmoqda.

Kamyuning "Begona" asari qahramoni Mersoni Sizif obrazining zamonaviy talqini deyishimiz mumkin. Merso ham jamiyat qonuniyatlariga boʻysunmaydi, axloqiy me'yorlarni bir chetga surib, hamma koʻnikib ketgan odatdagi rasmiy hayotni, shuningdek, u dinni ham, Xudoni ham inkor qiladi. Ayni xarakteriga koʻra, u jamiyatga qoʻshila olmaydi, yolgʻizlanib qoladi. Natijada Mersoning qismati ham Sizif singari fojiaviy koʻrinish oladi. Shu oʻrinda professor U.Joʻraqulovning quyidagi soʻzlarini keltirishni lozim topdik: "*Haqiqatdan ham, odam hayotning shafqatsiz qonunlari tomonidan mahv etiladi. Bir soʻz bilan aytganda, insonning ideal dunyosi bilan real dunyo, orzulari bilan vujud ehtiyojlari kesishgan nuqtada fojia – Hazrati Inson fojiasi maydonga keladi. Shunda odam oldida ikki yoʻl – yo orzularini qurbon qilib jamiyat ichra baxtiyor turmush kechirish yoki orzulari bilan yolgʻiz qolib, shafqatsiz hayot sahnasida tragik obrazga aylanish qoladi...*" [Жўрақулов 2015: 309].

Mavjud ijtimoiy axloqiy me'yorlardan, bashariy qadriyatlardan-da, yuqorida turib, oʻz koʻngli, oʻz qalbi bilan yashaydigan Merso oʻzini aslo gunohkor, adashgan banda sifatida

ko‘rmaydi. Uning yuragida odamlarga, qadriyatlar, axloqiy me’yorlarga hurmat, mehr emas, balki o‘z idealidagi olamni qumsash, hamma narsa mumkin bo‘lgan dunyoni istash hissi yotadi. U o‘z xayolidagi olamni topolmagach, uning qalbida g‘azab va isyonga o‘rin ajratiladi. Kamyuning qahramoni Merso ertami-kechmi barcha odamlar o‘lib ketadigan hayotda mazmun ko‘rmaydi va uni absurd deb hisoblaydi. Mersoning tarixiy tipi sifatida Sizif ham o‘z qilmishlaridan sira afsusda emas, uning tabiatida ham o‘limga qarshi isyon, ma’budlarga qarshi g‘azab, yashashga bo‘lgan ishtiyoq ustun. “*...Sizif o‘zini aslo gunohkor deb bilmasdi, tavqi la’natga uchrashidan paydo bo‘ladigan qo‘rquvdan uning ko‘ngli to‘q, u o‘zini gunohkor deb hisoblamas, lekin o‘ziga ravo ko‘rilgan jazo – mahkumlik qismati oqibatida itdek, quturgan yovvoyi quzg‘undek manavi xarsangtosh ostida majaqlanib ketishdan qo‘rqardi.*” [Дўстмуҳаммад Х. 2016: 323].

Bu ikki qahramon ham o‘z ko‘ngil istaklari bilan yashashni istab, mavjud tartiblarni inkor etadi, ijtimoiy me’yorlarni buzadi, o‘z mayllari sababli ayanchli qismat qarshisida qoladi. Har ikki asarda ham ijtimoiy begonalashuv, shaxs yolg‘izligi, hayot uchun kurash, o‘lim motivlari ustuvorlik qiladi. “Begona” asarida o‘lim, absurd muhit, jamiyatdan begonalik, o‘rnatilgan tartiblar muallif tomonidan tuturuqsiz holatda ko‘rsatilishi tasvirlanadi. “Donishmand Sizif” romanida esa mag‘lub insonning g‘oliblik nashidasini surishi, insonning har qanday azob-uqubat, dard-alamni o‘z sabri, bardoshi va irodasi bilan yengishini ko‘rsatishga qaratilgan.

“Begona” asari matnida ko‘p bor uchraydigan “mohiyatan olganda...” birikmasi absurd qarashni ifodalash uchun qo‘llanilgan. Professor Uzoq Jo‘raqulov fikricha, “Uning “mohiyatan olganda...” iborasi bilan “aniq, ravshan gap yo‘q” jumlasi, aynan, absurd dunyoqarash zanjiri orqali bog‘lanadi. Merso butun faoliyati, fikri bilan ekzistensial falsafa g‘oyalarini aks ettiradi. Ya’ni nafaqat odamzodga, o‘ziga ham “narsa” (“вещ”) sifatida qaraydi” [Жўрақулов 2006:50].

Filologiya fanlari doktori, professor Islomjon Yoqubovning ta’kidicha, “*Odam har qancha haq bo‘lmasin, butun boshli jamiyat, undagi qonun va uni ijro etuvchi o‘nlab muassasalarga qarshi kurasha olmaydi. Bu jarayonda yolg‘izlanib qoladi va inkor etiladi*”. Demak, aytish mumkinki, Sizif ham, Merso ham o‘z idealida, o‘z dunyo qarashida, o‘z ichki “men”ida o‘ziga nisbatan haqligi, o‘zining mavjudligini isbotlashga urinishi, shuningdek, har ikkalasi ham jamiyatdan ayro holatda yolg‘izlikni boshidan kechirishi bilan

ahamiyatlidir. Sizif yolg‘izligi tarixiy ko‘rinishiga ega, u majburan jamiyatdan ajratilib, kimsasiz biyobonga yolg‘iz keltirib tashlangan. Mersodagi yolg‘izlik modernistik talqin kasb etadi. U odamlar orasida, jamiyat ichida, faqat o‘z “ideal”iga mos sherik topishda qiynaladi. Biroq har ikkisi ham o‘z doirasida muloqotga muhtoj: Mersoga o‘z olamidagi, uni tushunadigan suhbatdosh kerak bo‘lsa, Sizifga kim bo‘lishidan qat’i nazar ijtimoiy muloqot zarur. Bu ikki qahramonni bog‘lab turadigan asosiy xususiyat ham ayni shudir.

Insonda o‘zi xayol qilgan “ideal” olam tasavvurlari yashab turgan real hayotni xaos sifatida ko‘rishiga uni o‘zgalar tushunmasligi, atrofidagi odamlar bilan muloqotning yetishmasligi, asosan, sabab bo‘ladi. Natijada u muloqotda o‘zidan boshqa hech kimdan qoniqmaydi va o‘zini o‘z ichiga hibs etadi. Kimsasizlik vaziyatida bo‘lgan kishining suhbati monologik tarzda, ba’zan ong ostida kechadi.

Alber Kamyuning “Begona” asari qahramoni ham ekzistensializm falsafasidan o‘sib chiqqan, o‘z qobig‘i ichida, o‘zining chegaralangan aurasida kimsasiz yashaydigan obrazdir. Jinoyat sodir etishi oqibatida qamoqxonada bo‘lish, hukmni kutish jarayonidagi ichki ruhiy iztiroblari, xayoliy kechinmalari, o‘zi bilan o‘zi gaplashishi kabi kimsasizlik holatlari asarda shunday ifodanadi: “*...ayni shu payt bir necha oydan beri ilk ovozimni aniq eshitib qoldim. Ko‘p kunlardan beri qulog‘imga eshitilib yurgan tovush shu ekan: shundagina men yakka bo‘lmaga tushganimdan beri doim o‘zimga o‘zim gapirib yurganimni anglab qoldim*” [Камю. 2014: 82]. Kamyu o‘z qahramonining dardini, iztirobini, ichki kechinmalarini, ong osti qatlamlarida kechayotgan holatlarni ancha ishonarli tasvirlaydi.

“Donishmand Sizif” asari syujetida ham shunga muqoyasa bo‘ladigan epizodni uchraydi. Sizif toshni dumalatish kabi befoyda ish bilan shug‘ullanishdan o‘zini harchand mamnun tutmasin, u ham ijtimoiy muloqotga, munosabatga muhtojligi seziladi. Uning tosh bilan suhbatlashishi, toshga rahmi kelishi, unga insoniy munosabat bildirishi kabi holatlar asar matnida ko‘p o‘rinlarda kuzatiladi. Ammo Sizifning kimsasizligi Merso holatidan biroz farq qiladi. Zohiriy tomondan qaraydigan bo‘lsak, Merso ixtiyoriy “kimsasizlik” odami bo‘lsa, Sizif majburiy tarzda kimsasiz biyobonga keltirib tashlangan. Merso tabiatan odamlardan ajralish hissiga moyil bo‘lsa, Sizifda ehtirosli birlashish ishtiyoqi ustunlik qiladi. Merso odamlarga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan har qanday boshlang‘ich nuqtani barbod qiladi, Sizif qanday bo‘lmasin ijtimoiy yaqinlikni tutishga tayyor. Ammo ularni birlashtirib turadigan nuqta shuki

– jamiyatda qadrlanadigan, amal qilinadigan tartib-qoidalarga isyonkor munosabatda bo‘lishidir.

Biz Sizif va Merso obrazlarining o‘xshash jihatlariga to‘xtaldik, ammo bir muhim paradoksal holatga ham e’tibor qaratishimiz zurur. Xurshid Do‘stmuhammadning Sizifi Kamyuning badiiy konsepsiyasiga zid keladigan badiiy obrazdir. Mersodan farqli ravishda Sizif ma’nisizlikda mantiq, umidsizlikda umid, yolg‘izlikda halovat, iztirobda taskin topa oldi. Ana shu jihatlar Xurshid Do‘stmuhammad asarining milliyligi va o‘ziga xosligini ta’minlaydi.

Xulosa. Har ikki asarda ham ijtimoiy begonalashuv, shaxs yolg‘izligi, hayot uchun kurash, o‘lim motivlari ustuvorlik qiladi. “Begona” asarida o‘lim, absurd muhit, jamiyatdan begonalik, o‘rnatilgan tartiblar muallif tomonidan tutruqsiz deb tasvirlanadi. “Donishmand Sizif” romanida esa mag‘lub insonning g‘oliblik nashidasini surishi, insonning har qanday azob-uqubat, dard-alamni o‘z sabri, bardoshi va irodasi bilan yengishini ko‘rsatishga qaratilgan.

“Yolg‘izlik vaziyati”dagi odam, uning “kimsasizlik” ichra topgan xulosasi A.Kamyu “Begona”sida fojia, X.Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif”ida hikmatga olib keladi.

“Donishmand Sizif” romani sharqona ma’naviyat mezonlar asosida qaralganda, shunday paradoksal holat kuzatildi: X.Do‘stmuhammad “Donishmand Sizif” romani qahramoni Sizifni sharq kishisi obrazi sifatida yaratmoqchi bo‘ladi, biroq Sizifning ongu shuurida ma’budlar ma’budi, qudratli Zevsga nisbatan nafrat va isyon borligi, bu obrazni to‘la ma’noda sharqona tafakkur kontekstida tasavvur qilish imkonini bermaydi.

Adabiyotlar

Жўрақулов У. 2015. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронтоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.

Жўрақулов У. 2006. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан.

Ёқубов И. 2021. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: Nurafshon business.

Қозихўжа А. 2021. Гар ортуқ сўз дедим... / Тўпловчи, масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи: ф.ф.д., профессор У.Жўрақулов. – Тошкент: Nurafshon business.

Қўшжонов М. 2018. Танланган асарлар: Адабий-танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар. – Тошкент: Sharq.

Мели С. 2020. Глобал талқин поэтикаси. – Тошкент: Фан.

Асадов М. 2020. Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси/ “Сўз санъати сўзлиги”, 3 жилд, 2-сон. Тошкент.

Камю А. 2014. Бегона. Вабо. Ён дафтарчалар. Ҳикматлар / Сўзбоши

муаллифи ва масъул муҳаррир: профессор А.Саидов; Тўпловчи: Л.Исоқов. – Тошкент: Янги аср авлоди.
Дўстмуҳаммад Х. 2016. Донишманд Сизиф. – Тошкент: O‘zbekiston.
Тўраев Д. Сизиф ривояти ўзбек адиби талқинида // Жаҳон адабиёти. 2018, №6.
Раҳмонова Х. 2021. Хуршид Дўстмуҳаммад насри бадиияти / Адиб қисса ва ҳикоялари мисолида. – Тошкент: Poytaxt exclisive.

Two interpretations of the “motive of loneliness”: Camus and H. Dostmuhammad

Mahmadiyor Asadov[1]

Abstract

In the current era of advanced science and technology, where modernism and postmodernism are leading in literature, individual loneliness, which has become a global issue in the fields of psychology, philosophy, aesthetics, and literature, has literally risen to the level of a syndrome today. Based on the fact that the theme of loneliness is a global issue in literature at the moment, this article analyzes some interpretations of the “motive of loneliness”. The article analyzes the loneliness of the heroes of Albert Camus’s “The Stranger” and Khurshid Dostmuhammad’s “The Wise Sisyphus”, the historical-mythological, artistic-psychological factors of their loneliness, and the common and different aspects of the characters.

Key words: *loneliness, desolation, alienation, absurd situation, national spirit, character, society, morality.*

References

Zhŭrakulov U. 2015. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Zhanr. Khrontop. – Toshkent: Ġafur Ġulom nomidagi nashriyot-matbaa izhodiy uyi.
Zhŭrakulov U. 2006. Hududsiz zhilva. – Toshkent: Fan.
Yokubov I. 2021. Mustakillik davri ŭzbek romanlari poetikasi. – Toshkent: Nurafshanskiy biznes.
Kŭshzhonov M. 2018. Tanlangan asarlar: Adabiy-tankidiy makolalar, esselar, khotiralar. – Toshkent: Shark.
Meli S. 2020. Global talkin poetikasi. – Toshkent: Fan.
Asadov M. 2020. Alber Kamyu va Khurshid Dŭstmuhammad prozasida

[1] *Mahmadiyor T. Asadov* – Doctor of Philosopy (PhD), docent, Alisher Navo’i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-mail: asadov@navoiy-uni.uz
ORCID ID: 0000-0003-1550-1281
For citation: Asadov, M.T. 2024. “Two interpretations of the “motive of loneliness”: Camus and H. Dostmuhammad”. *Uzbekistan: Language and Culture* 3 (2): 8-15.

absurd kahramon muammosi/ «Sŭz san’ati sŭzligi», 3 zhild, 2-son. Toshkent.

Kamyu A. 2014. Begona. Vabo. Yon daftarchalar. Hikmatlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi.

Dŭstmuhammad KH. 2016. Donishmand Sizif. – Toshkent: Uzbekiston.

Tŭraev D. Sizif rivoyati ŭzbek adibi talkinida // Zhahon adabiyoti. 2018, №6.

Rahmonova KH. 2021. Khurshid Dŭstmuhammad nasri badiyati / Adib kissa va hikoyalari misolida. – Toshkent: Eksklyuziv Poytaxt.

ISSN 2181-922X 16—25

Hofiz She’roziy: hofiz va shoir simbiozining g‘azallarda aks etishi

Aidaxon Bumatova[1]

Abstrakt

O‘rta asrlar musulmon mumtoz adabiyoti, ayniqsa she’riyatida bu sohaning darg‘alari ko‘plab yetishib chiqdi. Ularning ko‘pi biz bugun Eronzamin deb ataydigan hududda tug‘ilgan, yashagan va o‘z g‘azallarini arab she’riyatidan kirib kelgan aruz vaznida ijod qilgan. Hofiz She’roziy ularning eng ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biridir. Bugungi kungacha shoir haqida to‘liq rasmiy ma’lumot beruvchi qo‘lyozmaning yetib kelmaganligi sababli Hofizning shaxsiy hayoti sir–asrorlar pardasiga cho‘lg‘angan bo‘lsa, uning ko‘pchilik g‘azallarining bitilish uslubi va ularga yashirilgan ma’nolar qatlamlarining mo‘lligi keng omma vakillari bo‘lgan g‘azalxonlar va Hofizshunos olimlar jamiyatida katta bahs va munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu bahslar shoirning shaxsi, hayotiy prinsiplari, e’tiqodi, dini, dunyoqarashi va umuman olganda uning odam sifatida atrofidagi olam bilan munosabatlariga oiddir. Mazkur maqoladaning asosiy e’tibori shoir ijodining kattagina qismini tashkil qilgan, hamda uni qanday talqin qilishdan kelib chiqqan holda shoirni “haqiqiy musulmon” yoki “kofir” deb atashga sabab bo‘ladigan baytlarning bitilishida qo‘llanilgan dunyoqarash va mantiqni tushunishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar*: she’riy tarjima, mumtoz she’riyat*, *Hofiz She’roziy, Quron, majoz, irfon, so‘fiy, voiz, mulla, zohid.*

Kirish

Fors mumtoz adabiyotining eng mashhur namoyondalaridan biri bo‘lgan Hofiz She’roziyning she’rlari shoirning hayotligidayoq keng omma e’tiboriga tushub ulgurgan. G‘arb eronshunoslari tomonidan saroy shoiri sifatida talqin qilinadigan Hofizning lirikasi nafaqat kibor doiralar, balki oddiy xalq orasida ham shu darajada mashhurlikka erishdiki, uning baytlari odamlar kundalik hayotida qo‘llaydigam aforizmlarga aylanib ketdi. G‘azallarida o‘ta yuqori mahorat bilan kuylangan oddiy xalq dardi bo‘lmish kunning dolzarb

[1] *Bumatova Aidaxon Merganovna* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti.
E-pochta: aidabumatova@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-6757-475X
Iqtibos uchun: Bumatova, A.M. 2024. “Hofiz She’roziy: hofiz va shoir simbiozining g‘azallarda aks etishi”. O‘zbekiston: til va madaniyati, 3 (2), 16-25.

va og'riqli masalalarini fosh etish orqali avomning muhabbatiga sazovor bo'lgan shoir, aynan shu sabablar tufayli aksariyat ikkiyuzlamachi va nopok ulamolarning nafratiga uchragan. O'ziga ixlos qo'yganlar tomonidan "avliyo zot", "lison ul–g'ayb" va "tarjimon ul–asror" deya ta'riflangan Hofizni, u kirdikorlarini fosh qilgan ulamolar "kofir"ga chiqazishgan. Bugungi kunda bu buyuk shoirning shaxsiy hayotiga tegishli juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan bo'lsada, Hofizning lirikasi mana necha asrlardirkim hamon o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Asosiy qism

Hofiz avval forsiyzabon xalqlar madaniyatiga, keyin esa madaniy aloqalar va tarjimachilikning rivojlanishi bilan butun dunyo falsafiy adabiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Uning Devoni saqlanmaydigan xonadonni shoirning ona yurtida topish mushkuldir. Shoirning baytlarida qo'llanilgan fikr va obrazlar asrlar davomida iboralar, idiomalar va maqollar sifatida kundalik tilga kirib keldi.

O'z salaflari bo'lgan, hamda asosan irfoniy mavzularda g'azallar bitgan Attor, Rumiy, Xoju Kirmoniy va oddiy xalqqa tushunarli ammo o'ta nafis tilda bitilgan asarlari bilan tanilgan Sa'diy Sheroziyning g'azal yozish an'analarini butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. Olimlarning ta'kidlashicha bugungi kun she'riyatida yakpora g'azal deb nom olgan lirika turi ham aynan Hofizning ijodida o'zining eng cho'qqisiga yetdi. Eng muhimi bu kabi o'zgarishlar ham shakl – xususan, baytlarning tartib bilan rivojlanib kulminatsiyaga yetishishi o'rniga, bir g'azal tarkibida turli mavzularning qo'llanilishi; ham ma'noga, masalan, har bir baytning birdan ortiq, va odatda, bir–biriga teskari bo'lgan ma'nolarni anglata olishi kabi holatlariga tegishli bo'lgan.

Bundan tashqari, qachonlardir sevgi-muhabbatning ifodasi sifatida adabiyot sahnasida paydo bo'lgan g'azal [Quronov va b. 2013, 393] asta sekinlik bilan nafaqat majoziy yoki irfoniy yorga bo'lgan muhabbat, balki ikkiyuzlamachi va riyokorlikka nisbatan nafrat va tanqidni aks ettiruvchi janrga aylanib bordi. Umuman olganda, xalqning kayfiyati va zamonning xususiyatlarini o'zida juda katta aniqlik bilan aks eta olish qobiliyati, adabiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Turli zamonlarda adabiyotning bu xususiyatidan kishilar siyosiy tuzum va ijtimoiy voqelikka o'zlarining irodalarni tadbiq etishda keng qo'llaganlar.

Hali jamiyat tomonidan to'la qabul qilinmagan ammo ma'lum doiralar tomonidan insonlar ongiga singdirilishi lozim deb qaralgan g'oyalarni yoyishda aynan shakliy jozibadorligi va musiqiyligi nuqtai

nazaridan she'riy janrlar eng maqbul adabiy shakl sifatida qaralgan. Shu tariqa, quvg'in ostiga olingan tasavvuf va uning unsurlari asta-sekinlik bilan she'riyatga kirib kelar ekan, tasavvuf she'riy tilining noaniqligi tasavvufiy jumlalarni, ko'pincha tanqidiy xarakterdagi fikrlarni ifodalashda faol foydalanilgan. Shoirlar o'z g'azallarida dinni niqob va oddiy aholini aldash vositasi sifatida qo'llashga uringan ulamolar, voizlar, qozilar va turli din nozirlarining kirdikorlarini ayovsiz tanqid qilishda g'azallardan keng foydalana boshlashgan.

Bu turdagi g'azallar asosan Fors diyorining bir muddat Islom dinida bo'lmagan Mo'g'ul xonlari qo'lida qolgan hududlarida paydo bo'ladi va rivojlanadi [internet sayti]. Masalan, diniy ulamolarning o'ta qattiq nazoratidan bir muddat tin olgan She'rozda, aql va vijdon, ko'r-ko'rona muridlikdan ustun ekanligi haqidagi g'oyalarni paydo bo'ladi. Hofiz va uning g'azallarini shoir yashab o'tgan davrdan alohida ravishda tahlil qilish yoki anglash noto'g'ri yondashuvdir.

Hofiz She'roziyning dunyoqarashi va e'tiqodlari bevosita Qur'on ta'sirida shakllangan. Hofiz Devonidagi "Rovnaq-e ahd-e šabāb-ast degar bostān rā" [Sheroziy 2015, 46] "Rāh-i bezan ke āh-i bar sāz-e ān tavān zad" [Sheroziy 2015, 158], "Biyā, bā mā mavarz in kinedāri" [Sheroziy 2015, 385], "Sālhā peyrovi-ye mazhab-e rendān kardam" [Sheroziy 2015, 287], "Kas nist ke oftāde-ye ān zolf-e dotā nist" [Sheroziy 2015, 93], "Z-ān yār-e delnavāz-am šokr-i-st bā šekāyat" [Sheroziy 2015, 113], "Dar nazarbāzi-ye mā bixabarān heyrān-and" [Sheroziy 2015, 189], "Yusof-e gomgašte bāz āyad be Kan'ān, qam maxor" [Sheroziy 2015, 237], "Dāram az zolf-e siyāh-aš gele candān ke mapors" [Sheroziy 2015, 250] misralari bilan boshlanuvchi g'azallarida "Qur'on" so'zini bevosita qo'llagan. U hofizi Qur'on sifatida, Islom dinining muqaddas kitobida berilgan ma'nolarni teran tushungani uchun ham, o'z davrining vijdonsiz diniy ulamolari kirdikorlarini ko'ra olganiga ishonchimiz komil.

Shoirning sohta dindorlik va shaklbozlik emas, mazmunning shaydosi bo'lganini uning aynan din va unga bog'liq mavzularda yozilgan g'azallarida bevosita ko'rish mumkin. Shoirning quyidagi misralari bilan boshlanadigan g'azallarida mazkur mavzu ko'tarilgan [Sheroziy 2015]: "Pišazin-at biš az in andiše-ye oššāq bud", "Tāle' agar madad dehad, dāman-aš āvaram be kaf", "Man ke az ātaš-e del con xom-e mey dar juš-am", "Mazra-e sabz-e falak didam-o dās-e mah-e now", "Eyš-am modām-ast az la'l-e delxāh", "Agarce bāde farahbaxš-o bād golbiz-ast", "Gol dar bar-o mey dar kaf-o ma'šuq be kām-ast", "Sufi az partov-e mey rāz-e nahāni dānest", "Sāqi ar bāde az in dast be jām andāzad", "Harke šod mahram-e del dar haram-e

yār bemānd", "Dāni ke cang-o ud ce taqrir mikonand" va "Man na ān rend-am ke tark-e šāhed-o sāqar konam" va hokazo.

Hofiz tomonidan riyokor zohid va so'fiylarning asl yuzini ochib tashlashgan qaratilgan baytlarini tahlil qilishdan oldin, bu munosabatning paydo bo'lishiga olib kelgan kontekst bilan tanishish lozim bo'ladi. Hofizning dunyoqarashini anglashda, xususan, Qur'on[1]ing xususiyati – "Baqara" surasining 2-oyati (2:2), nega nozil qilinganligi – "Isro" surasining 9- surasi (17:9), farishtalarning itoati va jahannam otashi– "At-Tahrim" surasining 6-oyati (66:6), olam va insonning yaratilishi – "Baqara" surasining 22-oyati (2:22), 29-, 30- va 35- oyatlari (2:29, 2:30, 2:35), hamda "A'rof" surasining 10-11- va 19-, 23-25- oyatlari (7:10, 7:11, 7:19, 7:23-25); Iblisning la'natlanishi – "Baqara" surasining 34-, 35- va 36-oyatlari (2:34, 2:35, 2:36), hamda "A'rof" surasining 12-13- va 20-22-oyatlari (7:12, 7:13, 7:20-22); to oxiratga qadar inson zotini zavol sari yetaklashga qilgan onti – "A'rof" surasining 14-19-oyatlari (7:14-19)da keltirilgan konseptlarni tushunish lozim bo'ladi.

Xususan, Allohning amriga takabburlik bilan bo'ysunmagani uchun la'natga uchragan Iblisning keyingi harakatlari A'rof surasining 16-17oyatida keltiriladi: "Iblis aytdiki: "(Ey Alloh,) meni adashgan ahvolga solganing uchun, men ham ular (ni nonko'r qilish) uchun Seni to'g'ri yo'linga o'tirib olaman" (7:16); Aynan shu oyatda, biz hayotimizda uchraydigan g'aroyib bir paradoksning sababini ko'rishimiz mumkin. Ko'p hollarda porsolikni da'vo qilgan dindorlarga duch kelamizki, ularning tashqi qiyofasi yoki jamiyatda da'vo qilib turgan martabasi o'zlari qiladigan amallariga, gapiradigan gaplariga va umuman olganda dindor odamda bo'lishi lozim bo'lgan fe'lga mutlaqo teskari bo'ladi. Ular dindor, namozxon, qur'onxon, xoji, soqoldor, xijobga o'rangan va tasbehni qo'lidan tushirmaydigan, Alloh ismlarini kun davomida zikr qilib yuradigan bo'lishi mumkin, ammo ular bilan muloqotga kirishilganda, ularning o'ta takabbur va o'zlarini boshqalardan ustun qo'yuvchi shaxs ekanini ko'rish mumkin. Ular yolg'on gapiradilar, g'iybat qiladilar, turli xil fisqu-fasod va kirdikorlarga bosh bo'ladilar, ammo har so'zlarining birida Alloh va uning kalomidan iqtibos keltiradilar. Kiygan kiyimlari va obrazlaridagi farishtalik ifori, atrofdagilarni osonlik bilan chuv

[1] Tadqiqot maqsadlarida Qur'onning quyidagi matnlaridan foydalanildi: "QUR'ONI KARIM: O'zbekcha izohli tarjima". Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur, Toshkent – 2001; "Al-Qur'on al-Karim ma'nolarining tarjimasi va sharhlar", 2-nashr. Tarjimon va mufassir Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Taroziy al-Madaniy (Oltinxon To'ra). "Fan" nashriyoti, Toshkent -2002.; "Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasi". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Hilol" nashriyot manbaasi. Toshkent – 2022, – B. 632.

tushirishga yordam beradi. Yuqoridagi oyatga koʻra, Iblis Allohga "... toʻgʻri yoʻlinga oʻtirib olaman" deb qasam ichmoqda. Allohning "toʻgʻri yoʻl"i, bizning nazarimizda moʻminning bosib oʻtishi kerak boʻlgan, rioya etishi lozim boʻlgan porsolik va dindorlik yoʻlidir. Shuning uchun ham, Iblis aynan din yoʻliga kirib, Allohga yaqin borish umididagilarning yoʻliga eng koʻp pistirma qoʻyar.

A'rofning 17-oyatida, Iblis inson zotiga aynan qanday qilib ta'sir qilishi ham keltiriladi: "Keyin oldilaridan, orqalaridan, oʻnglaridan va chaplaridan kelaveraman; koʻpchiligi vazifasini bajarmasligini koʻrasan." Islom teologiyasig koʻra, insonning vazifasi, oʻzining yaratgan tangrisiga shurk bajo qilishidir. Insonga hamma tomondan hujum qilaman, – deyishning oʻrniga, toʻrtta tomon alohida – old, orqa, oʻng va chap sifatida ta'kidlanib oʻtilmoqda. Metaforik ma'noda, oldni kelajakdan havotir va noumidlik deb, orqani oʻtmishda qilgan xatolarining ogʻir yuki yoki aksincha erishgan yutuqlaridan kibrlanish bilan doimiy zugʻm oʻtkazish, chapni insonning nafsi va hayvoniy sifatlari, oʻngni esa uning yaxshi tomonlari vositasida boshqarish deb tushunish mumkin. Hofizning dindorlarga qilgan tanqidlarini tushunishda, aynan, insonning yaxshiligi tomonidan Iblis hujumiga uchrashi masalasini tahlil qilish oʻrinli boʻladi. Avvlambor, dindor inson, tiliga, fe'liga, amaliga, turgan bitgan borligʻiga oʻta ehtiyotkor kishi sifatida jamiyatda alohida e'zozlanadi.

Mulla va zohidlarning oʻzlariga ergashgan va ergashmagan kishilarni doimiy ravishda doʻzax bilan qoʻrqitib, tarkidunyolikni da'vat qilib, bu hayot jazo va imtixon ekanini uqtirib, ularga ergashmaganlarning hammasi naqd jahannam otashiga oʻtin boʻlishini iddao qilish, Hofiz uchun xuddi yuqorida keltirilgan ishlarni amalga oshirish bilan baravar edi. Sababi, oʻsha mullalarning oʻzlarini isloh qilinishi lozim boʻlgan koʻpgina tomonlarini Hofiz va uning zamondoshlari ochiq-oydin koʻra bilgan.

Dinga da'vat qilish zarurligi Qur'onda keltirilgan – "At-Tahrim" surasining 6-oyati (66:6). Ammo bu ish zoʻrlik va terror orqali emas, muloyimlik va halimlik vositasida amalga oshiriladi. Kimgadir yaxshilik qilaman, ularning oʻzim bilan Jannatga olib qiraman degan yaxshi niyat bilan boʻlsada, haddan ziyod bosim va kuch ishlatib qilingan targʻibot, Allohga yaqinlashish emas, aksincha, dindan bezish va nafratlanishga olib keladi. Kishilarni majburlab, kishanlab, qoʻrqitib, kaltaklab, aldab, yoki sudrab Jannatga olib kirishga harakat qilish xidoyat emas, razolatga yetaklaydi.

Yuqoridagi suralar matnini tahlil qilgach quyidagi mantiqiy

xulosaga kelish mumkin:

1. Alloh farishtalarni insondan oldin yaratdi va ular doimiy ravishda Allohga ibodatda bo'ladilar. Ularning azmi qarorlari to'lig'icha Allohning irodasiga buysundirilgan, ular gunoh qila olmaydilar. Ularning Allohga bo'lgan muhabbatlari cheksiz, ammo bu ularning erkin irodasi emas. ular aynan shu ibodatni ado qilish uchun yaratilgan;

2. Alloh, avvalboshdan, Yerni Odam va uning avlodlari hayot kechiradigan maskan qilib yaratgandi va Insonni yaratishidan oldin, farishtalarga bu haqda aytgan, Iblis ham bu azmni eshitgan. Yer inson uchun maqbul bir maskan bo'lib, uning barcha ehtiyojlarini qondirish uchun mos qilib loyihalangan. Ko'pchilik insonlar tomonidan Yerdagi hayot quvg'in va jazo sifatida talqin etilib, noumidlik va pessimistik kayfiyatlari targ'ib etiladi. Yuqoridagi oyatlarda Yer inson uchun maxsus yaratilgani, unda shunchaki hayotini qiyinchilikda o'tkazish emas, aysh bilan ya'ni undagi inson uchun yaratilgan ne'matlardan lazzat olib yashashi maqsad qilingani ta'kidlanmoqda;

3. Oyatlar diqqat bilan o'qilganda, Iblis va Odam o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarni ko'rish mumkin: Ularning ikkalasi ham Alloh tomonidan juda yuqori martabali qilib yaratilgandi va ikkalasi ham pirovardida uning irodasiga bo'ysunmadi. Ularning farqli jihati ham bor va bu farq birining la'natlanishiga, boshqasining esa Yerdagi Halifa maqomini olishiga sabab bo'ldi. Iblis xato qilganida, aybni Allohning o'ziga ag'dardi, qilgan ishini takabburlik bilan Allohning qadari sabibidan amalga oshirilganini isbotlashga harakat qildi, o'zini Alloh tomonidan aldangan hisobladi va tavba qilmadi. Odam va uning jufti esa, qilgan xatolari uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olishdi va tavba qilishdi. Ular ogohlantirilgan esalarda xato qildilar, Iblisdan farqli ravishda, aybni Allohdan yoki Iblisdan emas, o'zlaridan o'tganini tan oldilar.

Hofizning razolatga botgan ulamolar va amaldorlar haqidagi baytlariga e'tibor bilan yondashilasa, bu kabi kishilar ham aynan shu xatoni qaytarayotganliklarini tushunish qiyin emas. Ular o'zlarini porso va haqgo'y deb bilishadi, atrofdagilarni ham o'zlariga ergashtirishga, ularga doimiy ravishda amri–ma'ruf va nahiy–munkar qilishga intilishadi. Hofiz esa bu "farishtasifat" insonlarga qarata shunday deydi:

واعظان کاین جلوه در محراب و منبر میکنند	Vāezān k-in jelve dar mehrāb-o manbar mikonand
چون به خلوت میروند آن کار دیگر میکنند	Con be xalvat miravand, ān kār-e digar mikonand

مشکلی دارم ز دانشمند مجلس بازپرس	Moškel-i dāram, ze dānešmand-e majles bāz pors
توبه فرمایان چرا خود توبه کمتر میکنند[DIVĀN-E HĀFEZ 2015, 199]	Towbefarmāyān cerā xod towbe kamtar mikonand

So‘zma-so‘z tarjimasi:

Mehrobu-minbarlarda ulug‘vor turadigan voizlar
Xilvatga chiqishlari bilan mutlaqo teskari ishlarni qiladilar
Mendada bir qiyin savol borki, majlisdagi donishmandlardan yana bir so‘rachi,
Tovba qilishga buyuruvchilarning o‘zlari nega juda kam tovba qiladilar.

Ya’ni, shoir vazxonligu amri-marufga qarshi emas, ammo bu ishlar bilan shug‘ullanuvchi kimsalarning asl qiyofasi ularning tashqi porsoligiga, yoki, sur’atlari va siyratlarining butunlay qarama-qarshi ekani, o‘zlarining aytganlariga avvalambor o‘zlari amal qilmasliklari, ammo atrofdagilarni “farishtasifat”lari bilan laqma qilishlariga qarshi. Bu fikr ham aslida Qur’ondagi “Baqara” surasining 44-oyatida keltirilgan: “Oyo, buyurursizlarmi odamlarni yaxshi ishga va unutursizlarmi o‘zlaringni? Holbuki, sizlar tilovat qilursizlar Kitobni, na uchun tushunmassizlar. Boshqani yaxshi ishg‘a buyurib, o‘zi qilmaslik nomunosib bir fe’ldur” (2:44).”

Yoki quyidagi baytda nazar tashlansa, unda shaharning so‘fiysi, yani halol yeb, halol yashashga ahd qilgan boshqalarni ham shunga da’vat qilishdan charchamaydigan insonning, hayvoniy nafsining asl basharasi ochib berilmoqda:

صوفی شهر بین که چون لقمه شبهه میخورد	Sufi-ye šahr bin ke con lo-qme-ye šobhe mixorad
پاردمش دراز باد آن حیوان خوش علف[DIVĀN-E HĀFEZ 2015, 296]	Pārdom-aš derāz bād ān ha-yavān-e xošalaf

So‘zma-so‘z tarjimasi:

Shaharning so‘fiysiga qarang, shubhali luqma yutmoqda,
Pardomi uzun u ishtaxasi karnay u hayvonning.

Baytning birinchi misrasida keltirilgan fikr tusunarli bo‘lgani holda, ikkinchi misraga biroz izoh berish zarur. “Pārdom” so‘zi for tilida eshshakning qorin, bel va quyqug‘idan o‘tkazib bog‘lanadigan arqon – belbog‘ning nomi bo‘lib, egarjabduqning tushib ketmasligi va qimirlamay turishi uchun taqiladi. Misradagi “hayavān-e xošalaf”ning lug‘aviy ma’nosi “ishtaxasi juda yaxshi bo‘lgan, tinimsiz

kavshanadigan o'txo'r hayvon"dir. Hayvon qancha ko'p yesa, uning qorni shunchalik kattarib ketaveradi va albatta, "pārdom"ning uzunrog'iga almashtirilishiga olib keladi. Hofizning ta'biricha, nafsiga urush ochgan so'fiyning belidagi belbog'ning bu darajada kattarib ketishiga sabab, so'fiy da'vat etayotgan "nafsni kesish" natijasida bo'lishi mumkin emas. Demak, ommaga qilinayotgan amri ma'rufga, uning o'zi xilvatda amal qilmayapdi.

Maqola hajmining chegaralanganligini hisobga olib, bu kabi misollarning ko'pchiligini be yerda keltirishning imkoni yo'q. Ammo, keltirilgan fikrlardan ham Hofizning ulamolarning riyokorligiga ochgan beayov "urushi"ning sabablarini anglashga imkon beradi degan umiddamiz.

Xulosa

Hofiz g'azallariga yo'g'rilgan ma'nolarni tushunishda Qur'on matnini kontekst sifatida qo'llash va ulardan chiqarilgan mantiqiy xulosalarni yodda tutish, uning g'azallaridagi mantiq va metaforik bog'lanishlarni to'g'ri anglashga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan oyatlarga ko'ra, yerdagi hayotning berilishidan maqsad, insonga shukr qilishni o'rgatishdir. Yerdagi ne'matlar insonning yaxshi yashashi uchun yaratilgandir. Shuning uchun ham Hofiz tarkidunyolikda, narigi dunyoda jannatga kiraman deb – o'zini umr bo'yi ruhan va jismonan azoblab yashashda, yoki aksincha jamiyatda erishgan amallari vositasida sarkashlik qilish va o'zi kabi yashmaydiganlarga past nazar bilan qarovchi "porso"likni tan olmagan. Zero, Alloh sajda qiling deganida sajda qilmaslikning sababi takabburlik, o'zini boshqaga nisbatan ustun qo'yish edi.

Uning baytlaridagi diniy ulamolar va ularning ma'lum bir ko'rinishdagi hayot tarzining ochiqdan–ochiq qoralashi yoki tanqidini aslo shoir dinga qarshi bo'lgan, ahloqsizlik va beadablikka da'vat qiluvchi matnlar yozgan deb tushunish mumkin emas. Aksincha, o'zi hofizi Qur'on bo'lgan shoir, Islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'onni bevosita qiroat qilgan inson sifatida, unda keltirilgan fikrlarning ba'zibir riyokor ulamo yoki siyosiy iqtidor egalari tomonidan oddiy xalqni laqillatish va o'z yo'rig'iga yurgizishga urinishlarini tanqid qiladi. Shu nuqtai nazardan, shoirning mazkur mavzularda yozilgan g'azallarining izohlarini tayyorlashda yoki tarjima qilishda yuqoridagi fikrlarni yodda tutish muhimdir.

Adabiyotlar

Ahtaroni adab. Hofizi Sheroziy: Devon. Nashriyoti "Adib", Dushanbe – 2015. –B 480.

"Al-Qur'on al-Karim ma'nolarining tarjimasi va sharhlar", 2-nashr. Tarjimon

va mufassir Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Taroziy al-Madaniy (Oltinxon To'ra). "Fan" nashriyoti, Toshkent -2002.
DIVĀN-E HĀFEZ (QAZALHĀ). Ebi Habibi, Hamid Farroukh & Shahab Bakshaie, 2015
"QUR'ONI KARIM: O'zbekcha izohli tarjima". Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur, Toshkent – 2001
"Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasi". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Hilol" nashriyot manbaasi. Toshkent – 2022, – B. 632.
Quronov D, Mamajonov Z., Sheraliyeva M., "Adabiyotshunoslik lug'ati". – "Akademnashr", Toshkent – 2013. –B 408.
Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta'lim-media nashriyoti, 2019. –B 184.
https://iranicaonline.org/articles/il-khanids-index

Hafez-e Shirazi: the reflection of the symbiosis of a hafiz and poet in ghazals

Aidakhon Bumatova[1]

Abstract

Medieval Muslim classical literature, particularly poetry, produced numerous prominent figures in this field. Many of them were born, lived, and created their works mostly in the Aruz meter, which was inherited from the Arabic poetry, in the region we now call Iran. Among these figures, Hafiz of Shiraz stands out as one of the most notable. Due to the absence of a complete official manuscript detailing the poet's life, Hafiz's personal life remains shrouded in mystery. However, the intricate style of his many ghazals and the rich layers of hidden meanings within them have sparked significant debates and discussions among both general enthusiasts and scholars of Hafiz's works. These debates concern the poet's personality, life principles, beliefs, religion, worldview, and overall relationship with the world around him. The primary focus of this article is to understand the worldview and logic employed in the composition of certain verses that form a substantial part of Hafiz's work as depending on their interpretation, these verses have led to the poet being labeled either a "true Muslim" or a "heretic".

Keywords: *poetic translation, classical poetry, Hafez Shirazi, Qur'an,*

[1] *Aidakhon M. Bumatova* – DSc researcher, Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
E-mail:aidabumatova@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-6757-475X
For citation: Bumatova A.M., 2024. Hafez-e Shirazi: the reflection of the symbiosis of a hafiz and poet in ghazals. *Uzbekistan: language and culture*, 3 (2), 16-25.

metaphor, mysticism, gnosis, Sufi, preacher, Muslim priest, ascetic.

References

Ahtaroni adab. Hofizi Sheroziy: Devon. Nashriyoti "Adib", Dushanbe – 2015. –B 480.

"Al-Qur'on al-Karim ma'nolarining tarjimasi va sharhlar", 2-nashr. Tarjimon va mufassir Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Taroziy al-Madaniy (Oltinxon To'ra). "Fan" nashriyoti, Toshkent -2002.

DIVĀN-E HĀFEZ (QAZALHĀ). Ebi Habibi, Hamid Farroukh & Shahab Bakshaie, 2015

"QUR'ONI KARIM: O'zbekcha izohli tarjima". Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur, Toshkent – 2001

"Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasi". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Hilol" nashriyot manbaasi. Toshkent – 2022, – B. 632.

Quronov D, Mamajonov Z., Sheralieva M., "Adabiyotshunoslik lug'ati". – "Akademnashr", Toshkent – 2013. –B 408.

Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta'lim-media nashriyoti, 2019. –B 184.

https://iranicaonline.org/articles/il-khanids-index

ISSN 2181-922X 26—34

Ritsarlik romanlarining uch tipi va sharq adabiyoti

Gulchehra Qo‘yliyeva[1]

Abstrakt

Ushbu maqolada tarixiy yilnomalar va cherkov adabiyoti an’analari kesishgan nuqtada paydo bo‘lgan ritsarlik romanlarining tematik farqlanuvchi: antik, bretoncha va vizantiya tiplarining syujet manbaalari, tadriji va taraqqiyot tamoyillari atroflicha o‘rganilgan. Sharq adabiyotining go‘zal namunalari bilan qiyosiy-tipologik aspektda qiyoslanib, o‘zaro mushtarak hamda o‘ziga xos qirralari aniqlangan.

Kalit so‘zlar. *janr, tarixiy yilnoma, cherkov adabiyoti, qahramonlik eposi, adabiy qahramon, an’ana, ritsarlik romanlari, Sharq adabiyoti, motiv, pafos, mushtaraklik, o‘ziga xoslik.*

Kirish

Ritsarlik romani – o‘rta asrlardayoq individuallasha boshlagan badiiy ijod mahsuli, Angliya, Germaniya va Fransiya epik she’riyatining eng go‘zal janrlaridan biri. Bu tipdagi asarlar ingliz-norman yilnomalarida qo‘llanilgan sakkiz bo‘g‘inli qofiyali she’r shaklida bitildi. Ritsarlik romanida insoniyatning baxtli hayot haqidagi orzulari, kuchli va olijanob qahramonlar orqali yovuzlikni mahv etish istagi o‘z aksini topdi. Binobarin, roman ijtimoiy-axloqiy muamolarni ko‘tarib chiqdi. Bu janr orqali adabiyot o‘zining ijtimoiy funksiyasini namoyon etdi. Ko‘pincha, xalq ertaklariga xos qahramonlik va muhabbat motivlari, romantik pafos yonma-yon tasvirlandi. Tarixiy yilnomalar va cherkov adabiyoti an’analari kesishgan nuqtada paydo bo‘lgan ritsarlik romanlari antik adabiyot va o‘sha davrda lotin tilida bitilgan tarixiy manbaalar, fransuz qahramonlik eposi, xor qo‘shiqlariga u qadar o‘xshamas, fransuz milliy tarixiy o‘tmishiga murojaat etmasligi bilan ulardan farqlanardi. Chunki qahramonlik eposlarida xalqning ideali yo‘lida jamoa manfaatlarini ko‘zlovchi qahramonlar harakati ustuvorlik qiladi. Ritsarlik romanida alohida qahramon (individ)ning

[1] *Gulchehra Qo‘yliyeva* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Guliston davlat universiteti (GulDU) doktoranti.
E-pochta: kuylieva.g@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-4359-8503
Iqtibos uchun: Qo‘yliyeva, G. 2024. “Ritsarlik romanlarining uch tipi va sharq adabiyoti”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3 (2): 26-34.

sarguzashtlari bayon qilinadi. Bu o‘rindagi asosiy tafovut romanda estetik qadriyatlarning qamralish ufqlari, shuningdek janrning milliy-ma’naviy asoslari hamda odamu olamni idrok etish ko‘lamida kuzatiladi.

Ritsarlik romanlarining syujet manbaalari, tadrijiy taraqqiyoti va taraqqiyot tamoyillarini kuzatar ekanmiz, ularning tematikasi bo‘yicha quyidagi uch tipi bir-biridan farqlanishi guvohi bo‘lamiz:

1. **“Antik” romanlar turkumi:** “Iskandar Maqduniy haqida roman” (“Roman ob Aleksandre”) tipidagi asarlarda insonning murakkab qismati va ulug‘vor shaxsiyati yuksak pafoslarda ifodalandi. Fransuz adibi Alberik qalamiga mansub dastlabki ritsarlik romani “Iskandar haqida roman” (“Roman ob Aleksandre”) asari sarkarda Iskandar Zulqarnayn bilan bog‘liq grek “tarixi”ni O‘rta asrlarga moslashtirishga intilish samarasi o‘laroq XII asrning 30-yillarida yuzaga keldi. Afsuski, ushbu versiyadan bizgacha 105 ta she’riy parchagina saqlanib qolgan. Uni qayta tiklashga urinishlar bo‘lgan. Ammo fransuz va nemis adiblarining bunday intilishlari muayyan ijobiy natijalar bermagan.

Adib romanning uchdan bir qismi tematik mazmunini o‘sha davr axloqiy-didaktikasi ustuvorligi negizida bitgan. Darhaqiqat, romanda shahzoda Iskandar bolaligidanoq aksariyat tillarni chuqur o‘rganadi. Harb san’ati: qilichbozlik, nayzabozlik, ot chopish; adabiyot va san’at, xususan musiqa ilmi va turfa cholg‘u asboblarini chalish sirlari bilan tanishadi. Qonunshunoslik asrorrini o‘rganadi. Yunonlar saroyidagi ta’lim jarayonlari Sharq axloqiy-ta’lim tizimiga muvofiqligi bilan diqqatimizni tortadi. Ammo asarning ayrim anonim versiyalarida Iskandarga saroy oliyjanob xonimlari bilan sevgi-muhabbat bobida muloqot qilish sirlari ham o‘rgatiladi. Romanda shahzoda kiyim-kechaklari va dubulg‘asi, shuningdek sirli-sehrli tabiat manzaralari ham batafsil tasvirlangan [Бертельс 1948, 188].

Iskandar haqida yirik epik asarlarning yuzaga kelishi bejiz emasdi. Aleksandr Makedonskiyning g‘ayrioddiy yurishlari bilan tanishgan Sharqu G‘arb yozuvchiyu shoirlari poetik tafakkurida qadim-qadimdayoq bu mavzuni yoritishga qiziqish uyg‘ongan. Shu bois, “Iskandarnoma”lar bitish an’anasi XVIII asrga qadar davom etib, janrning turfa namunalari yuzaga keldi.

Sharqda bu mavzu badiiy talqinlari G‘arbga nisbatan birqadar o‘zgacha rang va ohang kasb etdi. Iskandar Zulqarnayn haqidagi “roman”larda bir jihatdan, ritsarlik romanlariga xos mardlik va jasorat ko‘rsatish xususyatlari ijodiy o‘zlashtirildi. Bu hol dostonlar syujet voqeligida qahramon yurishlari ba’zan afsonaviy manzil-

makonlarda kechishi, “ya’juj ma’juj”lar kabi g‘ayritabiiy xalqlar hamda yirtqich maxluqlar bilan kurash jarayonlari aks etishida namoyon bo‘ldi. Ikkinchi jihat shundaki, Sharqda Arastu va Iskandar munosabatlariga katta e’tibor qaratildi.

Zotan, qadim yunon donishmandi – Arastu Aleksandr Makedonskiyning murabbiysi edi. Shogird Iskandar o‘z ruhini yuksaltirgan ustozini hatto otasi Sulton Faylaqus (Filipp) dan ham a’lo ko‘rar: “buyuk donishmand va avliyo” sifatida e’zozlardi. Arastuning “Metodika”, “Metafizika”, “Jon haqida”, “Poetika”, “Osmon haqida”, “Fizika”, “Ritorika”, “Sevgi haqida”, “Uyqu va bedorlik haqida” kabi o‘nlab asarlari Sharq mamlakatlarida ma’lum va g‘oyat mashhur edi. Ularda siyosat, davlat, harb masalalari bilan bir qatorda, ontologik, gnoseologik va axloqiy-ta’limiy muammolarning ham zukkolik bilan topilgan yechimlari mujassam edi. Shuning uchun musulmon falsafasida bu alloma shaxsiyati va merosiga bo‘lgan qiziqish nihoyatda kuchli edi. Bizningcha, yuqorida ta’kidlangan asoslarga ko‘ra, Iskandar va Arastu obrazlari ko‘pincha fabulada yonma-yon tasvirlangan.

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, ota-bobolarimiz tarixiy Iskandardan ko‘ra, “Qur’oni karim”ning “Iskandar Zulqarnayn” [Қуръони Карим. “Қаҳф” сураси. 83-98-оятлар] qissasida keluvchi qahramon obrazini turli rakurslardan ifoda etishga, zamon va makon bilan bog‘lashga intilishgan [Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири]. “Qur’oni Karim”da qissasi keltirilgan Iskandar Zulqarnayn bilan makedoniyalik Aleksandr Makedonskiyning yashagan makoni va zamoni, e’tiqodi hamda intilishlari o‘zaro muvofiq kelmaydi. Sharq allomalari Islom e’tiqodidagi Iskandar Zulqarnayn haqida fikr yuritishgan. Shu bois, zulmkor va bosqinchi tarixiy shaxs – Aleksandr Makedonskiy qilmishlari mutafakkir allomalarimiz uchun muayyan ahamiyatga molik emasdi. Ayni paytda, Sharqda yaratilgan adabiy qahramon Iskandar obrazining badiiy talqinlarida xalq donoligi, didaktik adabiyot an’analari, afsona va ertaklarga xos ko‘plab xususiyatlar kuzatilishidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Xullas, sosoniy hukmdorlari davridan e’tiboran Iskandar ideal shoh sifatida tasvirlana boshladi. Binobarin, rus sharqshunos olimi Ye.E.Bertelsning: “Sharq xalqlari Aleksandr yurishlarining asl mohiyatini anglab yetmagan edi” [Бертельс 1948, 3], degan e’tirozi o‘rinli emas.

Hazrat Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazi talqinlarini san’at darajasiga ko‘tardi. Shoir dostonda o‘zining yuksak gumanistik g‘oyalarini aks ettirdi. Ikkinchi jihatdan

qaralsa, mutasavvif shoir Iskandar obrazida o‘z davrining siyosiy donishmandligini ham umumlashtirdi. Shuning uchun, bu asarni Makedoniya tarixchilari emas, balki Sharq xalqlari olimlari tarixiy-adabiy jihatdan o‘rganib kelishmoqda. Yevropa tadqiqotchilari Sharq “Iskandarnoma”larida yunon an’analari unsurlari qaydarajada yoki qaytarzda saqlanib qolgan yoxud buzilgani bilan ko‘proq qiziqishdi. Afsuski, A.N.Veselovskiy va Ye.E.Bertels XX asrning 40-50- yillarda amalga oshirgan ayrim tadqiqotlarni istisno qilganda [Веселовский, Бертельс] Yevropa sharqshunoslari Sharq mutafakkirlari adabiy-estetik konsepsiyasi mehvarida nimalar turishi, obrazlar talqinida qanday o‘zgarishlar namoyon bo‘lishi bilan tuzukroq qiziqishmadi.

O‘n ikkita roman bitishni ko‘zlagan va to‘la yakunlashga muyassar bo‘lmagan Publiy Vergiliy Maron “Eniada” asarida tarixiy voqelik va yunon mifologiyasining sarguzasht syujetlariga asoslandi. “Eniada” (XII asr) romanida mifologik unsurlar, bashoratlar, dengiz sayohatlari va yer osti dunyosi bilan bog‘liq sarguzashtlar tasvirnlanadi. Sevgi-muhabbat, sadoqat va xiyonat masalalari qalamga olinadi. Qahramonlar afsonaviy sehrli qurollardan foydalanishadi. Yakama-yakka jang qilishadi. Safar va sinov motivlari orqali o‘zligini anglashadi. Romanda qahramonlarning maqsadga intilishi, o‘z yo‘lida uchragan barcha to‘siqlarni qat’iyat bilan yengib o‘tishi ko‘rsatiladi. Anglashiladiki, “Eniada”ning asosiy syujet modeli “Illiada” va “Odesseya” (Gomer) epik dostonlariga juda yaqin turadi. Adib tarixiy yilnomalardan barakali foydalandi. Sofokl va Yevripid tragediyalari, Terensiy Varron tarixiy asarlari va boshqa ko‘plab tarixiy-adabiy va badiiy adabiyot namunalari yutuqlarini ijodiy o‘zlashtirdi.

Eney ma’budlarning hukmiga amal qilishi, ko‘zlagan maqsadi yo‘lida sobitligi, ota-onasiga muhabbati (keksa otasni olov ichida qolgan Troyadan yelkasida olib chiqishi nazarda tutilmoqda. G.Q.), do‘stlariga sodiqligi, kelajak nasllar oldida burchdorligi va ayni paytda, jahli tezligi, favqulodda jasur va olijanobligi, hatto dushmanlariga ham muruvvat ko‘rsata olishi kabi barcha fazilatu nuqsonlari bilan yangi tipdagi individual qahramon sifatida namoyon bo‘ladi.

Eney tarix o‘z yelkasiga ulug‘ saltanat qurish missiyasini yuklaganini yaxshi anglaydi va shu buyuk maqsaddan zinhor og‘ishmaydi. Jumladan: Malika Didoga bo‘lgan ko‘ngil istaklaridan voz kechadi. Afsuski, shaxsiy baxtsizligi yukini ko‘tarolmay, o‘z joniga qasd qilgan qirolicha Dido bunday jasoratga qodir emas.

Ta’kidlash o‘rinliki, rimliklar o‘z shajarasini buyuk yo‘lboshchi,

Rim davlatining afsonaviy asoschisi bo'lmish adabiy qahramon – Eney va uning hamrohlariga bog'lashga intilishadi. Bunday hol eronliklarning Iskandarga munosabati yoxud Qo'qon xonlarining "Oltin beshik rivoyati" ga ishonishi misolida ham kuzatiladi

Benua de Sent-Mor o'zining o'ttiz ming misradan ortiq "Troya haqida roman" ("Roman o Troe") turkumida Gomer eposlari, shuningdek Ovidiyning "Evrilish", Daretta Frigiyskiyning "Troyaning vayron qilinish tarixi", Diktis Kritskiyning "Troya urushi xronikasi" asarlariga tayanib ish ko'rdi. Yozuuvchi yunonliklar emas, balki troyaliklar manfaatini himoya qildi. U tarixiy voqelikni batafsil tasvirladi. An'anaviy sarguzashtlilik badiiy ifoda yo'sinini saqlab qoldi. Ammo, o'zining kuchli badiiy fantaziyasi va tarixiy voqelik, xususan jang tasvirlarini qayta idrok etish salohiyati, tarixiy va geografik ma'lumotlarni uyg'unlashtira olishi qobiliyati bilan ilmiy-adabiy jamoatchilik va keng kitobxonlar nazariga tushdi. Benua uch ayol muhabbati (Breseida, Medeya, Poliksena) tarixini tasvirladi. Individual xarakterlar yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ammo u sevgi-muhabbat masalasini insoniyatga tashvish tug'diruvchi, xiyonat va baxtsizlikka yetaklovchi nozik tuyg'u sifatida izohladi.

2. **Bretoncha (arturcha) sjetga asoslangan turkum:**

Bu turkumga kiruvchi romanlar kelt afsona va ertaklari, she'riy romanlari syujeti hamda anonim nasr namunalariga asoslangan. Masalan: "Kreten de Trua", "Lanselot yoki aravakash ritsar", "Ivey yoki sher va ritsar", "Perseval yoki Grale haqida qissa", "Parsifal", "Tristan va Izolda", "Ser Gavayn va Yashil ritsar", "Arturning o'limi" kabi asarlar ingliz qiroli Artur va uning doira stoli atrofida yig'iluvchi afsonaviy ritsarlar hayotini aks ettirdi [Михайлов 2006]. Jumladan "Tristan va Izolda" [Михайлов 1976] romanida kirol Markning jiyani Tristan saroy muhitida ritsarlik an'analari ruhida kamol topadi. Natijada, uning qalbida ezilganlar va xo'rlanganlarni izlash, ularga ko'makdosh bo'lish tuyg'ulari shakllanadi. Tabiiyki, bu hol romanga mard va jasur ritsarning safarlari, turli qahramonliklar ko'rsatishi va yirtqich hayvonlarga qarshi kurashi kabi an'anaviy motivlarni olib kiradi. Ittifoqo, uning yo'li Irlandiya bo'ylab o'tadi va u tengsiz go'zallarni uchratadi. Tristan malika Izoldani o'z amakisi kirol Markka tuhfa qilishi lozim edi. Biroq voqelar oqimi Tristan va irland malikasi Izoldaning eleksir ichishlari ta'sirida yuzaga kelgan ishq va pinhona muhabbat mojarolari, zinokorlik hamda uning fojiali oqibatlari bilan bog'liq tafsilotlar tasviri sari og'ib ketadi.

Real hayotda ritsarlik an'analarining mavqei tushib ketgan bo'lsa-da, bu tipdagi romanlar Yevropada XVII asr boshlarigacha

qiziqib o‘qilardi. Chunki o‘z najotkorini kutayotgan sirli, sehrli buloqlar, parilar, devlar, iztirob iskanjasida o‘rtanayotgan sohibjamol qizlar, go‘zal malikalar qismati o‘quvchi hayollarini mo‘jizalar olami sari yetaklardi. Binobarin, ular estetik zavq ulashardi. Demak, real hayotni chuqur o‘rgangan ispan adibi Migel de Servantes “Don Kixot” asari orqali nafaqat eskirgan ritsarlik an’analari va bu ruhda bitilgan romanlar, balki o‘z yurtdoshlarining real hayotdan ortda qolayotgan qiziqishlarini ham parodiya qilgan edi.

3. **Vizantiya romanlari turkumi:** Bu turkumga kiruvchi asarlar XII-XV asrlarga mansubdir [Петровский 2001, 125]. Ular dastlab yunon romanlariga taqlid ko‘rinishida, so‘ngra esa Yevropa uslubidagi ritsarlik romanlarining mahalliy varianti sifatida jonli xalq tilida vujudga kelgan. Masalan: “Isminiya va Ismina sevgisi”, “Tirlik Appaloniy haqida qissa”, “Kallimax va Xrisorriya”, “Axilleida” singari Vizantiya romanlarining asosiy syujet chizig‘i davomida ikki yoshning sevgisi, hijron motivlari, kemalarga qaroqchilar hujumi, tutqunlik azoblari va nihoyat, qayta diydorlashish yo‘lidagi dahshatli to‘siqlardan iborat sinovlarda toblanadi. Odatda, bunday romanlar ikki yoshning baxt-saodatga erishuvi bilan yakun topadi. Ko‘pincha, ular oldidagi to‘siqlar Sharq ertaklariga juda yaqin quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

1) sevgilisi yashaydigan qal’ani egallagan yirtqich maxluqni mahv etish;

2) yovuz ruhlar ko‘magidan foydalanuvchi keksa jodugarning hiyla-nayranglariga aldanmaslik. Xususan: uning zaharlangan olmasidan omon qilish yoki hayot bag‘ishlovchi olma orqali qayta tirilish.

Xulosa

Tarixiy yilnomalar va cherkov adabiyoti an’analari kesishgan nuqtada paydo bo‘lgan ritsarlik romanlarining tematik farqlanuvchi uch tipi: (antik, bretoncha va vizantiya) da alohida odamning sarguzashtlari bayon qilindi. Shuning uchun nainki milliy tarixiy manbalar, balki xalqning jamoaviy idealini ifodalovchi antik adabiyot va qahramonlik eposlari hamda xor qo‘shiqlariga ergashilmadi. Shunga qaramasdan, ritsarlik romanlari quyidagi jihatlari bilan Sharq adabiyotiga yaqin turadi:

1. Ijtimoiy-axloqiy muamolar ko‘tarilgani, ya’ni Sharq axloqiy-ta’lim tizimiga muvofiq keluvchi axloqiy-didaktika ustuvorligi;

2. “Tarix”ni zamonaga moslashtirishga intilish kuzatilishi;

3. Tarixiy voqelik va mifologik syujet, turli bashoratlar, shuningdek dengiz sayohatlari va yer osti dunyosi bilan bog‘liq

sarguzashtlaru xalq ertaklariga xos qahramonlik va muhabbat motivlarining yonma-yon kelishi;

4. Sevgi-muhabbat, sadoqat va xiyonat masalalarining qalamga olinishi;

5. Qahramonlar o‘z raqiblari bilan yakama-yakka jang qilishi va afsonaviy sehrli qurollardan foydalanishi;

6. Bosh qahramon an’anaviy epik dostonlar modeliga xos o‘z zimmasidagi tarixiy missiyani bajarishi:

– *markazlashgan saltanat qurish;*

– *tarqoq mamlakatni qayta birlashtirish;*

– *ezilganlar va xo‘rlanganlarni izlash va ularga ko‘makdosh bo‘lish;*

– *begona mamlakatni ularga dahshat solayotgan maxluqdan xalos etish;*

– *o‘zligini anglash* va b.

7. Insoniyatning baxtli hayot haqidagi orzu-umidlari – kuchli va olijanob qahramonlar orqali yovuzlikni mahv etish istagi o‘z aksini topgani;

8. Qahramonning safar, sinov, yo‘l va qaytish motivlari negizida barcha to‘siqlarni qat’iyat bilan yengib o‘tishi;

9. Insonning murakkab qismati va ulug‘vor shaxsiyati ifodasida romantik pafosning ustuvorlik qilishi.

Adabiyotlar

Алексидзе А. Д. 1979. Мир греческого рыцарского романа (XIII-XIV вв.). – Тбилиси.

Андреев М.Л. 1993. Рыцарский роман в эпоху Возрождения. Начальный период // Культура Возрождения и Средние века: Сб. – М.: Наука. – С. 165-172.

Бертельс Е.Э. 1940. Великий азербайджанский поэт Низами. – Баку: АзФАН, Бертельс Е.Э. 1948. Роман об Александре и его главные версии на Востоке. – М.-Л.: – 188 с.

Бертельс Е.Э. 1947. Абдуррахман Джами и его дружба с Навои. – Москва.

Бертельс Е.Э. 1949. Джами. [1414-1492]: Эпоха, жизнь, творчество. – Сталинабад: Таджикгосиздат. – 175 с.

Бондаренко М. 2018. Вергилий. – М.: Молодая гвардия. – 336 с.

Matyakubova T. 1.2024. He poetic charm of Gafur Chukam’s poetry. Uzbekistan: Language and Culture. 2 (2): 88-98.

Мелетинский Е.М. 1983. Средневековый роман. Происхождение и классические формы. – М.: Наука. – 304 с.

Михайлов А.Д. 1976. Французский рыцарский роман. – М.: Наука, – 351с

Михайлов А.Д. 1976. Исторические условия развития. Истоки. Первые

памятники // Французский рыцарский роман и вопросы типологии жанра в средневековой литературе. – М.: Наука, 1976. – С. 35-42. – 351 с

Михайлов А.Д. 2006. Артуровские легенды и их эволюция // Средневековые легенды и западноевропейские литературы. – М.: Языки славянской культуры, – С. 12-64.

Михайлов А.Д. 1976. История легенды о Тристане и Изольде // Легенда о Тристане и Изольде / Подг. А.Д. Михайлов. – М.: Наука, – С. 688-692.

Петровский Ф.А. 1974. Византийский роман // Византийская литература. – М., Наука.

1965. Роман об Александре Македонском по русской летописи XV века. – М. – Л.: Наука. –271 с

Самарин Р.М., Михайлов А.Д. 1984. Французский рыцарский роман // История всемирной литературы: В 8 томах / Отв. ред. Х. Г. Короглы, А.Д. Михайлов. – М.: Наука. – Т. 2. Средневековая литература III– XIII вв. – С. 551-561.

Шайх Абдулазиз Мансур. 2018. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. "Тошкент Ислом университети" НМБ. – Тошкент.

Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. 2019. "Тафсири Ирфон ". – Тошкент. "Шарқ " нашриёти. 3-жилд.

Yakubov I.A. 1.2024. Description of the evolution of the hero in Erkin A'zam's film's "Zabarjad". Uzbekistan: Language and Culture. 2 (2): 66-76.

Three types of chivalric novels and oriental literature

Koylieva Gulchehra [1]

Abstract

This article examines in detail the plot origins, gradual development and genre aesthetic principles of chivalric romances that arose at the junction of historical chronicles and traditions of church literature, thematic different types: antique, Breton and Byzantine. These types in a comparative typological aspect are compared with beautiful examples of Eastern literature, their common and unique aspects are determined.

Key words. *genre, historical chronicle, church literature, heroic epic, literary hero, tradition, chivalric novels, oriental literature, motif, pathos, community, originality.*

[1] *Koylieva Gulchehra* – Doctoral student (DSc)of Gulistan State University (GulSU), doctor of philosophy (PhD), associate professor.
E-mail: kuylieva.g@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-4359-8503
For citation: Koylieva G. 2024. "Three types of chivalric novels and oriental literature". *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 26-34.

References

Aleksidze A. D. 1979. Mir grecheskogo rytsarskogo romana (XIII-XIV vv.). – Tbilisi.

Andreyev M.L. 1993. Rytsarskiy roman v epokhu Vozrozhdeniya. Nachal'nyy period // Kul'tura Vozrozhdeniya i Sredniye veka: Sb. – M.: Nauka. – S. 165-172.

Bertel's Ye.E. 1940. Velikiy azerbaydzhanskiy poet Nizami. – Baku: AzFAN, Bertel's Ye.E. 1948. Roman ob Aleksandre i yego glavnaya versiya na Vostoke. – M.-L.: – 188 s.

Bertel's Ye.E. 1947. Abdurrakhman Dzhami i yego druzhba s Navoi. – Moskva.

Bertel's Ye.E. 1949. Dzhami. [1414-1492]: Epokha, zhizn', tvorchestvo. – Stalinabad: Tadzhikgosizdat. – 175 s.

Bondarenko M. 2018. Vergiliy. – M.: Molodaya gvardiya. – 336 s.

Matyakubova T. 1.2024. He poetic charm of Gafur Chukam's poetry. Uzbekistan: Language and Culture. 2 (2): 88-98.

Meletinskiy Y.M. 1983. Srednevekovyy roman. Proiskhozhdeniye i klassicheskiye formy. – M.: Nauka. – 304 s.

Mikhaylov A.D. 1976. Frantsuzskiy rytsarskiy roman. – M.: Nauka, – 351s.

Mikhaylov A.D. 1976. Istoricheskiye usloviya razvitiya. Istoki. Pervyye pamyatniki // Frantsuzskiy rytsarskiy roman i voprosy tipologii zhanra v srednevekovoy literature. – M.: Nauka, 1976. – S. 35-42. – 351 s

Mikhaylov A.D. 2006. Arturovskiye legendy i ikh evolyutsiya // Srednevekovyye legendy i zapadnoyevropeyskaya literatura. – M.: Yazyki slavyanskoy kul'tury, – S. 12-64.

Михайлов А.Д. 1976. История легенды о Тристане и Изольде // Легенда о Tristan i Izol'da / Podg. A.D. Mikhaylov. – M.: Nauka, – S. 688-692.

Petrovskiy F.A. 1974. Vizantiyskiy roman // Vizantiyskaya literatura. – M., Nauka.

1965. Roman ob Aleksandre Makedonskom v russkikh letopisyakh XV veka. – M. – L.: Nauka. –271 s

Samarin R.M., Mikhaylov A.D. 1984. Frantsuzskiy rytsarskiy roman // Istoriya vsemirnoy literatury: V 8 tomakh / Otv. red. KH. G. Korogly, A.D. Mikhaylov. – M.: Nauka. – T. 2. Srednevekovaya literatura III–XIII vv. – S. 551-561.

Sheykh Abdulaziz Mansur. 2018. Kur'oni Karim ma'nolarining tarzhima va tafsiri. "Toshkent Islom universiteti" NMB. – Toshkent.

Sheykh Usmonkhon Temurkhon Samark‚andiy. 2019. «Tafsiri Irfon». – Toshkent. "Shark" nashiriyoti. 3-zhild.

Yakubov I.A. 1.2024. Description of the evolution of the hero in Erkin A'zam's film's "Zabarjad". Uzbekistan: Language and Culture. 2 (2): 66-76.

ISSN 2181-922X 35—41

Badiiy ijod tabiati va ijodkor qalamining charxlanishi

Nilufar Dilmurodova[1]

Abstrakt

Ushbu maqolada o‘zbek adibi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi – Asad Dilmurodning “So‘z olami tovlanishlari” maqolasiga tayangan holda, uning ijodkor sifatida shakllanishiga ta’sir etgan hayotiy omillar o‘rganilgan. Yozuvchi ijodiy shaxsi va ayrim asarlari o‘zaro uyg‘unlikda tahlil va talqin etilgan.

Kalit so‘zlar. *maqola, ijodkor shaxsi, adabiy jarayon, qissa, roman, publitsistika, badiiy asar, poetik mahorat.*

Kirish

Ardoqli adibimiz Asad Dilmurod nasriy asarlar yozish bilan bir qatorda, o‘z ijodiy tajribalari va adabiy jarayonda kechayotgan o‘zgarish va yangilanishlarni sinchkov kuzatishlari asosida bir qator maqolalar ham yozdi. Uning “Tuyg‘u va tafakkur birlashadigan o‘zan”, “So‘z olami tovlanishlari” nomli maqolalari fikrimizni dalillaydi.

Adib hayotlik davrida ayrim adabiyotshunos olimlar bilan adabiy suhbatlar o‘tkazganki, vaqtli matbuotda chop etilgan bu muloqotlar endilikda yozuvchi ijod loboratoriyasiga kirib borishda muhim ochqich vazifasini o‘tashi jihatidan ham g‘oyat noyob manbaa vazifasini o‘taydi. Jumladan: “Majoziylik va hissiy tafakkur. (Ahmad Otaboy bilan suhbat)”, “Tarixiy me’yor va estetik mas’uliyat” (Dilnoza To‘raeva bilan suhbat) lar shu jihatdan e’tiborlidir.

Asad Dilmurod hayotlik davrida professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Xayolot va hayot manzaralari”, Mahkam Mahmudovning “Mahmud Torobiy – xalq xoloskori”, Islomjon Yoqubovning “Roman to‘qimasida analitik folklorizmlar”, “Tarixiy haqiqat va badiiy talqin”, “Marsel Prust va Asad Dilmurod ijodiy konsepsiyalari”, “Armonsiz kun suluvdir” kabi maqolalari, “Badiiy matn va estetik talqin” monografiyasi nashr etildi. Vaqtli matbuot

[1] *Nilufar Dilmurodova* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitet mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent moliya instituti dotsenti.
E-pochta: nilu.01@mail.ru
ORCID ID: 0000-0001-6991-1839
Iqtibos uchun: Dilmurodova, N. 2024. “Badiiy ijod tabiati va ijodkor qalamining charxlanishi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3 (2): 35-41.

va alohida nashrlarda o‘zining ilk o‘quvchilari bilan diydorlashgan bunday tadqiqotlar Asad Dilmurod ijodiy shaxsi va asarlari o‘zaro uyg‘unlikda tahlil va talqin etilgani, jahon adabiyoti namunalari bilan qiyoslangani bilan bir qatorda, yozuvchining nazariga tushgani, adibga ma’qul bo‘lgani jihatidan ham qimmatlidir.

Ushbu maqolada ularning barchasi haqida batafsil to‘xtalish imkonsiz ekanini nazarda tutib, Asad Dilmurodning “So‘z olami tovlanishlari” nomli maqolasini tahlil va tadqiq etish bilangina kifoyalandik. Maqola bundan 17 yil oldin – “Zarafshon” gazetasi o‘zining muborak 90 yilligini nishonlashga qizg‘in tayyorlanayotgan pallada chop etilgan. Shuning uchun Asad Dilmurod Samarqand zamini bilan bog‘liq o‘z hayoti va ijodiy kamolot yo‘li bahonasida, ustozlari va keng ma’noda, Samarqanddagi qaynoq adabiy-ijodiy muhitning xarakterli xususiyatlari, ilg‘or vakillari insoniy va ijodiy qiyofasini ham xolis baholaydi.

Samarkand viloyatining Urgut tumanidagi Qoratepa kishlog‘i – yozuvchi Asad Dilmurod (1947-2019) ning kindik qoni tomgan maskan. Bo‘lajak adib shu mo‘jaz makonda ulg‘aydi. O‘rta maktabni tugatgach, 1966-1971 yillarda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetida sirtdan o‘qidi. U o‘zining ilk mehnat faoliyatini talabalik davri – 1966 yildan e’tiboran “Urgut sadosi” tuman gazetasidan boshladi.

Ma’lumki, ushbu gazeta “Urgut haqiqati” nomi ostida 1935 yilda ilk bor Yorbobo Xolmuhammedov muharrirligi ostida ikki sahifalik hajmda chop etilgan. Keyinchalik Nazar Qo‘ziboyev, Ergash G‘ulomov, Ahror Mansurov, Ahtam To‘raqulov, Arslonbek Ziyodovlar gazetaga muharrirlik qilishgan. Xalq deputatlari Urgut tuman kengashi va tuman hokimligi muassisligida chiqadigan gazeta tahririyatida Bo‘ri Qurbonov, Sadriddin Narzullaev, Malla Mamadaminov kabi jurnalistlar ishlashgan. Yosh talaba Asad Dilmurod ustoz jurnalistlar safiga kelib qo‘shilgan 1966 yilda gazeta Ergash G‘ulomov muharrirligida “Oktabr alangasi“ nomi bila to‘rt sahifalik hajmda chop etilgan.

Asad Dilmurod hayotiy tajriba va ijodiy saboqni Temirchilar ko‘chasi, 4-uyda joylashgan gazeta tahririyatining Narzulla Fayziev, Rahmon Jo‘raev, Fayzi Haydarov, Yorqin Yo‘ldoshev, Nizom Ibrohimov, Farhod Ahmedov, Iskandar Boymurodov va boshqa jonkuyar jurnalistlaridan oldi. Bosmaxona bo‘yog‘ining achqimtir hidini esa, shahar markaziy istirohat bog‘i chekkarog‘ida joylashgan 1970 yillarda Samarqand vilyati “Zarafshon” va “Samarkandskiy vestnik” gazetalari joylashgan salobatli, biroq eskirib qolgan, g‘ishtin

binoda ilk bor o‘z dimog‘ida tuydi. Matritsa olish va gazeta bosish uchun subhidamgacha navbat kutish mashaqqatlarida toblandi. Adib o‘sha yillarni xotirlarkan, “So‘z olami tovlanishlari” [Дилмурод 2007] nomli maqolasida:

“O‘lgudek ochiqib, charchaganim bois, kipriklarim yumilib, o‘zimni lohas sezardim, “bosishga ijozat” deb arang chalakam-chatti yozib, imzo chekardim-da, uch-to‘rt uloq-suloq stuldan quling o‘rgilsin “karovat”, chiqindi qog‘ozlardan qoyil-maqom “lula-bolish” yasab cho‘zilardim va toshdek qotib uxlardim. Allaqachon smenasini boshlab yuborgan ishchi-xizmatchilar xoxolashidan uyg‘onsamki, bo‘g‘zim va dimog‘imda – dimiqqan havo va bo‘yoqning achqimtir hidi!..”, deb yozadi.

Bu hol yosh talaba A.Dilmurod sabr-bardoshini kamol toptirdi va mehnatsevarlikka o‘rgatdi. U bir jihatdan, og‘ir va mashaqqatli mehnatdan behad charchar, ammo zinhor sir boy bermasdi. Ikkinchi jihatdan esa, o‘zini mehnat sharoiti nisbatan yaxshiroq, ijodiy jamoasi havas qilsa arzigulik viloyat gazetasida ishlashga loyiq deb bilar, aniqrog‘i “Zarafshon” gazetasida ishlashni orzulardi:

“Nomi ancha mashxur Morozov asos solgan ushbu bosmaxonaga qatnayverib charchadim, ammo sir boy bermay, tishimni tishimga qo‘yardim. Goho shu dargohda bosiladigan “Zarafshon” dek nufuzli gazetada ishlashni chamalardim. Nazarimda, u boshdan oxir – har bir xarfigacha naqd romantika edi, uning g‘aroyib mehrigiyosi meni kun sayin o‘ziga tortardi. Lekin dilimda nishlab borayotgan alomat orzuim poyonsiz sahroda bir ko‘rinib yo‘qoladigan sarobga o‘xshar edi.”

Anglashiladiki, o‘sha damlarda A.Dilmurod yuksak orzular qanotida, istiqbolga intilib yashagan. U viloyat gazetasida ishlashni orzularkan, o‘zi hayot va ijodga ilk qadam qo‘yishiga turtki bergan tuman gazetasiga bo‘lgan ehtiromini zinhor yo‘qotmadi. Shuning uchun ham:

“Urgut sadosi” takdirimda sezilarli iz qoldirgan. Kamina, o‘sha gazetada o‘rnashib, do‘ppimni osmonga otgan edim” -deya xotirlaydi. Binobarin, 1970-yillarda ushbu gazeta qoshida ishchi-dehqon muxbirlari universiteti va “Chashmalar“ adabiyot to‘garagi qizg‘in faoliyat yuritgani tumanda mo‘jaz adabiy muhit shakllanishida aynan shu gazeta muharririyati tashabbuskor bo‘lganidan guvohlik beradi.

Asad Dilmurodning taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, viloyat gazetasining 1968-1973 yillardagi bosh muharriri – Nuriddin Shukurov (1930-1994) nazariga tushib, “Zarafshon” gazetasiga sahifalovchi

(musahhih) lavozimiga ishga joylashishi taqdirning in'omi edi. Chunki N.Shukurov mumtoz va zamonaviy va o'zbek adabiyoti muammolari, badiiy adabiyotda janr, xususan shakl va mazmun munosabatlari, syujet, kompozitsiya muammolari, she'riyatda uslub, til, vazn, qofiya, badiiy mahorat kabi ko'lamli nazariy masalalarni tadqiq etgan o'z davrining bilimdon murabbiysi edi.

Tabiiyki, "Urgut sadosi" jajji gazeta bo'lsa-da, undan uzoqlashish Asad Dilmurod uchun u qadar oson kechmagan. Adib o'sha davrdagi o'z kayfiyat-hollarini xotirlarkan:

"Zarafshon" har qancha chorlasa-da, beixtiyor xursindim, ayniqsa, Aktam To'raqulov va Fayzi Xaydarov bilan xayrlashayotganimda bo'g'zimga nordon narsa tiqildi. Sal kam uch yil mobaynida bu oqko'ngil insonlarga naqadar o'rganib qolgan ekanman", deb yozadi adib.

Anglashiladiki, A.Dilmurod tuman gazetasida qariyb uch yil (1966-1968) ishlagan. Bu jamoani yoqtirib qolgan. Aktam To'raqulov va Fayzi Xaydarov singari qalbiga yaqin oqko'ngil ustozlar ma'naviy rag'bati, ruhiy ko'magidan bahramand bo'lgan. Bir olam orzular quchog'idagi yigit o'zi xohlagan holda qadrdon ijodiy jamoasini tark etayotgan bo'lsa-da: "beixtiyor xursindim... bo'g'zimga nordon narsa tiqildi", deya iqror bo'lishi uning insoniy shaxsiga xos ta'sirchanlikdan, nozik ko'ngil sohibi ekanidan darak beradi.Zotan har ikkala fazilat-sifat ham badiiy ijodning qon tomiri bo'lgan hissiy idrok belgilalaridir. Chunki hissiy idrok nafaqat atrof-muhit va voqelikni qabul qilishni, balki tuyg'ularni ifodalash va ularni badiiy asarda aks ettirish usulini ham o'z ichiga oladi. So'z san'atkori o'z asarlarida shaxsiy tajriba, hissiyot va fikrlarini ifodalaydi. Bu hol kitobxonga uning ichki dunyosini ko'rish imkonini beradi. Demak, A.Dilmurod ruhiy holatlarni nozik idrok etgan sari o'z-o'zini anglab, ruhan ulg'ayib bormoqda edi.

Muhimi shundaki, bo'lajak yozuvchi o'z ichki olami bilan muloqot qilish, ayni paytda, atrofdagi dunyoga munosabatini ifodalash malakasini egallay boshladi. Hissiy idrok va ijodkorlikka bir-biri bilan bog'liq jarayon sifatida qarash keyinchalik Asad Dilmurod nasrida adibning odam va olamga munosabatini ifodalash usuli, kitobxonda hamdardlik hissini kamol toptirishdek yetakchi estetik belgiga aylandi. Shuning uchun ham, A.Dilmurod aksariyat tarixiy asarlarida millat ijtimoiy, madaniy va ruhiy tarixini badiiy gavdalantirish yo'lidan bordi.

Ta'kidlash o'rinliki, "Zarafshon" gazetasi turli yillarda Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidrizo Alizoda, Abdurauf Fitrat, Akobir Shomansurov, Iffat Xonim (Zohida Burnasheva), Shokir Muxtoriy,

Saidrizo Alizoda, Muhammadjon Yusufiy, Qori Mahmud, Qori Muhammadrahim Toji, Sadriddin Ayniy, G‘ozi Yunus, Ali Ismoilzoda kabi shoiru adiblar uchun ham muayyan ma’noda, jurnalistik mahorat maktabi vazifasini ham o‘tagan edi. Asad Dilmurod yangi davrda ularning ma’naviy izdoshlari bo‘lgan Nuriddin Shukurov, Ahmadjon Muxtorov, Otaxon Xo‘jaev, Qudratilla Mizomov, Ochil To‘ychiev, Mannob Najmiddinov, Sur’at Oripov, O‘ktam Javlonov, Samariddin Sirojiddinov, Mardi Nuriddinov, Ahmad Narziqulov kabi zabardast olimu jurnalistlar etagidan tutdi. Bunday talabchan, sermahsul, dovruqli qalam sohiblari bo‘lgan ustozlar qoshida boshlovchi jurnalist va ilk mashqlarini pinhona qoralab yurgan yigit sifatida o‘zini anchayin “dumbulvoy”sanardi. Shuning uchun o‘zi tengi yoshlar haqida so‘z ocharkan: “Chehralaridan mudom o‘ychanlik va qat’iyat arimaydigan zotlarni ko‘rganimizda, kabutarlar yanglig‘ jovdirab, qayoqqa qochishni bilmay qolardik,”deydi samimiyat va ehtirom bilan.

A.Dilmurod yuqorida nomlari sanalgan ustozlar o‘z hayotlarini ijod mashaqqatisiz tasavvur qila olishmasligini yaxshi anglaydi. Ular o‘zlarining jismoniy va ruhiy quvvati, iqtidor va salohiyatini butunicha “Zarafshon” gazetasiga bag‘ishlashgani, bu ishni qismat deb bilishganiga qoyil qoladi. Inson ijodni hayot va mamot deb bilishidan, o‘z orom va azoblari, quvonch va kayg‘ularini gazetadan xorijda his qilolmasligidan hayratlanadi. Chop etilayotgan baquvvat maqolalarda teran tahlillar orqali asl mohiyat ochib berilganiga havaslanadi. Shunday ekan, A.Dilmurodning: “ular shamoliga yaqinlashish men singari dumbulvoylar uchun borib turgan vahima bo‘lgan”, qabilidagi e’tirofida zinhor mubolag‘a unsurlari yo‘q.

Mannob Najmiddinov o‘zining favqulodda iste’dodi, halolligi, kurashchanligi, dangalligi bilan ayniqsa uning e’tiborini tortadi. Mannob aka bunday insoniy fazilatlari bilan A.Dilmurod shaxsiyatida og‘irning ustidan va yengilning ostidan yuradigan tovlamachi kimsalarga qarshi nafrat hissini shakllantirdi. Tabiiyki, hayotiy ibrat tufayli ruhiyatiga ta’sir etgan bu tuyg‘u keyinchalik adib nasrida ezgulik va jaholatning keskin kurashi tarzida yaqqol namoyon bo‘ldi. Yozuvchi bu yillardagi ustozlari haqida xotirlarkan:

“Mannob aka, Ochil aka, Ahmadjon aka, O‘ktam aka, Ahmad Narziqulov faqir uchun mahorat jabhasidagi timsoliy shaxslar edi. Ular bitgan narsalar cho‘g‘li bo‘lardi, esda saqlanardi, fahmimcha, agar ular badiiy ijod bilan jiddiy shug‘ullanishsa, bemalol arzigulik yutuqlarga erishishlari mumkin edi”, deb yozadi.Ko‘rinadiki, A.Dilmurod publitsistika va badiiy ijodni o‘zaro qiyoslar ekan, keyingisiga nisbatan ko‘proq haq beradi.

Xulosa

A.Dilmurod publitsistikaning voqelikka faol aralashuvi, faktlarga tayanishi, fikrlarni mantiqiy dalillashi, obrazli umumlashtira olishi adabiy ijod ekani, o‘quvchilarda ijtimoiy fikr uyg‘otishi, muayyan qarashlarni shakllantirishi, oshkoralik, dadillikni yoqtirishi singari ko‘plab belgi-sifatlarini ma’qullaydi. Badiiy ijodni hamisha ham mantiqiy qoliplarga sig‘avermasligi, ko‘proq insonning ko‘ngli bilan ishlashi, uning ruhiyat iqlimlarini taftish etishi, botinda kechgan “tarix”ni ifodalashga qulayligi jihatidan ardoqlaydi.

Darhaqiqat, “Zarafshon” gazetasi o‘tgan asrning 70-80-yillarida ijtimoiy muammolar qatorida, badiiy adabiyot yukini ham o‘z yelkasiga dadil ortdi. Bu hol tahririyatga jasoratli ustozlar bosh bo‘lishgani, A.Dilmurod singari iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashgani bilan ham izohlanadi.

Adabiyotlar

Dilmurod A. 2010. Tuyg‘u va tafakkur birlashadigan o‘zan. // «Yoshlik», 10 (239)-son.

Dilmurod A. 2007. So‘z olami tovlanishlari. // “Zarafshon”. 20 sentabr.

Dilmurod A. 2017. Majoziylik va hissiy tafakkur. (Ahmad Otaboy bilan suhbat) // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 22 sentabr.39 (4437) -son.

Yoqubov I. 2005. Roman to‘qimasida analitik folklorizmlar. // “Ilm sarchashmalari” UrDU Axborotnomasi. 1-son.. - B. 37-38..

Yoqubov I. 2008. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin // “O‘zbek tili va adabiyoti”, 4-son, –B. 30-38.

Yoqubov I. 2016. Armonsiz kun suluvdir. // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 10 iyun.

Yoqubov I. 2013. Badiiy matn va estetik talqin. Monografiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya” – 149 b.

Yo‘ldoshev Q. 2017. Xayolot va hayot manzaralari. //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati 22 sentabr. 39(4437) -son.

Mahmudov M. 2000. Mahmud Torobiy – xalq xoloskori. // “Muloqot”.

Yakubov I. 2013.Literariy-aesthetic conception of M.Purust and A.Dilmurod Przemyus’l Nauka I studia. – P. 29-32.

Yakubov I.A. 1.2024. Description of the evolution of the hero in Erkin A’zam’s film’s “Zabarjad”. Uzbekistan: Language and Culture. 2 (2): 66-76.

Matyakubova T. 1.2024. He poetic charm of Gafur Chukam’s poetry. Uzbekistan: Language and Culture. 2 (2): 88-98.

The nature of artistic creativity and sharpening the artist's pen

Nilufar Dilmurodova[1]

Abstract

In this article, based on the article "Glitters of the World of Words" by Asad Dilmurod, an Uzbek writer and Honored Cultural Figure of Uzbekistan, life factors that influenced his development as a creator are studied. The writer's creative personality and some of his works are analyzed and interpreted harmoniously.

Keywords. *article, creative personality, literary process, story, novel, journalism, work of art, poetic skill.*

References

Dilmurod A. 2010. Tuyg'u va tafakkur birlashadigan o'zan. // «Yoshlik», 10 (239)-son.

Dilmurod A. 2007. So'z olami tovlanishlari. // "Zarafshon". 20 sentabr.

Dilmurod A. 2017. Majoziylik va hissiy tafakkur. (Ahmad Otaboy bilan suhbat) // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 22 sentabr.39 (4437) -son.

Yoqubov I. 2005. Roman to'qimasida analitik folklorizmlar. // "Ilm sarchashmalari" UrDU Axborotnomasi. 1-son.. - B. 37-38..

Yoqubov I. 2008. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin // "O'zbek tili va adabiyoti", 4-son, –B. 30-38.

Yoqubov I. 2016. Armonsiz kun suluvdir. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 10 iyun.

Yoqubov I. 2013. Badiiy matn va estetik talqin. Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya" – 149 b.

Yo'ldoshev Q. 2017. Xayolot va hayot manzaralari. //O'zbekiston adabiyoti va san'ati 22 sentabr. 39(4437) -son.

Mahmudov M. 2000. Mahmud Torobiy – xalq xoloskori. // "Muloqot".

Yakubov I. 2013.Literariy-aesthetic conception of M.Purust and A.Dilmurod Przemyus'l Nauka I studia. – P. 29-32.

Yakubov I.A. 1.2024. Description of the evolution of the hero in Erkin A'zam's film's "Zabarjad". Uzbekistan: Language and Culture. 2 (2): 66-76.

Matyakubova T. 1.2024. He poetic charm of Gafur Chukam's poetry. Uzbekistan: Language and Culture. 2 (2): 88-98.

[1] *Nilufar Dilmurodova* **–** independent researcher of TSUULL named after Alisher Navoi, associate professor of Tashkent Financial Institute.
E-mail: nilu.01@mail.ru
ORCID ID: 0000-0001-6991-1839
For citation: Dilmurodova N. 2024. "The nature of artistic creativity and sharpening the artist's pen". *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 35-41.

ISSN 2181-922X 42—47

Tatar ma’rifatparvarlari Begali Qosimov talqinida

Mohigul Ergasheva[1]

Abstrakt

Ushbu maqolada adabiyotshunos Begali Qosimovning adabiy aloqalar yo‘lidagi safarlari xususan Qozonga qilingan ilm yo‘lidagi hamkorligi tahlilga tortildi. Maqolada asosan olimning “Salom kelajak” asaridagi tatar madaniyati va adabiyoti munosabatiga keng o‘rin berildi. Tatarlar va o‘zbek xalqining madaniy aloqalar yo‘lidagi hamkorligiga sabab bo‘lgan jihatlari solishtirildi. Bundan tashqari o‘rni bilan olimning boshqa asarlariga ham murojaat qilindi.

Kalit so‘zlar: *safar, Qozon, Ismoilbek Gasprinskiy, madaniy aloqa, Abdunasr Kursaviy, Shihobiddin Marjoniy, Abdurahim Utuz Emaniy va Abdulmanix Bistaviy*.

Kirish

Jadidshunoslikning karvonboshisi adabiyotshunos Begali Qosimovning ilmiy – adabiy aloqalar yo‘lidagi safarlari bir necha yo‘nalishga bo‘linganligi bilan ahamiyatlidir. O‘tgan asrning 70 - yillar o‘rtalarida, keyinchalik 90 - yillarda olim Qozon shahriga ilmiy tashrif bilan boradi. Ma’lumki, Kavkaz va Volgabo‘yi hududi azaldan o‘zining ilm-taraqqiyotga bo‘lgan intilishi tufayli ajralib turadi. Xususan, jadidchilik harakati ham aynan shu hududlarda tarqalib, keyinchalik Turkiston o‘lkasida o‘zining haddi a’losiga ko‘tarildi. Nomlari sanalgan bu hududlar va Turkiston azal - azaldan hamkorlik qardoshlik yo‘lini tutgan. Bu ikki mintaqa davrlar osha o‘zining ilmdagi hamkorligida mustahkam turdi. Tatar ziyolilarini ham Turkiston ziyolilarini ham har ikki hududda o‘ziga jalb qilgan bir qancha sabablar bor. Chunonchi: tatarlar turli asrlar davomida karvonlarga qo‘shilib Buxoroga ilm tahsil etishga kelishgan. Bekorga tatar onalari o‘z allalarida quyidagi so‘zlarni ishlatmagan.

Illo billo aytar bu,
Buxoroga ketar bu,

[1] *Ergasheva Mohigul Haydarovna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.
E-pochta: mohigulergasheva24@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-6102-6843
Iqtibos uchun: Ergasheva, M.H 2024. “Tatar ma’rifatparvarlari Begali Qosimov talqinida”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*, 3 (2): 42-47.

Ilm tahsil etar bu,
Maqsudina yetar bu.

Begali Qosimovning keltirishicha, "buxoro ko'rgan" tatarlarning soni 500 tadan oshadi. Olim bu ma'lumotlarni tatar olimlarining asarlari xususan, Rizo Faxriddinning ikki tomli " Asar" nomli kitobini varaqlab ko'rib shunday ma'lumotlarni keltiradi. Buxoro tatar ma'rifatparvarlari orasida juda katta obro'ga ega bo'lgan shahar hisoblanadi. Shu o'rinda, aytish kerakki, hatto tatarlar farzandlari yoki nabiralarining Buxoroda o'qishini vasiyat qilish darajasiga borganlar. Chunonchi: Begali Qosimov bu borada tatar jurnalisti Burxon Sharafning "Vaqt" gazetasida keltirilgan quyidagi fikrlarini keltirib o'tadi. "…Men beshikda tebralgan zamonda Rusiya musulmonlari qoshida Buxoroning qadri juda zo'r bo'lgan. Uning nomini zikr etganda sharif unvonini qoldirmasdan so'zlaganlar. Bizni o'qitishga ixlosmand marhum bobolarimizning kichkina Sharaflarni Buxoroga yuborishni vasiyat qilganlarini eshitganman" [Qosimiv 1986] Buxoro necha asrlar davomida bir qancha xalqlar uchun ma'rifat o'chog'i bo'lgan shahar hisoblanadi. Buning ham bir qancha sabablari bor.

Birinchidan: Ma'lumki, X- XV asrlar davomida Movarounnahr har sohada ma'lum edi. Bularning birinchi sababi esa IX - XII asrgacha bu hududda islomning keng yoyilishi natijasida uyg'onish davri "renessans" hodisasi sodir bo'ldiki, aynan shu sababdan ham o'lkaning har bir hududida ilm- fan, diniy bilimlar sabog'i o'zining eng yuqori darajasiga ko'tarildi. Shu sababdan ham hamma bu o'lkalarda ilm tahsil etishni orzu qildi. Xuddi shunday Buxoroda ham bir qancha olimlar yetishib chiqadi, natijada Buxoro tarixda muhim bir o'rinda turadigan bo'ldi. Bu yerda o'z fanining eng yetuk ustozlari dars berar edilar. Shuni ham aytish kerak, Buxoro asarlar davomida poytaxt shahar hisoblangan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, poytaxtda o'z fanining sohiblari yig'ilgan edi. Begali Qosimovning ta'kidlashicha 1790-1850 yillar mobaynida O'rta Osiyo xususan Buxoroda bir necha yuzlab tolibi ilmlar o'qiganlar va bular orasida tatarlar son jihatdan ko'p edi.

Ikkinchidan: Buxoro xonligidagi maktab - madrasalar sonining ko'pligi. Ma'lumki, Buxoro xonligida madrasalar soni juda ko'p bo'lib, yaratilgan turli tadqiqotlarda bu boradagi sonlar turlicha ko'rsatiladi. Xususan, ma'lumotlarlarda mazkur hudud 250 ta masjid va madrasalarning markazi bo'lgani qayd etiladi. Tatarlarda esa bu asrlar davomida maktab- madrasa tahsili hali rivojlanish darajasiga ko'tarilmagan bo'lib, shu sababdan ham Buxoroda tahsil olish va

olgan bilimlarini o‘z hududlarida o‘rgatish tatarlar uchun juda muhim hisoblangan.

Uchinchidan: Asrlar davomida Tatarlarning Buxoro bilan an’anaviy aloqalari, til va e’tiqod mushtarakligi ham tatar ma’rifatparvarlarini bu shaharga yetaklagan.

Bu jarayon 1850 yillargacha, xuddi shu sabablar natijasida sodir bo‘lgan. Begali Qosimov tatar toliblarining ko‘pchiligi Niyozkuli Turkmoniy qo‘lida tahsil olganligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, Niyozquli o‘sha davr Buxoro hayotida xondan keyingi o‘rinda turuvchi odam edi. Tatar ma’rifatparvarlari .“… ulardan to‘rt kishining nomi tatar ma’daniyati tarixidan mustahkam o‘rin olib qoldi. Bulardan Abdurahim Utuz Emaniy va Abdulmanix Bistaviy(Qarg‘ali), tatar ma’rifatchilik realizmigacha bo‘lgan davr adabiyotining eng barkamol namoyandalari edilar. Abdunasr Kursaviy va Shixobiddin Marjoniy esa o‘z so‘zlari bilan tatar ilm fanida tubdan o‘zgarish yasadilar” [Qosimov 1986]. Nomlari sanalgan ma’rifatparvarlar Buxoro tahsilini ko‘rgan va Niyozquli qo‘lida ham ta’lim olgan. (Utuz Emaniy va Abdulmanix Bistaviy(Qarg‘ali)).

Shu asrlardan boshlab esa asta sekinlik bilan Buxoro ham o‘zining bir necha asrlik mavqeyidan ajrab qoldi. Endi bu yerga kelganlar uning ta’limidan ko‘ngli to‘lmaydigan bo‘ldi. Buning eng asosiy sababi esa amirlikdagi ichki kurashlarning avj olishi edi. Avj olgan ichki kurashlar natijasida har sohada tanazzul kuzatildi. To‘g‘ri XX asr boshlarida ham Buxoroda ta’lim olish uchun turli hududlardan talabalar kelib turgan. Ayni davrda Buxoro diniy bilimlarning markazi sifatida o‘z mavqeini yo‘qotmagan edi, ammo, shu bilan bir paytda Kavkaz va Volgabo‘yida taraqqiyparvarlik harakati nomi bilan jadidchilik asta sekin paydo bo‘la boshladi. Jadidchilik xarakatining yo‘lboshchisi esa Ismoilbek Gasprinskiy edi. Gasprinskiy Turkiston tarixida ham muhim shaxslardan biri hisoblanadi. Xususan: u o‘zining say- harakatlari bilan o‘lkada jadid maktablarini ochdi. Ammo, shunday siymo hisoblansada, uning hayoti ijodi va faoliyati tadqiqi asosan 90 yillardan boshlandi. Sababi, aynan uning faoliyati mavjud mafkura qoliplariga to‘g‘ri kelmas edi, va u Chor Rossiyasining birinchi dushmani edi. 90 yillardan boshlab esa asta sekinlik bilan Ismoilbek Gasprinskiy haqida tadqiqotlar yaratila boshlandi. Begali Qosimovning jadidshunoslik haqidagi tadqiqotlari nazarda tutilib, ko‘plab jadidshunos olimlar uning shinelidan chiqqanligi adabiyotshunoslar tomonidan aytiladi. Gaspralishunoslik bo‘yicha ham xuddi shunday deyish mumkin. Sababi, aynan Begali Qosimov tadqiqotlari tufayli o‘zbek adabiyotshunosligida

gaspralishunoslik vujudga keldi, hamda olimning shogirdlari bevosita bu ishning davomchilari bo'ldi. Ma'lumki, Gasprinskiyning o'limi Turkiston ziyolilariga shu darajada ta'sir qildiki, aynan o'sha davrlar Gasprinskiy faoliyatini o'rganishdagi eng qimmatli davrlar edi. Chunonchi *Mahmudxo'ja Behbudiy.* Quddusi sharif yo'lida, Ismoilbek Hazratlari, *Sidditsiy-Ajziy,* Tashakkur va rijo, *Abdulla Avloniy.* Adibi shahir Ismoilbek ruhina, *Sadriddin Ayniy.* Buyuk bobomizning musibatila parishon o'lan xotirdan bir necha parishon she'rlar, *Hamza Hakimzoda Niyoziy.* Yavmul-vafot,Marsiya, *Tavallo.* «Tarjimon» gazitasin noshir va muharriri mura- fahiy Ismoilbek G'asprinskiy janoblarining tarix-vafoti Yig'la, millat qon to'kub, aylab navolar yig'lagil kabilar shular jumlasidan. Jadidshunos olim Sherali Turdiyev Ismoilbek Gasprinskiyning faoliyatining O'zbekistonda o'rganilishini quyidagicha tasnif etadi.

Birinchi davr — XX asr boshlaridan to 1917 yil Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan yillar.

Ikkinchi davr — 1917 yil Oktabr to'ntarishidan to 30-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan yillar.

Uchinchi davr — 30-yillarning o'rtalaridan 80-yillarning oxirigacha bo'lgan yillar.

To'rtinchi davr — O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yillar [Karimov 2005, 122].

Bu davrlar ichida birinchi va to'rtinchi davrlar Ismoilbek Gasprinskiy ijodini o'rganish bo'yicha eng sermahsul hisoblanadi. Ana shu sermahsul tekshirishlarning mustaqillik yillaridagi yetakchisi Begali Qosimov edi. Olim Gasprinskiyni qilgan mehnatlarini qadrlab uni uchinchi muallim deb e'tirof etadi.

Shunday qilib, bu hududlarda jadidchilik harakati asta sekinlik bilan taraqqiy qila boshlagandan keyin Turkiston tolibi ilmlari ham bu yurtga borishni orzu qiladigan bo'lishdi. Zamon aylanib kelib, Buxoroga karvonlarga qo'shilib kelgan toliblar almashib, temiryo'llarga mingan toliblar Volga va Kavkazbo'yiga shoshilishadi. Yuqoridagi kabi buning ham ma'lum sabablari bor.

Birinchidan: Volga va Kavkazbo'yida jadidchilik deb nomlangan harakat vujudga kelgan holda har sohada xususan maktab- madrasa sohasida ham rivojlanishlar kuzatila boshlandi. Ismoil Gaspirinskiyning say harakatlari bilan bu hududda yangi usul maktablari paydo bo'ldi. Bu esa o'qitishning yangicha usuli edi. Chunki, usuli savtiya va usuli jadid maktablarida o'quvchi qisqa muddatda xat savod chiqarar edi.

Ikkinchidan: XX asrning boshlarida xususan 1906 yilda bu hududda musulmon sharqiga dovrug‘i ketgan “Oliya” madrasasi qurildi. Bu esa o‘z navbatida Turkiston yoshlarini Ufa tomonga qiziqishlarini yanada oshirib yuborgan. Turkistonlik ko‘plab yoshlar mana shu madrasada ta’lim olgan edilar. Mirmuhsin Shermuhammedov, Mo‘minjon Muhammadjonov, kabilar shu yerda tahsil olgan.

Uchinchidan: Mana shu yaratilayotgan maktablardagi sharoit masalasi. Turkiston talabalari “Oliya” madrasasidagi muhitni ko‘rib hayratga tushganlar. Sababi, “Oliya”da o‘z davri uchun yetarli bo‘lgan sharoitlarning hammasi mujjassam edi. Begali Qosimov “Oliya”dagi katta kutubxona, isitish tizimi, ovqatlanish borasidagi tartib juda o‘zgacha bo‘lganlagini ta’kidlaydi.

To‘rtinchidan: tatar adabiyoti ilg‘or Yevropa adabiyoti bilan oshno edi. Shu sababli bu yerda buyuk shoir, yozuvchi, dramaturglarning asarlari kirib kelgan va tolibi ilmlar mana shu muhitda, bu asarlardan bahramand bo‘lgan edilar. Shulardan ta’sirlanish natijasi o‘laroq Turkistonda ham juda katta voqeliklar sodir bo‘ldi.

Xulosa qilinsa, bu ikki xalq azal - azaldan ilm - fan yo‘lida do‘stlik hamkorlik yo‘lini tutgan. Bularni o‘rganish esa adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Begali Qosimov ham ana shu ishlarning davomi sifatida tatar adabiyoti, madaniyati hamda ilm fanini chuqur tahlil etgan olimlardan biri.

Adabiyotlar

Begali Qosimov zamondoshlari xotirasida “so‘nggi jadid” qissasi nashrga tayyorlovchilar Uzoq Jo‘raqulov, Adiba Qosimova, Shoxrux Qosimov T., Turon Iqbol 202bet

Begali Qosimov Salom kelajak T., G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1986 yil 15, 17 betlar

Ismoil Gasprinskiy va Turkiston ma’sul muxarrir Naim Karimov T., Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2005 yil 122 bet

Tatar intellectuals in the interpretation of Begali Kasimov

Mohigul Ergasheva[1]

Abstract

In the article, literary critic Begali Kasimov's trips in the way literary relations, especially, the cooperation in the way of science made to Kazan, were analyzed. The aricle mainly focused on the attitude of tatar culture and literature in the scientist's work " Salom kelajak". Aspects that caused the cooperation of the tatars and uzbek people in the way of the cultural relations were compared. In addition to buy other works of the scientist's were also referred to.

Key words: *Trip, Kazan, Ismailbek Gasprinky, cultural communication, Abdunasr Kursaviy, Shihobiddin Marjani, Abdurahmon Utuz Emani and Abdulmanikh Bistavi (Kargali).*

[1] *Mohigul H. Ergasheva* – Doctoral student of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-mail: mohigulergasheva24@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-6102-6843
For citation: Ergasheva, M.H. 2024. "Tatar intellectuals in the interpretation of Begali Kasimov". *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 42-47.

ISSN 2181-922X 48—55

Sentimental nasr: asosiy xususiyatlari va tipologiyasi

Munira Niyazova[1]

Abstrakt

Ushbu maqolada jahon adabiyotida sentimentalizm adabiy oqimning yuzaga kelish omillari, J.J. Russo, Klinger, F. Shiller, G.A. Byurger, V. Geynze, G.V. fon Gerstenberg, M.Klinger, I.A. Leyzevis, M.R. Lens, K.F.Moris, A.S.Pushkin, G.E. Lessing, F.G.Klopshtok, L.S.Richardson singari namoyandalari ijodiga xos xususiyatlar va sentimentalizmning asosiy xususiyatlari qiyosiy-tipologik asosda tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *sentimentalizm, adabiy oqim, yetakchi tamoyil, elegiya, roman maktub, sayohat kundaligi, xotira, drama, badiiy mahorat, lirik kechinma, poetik ifoda, badiiy mahorat.*

Kirish

Nemis shoiri, dramaturgi va romannavsti Fridrix Maksimilian fon Klinger (1752-1831) ning "Bo'ron va hujum" nomidagi 23 ta dramasi va 14 ta romani, shuningdek shu nomli harakat faollarining milliy adabiyot yaratish yo'lidagi sa'y-harakatlari bilan chambarchas bog'liq tarzda 1770-1780-yillarda Germaniyada sentimentalizm gullab-yashnadi. Hali o'ttiz yoshga ham to'lmagan harakat ishtirokchilari "daholar davri" kurashchan (isyonkor) yoshlari nomini olishdi. 1773 yilda chop etilgan F. Shiller, G.A. Byurger, V. Geynze, G.V. fon Gerstenberg, M.Klinger, I.A. Leyzevis, M.R. Lens, K.F.Moris asarlari jamlangan "Nemis xarakteri va san'ati haqida" nomli to'plam muayyan ma'nada, bu adabiy oqimning manifesti vazifasini o'tadi.

Fransuz adibi, mutafakkir Jan Jak Russo qarashlariga xayrixoh bo'lgan nemis faylasufi Iogan Georg Gaman kurashchan yoshlarning mafkurachisi edi. Ular K.Yung she'riyati, V.Shekspir asarlarining olmoncha tarjimalarini ma'qullashar, klassitsizmning ratsionalistik me'yorlarini inkor etishardi. Anglashiladiki, mazkur adabiy oqim nafis his-tuyg'ular sohibi bo'lgan inson xarakterini tasvirlash,

[1] *Niyazova Munira Jumanazarovna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
E-pochta: munira.niyazova.81@invox.ru
ORCID ID: 0000-0003-3459-7768
Iqtibos uchun: Niyazova, M.J. 2024. "Sentimental nasr: asosiy xususiyatlari va tipologiyasi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3 (2): 48-55.

lirizmga tayanuvchi dramatik uslubga tayanish bilan bog‘liq o‘z nazariy-metodologik asoslarini “russochilik”dan oladi. Shuning uchun ham “hujum”chi yosh ijodkorlar inson ichki dunyosini badiiy tasvir predmetiga aylantirishdi. Personajlarni individuallashtirishdi. Lirik jihatdan serjilo obrazli til yaratishning yangi usullarini ishlab chiqishdi. I.G.Gerder fikr-qarashlarida san’atning milliy o‘ziga xosligi va xalqona ildizlari haqida fikr yuritdi. D.Didro va L.S.Merse nazariyasiga tayanishdi. G.E.Lessing demokratik an’analarini yangi sharoitda davom ettirishdi. Milliy o‘zlikni anglash jarayonlarining yuksalishi, adabiyotning yangi, demokratik mazmun va poetik ifoda vositalari bilan boyitishga sezilarli ulush qo‘shishdi. boyiga svezilarli ulush qo‘shdilar. F. Shiller fojialarida ushbu adabiy oqimning isyonkor kayfiyati ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xullas, “Bo‘ron va hujum”dramasi butun bir adabiy davrning nomiga aylandi. F. M. Klinger buyuk nemis shoiri Iogann Volfgang fon Gyotening bolalik va yoshlikdagi do‘sti va maslakdoshlaridan biri edi. U Frankfurtda I.V. Gyote atrofida birlashgan yosh shoiru adiblar: Yakob Maykl Reynxold Lents, Geynrix Leopold Vagner va boshqalar bilan do‘stlashdi.

F.M. Klingerning “Oltin xo‘rozning hikoyasi”romani A.S.Pushkinning “Gavriiliada” (1821) asari ta’sirida yuzaga keldi. “Gavriiliada” asarida Bibliya matnlarida keluvchi: Odam Ato va Momo Havo tomonidan ilohiy ta’qiqning buzilishi, ularning jannatdan yerga tushirilishi, shuningdek Allohning barcha ayol-qizlar orasidan Iso Masihni dunyoga keltiruvchi bokira ayol Bibi Maryamni tanlashi, farishtalar tomonidan nabiyning tug‘ilishi haqidagi ilohiy mujdaning unga yetkazishi singari g‘ayrioddiy voqealar mazmunan sodda tilda va she’riy usulda ta’sirchan ifoda etilgan edi. Ma’lumki, Anna Axmatova o‘zining “Pushkinning so‘nggi ertagi” nomli mo‘jaz maqolasida bu asarni nozik tahlil qilgan. U shoir ijodiga Vashington Irvingning “Arab yulduzlari afsonasi” kuchli ta’sir etgan degan xulosaga keladi. Ya’ni shoira A.S.Pushkin ijodining genetik ildizlarini “Ming bir kecha” arab eraklari bilan chambarchas bog‘liqlikda idrok qildi va qiyosiy tadqiq etdi.

A.S.Pushkin ertagida donishmand munajjim Dadon shahzodasiga sovg‘a qilgan xo‘roz obrazi mavjud. Bu xo‘roz yurtga xavf tug‘ilganda qichqirib, ogohlikka choraydi. Bu tuhfa tufayli shahzoda ikki yil tinch-totuv yashaydi. Biroq u noshukurligi tufayli o‘z farzandlaridan judo bo‘ladi. Hayot bilan vidolashadi. Afsuski, F.M. Klinger “Oltin xo‘rozning hikoyasi” romanini cherkovga qarshi, ateistik ruhda bitdi.

Umuman olganda, nemis sentimentalizmi fransuz klassitsizmiga milliy va madaniy munosabat sifatida yuzaga keldi. Nemis sentimentalistlari dunyoqarashining shakllanishi va taraqqiyotida nemis shoiri, dramaturgi, san'at nazariyotchisi va adabiyotshunos-pedagogi, nemis klassik adabiyotining asoschisi – Gotxold Efraim Lessing (1729-1781) ning ta'siri kuchli edi.

Darhaqiqat, uning "Laokoon yoxud tasviriy san'at va poeziya chegaralari xususida" risolasi,"Gamburg dramaturgiyasi" turkum maqolalari, "Sara Sampson xonim", "Minna fon Barnxelm", "Emiliya Galotti", "Dono Natan" pesalari o'z davrida e'tiborga tushdi. Zotan, G.E.Lessing ijodiy merosida estetika va san'atshunoslikka oid asarlar muhim o'rin egallaydi. U adabiyot va tasviriy san'atda obraz yaratish imkoniyatlarini mohirona tahlil qildi. Olimning nazariy qarashlari klassitsizm me'yorlariga qarshi qaratilgani bilan sentimentalistlarga ma'qul bo'lgan. G.E.Lessing dramaturgiyada adabiy qahramonlarni erkinlashtirish, demokratlashtirish, hayotiy haqiqat va badiiy ifoda tabiiyligi g'oyasini himoya qildi. Uning fikricha: badiiy adabiyotdagi voqelik ifodasi o'z go'zalligi bilan tuyg'ularimizga ta'sir etibgina qolmay, hissiy idrokimizga ham zavq beradi. Teatr estetikasi esa, birinchi navbatda, uning ibratxona ekani bilan bog'liqdir.

Sentimentalistlar elegiya, roman maktub, sayohat kundaligi, xotiralar va boshqa janrlarda ijod qilishdi. Bu asarlarda badiiy voqelik birinchi shaxs tilidan bayon qilindi. Sentimentalist adiblar poetik tafakkur va tasavvurga g'ov bo'luvchi har qanday kanonlarga u qadar amal qilishmas, o'z irodasiga ko'ra ish tutishardi. Kompozitsiyada erkinlikka intilishar, lirik chekinishlarga ko'p o'rin ajratishardi. Shuning uchun klassitsizm tarafdori I.K.Gotschedng nazariy qarashlari I.J.Bodler va I.J.Breytingerlar tomonidan keskin inkor etildi.

Sentimentalistlarning ilk namoyandasi Fridrix Gotlib Klopshtok edi. U o'rta asr nemis adabiy an'analari va sentimentalizm o'rtasidga щziga xos ma'naviy ko'prik qurishga intildi. Sentimentalizm oqimi lirik she'riyat va romanchilikdan dramaturgiyaga ko'chdi. Tuyg'ular tabiiy oqimini berish, qahramonlarni vaziyat talabiga ko'ra tasvirlash, ularga hamdard bo'lish, oddiy odamlar boy ma'naviy dunyosini ko'rsatish sentimentalizm estetikasining yetakchi belgilariga aylandi. Jumladan, ingliz adibi Lorens Stern Richardson o'zining "Pamella", "Klarissa Karlo", "Janob Charlz Grandison" kabi mashhur romanlarida psixologik tahlilga katta e'tibor qaratdi.

Xulosa

Sentimentalizmining asosiy xususiyatlari quyidagilarda

namoyon bo‘ladi:

a) klassitsizm kanonlaridan chekinish;

b) olam va odam munosabatlariga sub’ektiv yondashuv;

v) buyuk g‘oyalar va tafakkur kengliklari tasvirlaridan ko‘ra, poetik ifoda jarayonida his-tuyg‘u va kechinma rolining ortishi;

g) oshiq-ma’shuqalarni shaharning dimiqqan havosi emas, balki ona tabiatning so‘lim quchog‘ida tasvirlash;

d) pokiza muhabbat va axloq masalalarini kun tartibiga qo‘yish;

ye) qahramonlarni quyi tabaqa vakillari, ya’ni oddiy odamlardan tanlash va ularning ma’naviy go‘zal dunyosini tasvirlash.

Adabiyotlar

Пуришев Б.И. 1931. Энциклопедия/ Клингер / Клингер Фридрих Максимилиан // Литературная энциклопедия. – М., – Т. 5.

Киянская, О. И. 2015. Декабристы. – М.: Молодая гвардия. – 167 с.

Киянская О. И. 2005. Пестель. – М.: Молодая гвардия. – 355 с.

Гладилин Н.В. 2020. Метаморфозы «бурного гения». Творческий пут Фридриха Максимилиана Клингера. – М.: Литературный институт имени А.М. Горького. – 256 с.

Махов А.Е. 2001. «Буря и натиск» // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н. Николюкина. – Институт научной информатсии по общественным наукам РАН: Интелвак. – Стб. 103-104.

Лозинская Л. Я. 1963. Молдавская Н. Д. Движение «Бури и натиска» // История немеской литературы в пяти томах. – М.: – Т.II. – С. 224-233. – 464 с.

Рыков, А.В. Буря, натиск и легкое доминирование. Генри Фюзели // Студиа Султурае: Вып. 1 (43). –С. 68-77.

Макаров А.Н. 2014. Элементы тривиалности в раннем творчестве Ф.М. Клингера // Дискуссия. – 2014. – № 2. – С. 134–137.

Смолян О.А. 1963. Клингер // История немеской литературы. – М.: Изд-во АН СССР. – Т. 2. – С. 254–262.

Huyssen A. 1980. Drama des Sturm und Drang. Kommentar zu эiner Эpoche. – München: Winkler. – 272 s.

Karthaus U. 2007. Sturm und Drang. Эpoche-WerkeWirkung. – München: Beck, 2, aktualisierte Auflage. – 280 s.

Klinger F.M. 2015. Die neue Arria; Simsone Grisaldo; Sturm und Drang; Pyrrhus. – London: Forgotten Books. – 469 s.

Luserke M. 1997. Sturm und Drang: Autoren, Texte, Themen. – Stuttgart: Reclam. – 389 s.

Poeplau A. 2012. Selbstbehauptung und Tugendheroismus. Das dramatische Werk Friedrich Maximilian Klingers zwischen Sturm und Drang und Spätaufklärung. – Würzburg: Königshausen & Neumann, – 284 s.

Ахматова А. 1933. Последняя сказка Пушкина //«Звезда». №1.

Ионкис Г. 2009. Лессинг и Менделсон: история одной дружбы // Партнер.– № 10, 11.

Лессинг 2010. / Ерохин А.В. // Лас-Тунас – Ломонос. – М.: Болшая российская энциклопедия. – С. 339-340.

КирпичниковА.И. 1890-1907. Клопшток, Фридрих Готлиб // Энциклопедический словарь Брокгауза и Уфрона: в 86 т. т slovar : (82 т. и 4 доп.). – Спб.

Каган Ю., М.Клопшток. 1966. // Краткая литературная энциклопедия. Т. 3: Иаков– Лакснесс. / Гл. ред. А.А.Сурков. – М.: Сов. энцикл. – Стб. 604-605.

Каган Ю. М. Клопшток. 1969-1978. Фридрих Готлиб // Болшая советская энциклопедия: [в 30 т.] / гл. ред.А.М. Прохоров. – 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия.

Matyokubova T. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 120-122

Matyokubova T. The Expression Of The Poet's Feelings In Gafur Gulam's Poetry // American Journal of Advanced Scientific Research. 2024. № 1. – Pp. 62-64

Матёкубова T. G 'afur G 'ulom she'riyatining poetik jozibasi (Shoirning "Kuzatish" va "Sog 'inish" she'rlari tahlili misolida) // Узбекистан: язык и культура . 2024. № 2. – B. 88-98.

Матюшенко З.Г. 2010. Лессинг Готхолд // Новая философская энциклопедия: в 4 т. / пред. науч.-ред. Совета В. С.Стёпин. – 2-ое изд., испр. и доп. – М.: Мысль.

Хитров А.В. 2008. Лоренс Стерн и британский ассотсианизм XVIII в. // Вопросы философии, № 1. – С. 132-140.

Хитров А.В. Джон Локк. 2007. Лоренс Стерн и метафоры сознания в философской психологии XVIII века // Философия сознания: классика и современност: Вторые грязновские чтения. – М., Издател Савин С. А. – С. 45-54.

Неустроев В.П. 1974. Самарина Р.М. История зарубежной литературы XVIII века, изд. Московского университета.

Yakubov I. 2024. Aesthetic Ideal And Leading Concept Of Chulpon In The Story// American Journal of Advanced Scientific Research. № 1.

Yakubov I. 2024. Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. № 29. – Pp. 123-126

Yoqubov I. 2024. Erkin A'zamning "Zabarjad" kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Узбекистан: язык и культура . № 2. – B. 66-77

Yokubova S.I. 2022. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston:til va madaniyat. – Toshkent. № 3. – B. 42-54.

Yokubova S.I. 2023. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germenevtik talqin // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent. № 3. – B. 79-90.

Sentimental prose: main characteristics and typology

Niyazova Munira[1]

Abstract

This article analyzes the factors of the emergence of sentimentalism in world literature. On a comparative typological basis, the main characteristics of sentimentalism and the characteristics of the creativity of such representatives as J.J. Rousseau, F. Schiller, G.A. Burger, W. Heinze, G.V. von Gerstenberg, F.M. Klinger, I.A. Leisevis, M.R. Lens, K.F. Maurice, A.S. Pushkin,. G.E. Lessing, F.G. Klopstock, L.S. Richardson.

Keywords. *sentimentalism, literary movement, guiding principle, elegy, novel writing, travel diary, memory, dramaturgy, lyrical suffering, poetic expressiveness, artistic skill.*

References

Purishev B.I. 1931. Entsiklopediya/ Klinger / Klinger Fridrikh Maksimilian // Literaturnaya entsiklopediya. – M., – T. 5.

Kiyanskaya, O. I. 2015. Dekabristy. – M.: Molodaya gvardiya. – 167 s.

Kiyanskaya O. I. 2005. Pestel'. – M.: Molodaya gvardiya. – 355 s.

Gladilin N.V. 2020. Metamorfozy «burnogo geniya». Tvorcheskiy put' Fridrikha Maksimiliana Klingera. – M.: Literaturnyy institut imeni A.M. Gor'kogo. – 256 s.

Makhov A.Ye. 2001. «Burya i natisk» // Literaturnaya entsiklopediya terminov i ponyatiy / Pod red. A.N. Nikolyukina. – Institut nauchnoy informatiki po obshchestvennym naukam RAN: Intelvak. – Stb. 103-104.

Lozinskaya L. YA. 1963. Moldavskaya N. D. Dvizheniye «Buri i natiska» // Istoriya nemetskoy literatury v pyati tomakh. – M.: – T.II. – S. 224-233. – 464 s.

Rykov, A.V. Burya, natisk i legkoye dominirovaniye. Genri Fyuzeli // Studiya Kul'ture: Vyp. 1 (43). –S. 68-77.

Makarov A.N. 2014. Elementy trivial'nosti v rannem tvorchestve F.M. Klingera // Diskussiya. – 2014. – № 2. – S. 134–137.

Smolyan O.A. 1963. Klinger // Istoriya nemetskoy literatury. – M.: Izd-vo AN SSSR. – T. 2. – S. 254–262.

Huyssen A. 1980. Drama des Sturm und Drang. Kommentar zu эiner Эpoche. – München: Winkler. – 272 s.

Karthaus U. 2007. Sturm und Drang. Эpoche-WerkeWirkung. – München:

[1] *Munira Dj. Niyazova* – Basic doctoral student of Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
E-mail: munira.niyazova.81@invox.ru
ORCID ID: 0000-0003-3459-7768
For citation: Niyazova, M. 2024. "Sentimental prose: main characteristics and typology". *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 48-55.

Beck, 2, aktualisierte Auflage. – 280 s.
Klinger F.M. 2015. Die neue Arria; Simsone Grisaldo; Sturm und Drang; Pyrrhus. – London: Forgotten Books. – 469 s.
Luserke M. 1997. Sturm und Drang: Autoren, Texte, Themen. – Stuttgart: Reclam. – 389 s.
Poeplau A. 2012. Selbstbehauptung und Tugendheroismus. Das dramatische Werk Friedrich Maximilian Klingers zwischen Sturm und Drang und Spätaufklärung. – Würzburg: Königshausen & Neumann, – 284 s.
Akhmatova A. 1933. Poslednyaya skazka Pushkina // «Zvezda». №1.
Ionkis G. 2009. Lessing i Mendelson: istoriya odnoy druzhby // Partner.– № 10, 11.
Lessing 2010. / Yerokhin A.V. // Las-Tunas – Lomonos. – M.: Bol'shaya rossiyskaya entsiklopediya. – S. 339-340.
KirpichnikovA.I. 1890-1907. Klopshtok, Fridrikh Gotlib // Entsiklopedicheskiy slovar' Brokgauza i Ufrona: v 86 t. t slovar': (82 t. i 4 dop.). – Spb.
Kagan YU., M.Klopshtok. 1966. // Kratkaya literaturnaya entsiklopediya. T. 3: Yakov– Laksness. / Gl. red. A.A.Surkov. – M.: Sov. entsikl. – Stb. 604-605.
Kagan YU. M. Klopshtok. 1969-1978 gg. Fridrikh Gotlib // Bol'shaya sovetskaya entsiklopediya: [v 30 t.] / gl. red.A.M. Prokhorov. – 3-ye izd. – M.: Sovetskaya entsiklopediya.
Matyokubova T. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 120-122
Matyokubova T. The Expression Of The Poet's Feelings In Gafur Gulam's Poetry // American Journal of Advanced Scientific Research. 2024. № 1. – Pp. 62-64
Матёкубова Т. G 'afur G 'ulom she'riyatining poetik jozibasi (Shoirning "Kuzatish" va "Sog 'inish" she'rlari tahlili misolida) // Узбекистан: язык и культура . 2024. № 2. – B. 88-98.
Matyushenko Z.G. 2010. Lessing Gotkhol'd // Novaya filosofskaya entsiklopediya: v 4 t. / pred. nauch.-red. V Sovete. S.Stepin. – 2-oye izd., ispr. i dop. – M.: Mysl'.
Khitrov A.V. 2008. Lorens Stern i britanskiy assotsianizm KHVIII v. // Voprosy filosofii, № 1. – S. 132-140.
Khitrov A.V. Dzhon Lokk. 2007. Lorens Stern i metafory soznaniya v filosofskoy psikhologii KHVIII veka // Filosofiya soznaniya: klassika i sovremennost': Vtoryye gryaznovskiye chteniya. – M., Izdatel' Savin S. A. – S. 45-54.
Neustroyev V.P. 1974. Samarina R.M. Istoriya zarubezhnoy literatury KHVIII veka, izd. Moskovskogo universiteta.
Yakubov I. 2024. Aesthetic Ideal And Leading Concept Of Chulpon In The Story// American Journal of Advanced Scientific Research. № 1.
Yakubov I. 2024. Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character // Texas Journal of Multidisciplinary Studies.

№ 29. – Pp. 123-126

Yoqubov I. 2024. Erkin A'zamning "Zabarjad" kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Узбекистан: язык и культура . № 2. – B. 66-77

Yokubova S.I. 2022. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston:til va madaniyat. – Toshkent. № 3. – B. 42-54.

Yokubova S.I. 2023. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germenevtik talqin // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent. № 3. – B. 79-90.

Badiiy-psixologizm maishiy muammolarni badiiy talqin etish vositasi sifatida

Dildora Aliqulova[1]

Abstrakt

Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda badiiy-psixologizm hamda maishiy muammolarni badiiy talqin etish vositasi sifatida o‘ziga xosligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlari: *Obraz, qahramon, kompozitsiya, uslub tipologiyasi, naturalistik tasvir, falsafiy-psixologik.*

Badiiy-psixologik tasvir roman janrining asosiy talqin prinsipi bo‘lib hisoblanadi. Asosan tirik va harakatdagi inson turmushi, hayoti bilan ish olib boradigan roman badiiy-psixologik tasvir, qahramonlar xarakteri va portretining ruhiy-psixologik tasvirisiz hech narsaga erisha olmasligi aniq.

Ruhiy-psixologik tasvir faqat qahramon, personajlar xarakterini ochish uchungina emas, balki voqeliklar, holatlar, vaziyatlar, ijtimoiy munosabatlar, oila munosabatlariga xos chigalliklarga atroflicha, o‘quvchi tushunadigan darajada ta’rif, talqin berish imkonini beradi. Inson fenomenini turli rakurslardan kuzatish, uni maishiy turmush intrigalari fonida tasvirlashda muhim badiiy vazifa bajaradi. Turmushning maishiy muammolari esa o‘z hayotimizda kuzatishimiz mumkin bo‘lganidek turli fitnalar, kelishmovchiliklar, quvonchlar, tashvishlar, yig‘i va iztirob, qayg‘ularsiz bo‘lishi mumkin emas.

Adabiyot nazariyasiga tegishli barcha tadqiqotlarda epik janrlar to‘g‘risida fikr yuritilganda birinchi navbatda badiiy-psixologik tasvir, talqin prinsiplariga urg‘u beriladi. Epik janrlarning qadimiy shakllari bilan keyingi yangi ko‘rinishlari o‘rtasidagi farqlanish reallik va psixologik tasvir ekaniga diqqatni qaratiladi. “Qadimiy epos bilan yangi eposning farqini ko‘rish uchun bir misol olaylik,-deb yozadi bu haqda akademik Izzat Sulton.-Navoiyning

[1] *Aliqulova Dildora Bakir qizi* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.
E-pochta: aliqulovadildora92@gmail.com
ORCID ID: 0000-0001-8660-0557
Iqtibos uchun: Aliqulova, D.B. 2024. “Badiiy-psixologizm maishiy muammolarni badiiy talqin etish vositasi sifatida”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3 (2). 56-62.

“Saddi Iskandaiy” dostoni bilan Oybekning “Navoiy” romani orasida mualliflarning hayotga, adabiyotning vazifalari va vositalariga munosabati masalasida provardida - ikkala yozuvchining ijodiy mahsuloining mazmuni va xarakterida katta farq mavjuddir. Navoiy Aleksandr Makedonskiyning shaxsi va hayoti haqida tarixan konkret haqqoniy asar yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi. Navoiyning niyati mashhur tarixiy shaxsning shartli badiiy siymosi orqali o‘z davrining (XV asrning) juda muhim ijtimoiy masalalarni (adolatparvarlik, ma’rifatparvarlik va hokazo) o‘rtaga tashlash va ularning amalga oshuvi uchun kurashdir. *Oybek ham o‘z qahramoni qiyofasida ana shu taraqqiyot uchun kurashuvchi sifatlarini birinchi planda tavirlashga intiladi, ammo bu vazifani bajarganda Navoiydan farqli o‘laroq, afsonaviy obraz yaratish yo‘li bilan bormaydi, balki bosh qahramonning psixologiyasi va faoliyatini haqqoniy tasvirlash, XV asr hayotining sinchkovlik bilan tekshirilgan obyektiv manzarasini berishga harakat etadi*” [4:243-244] (ta’kid bizga tegishli, D.A.). Ko‘rinyaptiki, zamonaviy epik asarning tarixiy davrga oid epik asardan farqi qahramon psixologiyasi, faoliyatining haqqoniy tasvirlanishi, hayotning obyektiv manzarasini berishdan iboratdir. Zamonaviy asarda voqealarning tarixiy asosga qahramonning esa ba’zan mutlaq, ba’zan esa nisbiy prototiplikka asoslanishi yozuvchidan voqelikni sinchkovlik bilan o‘rganish, haqqoniy obyektiv tasvirga erishish, qahramon psixologiyasiga diqqat qaratishni talab etadi. Aks holda zamonaviy asar qahramoni tarixiy obrazmi yoki zamonaviy obraz bo‘lginligidan qat’iy nazar ishonarli, to‘laqonli tasvirini topmaydi. Ayniqsa badiiy-psixologik tasvir badiiy obraz xarakter xususiyatlarini ochish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek “Yangi eposning yana bir xususiyati romanda o‘z aksini topadi: klassik eposda mazmun bosh qahramon atrofidagi voqealar tasviridan iborat bo‘lsa va shu munosabat bilan qahramonning ichki dunyosini ochishga alohida e’tibor berilsa, romanda “kishi ruhiyatining dialektikasi” (L.Tolstoy)ni ochish markaziy o‘rin oladi. Romanning bu xususiyatini ko‘pincha “psixologizm” yoki “psixoanaliz” deb ataydilar... (adabiyotni “insonshunoslik” deb tushunish, dastavval romanning shu xususiyatiga asoslangandir)” [4:248].

Roman janri haqiqatdan ham markiziga insonni qo‘yib tasvirlaydi. Inson psixologiyasini turli vaziyatlarda, badiiyatning turli rakurslarida ochib beradi. Buning uchun yozuvchi tarixiy yoki o‘zi mansub zamonani keng epik qamrovda idroklay olishi, badiiy talqin etishi lozim. Xuddi shunday keng qamrovdagi jamiyat, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning tashqi muhit bilan

bog‘liq tomonlari, ichki holatlari, batiniy quvonch, qayg‘u, iztiroblari psixologik tahlil yo‘li bilan ochiladi albatta. Yozuvchi tomonidan butun borlig‘i, dunyosi va qalb olami uyg‘unligida kuzatilgan inson boshqa insonlar, muhitlar, vaziyat va holatlar bilan badiiy reaksiyaga kirishtiriladi. Roman muallifi xuddi al-kimyogar kabi reaksiya jarayonlarini tasvirlaganidek, uning natijalarini ham ko‘rsatib berishga majbur. Insonlarning badiiy obrazlari ularning faqat ijtimoiy hayotdagi faoliyatlari, muloqotlari fonida emas, maishiy hayotdagi harakat, munosabat, faoliyat va natijalari bilan ham bog‘liq holda badiiy tasvirlanadi. Shuning uchun ham bunday keng planli tasvir inson ruhiy-psixologiyasini Izzat Sulton domla aytganlaridek “psixoanalitik” tahlil qilishni talab etadi. Darhaqiqat, “Muallif hayot haqida nimaiki demoqchi bo‘lsa. Shuning hammasi provardida badiiy asarda tasvir etilgan odamlarning yashash sharoiti, xulq-atvori, psixologiyasi, ishlari, intilishlari va o‘ylarida o‘z aksini topadi”[4:191].

Narimon Hotamov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan 1979 yilda yozilgan “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da badiiy psixologizmga oid maxsus maqolachani uchratmadik. Dilmurod Quronov, Zokir Mamajonov, Mashhura Sheralievalar tomonidan ijod etilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da esa badiiy psixologizmga bir yarim sahifa joy ajratilgan. Shuning bilan birgalikda ruhiy-psixologik tasvir, badiiy psixologizm masalalari muayyan tartib asosida, nazariy tizimlilikda bayon etilgan, sharhi berilgan. Mualliflarning yozishlariga qaraganda badiiy asardagi psixologizm quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Badiiy psixologizm badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratish, personaj ruhiyatini ochib berish, hatti-harakat, gap-so‘zlarini psixologik asoslash yo‘lida xizmat qiluvchi muhim vositalaridan biri.

2. Qahramon ruhiy-psixologik holatini bevosita ochib berishda o‘y-kechinmalar, his-tuyg‘ularning badiiy tasvir etilishida “ichki monolog”, “ong oqimi”, muallif tilidan hikoya qilish yetakchi usullar bo‘lib hisoblanadi.

3. Bilvosita psixologik tasvirning maydonga kelishida personaj hatti-harakati, gap-so‘zlari, yuz harakatlari (mimikasi), fiziologik o‘zgarishlar tasviri muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

4. Psixologik tasvirda peyzaj, detal, narsa-hodisalardan ham foydalanishi mumkin.

5. Psixologik tasvirda personaj nutqining individuallashtirilishi orqali obrazga xos xarakter xususiyatlari, shaxsiyat, dunyoqarash,

ruhiy-hayotiy holat, vaziyatlarning badiiy talqini yuzaga keladi. Dialogik nutq shakli ham muallif sharhi, izohi, jest va mimikalarni aks ettirishi orqali psixologik tasvirning faollashuvi hamda samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

6. Badiiy psixologizmning uch tamoyili adabiyotshunoslikda maxsus ajratib ko‘rsatiladi: a) dinamik tamoyil: personajning muayyan hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutishi, hatti-harakatlari, gap-so‘zlari orqali; b) tipologik tamoyil: personaj ruhiyati u shakllangan, harakatlanayotgan muhit, shart-sharoit orqali; v) analitik tamoyil: personaj qalbidagi his-tuyg‘ular, ongidagi o‘y-fikrlar va ularning asoslari, tadrijiy xossalari orqali ochib beriladi. Analitik tamoyil personaj qalbi, ongi, dunyoqarashidagi keskin burilish, ruhiy evrilishlarning maydonga kelishini ta’minlaganligi sababli uni “qalb dialektikasi” shakli deb ham yuritiladi.[3:50-51]

Rus olimi D.S. Lixachev badiiy adabiyot, ayniqsa prozaik asarlarga psixologizmning kirib kelishini inson shaxsiyati, ichki dunyosini yoritish uchun shart-sharoit, ma’naviy ehtiyojning yuzaga kelishi bilan izohlaydi: “XIV asr oxiri XV asr boshlarida insonni tasvirlashda maydonga kelgan eng muhim va eng xarakterli jihat o‘ziga xos “abstrakt psixologizm”dir. Agar XII – XIII asrlarda tag-zamini bilan inson harakati, muomalasi feodal fe’l-atvor nuqtayi nazaridan xarakterlangan bo‘lsa, XIV asr oxiri XV asr boshlari yozuvchilari diqqat markazini alohida odamning psixologik holati, sezgisi, hassiyoti, tashqi voqealarga nisbatan hissiy nidosi egalladi”. Bizning fikrimizcha D.S.Lixachev ilgari surgan fikr juda muhim fikr. Agar “adabiyot insonshunoslik” degan qarashdan kelib chiqadigan bo‘lsak, uning markaziga inson turadi. Adabiyotning xarakteri u insonni qay tarzda, qay yo‘sinda va qanday tasvirlaganiga qarab belgilanadi. Ayni vaqtda bu jamiyat, falsafa va fan insonga qanday munosabatda ekanini ham ko‘rsatadi. D.S.Lixachev qayd etib o‘tgan tarixiy davr, ya’ni o‘n to‘rtinchi asr oxiri va o‘n beshinchi asr boshlari Yevropada Renessans hodisasining yuqori cho‘qqiga chiqqan, rivojlanib kamolga yetgan davri bo‘lib hisoblanadi. Bas shunday ekan, gumanizm tamoyiliga asoslanuvchi Yevropa Renessansi davrida maydonga kelgan adabiyot o‘z-o‘zidan inson shaxsiyatiga chuqurroq murojaat qilishi tabiiydir. Inson shaxsiyatini mukammal tasvirlash uchun esa psixologizmdan foydalanish zarurat, albatta.

Hammamizga ma’lumki, insonning oilaviy munosabatlari o‘ta murakkab va xilma-xil yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Er-xotin, ota-bola, ona va qiz, aka-uka, opa-singil o‘rtasidagi munosabatlar, bu oilaga qarindosh sifatida qo‘shiluvchi kuyov, kelin, quda-andalar muomala

madaniyati, munosabat etikasi qadim-qadimdan beri shakllanib, rivojlanib kelayotgan qadriyatlardir. Yozuvchi mana shunday voqea va holatlardan tashkil topuvchi syujetlarni roman dunyosiga olib kirar ekan, o‘z-o‘zidan psixologik tasvirga ehtiyoj sezadi. Yanada aniqrog‘i o‘z asari voqealarini mana shunday psixologik munosabatlar ustiga quradi. Lekin maishiy muammolarni aks ettiruvchi oila syujeti ichida tasvirlanayotgan har bitta qahramon, obraz, personaj mohiyatiga ko‘ra olinganda alohida inson. Ularning har biri o‘z shaxsiyati, dunyoqarashi, xarakteri, fe’l-atvori, istagi, intilishlari, orzusi, armonlari, maqsad-niyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Ko‘rinish, portret, mimika, jest, so‘zlash maneralarini esa aytmasak ham bo‘ladi. Bizning fikrimizcha mana shularning hammasini individuallashtirib tasvirlash uchun yozuvchi eng avvalboshida psixolog bo‘lishi lozim. Shu tarzda inson shaxsiyatiga psixologik yondashgan yozuvchi psixologik tasvirni amalga oshiradi. Har bir personajni individuallashtirib tasvirlaydi. Bunda yuqorida qayd etilgan barcha vositalardan imkoni darajasida, asar g‘oyasi talab qilgan miqdorda foydalanadi. Buni yozuvchining psixologik tasvirlash usuliga xos birinchi usul desak bo‘ladi. Ikkinchi bir usul. Mana shunday individuallashtirilgan obrazlardan yagona asar obraz tizimini shakllantirish, asar qahramonlari psixologiyasini yagona badiiy rakursga jamlash yozuvchi tasviriga xos ikkinchi usuldir. Uchinchi usul, bu asar qahramonlarini turli, o‘zgaruvchan, murakkab hayotiy vaziyatlar ichiga olib kirish, syujetdagi keskin burilish nuqtalarini hosil etishdir. To‘rtinchi usul esa qahramonning ichki dunyosi psixologik tasviri orqali syujet voqealaridagi o‘zgarishlarni badiiy asoslash bo‘lib hisoblanadi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan ham ma’lum bo‘ldiki, psixologik tasvir, badiiy psixologizm masalasi adabiyot taraqqiy etgani, jamiyat va odamlarning xarakteri murakkablashgani sari rivojlanib, chuqurlashib boradi. O‘zbek adabiyoti epik asarlari tadriji misolida kuzatadigan bo‘lsak, masalan xalq eposi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidayoq psixologik tasvirning muayyan shakllariga duch kelishimiz mumkin. Go‘ro‘g‘libekning Zaydinoyning olib qochilishi sahnasidagi Zaydinoy holati, Go‘ro‘g‘libekning otini yo‘qotib chekkan iztiroblari, uning Hizr alayhissalom bilan uchrashgandagi muloqotlarini shu jumlaga kiritishimiz mumkin. “Alpomish” dostonidagi Boysaribiyning “Maslahat ber o‘n ming uyli qarindosh” deya qabiladoshlariga murojaat qilishi. Shu o‘rindagi psixolgik vaziyat. Baxshi tomonidan “choynakdan choy, poygakdan joy tegmaydigan” tarzida doston personajlaridan biri Yartiboyni

tasvirlanishi. Boysaribiy murojaat qilganidagi qabiladoshlarning holatlari, bir nima deyishni bilmasdan yer chizib qolishlari, ichki qo‘rquvlarini ko‘rsatadi. Yartiboyning qalmiqlar bilan quda-anda bo‘lish haqidagi taklifi esa uning yuragidagi xoinlik, sotqinlik, buqalamunlik hissiyotini bildirishi va bularning barcha-barchasi o‘zbek xalq eposlaridayoq badiiy psixologizm yorqin namoyon bo‘lganidan darak beradi. Xalq dostonlaridagi ushbu holatlarning hammasi oila muhiti va undagi muammolar bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Bu esa maishiy muammolar (masalan, oila qurish, quda bo‘lish, oilaviy totuvlik, tug‘ilgan xonadonni himoya qilish kabi) o‘sha paytda, xalq baxshilari tomonidan kuylangan bo‘lishiligiga qaramasdan psixologik tasvirlardan xoli bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

Алпомиш. Ўзбек халқ достони. – Тошкент: ШАРҚ НМКБТ, 1998.
Ғўрўғлининг туғилиши. – Тошкент: Ғ.Ғулом нашриёти, 1967.
Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 50-51.
Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 243-244.
http://lib.pushkinskijdom.ru/Portals/3/PDF/TODRL/12_tom/Lihachev/Lihachev%20-%200106.pdf

Artistic psychology as a means of artistic interpretation of domestic problems

Dildora Aliqulova[1]

Abstract

This article talks about artistic-psychology in literary studies and its uniqueness as a means of artistic interpretation of everyday problems.

Key words: *Image, hero, composition, style typology, naturalistic image, philosophical-psychological.*

References:

Alpomish. 1998. Ŭzbek khalq dostoni. – Toshkent: SHARQ NMKBT.

[1] *Dildora B. Aliqulova* – Doctoral student of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-mail: aliqulovadildora92@gmail.com
ORCID ID: 0000-0001-8660-0557
For citation: Aliqulova, D.B. 2024. “Artistic psychology as a means of artistic interpretation of domestic problems”. *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 56-62.

Gŭrŭġlining tuġilishi.1967. – Toshkent: Ġ.Ġulom nashiriyoti.
Quronov D. va boshq. 2010. Adabiyotshunoslik luġati. – Toshkent: Akademnashr.
Sulton Izzat. 1980. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Ŭqituvchi.
http://lib.pushkinskijdom.ru/Portals/3/PDF/TODRL/12_tom/Lihachev/Lihachev%20-%200106.pdf

ISSN 2181-922X 63—69

Kareta va tralleybus xronotopining tipologik xususiyatalari
(“Uliss” va “kapalaklar o‘yini” romanlari misolida)

Laylo To‘ychiyeva[1]

Abstrakt

Ushbu maqolada Irland yozuvchi Jems Joys hamda To‘xtamurod Rustam ijodi va uslubi tahlil qilingan. Maqolada “Uliss sarguzashtlari” romani va “Kapalaklar o‘yini” romani badiiy xususiyatlari maxsus o‘rganilgan. Romanning syujeti, kompozitsiyasi va xronotopidagi mushtarakliklar hamda o‘ziga xos xususiyatlar yoritilgan. Trolleybus va kareta xronotoplarining vaziyat xronotopi sifatidagi funksiyasi maxsus yoritilgan

Kalit so‘zlar: *Jems Joys “Uliss sarguzashtlari” romani. To‘xtamurod Rustam “Kapalaklar o‘yini” romani. Badiiy uslub. Badiiy tasvir. Roman syujet. Badiiy kompozitsiya. Roviy. Xronotop. Trolleybus xronotopi. Kareta xronotopi. Vaziyat xronotopi.*

Kirish

Dunyo romanchiligining bugungi qiyofasi nufuzi bir qancha yangilanishlar ila kengayib bormoqda. Nasr olamida har bir muallifning ijodga o‘ziga xos yondoshish uslubi mavjud. Yozuvchining uslubi voqelikni ijodiy o‘zlashtirishi, uning ijtimoiy-estetik ideali, dunyoqarashi, didi, bilim saviyasi bilan bog‘liq, zahmattalab, murakkab jarayondir. Har bir Ijodkor uslubining shakllanishida sharq va g‘arbning boy manbaalari ta’siri sezilib turadi. Xuddi shunday o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan To‘xtamurod Rustamning "Kapalaklar o‘yini" romani ham ijod olamiga safar qilgan ijodkoring dastlabki va ijobiy natijalaidan biridir. Romanda uchraydigan har bir detal ma’lum bir ma’no tashishga xizmat qilib, ulardan biri yulib olinsa asarning umum mazmuniga putur yetadigandek go‘yo. Yozuvchining "Kapalaklar o‘yini" romanida bir qacha o‘rinlarda turli xronotoplar qo‘llanilgan. Ulardan biri dengiz

[1] *Laylo To‘ychiyeva* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktaranti
E-pochta: toychiyevalaylo0@gmail.com
ORCID ID: 0009-0007-3129-4557
Iqtibos uchun: To‘ychiyeva, L. 2024. “Kareta va tralleybus xronotopining tipologik xususiyatalari”. O‘zbekiston: til va madaniyat, 3 (1): 63-69.

xronotopi bo‘lsa ikkinchisi trolleybus xronotopi yana boshqasi esa xona xronotoplaridir. Bu xronotoplarning har birining o‘z o‘rni va o‘z vazifasi bor albatta. "Adabiyotda badiiy o‘zlashtirilgan zamon va makon munosabatlarining o‘zaro va muhim aloqasini xronotop deb ataymiz" [Baxtin 2015, 24] - deya xronotopga ta’rif bergan M.Baxtin. "Kapalaklar o‘yini" romanida e’tiborimizni tortgan jihat trolleybus xronotopi bo‘ldi. Badiiy adabiyotda uchraydigan bu xronotoplar ma’lum bir manzildan boshqa bir makonga tomon yo‘l olgan yo‘lovchining uzog‘ini yaqin qilish uchun ishlatiladigan xronotop shaklidir. Azaldan bu xronotop o‘rnida karvon tuya ot kabi obrazlar qo‘llanilib kelingan. Ular insonlarning uzog‘ini yaqin qilguvchi vosita vazifasini bajargan. Asrlar osha bu xronotop tarmoqlari tobora lokallashib, foytun, izvosh, kareta trolleybus, mashina, kabi ulovlar nomiga ko‘chib kelmoqda. Bugungi kun mdernizm oqimiga oid romanlarda bu kabi xronotoplarning o‘zgacha mazmun kasb etayotgani ahamiyotga molikdir. "Kapalaklar o‘yini" romanidagi trolleybus hamda Irland yozvchisi Jems Joysning "Uliss" romanida uchraydigan kareta xronotoplari an’aaviy xronotop funksiyasidan farqli ravishda qahramon ruhiyati, ichki olami hamda psixologik holatlarini bir vaziyatdan boshqa vaziyatga o‘tgani sari ularda kechayotgan jarayonlari uzviy bog‘lash bilan birga, muallif uchun ham poetik sath yaratib beradi. Ya’ni obrazlar ruhiy olamidagi evrilishlarni ochib berishda vaziyat xronotopi vazifasini bajaradi.

Shu o‘rinda vaziyat xronotopi nima degan savolga biroz to‘xtalib o‘tsak. Rus adabiyotshunosi M.Baxtin “Romanda zamon va xronotop shakllari” kitobining “Rabliyona xronotop” bo‘limida komedik holatni yuzaga chiqaruvchi tragik vaziyat haqida to‘xtalib o‘tgan. Misol tariqasida “Gargantyua va Pantagryul” kitobining “Panurg podasi” epizodida qo‘y suruvini haydab kelayotgan savdogardan o‘ch olmoqchi bo‘lgan Panurg va uning qilgan ishlari, hamda dengizga tushib ketgan savdogarlarni yana qaytib kemaga chiqib olmasliklarini taminlab turuvchi, dunyo va oxiratdan vaz o‘qib turgan ammo, butun fikri hayoli dengizda bo‘lgan rohibning holatini kulgili tarzda tasvirlaganligini keltiradi. Bundan tashqari to‘rtinchi kitobda tomog‘iga uzum donasi tiqilib o‘lgan Anakreon, kosadagi sutga qo‘shilib ketgan echki qilidan o‘lgan Proter Fobiy va shunga o‘xshash bir qancha komik vaziyatni yuzaga chiqaruvchi o‘lim holatlarini ko‘rsatadi [Baxtin 2015, 24]. Ammo, olim bu holatlarni aynan vaziyat xronotopi deb atamaydi. O‘zbek adabiyotshunosi U.Jo‘raqulov Nazariy poetika masalalari kitobining “Layli va Majnun dostonida tragik vaziyat xronotopi” bo‘limida vaziyat

xronotopi xususida o‘zining qimmatli ma’lumotlarini berib o‘tadi. Xususan Layli va Majnun dostonida vaqt va makon aro uyg‘unlik xronotopning universal shakli ekanligi va undagi tragik vaziyatlar ham butun insoniyatga oid ekanligini yozadi [Jo‘raqulov 2015, 124]. Olimning fikricha bu dunyo insonlarining ilojsiz vaziyat ichra yashashi ularning tragik vaziyatda ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni haq jamoliga yeta olmaslik bu insonyatning tragik holati deya ta’kidlaydi

Yozuvchi To‘xtamurod Rustamning "Kapalaklar o‘yini" romanida uchraydigan trolleybus xronotopiga e’tibor qaratsak. Roman quyidagi jumlalar bilan boshlanadi. "Baqahovuz vaqti bilan soat roppa rosa o‘n olti-yu qirq to‘rtda tayoragoh biqindagi gavjum bekatga trolleybus kelib to‘xtadi" [Rustamov 2000, 3]. Trolleybus odam yutadigan yuxodek har bir bekatda insonlarni yutishga harakat qilmoqda. Ularning ichida Badal Armon ham bor edi. Dastlab sezilarli darajada noqulaylik tug‘dirmagan trolleybus keyinchalik Badal Armon uchun qiyin vaziyatlarni yuzaga chiqaradi. Xususan trolleybusning har bir bekatda to‘xtashi va yo‘lovchilarni qabul qilishi Badal Armon nazdida bu jismni odam yutayotgan vaxshiy yuxodek gavdalantiradi. Badal Armon trolleybusda ketar ekan uning har bekatda to‘xtashi, yo‘lovchilar ko‘pligidan hali muvozanatini saqlab ulgurmasdan trolleybus oynalariga qayta-qayta borib urilishi va bunga qarshilik ko‘rsata olmasligi uning g‘ashiga tegadi. Trolleybus xronotopi shunday tig‘iz holatda asar qahramonida kechayotgan jarayonni aks ettirish uchun vaziyat yaratgan xronotop sifatida qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz. Trolleybusdagi siqiqliklar qiyinchiliklar ichida ketarkan, qahramonimiz ko‘z o‘ngiga nuqul odamga yoqmaydigan uning g‘ashini keltiradigan vaziyatlar keladi. Masalan ha deb oynaga borib urilganda yerga yiqilib tushushi mumkin bo‘lgan holatni va bu holatda olamni suv bossa to‘pig‘iga ham kelmaydigan Ubay sartaroshni eslaydi. Badalning xayolida agarda men yiqilib tushgudek bo‘lsam yotgan holimda ham bu boqibeg‘am odam ustarasi bilan qo‘shiq hirgoyi qilgan tarzda o‘z ishida davom etaveradi qabilidagi fikrlar aylanaveradi. “*Badal Armon ko‘z, til, qulog‘i va jami boshqa tan a’zolari hamda ular bilan bog‘liq almoyi jalmoyi mubolag‘alariga qo‘shilib ikki yo‘l o‘rtasida yuztuban yiqilgan bo‘lardi. U hatto Ubay satarosh basavlat gavdasi bilan besunaqay tiz tushgan asno o‘zini to‘g‘rirogi bir vaqtlar Badal Armon atalmishning tosh yerga qulab chalpak bo‘lgan jasadini o‘zining dong‘i ketgan po‘lat damli ustarasi ila shoshilmay qirtishlab olayotganini aniq tiniq ko‘z oldiga ketirdi*...” [Rustamov 2000, 4]. Shundan so‘ng ustaraning asab torlarini titratuvchi qirt qirti hamda Ubay sartaroshning

beo‘xshov hirgoyisi qulog‘iga chalingandek bo‘ladi. Yana shunday vaziyat kelganda avval o‘tib ketgan Doqi Yunus eslanadi. Undan so‘ngra esa trolleybus biroz bo‘shagandek bo‘lganda sigaret chekib tinchlanishga harakat qiladi. Afsuski bu safar trolleybus peshtoqiga yopishtirilgan yozuvga ko‘zi tushadi. "Chekilmasi” [Rustamov 2000, 5] Trolleybus xronotopi Badal Armonni o‘z erkiga qo‘ymasdan uni nuqul turtkilab chegaralab siqib turadi.....

"Kapalaklar o‘yini" romanidan farqli ravishda "Uliss" romanida insonlarni ma’lum bir manzilga eltish vazifasini Kareta xronotopi amalga oshiradi. Romanining 5-voqeasida boshlangan dafn marosimi 6-voqega kelib ham davom etadi. Epizodning bu qismida L.Blum karetaga chiqqanidan to marhum Paddi Dignamni qabrga qo‘yib qaytgunlarigacha bo‘lgan voqealar tasvirlanadi. Shu qisqa vaqt davomida L.Blumning ong osti hissiyotlari, kechinmalari tug‘yonlari shu qadar yorqin gavdalantiriladiki, hatto, inson ongining eng yashirin nuqtalarigcha kirib borilib unda mavjlanayotgan, to‘lqinli dengizlardan tortib firtina-yu bo‘ronlargacha ro‘yi rost aks ettiriladi. Bu jarayonlarning barchasi birgina karetada ro‘y beradi. Shundan ko‘rinadiki, kareta obrazlarnig psixologik holatlarini ochib beruvchi vaziyat xronotopi vazifasini bajaradi. "Kapalaklar o‘yini" romanida trolleybus va uning har bekatda to‘xtab odam olishi ochofat yuxodek tasvirlanib, mazmunni kuchaytirish uchun metaforaning ustunligidan foydalanilgan bo‘lsa "Uliss"da kareta va qabriston xronotoplari bir biriga ma’no hamda mantiqan zid tushunchali xronotoplar ekanligidan foydalanib mazmuniy ustunlikka erishilgan. Kareta doimiy harakatlanib turuvchi, insonlarni bir manzildan ikkinchi manzilga eltuvchi obraz bo‘lsa, qabriston esa muqim bir manzilni anglatadi. 6- epizodnng boshidan oxiigacha qabriston va kareta bir o‘rinda qo‘llanilib o‘ziga xos kontrastni hosil qilgan. Bu muallif maqsadini amalga oshirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari romanda bir obraz tilidan ”Ana tramvay keldi. O‘lik bo‘lishiga qaramay bizdan avval yetib keldi [Joys 2013, 140],- degan so‘z keltiriladi. Bu bilan J.Joys butunboshli lanj, befarq insonlarga nisbatan qattiq kesatiqni aks ettirgandek. L.Blum qabristonga borguniga qadar bir qancha xotiralari bilan to‘qnashadi. Yoki o‘zi uchun haq bo‘lgan fikrlarni o‘ylaydi. Shu jumladan, o‘gli Rudiyni ham yodga oladi. O‘lgan og‘li Rudiyning xotiralari L.Blum qalbini tirnaydi. Barcha otalar singari L.Blum ham og‘lining mustaqil hayotga qadam qo‘yishida ko‘makchi bo‘lish istagidaligini aytadi. Bu xuddi Joys tildan aytilgandek go‘yo. *"O‘glimni odam qilardim, unga nemis tilini o‘rgatardim"* [Joys 2013, 136]. Karetada L.Blum nafaqat og‘li balki

turmush o‘rtog‘i Moli bilan boshdan kechirgan shirin damlari hamda uning xiyonatini ham eslab o‘tadi. Umuman olganda barcha voqealar ong ostida sodir bo‘ladi. Rangi zulmatni yodga soluvchi kichik, biqiq kareta esa bu voqealarni eslash va o‘sha jarayonga kirish vaziyatini yaratadi.

"Uliss" romani insonlarga bir hodisaga turli rakurslardan boqmoq joizligini ham ko‘satadigan romandi. Masalan shu epizodning o‘zida bir fikrning turli insonlar tomonidan turlicha talqin qilinishini ko‘rish mumkin. Odamlardan biri **"**Tramvayning bir yo‘ldan boshqa yo‘lga o‘tishini qandayir bir shaxs bajarishi kerak emas uni avtomatlashtirish kerak" desa boshqa bir inson, buning teskarisini aytadi. Har ikkala shaxs ham o‘z fikrini isbotlash uchun turlicha dalillar keltiradi. Kimdir bunday ixtiro kashf etilsa bir odamning ishsiz qolishini aytsa, boshqa biri shu yangilikni kashf etgan ixtirochining ishli bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu fikrlarni esa Blum karetada ketayotgan vaqtda ong ostida tahlil qiladi. Oltinchi epizod va kareta xronotopi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlardan yana biri shundan iboratki, muallif karetadagi suhbatda diniy muhtaraklik mavzuidagi shtrixlarni ham berib o‘tadi. Karetada ketayotgan misster Pauer tilidan quyidagi gaplar kelrtiriladi: *"-Lekin eng yomoni, -dedi Mister Pauer- odamning o‘z joniga o‘zi qasd qilishi"* [Joys 2013, 137]. Suhbat tugagandan so‘ng L.Blum ongida quyidagi fikrlar kechadi. "*O‘z joniga qasd qilish va bola o‘ldirishni bu yerda kechirishmaydi. Nasroniycha ko‘mishni ham rad etishadi"* [Joys 2013, 137]**.** Bu holat islom dinida ham qoralanishi ma’lum. Yuqoridagi jumlalar inson ong ostida ma’lum ma’noda diniy mushtaraklik hosil bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Romanda bu jarayon aynan kareta va undagi tig‘iz vaziyatda yuzaga chiqqan. Bundan ko‘rinadiki, oltinchi voqeadagi kareta detali turli holatlarni yuzaga chiqaruvchi vaziyat xronotopi funksiyasini bajaradi.

Jems Joysning "Uliss" romanida karetaning har bir muyulishdan o‘tishi, sekinlashishi va burulishi L.Blum hayotida yoki uning vatani Irlandiya tarixida bo‘lib o‘tgan muhim voqeni yodga olishi uchun asosiy vaziyatni yuzaga chiqaradi. Masalan muyulishlarning birida Bibimaryam nomi ostida ish yuritayotgan kasalxona tilga olinadi. Va shu kasalxona faoliyati bilan bog‘liq boshqa xotiralar ham uyg‘onishiga turtki beradi. Keyingi to‘qnashuvlarda mol podasi va qushxonalar eslanadi. Ulardan chiqadigan sassiq hidlar hamda qushxonlardagi chiqindilarning sovun va margarin korxonasiga yuborilishi haqida aytib o‘tiladi. Kareta yurgani sari turli joylardan o‘tadi. L. Blum hayolida har bir yerdan o‘tayotganda

shu joyda bo‘lib o‘tgan voqea hodisalar eslanadi. Kareta esa ushbu holatlarni eslash uchun bir vaziyatni yaratadi.

Tramvaylar bilan kechadigan jarayonlardan yana biri bu uning yo‘nalishi bilan bog‘liq qarashlardir. Oltinchi voqeada motam marosimidagi ikki insonning bir masalada o‘zaro qilgan suhbatiga nazar solsak. Bir inson tramvay yo‘lini to‘g‘ri qabristonga burib yuborish kerak desa, ikkinchisi tobutni ko‘tarib boradigan maxsus tramvaylar yaratish kerakligini aytib bahslashadi. Bu fikrlar asli yaroqlilik holati bo‘lmagan, hamda mantiqsiz edi. Ammo, inson ong ostida bu kabi fikrlar bo‘lishi tabiiydir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, "Uliss" inson ong ostida turi xil voqea va hodisalarga turlicha qarashlar mavjdligni ko‘rsatadi. Unda butun insoniyat uchun dolzarb g‘oyalar bo‘lishi bilan birga, ma’no va mazmundan butunlay yiroq, oniy lahzalarda ong ostida paydo bo‘lib keyinchalik shakllanmaydigan hamda o‘zini oqlamadigan fikrlar borligini ko‘rsatadi. Bu fikrlar o‘z-o‘zidan bayon etib bo‘lmaydi. Ularni ifodalash uchun muallifdan ma’lum bir vaziyat talab etiladi. Karetaning qabristonga borib qaytgunicha uzunda-uzoq yurishi mana shunday holatlarni yuzaga chiqarishga zamin yaratgandek go‘yo. "Uliss" romanida kareta xronotopi L.Blum ruhiy olamida kechayotgan jarayonlarni sokin bir tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi. "Kapalaklar o‘yini" romanida Badal Armon yashaydigan biqiq muhitni va unga nisbatan Badaldagi g‘azab kinoya o‘fkalarini umumiy ketma-ketlikda ko‘rsatib berish uchun odam yutadigan yuxodek deya tariflangan trolleybs xronotopidan foydalanilgan. Trolleybusdagi siqiqliklar go‘yo qahramonimizning o‘z erkiga qo‘ymagan jamiyatga, uni har tarafdan chegaralab turgan qonunlarga qarshi yuzaga chiqishi tayin bo‘lan isyonini aks etiradi. Jems Joysdan farqli o‘laroq To‘xtamurod Rustam "Kapalaklar o‘yni" romanida trolleybus xronotopi orqali Badal Armon ruhiyatidagi evrilishlarni shiddatli, isyonkor tarzda aks ettiradi.

Adabiyotlar

Jems Joys “Uliss sarguzashtlari” roman Toshkent “O‘zbekiston” 2013 y.
Rustamov T. “Kapalaklar o‘yini” Toshkent-2000
Rustamov T. “Dengizni ko‘rmagan odamlar”.Toshkent. Global box-2020
Джеймс Джойс .Дублинцы. Рассказы. Портрет художника в юности. Роман. 2. Москва Знаменитая Книга 1993
Jo‘raqulov U. “Nazariy poetika masalalari”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015.
Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva.-T.:Fan 2006.
Akmal Saidov “Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish”. Toshkent 2020-y
Pirnazarova M. “Roman va uslub”(*ilmiy monografiya).*Muharrir nashriyoti.

Toshkent-2012
“Jahon adabiyoti” jurnali, 2012. № 11
“Sharq yulduzi” jurnali. 2010. № 1
“Yoshlik”, 2016 yil 3-son
“Jahon adabiyoti” jurnali, 2009. № 2
Ijodning o‘ttiz lahzasi”.Toshkent 2005-y

Typological characteristics of the carriage and trolleybus chronotope

Laylo Tuychieva[1]

Abstract

This article analyzes the creativity and style of Irish writer James Joyce and Tokhtamurod Rustam. The article specifically studies the artistic features of the novel "The Adventures of Ulysses" and "The Game of Butterflies". Commonalities and unique features of the plot, composition and chronology of the novel are highlighted. The function of trolleybus and carriage chronotopes as situational chronotopes is specially highlighted.

Key words: *James Joyce’s novel The Adventures of Ulysses. Tokhtamurod Rustam’s novel "Butterfly Game". Artistic style. Artistic image. Novel plot. Artistic composition. Narrator. Chronotop. Trolleybus chronotope. Careta chronotope. Chronotope of the situation.*

References

Jems Joys “Uliss sarguzashtlari” roman Toshkent “O‘zbekiston” 2013 y.
Rustamov T. “Kapalaklar o‘yini” Toshkent-2000
Rustamov T. “Dengizni ko‘rmagan odamlar”.Toshkent. Global box-2020
Dzheyms Dzhoys .Dublintsy. Passkazy. Portret khudozhnika v yunosti. Roman. 2. Moskva Znamenitaya Kniga 1993.
Jo‘raqulov U. “Nazariy poetika masalalari”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015.
Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva.-T.:Fan 2006.
Akmal Saidov “Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish”. Toshkent 2020-y
Pirnazarova M. “Roman va uslub”(*ilmiy monografiya).*Muharrir nashriyoti. Toshkent-2012
“Jahon adabiyoti” jurnali, 2012. № 11
“Sharq yulduzi” jurnali. 2010. № 1
“Yoshlik”, 2016 yil 3-son
“Jahon adabiyoti” jurnali, 2009. № 2
Ijodning o‘ttiz lahzasi”.Toshkent 2005-y

[1] *Laylo Tuychiyeva* – Basic doctoral student of Alisher Navo’i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
E-mail: toychiyevalaylo0@gmail.com
ORCID ID: 0009-0007-3129-4557
For citation: Tuychiyeva, L. 2024. “Typological characteristics of the carriage and trolleybus chronotope”. *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 63-69.

ISSN 2181-922X 70—77

O‘zbek va xorijiy qodiriyshunoslikni qiyosiy rejada o‘rganish

Elmurod Tursunov[1]

Abstrakt

Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodiy faoliyati nafaqat mamlakatimiz va qardosh xalqlar adabiyotshunoslarining, balki xorijiy olimlar, jadidshunoslar, qodiriyshunoslarning ham tadqiqto obyekti bo‘lib keldi. Mazkur maqolada o‘zbek jadid adabiyoti namoyandalari, xususan, Abdulla Qodiriy shaxsiyati va ijodiy evolyutsiyasi, uning adabiy-estetik mahorati chet el tadqiqotchilari tomonidan qay darajada tahlilga tortilayotgani xususida so‘z boradi. Shuningdek, o‘zbek va xorojiy qodiriyshunoslarning adib ijodiy yo‘li borasida olib borgan izlanishlari ilmiy-adabiy jihatdan qiyoslanadi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, estetik ideal, taraqqiyparvar, millatparvar, fenomen.*

Kirish

Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida ilm-fanda erishilgan eng so‘nggi ilg‘or ilmiy-nazariy-falsafiy yutuqlarni istefoda etgan holda Abdulla Qodiriy tomonidan yaratilgan adabiy-madaniy meros har tomonlama tadqiq etib kelinmoqda. Odatda ijodkorning adabiy-estetik ideali, maqsadi va badiiy tafakkuri ko‘p hollarda to‘laqonli badiiy talqin va tahlil tamoyillari me’yorlariga javob bermaydi. Bunda talqin etilayotgan hamda tahlilga tortilayotgan badiiy asar yoki, umuman olganda, adibning butun ijodiy faoliyati davrning hukmron siyosati ta’sirida umuman boshqa me’yorlar va o‘sha siyosatga xizmat qiluvchi qonuniyatlar prizmasidan o‘tishga mahkum. Ayni shunday holatni Abdulla Qodiriy ijodida ham kuzatish mumkin.

O‘zbek va jahon adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Abdulla Qodiriyning asarlari nafaqat mamlakatimiz adabiyotshunoslari tomonidan o‘rganiladi, balki jahon adabiyoti namoyondalarining ham diqqat markazidadir. “Adabiyot deb atalmish buyuk tafakkur ummoniga qo‘shilgan har tomchining qadri o‘z vaqtida anglanmasligi

[1] *Tursunov Elmurod Umrzoqovich* – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-pochta: tursunovelmurod03@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-3379-6443
Iqtibos uchun: Tursunov, E. 2024. “O‘zbek va xorijiy qodiriyshunoslikni qiyosiy rejada o‘rganish”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3 (2): 70-77.

tabiiy. Faqat uning nechog‘liq qimmatga ega ekanligini kuzatib turgan yoki uni his qilganlar bilishlari mumkin. Abdulla Qodiriy ijodi ham adabiyot ummoniga o‘z vaqtida tomgan va ummonda o‘ziga xos to‘lqinlar hosil qilishga sababchi bo‘lgan hodisa edi”[1;3]. Qariyb bir asr vaqt oralig‘ida havaskor adabiyotshunoslardan tortib, qalami o‘tkir adabiy tanqidchilargacha adibning ijodini imkon qadar sharhlashga intildilar. Muayyan davrda Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyati turli mafkuraviy tazyiqlar va sotsiolistik metodlari ta’sirida biryoqlama talqin qilib kelindi.

Sovet adabiyotshunosligida adib tomonidan yaratilgan asarlari siyosiy nuqtayi nazardan tekshirilgan bo‘lsa-da, mustaqillikdan so‘ng Abdulla Qodiriy ijodining sof badiiy estetik jihatlari yoritila boshlandi. “Shu ma’noda adabiyot va siyosat juftligi filologiya ilmida har vaqt yonma-yon keldi. Xorijda esa o‘zbek adabiyoti, xususan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat va Behbudiylar ijodi bir oz o‘zgacha talqin qilindi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligida ijod ahli uchun erkinlik yuzaga keldi. Har bir ijodkot – adibu olimlar ushbu imkoniyatdan unumli foydalandilar.”[2;3] Tadqiqotimizning mazkur fasli o‘zbek va xorijiy qodiriyshunosligining qiyosiy aspektdagi tadqiqiga bag‘ishlanadi.

Yaqin bir asr vaqt oralig‘ida o‘zbek jadid adabiyoti namoyondalarining ijodi va hayoti, dunyoqarashi haqida ba’zan biryoqlama, vulgar sotsiolizm metodlari ta’siridagi ilmiy maqolalar yozildiki, ularda adib asarlarining g‘oyaviy-badiiy mohiyatini teran anglashga to‘sqinlik qiladigan elementlar talayginadir. Shunday bo‘lsa-da, Abdulla Qodiriyning adabiy-nazariy tafakkurini o‘z holicha, hech qanday mafkuraviy-siyosiy bosimlarsiz ilmiy asoslashga urinishlar ham kuzatildi.

Qodiriyshunoslikning o‘zbek va jahon adabiyotshunoslari tomonidan ilk o‘rganilish davri XX-asrning birinchi choragidan boshlandi. Bu davrga kelib endigina ko‘zga ko‘rina boshlangan adabiy tanqidchilik va yozuvchilar ijodiga qiziqish ilmiy taqrizlar, maqolalar hamda adabiy munozalar shaklida kechdi. Bu esa o‘sha davrning erkin ijodiy sharoit hukmron bo‘lganligi va xolis talqinchilik ruhi ustunlik qilganidan dalolat beradi.

1922 yil “Inqilob” jurnalining qator sonlarida B.Pestovskiyning “O‘zbek teatrining tarixi” nomli maqolasi [3;6], “Turkiston” jurnalida Abdurahmon Sad’iyning “Oktyabr o‘zgarishi va o‘zbek adabiyoti”[4;7] sarlavhali maqolasi, Ali Ismoilzodaning “Adabiyot g‘avg‘osi”[5;3] maqolasi, V.Mahmudning “Bu kungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz”[6;2] kabi maqolalarida Abdulla Qodiriyning

“Baxtsiz kuyov” dramasi haqida so‘z yuritiladi.

O‘tgan asrning 20-30 yillarida Olim Sharafiddinov, M.Sheverdin, Sotti Husayn, Oybek, Mirmuhsin, M.Solihov, A.Sad’iy, J.Boypo‘latov kabi adabiy tanqidchilar adib ijodiga nisbatan bir tomonlama, siyosiy tus berishga harakat qildilar. “Sotti Husaynning asl pozitsiyasini oqlab ham, yoqlab ham bo‘lmaganidek, uning marksizmga samimiy ishonib, “O‘tkan kunlar” romani tabiatiga xos ayrim to‘g‘ri fikrlar yozganini ham inkor etib bo‘lmaydi. Misol uchun garchand adibdan maslahat olib bo‘lsa ham munaqqid Jo‘rji Zaydonning “Armanusa” romani bilan “O‘tkan kunlar”ni taqqoslaydi. Adabiy ta’sirni dalillashga urinadi. [7,21;2014]” N.Rahimjonovning “Qodiriyshunoslik qirralari” nomli kitobida ta’kidlanganidek, “1917 yildan 1925 yilgacha XX asr sho‘ro adabiyoti va mafkurasida o‘tmishga salbiy munosabat hukmron edi. Shuning uchun o‘tmishdan badiiy adabiyot uchun material axtarish yoki tarixiy shaxslar taqdirini yoritish kamdan kam voqe bo‘ladigan hodisa edi.[8,28;2015]”

1960 yildan 90-yillar oralig‘ida yozilgan adabiy nashrlar va boshqa o‘nlab tadqiqotlarda garchi adib ijodining turli qirralariga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lsa-da, ularda adibning adabiy-tanqidiy, estetik qarashlariga doir mulohazalarni kam uchratish mumkin. Yuqorida nomlari zikr etilgan adabiyotshunoslar, olimlar va adabiy tanqidchilar tomonidan yaratilgan asarlarda, asosan, badiiy asar badiyatining anglash, adib asarlarida milliy mentalitet talqini, Abdulla Qodiriy ijodiy laboratoriyasining ijtimoiy-estetik ahamiyatini baholash kabi masalalar yoritilgan. Nabijon Boqiy, Habibulla Qodiriy, M.Abdullayev, Abror Xidirov singari yozuvchi va Qodiriyning farzandlari qalamiga mansub hujjatli hamda ilmiy-adabiy nashrlarda bevosita adibning hibsga olinishi tarixi va oqlanishiga oid masalalar ko‘tarilgan. Xususan, Izzat Sulton adib ijodining badiiy nafosatini, adabiy qadriyatga mansub o‘lmas go‘zallik timsoli ekanini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga urinadi. Izzat Sulton adib hayoti va ijodiga ta’lluqli ko‘plab maqolalar, adabiy-tanqidiy ocherklar va qator asarlar yaratdi [9;32]. Zero, Ibrohim G‘ofurovning N.Rahimjonov qalamiga mansub “Qodiriyshunoslik qirralari” nomli esselar jamlangan kitobida yozgan so‘zboshida ta’kidlaganidek, “XX asr tongi qodiriyshunosligi bilan XXI asr boshlari jahon qodiriyshunosligi o‘rtasida katta farq bor. Ushbu yo‘nalishning ertangi kungi qiyofasini ertanggi kun ilmi, kelajak avlodlar zakosi yaratadi.” [10,9;2015] Izzat Sulton, Muxtar Avezov, N.A.Muhiddinov kabi jonkuyar yozuvchilarning sayi-harakatlari bilan sho‘ro mafkurasi tomonidan 1938 yili Abdulla Qodiriyning

shaxsi, sha’ni va ijodiga nisbatan qo‘yilgan nohaq siyosiy abylobni olib tashlanishida xizmatlari katta.

Abdulla Qodiriy ijodiy laboratoriyasining ilmiy-nazariy o‘rganilish tarixi 1920 yillardan boshlangani V.Zunnun, I.To‘lqin, O‘qtoy, M.Ahmad, T.Shokir o‘g‘li Chig‘atoy, Validiy To‘g‘on, Mustafo To‘qay, Usmon Xo‘ja o‘g‘li singari muxojirotdagi millatparvar adiblarimiz hamda G‘arb va Amerika adabiyotshunoslar diqqat markazida bo‘lganidan anglash qiyin emas. Asosan muxojirda yashayotgan turkey millat vakillari tomonidan “Yangi Turkiston”, “Milliy Turkiston”, “O‘zbek adabiyoti” kabi xorijiyda faoliyat ko‘rsatuvchi davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy-adabiy hamda adabiy-tanqidiy maqolalar bilan dalillanadi.

O‘zbek jadid adabiyoti hamda Abdulla Qodiriy ijodiy evolyutsiyasini xorijda tadqiq etish xususida olib borilgan maxsus tekshirishlar tahlili shundan darak beradiki, boshqa xorijiy adaobiyotshunoslarga qiyoslaganda amerikalik tadqiqotshilarning bu boradagi xizmatlari ko‘proq ekani e’tiborga molikdir. Ayniqsa, E.Olvord, A.Beningsen, E.Uimbush, Mikalef R.Mariya, Robert J.Barret, V.Fiyerman, J.Souper, A.Matushevskiy, I.Sirtautas, V.Xanovey, E.Lazzareni, B.Elizabet, Sh.Layons, O.Axmet, J.Makkeyn, Og‘ir Ahmet, D.Montgomeri, G.Morris, H.Battersbi, I.Baldauf, A.Xalid, K.Murfi, K.Sarfraz, K.Sigrid, S.Xon, Z.Klaynmixel, K.Timur, S.Jeff, Sh.Shizio, W.Franz, E.Nabi, H.Bertens, A.Merhan singari tadqiqotchilar tomonidan jadid adabiyoti va, xususan, Abdulla Qodiriy ijodi borasida talaygina izlanishlar olib borilgan. “O‘sha davrlardagi G‘arb olimlari tomonidan yozilgan maqolalar va o‘zbek G‘arbdagi mutaxassislar yaratgan bu tarzdagi tadqiqotlariga javob tarzida yozilgan ishlariga nazar tashlasak, ulardagi bir o‘xshashlikni, umumiy metodologik yondashuvni payqash qiyin emas.” A.Beningsen, E.Uimbush singari amerikalik olimlarning “Sovet Ittifoqida Milliy Kommunizm” sarlavhali tadqiqotida o‘zbek romanchilik maktabining yaratilishi hamda adibning “O‘tkan kunlar” romanining paydo bo‘lishini rus tuzumining qaror topishi bilan bog‘lashga urinadi. Mamlkatimiz mustaqillikka erishgan so‘ng E.J. Lazzerini, X.Murfi, D.A.Braver kabi amerikalik jadidshunoslar Turkistonda jadidchilik harakati va o‘zbek jadid adabiyotiga doir ilmiy tekshirish ishlarini olib borishgab bo‘lib, ular teran tahlil va asosli tahlillarga asoslanganligini kuzatish mumkin. Ayrim o‘rinlarda, amerikalik jadidshunoslarning adib asarlari qahramonlarining ichki dunyosini, asar badiyati va unda personajlar xarakteri borasidagi fikrlar o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan berilgan mulohazalardan farqlanishi yaqqol ko‘zga

tashlanadi.

Masalan, X.Murfi “O‘tkan kunlar” romanining yetakchi obrazlaridan biri Kumush haqida shunday yozadi, “A.Qodiriy Kumushni har tomonlama yetuk ma’shuqa sifatida tasvirlaydi, ammo uning obrazi roman markazida tursa-da, u faol emas, passiv xarakterligicha qoladi. Boshqa obrazlarga nisbatan Kumush obrazi rivojlanmay qoladi.” Boshqa tomondan, X.Ismatullayevning fikricha, Abdulla Qodiriy Kumush obrazini me’yorni saqlagan holda yaratgan. Uni bundan ham faol ko‘rsatish o‘sha davr haqiqatiga to‘g‘ri kelmas edi. X.Murfi adibning har ikki romanlarida ko‘tarilgan mavzuni asosiy va ikkinchi darajaliga ajratib tahlil qiladi. Uning fikricha, “har ikki romanning asosiy mavzusi romantic sevsining jamiyat tomonidan qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligiga asoslanadi. Muallif oshiq-ma’shuqlar o‘rtasidagi mumnosabatlarni yoritishda ikki yo‘ldan boradi.” H.Yoqubov romandagi sevri-muhabbat mavzusi bir xilda rivojlantirilganini e’tirof etadi. “Adib Otabek, Yusufbek hoji va Kumush bilan birga, o‘zini ham azoblayotgan muhim feodal tartiblarni fosh qilish uchun fisq-fasod uyasini quradi,”-deb yozadi. U. Normatov mazkur masala yuzasidan quyidagicha fikr yuritadi, “O‘tkan kunlar” romanining ma’no mundarijasi doirasi nihoiyatda keng, unda xilma-xil ijtimoiy, ma’naviy muammolar ko‘tarilgan.” M. Qo‘shjonov “romanda ikki yo‘nalish birligidan – muhabbat mojarosi va tarixiy voqealar oqimidan markaziy tugun hosil bo‘ladi,” – degan xulosa yasaydi. [11,26;1979]

Buborada olmoniyalikolimlarningham hissalari beqiyod. 1997 yil Maykellef Roberta Mariya (Olmoniya) “Milliy tiklanishda adabiyot va ziyolilarning o‘rni” (The Role of Literature and Intellectuals in National Identity Construction: The Case of Uzbekistan) mavzusida doktorlik dissertatsiyasi yozadi. Dissertatsiyada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani voqealari, personajlar, ramziy ifodalar davr voqealari bilan bog‘liq holda tadqiq etilib, asar kompozitsiyasi, mavzusi, nomi va etimologiyasi, yaratilish tarixi kabi masalalar qiyosiy uslubda o‘rganiladi.1997 yil Maykellef Roberta Mariya (Olmoniya) “Milliy tiklanishda adabiyot va ziyolilarning o‘rni” (The Role of Literature and Intellectuals in National Identity Construction: The Case of Uzbekistan) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Tadqiqotda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani voqealari, personajlar, ramziy ifodalar davr voqealari bilan bog‘liq holda tadqiq etilib, asar kompozitsiyasi, mavzusi, nomi va etimologiyasi, yaratilish tarixi kabi masalalar qiyosiy uslubda o‘rganiladi.[12;97] 2003 yil Ahmet Og‘ir (Turkiya) “From Colonial

Past to Post-colonial Future: Three Uzbek Novels (Qodiriy, Oybek, Hoshimov)” (Mustamlaka o‘tmishdan ozod kelajak sari: uch o‘zbek romani) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yozadi. Tadqiqotda A.Og‘ir Qodiriy romanidagi yozuvchi umid-orzulari paymol etilgan obrazlar, yetuk qahramon va islohotchi shaxslarning maydonga kelishi, shakllanish omillarini Yo‘lchi (“Qutlug‘ qon”), Rustam (“Tushda kechgan umrlar”) obrazlari bilan qiyoslab o‘rganganini ham keltirishimiz mumkin. Ingeborg Baldauf (Olmoniya) “Auf der Suche nach der Wahrheit” (Haqiqat axtarib) sarlavhali maqolasida Abdulla Qodiriy ijodiga ham “haqiqat” nuqtayi nazaridan yondashadi. [13,45;1990]

So‘nggi yillarda Abdulla Qodiriyning ijodiy faoliyati va asarlari tarjima variantlarining qiyoslash asosida Z. M. Bozorov, M.A. Xolmurodova, M.M. Karimov, G.F. Kendjayeva, T.A.Alimov singari tadqiqotchilar tomonidan qator tadqiqot ishlari olib borildi. Mazkur tadqiqot ishlarida A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan uslubiy vositalarni hamda frazeologik birliklarning stilistik xususiyatlarini tarjima maqtnida qayta aks ettirish, romanidagi “ma’naviyat” tushunchasi ifodalovchilarini ingliz tiliga tarjima qilishda qo‘llangan yondashuvlarni aniqlash, “milliy manzara ” atamasining adabiy mohiyati va uning ifodalash usullari, xususan, frazeologik birliklar, realiyalar, paremiyalar, tarixiy so‘zlar, arxaizmlar, shuningdek, “O‘tkan kunlar” romani tarjimalarida milliylikni ochib berish kabi masalalar yoritilgan. Masalan, M. A. Xolmurodovaning “Abdulla Qodiriy nasrida qo‘llangan “ma’naviyat” tushunchasi ifodalovchilarining ingliz tilida berilishi” nomli dissertatsiyasida tadqiqotning dolzarbligi sifatida ma’naviyat tushunchasini ifodalovchi atov birliklarining badiiy adabiyotda qo‘llanishi va boshqa tillarga tarjimasi tahlilga tortilgan bo‘lsa, Z. M. Bozorov tomonidan himoya qilingan dissertatsiyada esa o‘zbek tilidan inglizchaga tarjima qilish masalasiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda badiiy tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda konnotativ ma’noga ega leksik birliklarning tarjima qilish usullarini belgilash tadqiqotning dolzarbligi sifatida tahlilga tortilgan. Mazkur tadqiqot ishida esa o‘zbek qodiriyshunosligida monografik tadqiqotlarni o‘rganish, xorijiy qodiriyshunoslarning va tarjimonlarning tadqiqotlarini o‘rganish hamda o‘zbek va xorijiy qodiriyshunoslar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni qiyosiy aspektda tekshirish, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani inglizcha tarjimalarida leksik va frazeologik birliklarning adekvatlik va ekvivalentlik tamoyillarini tadqiq etishdan iborat.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, adibning ijodiy yo‘li mamlakatimiz va xorij qodiriyshunoslari tomonidan keng o‘rganilgan va o‘rganilib kelinmoqda. Masalaning e’tiborga molik jihati shundaki, amerikalik tadqiqotchilar tomonidan qodiriyshunoslik fan tarmog‘i yuzasidan olib borilgan ilmiy-nazariy tekshirishlar ko‘lami boshqa xorij adabiyotshunoslariga nisbatan kengroq ekanini ko‘rsatadi.

Jadid adabiyotining amerikada tadqiqi tarixi o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Keksa avlod vakillari hisoblangan E.Olvord, E.Beningsen, E.Uimbush, R.J.Barret kabi jadidshunoslar o‘zbek jadid adabiyotini siyosiy-badiiy jihatdan o‘rganishgan. Mazkur adabiyotshunoslarning tadqiqotlari Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ochib berishga qaratilgani bilan xarakterlanadi. 1970-1990 yillar orali’ida ijod qilgan amerikalik jadidshunoslar esa adabiyotshunoslik talablariga asoslanib tadqiqotlar olib borgan ekanini ko‘rish mumkin.

Adabiyotlar

Xoldorov D. Qodiriyshunoslik qirralari. *“Sharq yulduzi”. №1. 2016.*

Karim B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. Toshkent. Akademnashr. 2014.

Inqilob. 1922. №5. 6-b.

Turkiston. 1922. 7-noyabr.

Turkiston. 1922. 23-dekabr.

Ma’orif va oq’itg‘uchi. 1925. №4.

Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. Toshkent. Akademnashr. 2014.

Rahimjonov N. Qodiriyshunoslik qirralari: Esselar. – T: Navro‘z, 2015.

Izzat Sulton. Sinfiy ko‘rlik va javobsizlik: maqola-taqriz. Qizil O‘zbekiston. 1932.

Rahimjonov N. Qodiriyshunoslik qirralari: Esselar. – T: Navro‘z, 2015. 9-b.

Qo‘shjonov M. Hayot va qahramon. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1979.26-b.

Micallef, Roberta Maria. “The Role of Literature and Intellectuals in National Identity Construction : The Case of Uzbekistan.” University of Texas, 1997.

Ingeborg Baldauf. Auf der Suche nach der Wahrheit .Otto-Friedrich-Universität Bamberg. 1990.

Comparative study of Uzbek and foreign Qadiri scholars

Elmurod Tursunov[1]

Abstract

Abdulla Qadiri’s life and creative activity became the object of research not only by the literary scholars of our country and naighbouring countries, but also by foreign scientists, historians, and Qadiri scholars. This article outlines the personality and creative evolution of the representatives of modern Uzbek literature, in particular Abdulla Qadiri, and to what extent his literary and aesthetic skills are analyzed by foreign researchers. Also, the research conducted by Uzbek and foreign scholars on the literary creative path are compared from a scientific and literary point of view.

Key words: *jadidizm, aesthetic ideal, progressive, nationalist, phenomenon.*

References

Xoldorov D. Qodiriyshunoslik qirralari. *“Sharq yulduzi”. №1. 2016.*

Karim B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. Toshkent. Akademnashr. 2014.

Inqilob. 1922. №5. 6-b.

Turkiston. 1922. 7-noyabr.

Turkiston. 1922. 23-dekabr.

Ma’orif va oq’itg‘uchi. 1925. №4.

Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. Toshkent. Akademnashr. 2014.

Rahimjonov N. Qodiriyshunoslik qirralari: Esselar. – T: Navro‘z, 2015.

Izzat Sulton. Sinfiy ko‘rlik va javobsizlik: maqola-taqriz. Qizil O‘zbekiston. 1932.

Rahimjonov N. Qodiriyshunoslik qirralari: Esselar. – T: Navro‘z, 2015. 9-b.

Qo‘shjonov M. Hayot va qahramon. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1979.26-b.

Micallef, Roberta Maria. “The Role of Literature and Intellectuals in National Identity Construction : The Case of Uzbekistan.” University of Texas, 1997.

Ingeborg Baldauf. Auf der Suche nach der Wahrheit .Otto-Friedrich-Universität Bamberg. 1990.

[1] *Elmurod U. Tursunov*– Independent Researcher, Uzbekistan State World Languages University Tashkent, Uzbekistan
E-mail: tursunovelmurod03@gmail.com
ORCID id: 0009-0008-3379-6443
For citation: Tursunov, E. 2024. “Comparative study of Uzbek and foreign Qadiri scholars”. *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 70-77.

ISSN 2181-922X 78—84

Remark romanlarida “yo‘qotilgan avlod” tushunchasi talqini

Elyor Murtazayev[1]

Abstrakt

Maqolada jahon adabiyotidagi “yo‘qotilgan avlod” tushunchasi, uning spitsifik xususiyatlari, tasniflari haqida gap boradi. Jahon adabiyoning qaysi yozuvchilari “yo‘qotilgan avlod” vakillari ekanligi ham maqoladi ta’kidlangan. Xususan, nemis realist yozuvchisi Erix Mariya Remark romanlari syujet liniyasida tasvirlangan urush voqealari, urush dahshatlari va shu urushda ishtirok etgan yoshlar, ularning urushdan keyingi hayoti ifodalanganligi ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *yo‘qotilgan avlod”, urush, psixologik tasvir, badiiy psizologizm, dramatik vaziyat, qahramon nutqi.*

Kirish

XX asr boshlarida jahon adabiyotida urush dahshatlari, frontlardagi epizodlari, dramatik vaziyatlarni haqqoniy tasvirlash an’anaga aylandi. Bu davr adabiyoti ayniqsa, urushda ishtirok etib, undan katta jabr ko‘rgan yosh avlodning urushdagi va urushdan keyingi hayot tarzi tasvirlandiki, dunyo adabiyotida bu avlodga “yo‘qotilgan avlod” degan nisbat beriladi. Bu adabiyot yana bir jihati bilan qiziqki, yo‘qotilgan avlod haqida asar yozayotgan yozuvchilar “yo‘qotilgan avlod vakillari” hisoblanadi.

Jahon prozasida “yo‘qotilgan avlod” tushunchasi quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1) bosh qahramon sifatida, asosan, yoshlarning tanlanishi;

2) realizm, modernizm, simvolizm oqimlarining sintetik tarzda ifodalanishi;

3) tragik pafos va o‘lim motivining ustuvorligi;

4) ichki nutq va badiiy psixologizmlardan keng foydalanilishi.

Ushbu avlod vakillari haqidagi asarlarga Erix Mariya Remark qalamiga mansub bo‘lgan “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Qaytish”,

[1] *Murtazaev Elyor Nizomiddinovich* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi. Qarshi innovation ta’lim universiteti dekan muovini.
E-pochta: elyormurtazayev1@gmail.com
ORCID ID: 0000-0001-7078-2363
Iqtibos uchun: Murtazayev, E.N. 2024. “Remark romanlarida “yo‘qotilgan avlod” tushunchasi talqini”. *O‘zbekiston: til va madaniyati, 3 (2)*: 78-84.

“Uch og‘ayni”, “Qora haykal”, Ernest Xemingueyning “Quyosh baribir chiqaveradi”, “Alvido, qurol!” R. Oldingtonning “Hamma odamlar – dushman”, “Qahramonning o‘limi” ijod namunalarini xam keltirishimiz mumkin.

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti qahramonlarini shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

1) frontda jang qilayotgan askarlar. Masalan: Bertran (A.Barbyus, “O‘t”), Genri (E.Xeminguey. “Alvido, qurol!”), Boymer (E.M.Remark. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”);

2) urushdan qaytgan, lekin bu urushning salbiy asoratlari ostida yashayotgan sobiq jangchilar. Misol uchun Birkxolts (E.M.Remark, “Qaytish”), Lokamp, Kester, Lens (E.M.Remark, “Uch og‘ayni”), Jeykob (E.Xeminguey, “Quyosh baribir chiqaveradi”);

3) urushda ishtirok etmagan, biroq urushning salbiy oqibatlari tufayli hayoti izdan chiqqan turli toifadagi insonlar. Bular: Patritsiya Xolman, Grau, Xasse (E.M.Remark, “Uch og‘ayni”), Kon, Bret (E.Xeminguey, “Quyosh baribir chiqaveradi” va hk.).

Ushbu qahramonlarning barchasini urushning salbiy asoratidan jabrlanganlik xususiyati birlashtirib turadi. “Yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishidagi asarlarning qahramonlari haqida rus tadqiqotchisi Ye.V.Staroverova o‘zining “Badiiy adabiyotda “yo‘qotilgan avlod” (“Poteryannoe pokolenie” v literature”) kitobida shunday fikr bildirib o‘tadi: “Barcha “yo‘qotilgan avlod” qahramonlariga xos umumiy xususiyat shundan iboratki, ular doimiy ravishda o‘zlarining nima uchun urushda qatnashganliklarini anglashga intiladilar. Bu obrazlar asar davomida shaxs sifatida o‘sib boradilar, oxir-oqibat o‘zlarini iqtisod va siyosat manfaati uchun qurbon bo‘lganligini anglab yetadilar.” [Староверова 2005]

“Yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishining asosiy ob’ekti bu urushdir. Jahon adabiyotining yirik namoyandasi Erix Mariya Remark asarlarida urush bosh mavzu hisoblanadi.

Erix Mariya Remark asarlaridagi qahramonlar ham sevgi va do‘stlikdan, asosan, maishiy hayotdan taskin topadilar. Bu urushni siyosiy nizolarni hal qilish usuli sifatida qabul qiladigan dunyodan himoya qilishning o‘ziga xos shakli edi. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti qahramonlarini xalq va davlat bilan birlashtirib bo‘lmas edi. Garchi umumiy xudbinliklarga qaramasdan, “Yo‘qotilgan avlod” ularni aldagan dunyoga achchiq kinoya, g‘azab, soxta sivilizatsiya asoslarini murosasiz va har tomonlama tanqid qilish bilan qarshi chiqdi, bu esa adabiyotning realizmdagi o‘rnini belgilab berdi.

“Yo‘qotilgan avlod” vakillari hayotdagi dahshatli harakatlar,

konlar to‘qnashuvlari, minalar, sovuqlik va ochlik, urushdan keyingi qiyinchiliklar oqibatida qattiqlik va jasorat namoyish etadi. Qahramonlar barcha qiyinchiliklarda jimgina, bir-birlarini qo‘llab quvvatlaydilar, ularning hayotlari uchun barcha imkoniyatlari bilan kurashadilar. Hamkorlik – bu urush natijasida yagona qiymat hisoblanar edi. O‘lim xavfi va mahrumlik yuzasida sheriklik bardoshli bo‘lib qoladi.

E.M.Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani qahramonlari o‘smirlik davridan oshgan 18-21 yoshlar atrofidagi navqiron askarlar urush maydonlarida azob chekkan, nihoyatda toliqqan, jamiyatda mavqey martabani emas, balki osuda hayotni orzu qiladigan qahramonlardir. Asar roviysi Paul Boymer misolida adib o‘z qarashlarini ifoda etadi. Urush dahshatlarini boshidan kechirgan Paul Boymer ko‘plab insonlarni halokat yoqasiga tashlayotganligini his qilgan holda urush xalqqa befoydaligini anglab yetadi. Bu roman tinch hayotga qaytish, insoniylikka qarshi bo‘lgan barcha illatlarni tub ildizi bilan qo‘porib tashlashga bo‘lgan umid ruhini ifoda etadi.

Erix Mariya Remark yo‘qotilgan avlod vakillarini o‘z asarlarida qattiqqo‘l, qat’iyatli, faqat aniq yordamni tan oladigan, ayollar bilan istehzoli odamlar sifatida tavsiflaydi. Ularga nisbatan his-tuyg‘ulardan shahvoniylik ustunlik qiladi. Adibning romanlarida bu odamlar uchun umidsizlik va og‘riq bosimi xolis tavsiflovchining oddiy, hatto ovozi ortida yashiringan.

XX asr G‘arb adabiyotida “yo‘qotilgan avlod” mavzusini real ochib bergan “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani Remark nomini yozuvchi sifatida dunyoga tanitdi. Shundan so‘ng Remark urush va urushdan keyingi hayotni yoritib bergan “Qaytish” (1931), “Uch og‘ayni” (1938), “Zafar darvozasi” (1946), “Hayot alangasi” (1952), “Hayot-mamot pallasi” (1954), “Qora haykal” (1956), “Osmon hech qanday seviklini bilmaydi” (1961), “Jannatdagi soyalar” (1971) kabi romanlarni yaratgan.

Remarkning barcha asarlarida tasvirlangan bu avlod “yo‘qotilgan avlod” esa-da, yozuvchi qahramonlarida insoniy tuyg‘ular, umid va ishonch tamomila yo‘qolmagan. Buni “Uch og‘ayni” asari qahramoni tilidan aytilgan mana bu gapda ham ko‘rishimiz mumkin: “*...xotiralar mana shu narsalarga tashnalik, zimiston va beshavq hayotimga jinday bo‘lsa ham shukuh kiritish ishtiyoqi bilan ajib bir tarzda qorishib ketayotgandi; ishqilib, tahrifga sig‘maydigan mana shu guzal chehradan, qalbimda nogoh barq urgan umid va ishonchdan, menga baxt hadya etib turgan ushbu daqiqalardan ayrilib qolmasam bas...*” [Remark 2022, 143]. Bu obrazlar tabiatida vijdon,

inson qadr-qimmati, adolat, rahm-shafqat, sevganlar, do‘stlar uchun sadoqat tuyg‘ulari kuchli bo‘ladi. “Yo‘qotilgan avlod”ning ushbu xususiyatlari tarixning barcha muhim lahzalarida namoyon bo‘ldi. Ikkinchi Jahon urushi paytida va undan keyingi adabiy jarayonda g‘am bu avlod tasvirlangan asarlari juda ko‘p. Yozuvchilar bu avlod haqida haqiqatni aytishdi, ularning qahramonlarini aslida ularning ijobiy va salbiy xususiyatlari bilan ko‘rsatdilar. Yozuvchilar dunyo o‘quvchilarining dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatdi va ular xalqaro iqtisodiyotga chaqirilgan va so‘zsiz qoralangan harbiy kuchlarning asoslarini qoraladilar. Shu bilan birga, “yo‘qotilgan avlod” yozuvchilarining ijodi gumanistik intilishlar, ular har qanday sharoitda yuqori axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan kishiga murojaat qilishadi. Yelgil-yelpi, maishiy hayot yumushlari bilan o‘ralashib yurgan yo‘qotilgan avlod vakillarida do‘stga sadoqat, o‘zgarmas axloqiy me’yorlar, botindagi insoniy fazilatlar yuqori darajada tasvirlanadi. Va ayni jihat asarning konseptual mazmunini ham belgilab beradi.

Remarkning shaxsiy hayoti ham ziddiyatlarga to‘la bo‘lgan. Hokimiyat tepasiga Adolf Gitler kelishidan oldin, Remarkning yaqin do‘stlari uni mamlakatni zudlik bilan tark etish kerakligi haqida ogohlantiradi. Gitler boshchiligidagi hokimiyat Remark asarlariga qarshi ayovsiz kurash boshlaydi. Chunki Remark asarlarida talqin etilgan g‘oyalar fashizm qarashlariga batamom qarama–qarshi edi. Yozuvchining dastlabki asarlari rus tiliga o‘girilib, chop etilishi bilanoq u katta muvaffaqiyat qozonadi. Bu asarlar millionlab nusxada nashr etilgan bo‘lsa-da, odamlarning talabini qondira olmaydi. Odamlar Remark asarlarini bir-biridan so‘rab olib o‘qishga kirishadilar. Biroq kutilmaganda rasmiy doiralar, kommunistik mafkura himoyachilari Remarkni g‘oyasizlikda ayblab, uning ijodiga tuhmat toshlarini ota boshladilar. Shuning uchun hammuallifning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishga hech kim botina olmasdi. Yozuvchining asarlaridagi g‘oyalar kommunistik mafkuraga ham, fashistik mafkuraga ham xizmat qilmas edi, aksincha uning barcha asarlarida antifashizm ruhi ustivorlik qiladi.

Germaniya hokimiyatiga Gitler kelgach, adib mamlakatni tark etishga majbur bo‘ladi. Uning asarlari kutubxonalardan yig‘ishtirib olinib, shahar ko‘chalarida yoqib yuboriladi. Buning sababi shuki, Remark o‘z asarlarida fashizmning asl basharasini fosh etgan, urush dahshatlarini, urushning kishilar taqdiridagi fojiali oqibatlarini real kartinalarda ochib bergan edi. Asl ijodkor har qanaqa jamiyatda ro‘y bergan haqiqatlarni rostakamiga tasvirlashni doimo o‘z oldiga

maqsad qilib qo‘yadi. Remark xuddi shunday yo‘qotilgan avlodning buyuk vakillaridan biri edi.

Yozuvchining ijodini o‘rganish va asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin boshlandi. Bu ishda tarjimon Nizom Komilning amalga oshirgan ishlari tahsinga loyiqdir. Erix Mariya Remarkning mashhur asari – “Uch og‘ayni” romani birinchi marta “Jahon adabiyoti” jurnalida Nizom Komil tarjimasi bilan bosib chiqarildi. 2002-yilda “Ma’naviyat”nashriyoti bu asarni kitob ko‘rinishida chop etdi. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” ham ilk bor ana shu jurnal orqali o‘zbek kitobxonlari qalbiga kirib bordi. Ushbu roman 2004-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida “Esizgina yoshligim” nomi bilan chop etilgan. 2016-yilda bu roman asl nomi “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” tarzida “Kamolot kutubxonasi” rukni ostida nashr etildi.

Tarjimon Saidjalol Saidmurodovning Remark asarlarini tarjima qilishdagi mehnatlari ham byoqiyosdir. 2016-yili „Jahon adabiyoti kutubxonasi” rukni ostida nashr etilgan “Lissabondagi tun” asari buning isbotidir.

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti bir qaraganda o‘tib ketgan urush tufayli hayoti barbod bo‘lgan insonlar taqdirini ayanchli tarzda tasvirlovchi, tushkunlik ruhidagi asarlar majmuasidek taassurot qoldirishi mumkin. Biroq, bu adabiyotning insoniyat kelajagi uchun foydali tomonlari ham anchagina. Bunday asarlar insonlar ongida urushning chinakam dahshatlari va insoniyatga qanchalik zararli ekanligi to‘g‘risida chuqurroq taassurot uyg‘otish, insonlar qalbida urushga nisbatan nafrat ruhini uyg‘otish orqali tinchlikparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish, tinchlikning naqadar ulug‘ ne’matligi, uni asrab-avaylash barchaning muhim insoniy burchi ekanligini anglatishda juda katta o‘rin tutadi. “Yo‘qotilgan avlod” mavzusi g‘arb adabiyotiga xos. O‘zbek adabiyotida bu atama qo‘llanilmaydi. Biroq milliy adabiyotimizda ham shunday ruhdagi asarlar uchraydi. Aynan ikkinchi jahon urushini ko‘rgan, urushda bevosida ishtirok etgan atoqli o‘zbek adibi Shuhrat asarlari ham ayni jihatga ko‘ra Remark asarlari mazmuniga hamohangdir. Muallifning “Shinelli yillar”, “Oltin zanglamas”, “Jannat qidirganlar” romanlari urush va urushdan keyingi hayotni badiiy tasvir etadi. Shuhrat qahramonlari ham Remark qahramonlari singari urushda qatnashgan, jang qilgan, uning dahshatlaridan tatib ko‘rganlardir. Darhaqiqat, har ikki muallif ham real hayotda urushda qatnashgan, uning bevosita ishtirokchi sanaladi.

Shuningdek, Remarkning“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”

romanida Birinchi jahon urushi hamda O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida afg‘on urushi bilan bog‘liq tasvirlarida iqtisodiy va siyosiy manfaat minglab yoshlarning fojiasiga sabab bo‘lganligini, urushga majburan jo‘natilgan askarlar ongiga harbiy burch, insonparvarlik kabi g‘oyalar singdirilib, g‘arazli maqsaddan iborat bo‘lgan siyosat niqoblanganligini, har ikki roman qahramonlari ham adolatsiz va g‘ayriinsoniy urushning ayanchli qurboni bo‘lgan avlodning taqdirini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, badiiy adabiyotda urush tasvirlari dastlab qahramonlik va jasorat vositasi sifatida kirib kelgan. Bu barcha xalqlar adabiyotiga taalluqli. Biroq, asrlar o‘tib, insoniyat tafakkurida ro‘y bergan o‘zgarishlar, jamiyat taraqqiyoti natijasida bu munosabat o‘zgarib borgan. XX asrga kelib G‘arb adabiyotida urushga nafrat hissi yetakchi xususiyat kasb etdi. Urush faqat qora bo‘yoqlarda, kulfat va fojia sababchisi sifatida tasvirlandi. O‘zbek adabiyotiga ham XX asrning o‘rtalaridan shunday ruh kirib keldi. Biroq, shu bilan bir qatorda front va front ortida jasorat ko‘rsatgan qahramonlar obrazlarini muhabbat bilan tasvirlash ham davom etdi.

Adabiyotlar

Мели, С. 2018. Глобаллашув ва глобал илмий-бадиий талқинлар / Глобаллашув: бадиий талқин, замон ва қаҳрамон китобида. Тошкент: Фан.

Староверова, Е.В. 2005. Потерянное поколение в литературе – Санкт-Петербург: “Лицей”, http://navoine.info/lost

Remark E.M. 2022. Uch og‘ayni. – Toshkent: Yoshlar matbuoti.

“Жаҳон адабиёти” журнали, 1998-йил, 7 – 9-сонлари

Interpretation of the concept of “lost generation” in Remarque’s novels

Elyor Murtazaev[1]

Abstract

The article talks about the concept of "lost generation" in world literature, its specific features and classifications. It is also mentioned which writers of world literature are representatives of the "lost generation". In particular, the events of the war, the horrors of the war, and the young people who participated in the war, and their post-war life, described in the plot line of the novels of the German realist writer Erich Maria Remarque, were scientifically analyzed.

Key words: *“lost generation", war, psychological image, artistic psychologism, dramatic situation, hero's speech.*

References

Meli, S. 2018. Globalashuv va global ilmiy-badiy talkinlar /Globallaszow: badiy talkin, zamon va kahramon kitobida. Tashkent: Fan.

Staroverova, E.V. 2005. Lost generation in literature - St. Petersburg: “Lyceum”, http://navoine.info/lost

Remark E.M. 2022. Uch og‘ayni. – Toshkent: Yoshlar matbuoti.

“Zhahon adabiyoti” magazines, 1998-yil, 7 – 9-sonlari

[1] *Elyor N. Murtazaev* – Researcher of Alisher Navo’i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after. Deputy Dean of Karshi Innovation Educational University.

E-mail: elyormurtazayev1@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7078-2363

For citation: Murtazaev, E.N. 2024. “Interpretation of the concept of “lost generation” in Remarque’s novels”. *Uzbekistan: language and culture, 3 (2):* 78-84.

ISSN 2181-922X 85—95

Jek London hikoyalarida psixologik tasvir vositalari

Madina Elboyeva[1]

Abstrakt

Maqolada dunyo adabiyotida muhim mavqega ega buyuk hikoyanavis Jek London o‘ziga xos o‘ringa va salmoqqa ega bo‘lgan so‘z san’atkori sifatida hikoya janriga qo‘shgan hissasi tilga olindi hamda uning yozgan asarlari haqida olib borilgan tadqiqotlarda keltirilgan nazariy fikrlarga tayangan holda ilmiy xulosalar berildi. Jahon adabiyotida hikoya janrining o‘z taraqqiyoti mavjud bo‘lib, uning poetik talqinlaridan boshqa xalqlar adabiyoti ham oziqlanib kelgan. Bu esa badiiy adabiyotdagi o‘zaro mushtaraklikni, inson qismatidagi turfa xil olamlarni yoritilishiga zamin bo‘lib kelgan. Ushbu maqolada Jek Londonning asarlarida insoniy matonat psixologiyasi tasvirlari, insoniy fenomen psixologiyasida olis Alyaska yo‘llarida oltin izlab sarson-sargardon yurgan kishilar obraz-tiynati shafqatsiz realistik tizimda qay tarzda talqin etilganligi, bundan tashqari, inson botinidagi murakkab ziddiyatlarning mahorat bilan yoritilishi haqida ilmiy tahlillar olib borildi. Adib asarlaridagi o‘ziga xos talqinning yetakchi tamoyili, o‘zlikni anglash yo‘lidagi urinishlar badiiy chizgilar bilan ifodalanishi haqida mulohazalar berildi.

Kalit so‘zlar: *realistik nasr, Jek London, badiiy pafos, Iqrornoma, xalqparvar,janr, hikoya.*

Kirish

Amerika adabiyoti jahon madaniyati xazinasiga yetkazib bergan taniqli ijodkorlar safida atoqli so‘z san’atkori – romannavis, qissanavis va hikoyanavis Jek Londonning munosib mavqei mavjud. J.London, eng avvalo, o‘z vatandoshlari Vashington Irving, Mark Tven, Edgar Allan Po, Uilyam Folkner, Ernest Xeminguey, Jon Steynbek, O.Genri kabi hikoya janri ustasi sifatida dong taratdi. Yevropa va AQSH adabiy-madaniy olamida J.London ijodiy, hikoyanavislik salohiyatini Chexov, Merime, Tolstoy, Turgenev, Franko, Gorkiy, Sveyg singari hikoyanavis adiblar bilan bir qatorda

[1] *Elboyeva Madina Botirovna* – Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy til nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi.
E-pochta: melboyeva@shdpi.uz
ORCID ID: 0009-0001-9178-7536
Iqtibos uchun: Elboyeva, M.B. 2024. “Jek London hikoyalarida psixologik tasvir vositalari”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3 (2): 85-95.

ta'riflashadi. Taniqli rus adabiyotshunosi Ya.N.Zasurskiy shunday yozadi: *"Jek London XX asr dunyo adabiyotining yirik yozuvchilaridan biri. U o'z romanlari, hikoyalari bilan realistik nasr rivojiga munosib hissa qo'shdi. Adibning o'qimishli asarlari markazida o'ziga ishongan, kuchli, o'z kuch-quvvatiga tayangan mardona kelbatli kishilar obrazi turadi"*[Zasurskiy Ya.N. 1984,504].

J.Londonning nomi jahonda "Hayotga muhabbat", "Kish o'g'li Kish", "Hayot qonuni" kabi hikoyalari bilan taniqli va mashhur ekan, bu, avvalo, adibning obrazlar, xarakterlar, qahramonlar olamini tasvirlashdagi jozibali psixologik mahorati jilolari bilan ham bevosita bog'liqdir.

Jek London psixologizm ustasidir. Uning asarlarida dastlabki qarashda faqat voqealar tasviri ustuvordek, muallif qahramon psixologiyasiga juda chuqur e'tibor bermayotgandek tasavvur tug'iladi. Ammo yozuvchi nozik ishoralar, qisqa ifodalarda qahramon psixologiyasini o'ta yorqin ifodalab ketadi.

J.London asarlarida obrazlar psixologik holatlarining mukammal tasvirlanishi uning dunyoda mashhur psixolog-olimlar asarlari bilan alohida qiziqqanligi sharofatidan ekanligi ma'lumdir.

Jek Londonning ulkan romannavis va hikoyanavis yozuvchi sifatida shakllanishida albatta, o'zi mansub Amerika realistik adabiyoti namoyandalarining tajribalari, hukmron ijtimoiy muhit adolatsizliklari, notenglik alamlarini chekkan bechora kishilar qismatiga hamdardlik muhim rol o'ynadi.

Jek London – yozuvchi, publitsist va adabiy tanqidchidir. U "Koll" gazetasidagi tanlovda g'olib bo'lgach, badiiy ijodga qattiq kirishadi, ammo gazeta va jurnallar tahririyatlari uning asarlarini chop etmaydi. Yosh ijodkor tushkunlikka tushadi, ijod sohasidan ketmoqchi bo'ladi, yozmay qo'yadi. Oltin izlovchilar bilan bo'lgan natijasiz safar taassurotlari uni yana yozishga undaydi. Yana o'sha omadsizlik: vaqtli nashrldar yo uning yozganlarini sop etmaydi, yo arzirli gonorar to'lamaydi. Uning biografiyasida o'qiymiz: "*Mening sillam qurib borardi, ezilgan, ochlikka mahkum holda men ko'mir qazuvchilikka yoki o'zimni o'ldirishga tayyor edim*"[J.London,2014]. Mana shu mashaqqatlarning barchasini u keyinchalik "Martin Iden" romanida aks ettirgan. Ta'kidlash joizki, bu romanni mutaxassislar avtobiografik roman sifatida tavsiflaydilar. Bu, shak-shubhasiz, to'g'ri. Ammo Jek London ayni choqda bu asarda imperialistik burjua mamlakatlaridagi o'ziga o'xshagan quyi tabaqadan chiqqan ko'plab ijodkorlar qismatini umumlashtirgan.

Ta'kidlash joizki, J.London ijodida yetakchi janr hisoblanadigan

hikoya janrida ancha ko‘p asar yaratgan adib dunyoda asosan shunday hikoyalari bilan tanildi. Jek London hikoyalarini mavzulari va g‘oyaviy-badiiy, ma’naviy-axloqiy pafosi jihatdan shunday turlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Birinchidan – matonat falsafasi, sabr-toqat axloqiy g‘oyasi (masalan, “Hayotga muhabbat”, “Oppoq sukunat”, “Hayot qonuni” kabi hikoyalari); J.Londonning o‘zi taqdir taqozosi bilan uzluksiz ravishdagi sabr-matonat axloqining namunasi sifatida yashab o‘tgan shaxs ekanligidan bunday ma’naviyat fazilatlar unga ma’nan-ruhan yaqin va tushunarli insoniy xususiyat edi; noteng, adolatsiz qurilgan jamiyat, olgan-olganniki, yegan-yeganligi kabi olchoqlikka aylangan burjua siyosati o‘z bag‘ridagi bandalardan buixtiyor matonatli, sabr-toqatli bo‘lishni taqozo qilardi; chidagan, kurasha olgan, yenga olgan, qolaversa, aldamchi, jamiyat kimsagina yashaydigan munofiq jamiyatdan boshqa biron narsa, rahm-shafqat, yordami, suyanch bo‘lish mujdasini kutib bo‘lmasdi; shu boisdirki, Jek London qo‘msab hikoyalarida matonat va sabr-toqat bilan ro‘shnolikka intilgan kishilar obrazini aksariyat hikoyalari, qolaversa, barcha asarlari uchun yetakchi obraz-timsol sifatida tanladi. “Hayotga muhabbat” hikoyasini insoniy matonat simfoniyasi darajasiga ko‘tarilgan asar deb atash mumkin. Hikoyaning ikki qahramoni – biri nomsiz inson, biri ochlikdan sillasi qurilgan vahshiy bo‘ri. Muallif allaqanday safari natijasidami, balki, oltin izlovchilardan biri sifatidami, yo‘ldan, adashgan kishining ko‘zlagan manzili yetib borish uchun cho‘ldan qiynalib borayotganligini, ammo, aniq yo‘lini yo‘qotib, ochlikka, tamoman madorsizlikka yuz tutgan odamning g‘oyat mashaqqatli harakatlari tasvirini hikoya syujeti tizimiga aylantirgan. Asar noma’lum yorug‘ kunlar suv yoki oziq-ovqat ilinjida, umuman esa, hayotga va yashashga bo‘lgan beqiyos muhabbat ruhi bilan barcha qiyinchiliklarni – ochlik, suvsizlik, qo‘rquv ruhini yengib, faqat olg‘a sudralayotgan nimjon kimsa timsoli bilan hayot va yashash dunyosiga matonat bilan intilish poetikasini yaratgan. Hikoyaning hayotiylikni, realistlikni insonning “badfard” kemasi a’zolari tomonidan qutqarilishi bilan bog‘liq mikrosyujet timsolida asoslangan. Odam va bo‘ri timsolining realistik talqinida muallifga psixologik paralellizm uslubi qo‘l kelgan.

Ikkinchidan – Amerika qit’asi yozuvchilari faoliyatida yetakchi mavzulardan biri bu ulkan makon yerlarining asl xo‘jayini hindular erkini himoya qilish masalasi, umuman, hindular hayoti mavzui Mark Tven, Jorj Fenimor Kuper, Jon Steynbek singari zabardast Amerika adiblari ijodining yetakchi mahsullari sanaladi;

Jek Londonning ko‘p asarlarida, jumladan, “Chollar ittifoqi”, “Meksikalik” hikoyalarida hindular erki bilan g‘oyalar talqin etilgan. AQSH, Rossiya adabiyotshunoslaridan ayrimlari qayd qilganidek, Imber chol (“Chollar ittifoqi”), Felipe Rivera (“Meksikalik”) obrazlari haq-huquqi oyoqosti qilingan Amerika qit’asi hindularining mukammal timsollari yuksak hamdardlik poetikasi bilan yaratilgan.

Hayot va tarixning mumtoz bir haqiqati borki, bu hali adabiyot va san’at olamida biron-bir ijodkorning bosqinchi kuchlarni, jumladan, o‘z ona yurtini g‘orat qilgan qora kuchlarni olqishlagan hodisasi uchramaydi. Aksincha, hatto, o‘z millatdoshlari yoki zulm qilganda ham shu zo‘ravon millatdan yetishgan iymonli ijod ahli bunday bosqinchilik va zo‘ravonlikni butun qalbi bilan fosh qilingan va la’natlashgan. J.Londonning “Chollar ittifoqi” hikoyasi shunday mardona asar.

“Kazarmalarda qari bir odamni sud qilishardi, gap uning hayot-mamoti haqida borardi. Bu Imber ismli Amerika hindusi bo‘lib, u – Borj qo‘lidan pastroqda Yukon daryosiga quyuluvchi Oq Baliq daryosi oqimining ikki tomonidagi ming milyagacha cho‘zilgan butun Yukon o‘lkasini hayratga soldi. Dengizda qaroqchilik, quruqlikda bosqinchilik bilan shug‘ullangan anglosakslar juda qadim zamondan boshlab tobe xalqlar ustidan qonun chiqargan va bu qonun birinchi marta nihoyatda yumshoq, shafqatliday tuyuldi. Bu qonun agar oddiy arifmetika nuqtayi nazaridan qaralsa, qilingan jinoyatlarga muqobil jazoni ko‘zda tutmas edi”[J.London,1989,120].

Qizig‘i va ajoyib tomoni shundaki, Jek London irqi jihatidan oq tanlilarga mansub. Uning yozuvchi bo‘lishi, o‘qish-izlanishi, asarlarining nashr etilib, dunyoga tanilishi kabi jihatlar oq tanli bo‘lganligi, imkon-sharoitlarga egaligi bilan bevosita bog‘liq. Ammo, u qalban oddiy himoyasiz kishilar, bechora, ezilgan mehnatkashlar tomonida ekanligidan ham ulug‘ insonparvar adib sifatida e’zozlanadi. Jek London o‘z yurtiga bosqinchilik bilan qadam qo‘ygan yuzlab, minglab oq tanlilarni o‘ldirgan oddiy Amerika hindusi – keksa Imberni buyuk erkparvar, o‘z xalqi mustaqilligi uchun umrining so‘ngigacha matonat bilan kurashgan siymo sifatida yetakchi ideal qahramon qilib tanlagan.

“Anglosakslar” – yevropalik oqsuyaklar bo‘lib, ular Xristafor Kolumbning Amerikani kashf etganidan boshlab bu qit’ani zabt etish iishqiga tushganlar. Ularning “qadim zamonlardan boshlab tobe xalqlar ustidan qonun chiqarish”lari – bosqinchilik harakatlarini madaniy xaspo‘shlash, o‘zlarini xaloskor qilib ko‘rsatishlari demakdir. Bu mardona talqin dunyodagi bosqinchiliklar, jumladan,

qizil imperiyaning madaniylashgan ekspluatatsiyasi haqida fikr yuritishga ham undaydi.

Jek Londonning "Meksikalik" hikoyasi ham oq tanli bosqinchilarning mahalliy hindularga zulmkor harakatlari mavzui bilan bog'liq. Bu hikoyadagi kichik yoshli qahramon Feime Rivera meksikalik hindular vakili bu abjir va iymonli yigit Amerikalik bosqinchilarning Meksikaga, bu yurtdagi hindu qabilalariga nisbatan zulmlariga qarshi qo'zg'olonga (revolyutsiyaga) xizmat qilishga chog'langan mardlik sohibi. U boks musobaqalarida qatnashib, pul to'playdi, bu pullarini bosqinchilarga qarshi ishlatiladigan qurol-yarog' sotib olishga ishlatadi.

Uchinchidan – Alyaska o'lkasidan aniqlangan ulkan oltin konlarining ochilishi bilan ming-minglab amerikaliklar o'sha shimol o'lkasiga tomon oqib bora boshlaydilar. Ishsizlik va kambag'allikdan sarson-sargardon Jek London ham bu harakatdan chetda qolmaydi. Bu nafs ovoraligi yo'lida necha yuzlab kishilar halok bo'ladi, turli xarakterlar to'qnashuvi, g'aroyib va kutilmagan hodisotlar yuz ko'rsatadi. shu tariqa, J.Londondek realist va insonparvar adib ijodiy faoliyatida dunyo adabiyotida hali qalamga olinmagan oltin izlovchilar mavzui yuzaga keladi. Adibning "Chandiq yuzli kishi", "Bir kunlik qo'nalg'a", "Gulxan", "Oppoq sukunat" kabi o'nlab hikoyalari Alyaska o'lkasi, oltin izlovchi kishilar obrazi masalasining turfa qirralari talqiniga bag'ishlangan. Oltin izlovchi bandalar ruhiy olami, nafs ovoraligi, yovuzlik, boylik jazavasi bilan bog'liq hayotning, shu olamdagi adashgan, toliqqan, o'zini halok qilgan bandalar hayoti chuqur psixologik ko'lamda, realistik yo'lda tasvirlanishi bilan bu asarlar jahon adabiyotining betakror namunalari sanaladi.

To'rtinchidan – Jek Londonning o'zi bolaligidan bir burda non qayg'usi bilan oilaviy yetar-yetishmovchilik, qashshoqlik azobini tortgan jabrdiyda sifatida hayotda qiynalgan yosh kuchlar obrazining talqinlari uning asarlarida o'ziga xos yo'nalishni tashkil etadi. Bunga uning "Martin Iden" romani ancha yorqin misol bo'la oladi. "Kish haqida qissa", "Kish o'g'li Kish", "Sokramento qirg'oqlarida" kabi hikoyalarida shu mavzu qalamga olingan. Meksikalik hindular vakili – o'smir yigit Feime Riveraning mashaqqatli va fidoyi obrazi yaratilgan "Meksikalik" hikoyasini ham shu turkumga qo'shish mumkin. Mazkur hikoyalarning realistik jozibasi, hayotiy mohiyati o'smir yigit Jekning boshidan o'tgan aziyatli voqelik, haqoratli va azobli taqdir hodisalari bilan mushtarakligi jihatdan, muhimi, bu kabi hikoyalarda bolakay Jek ruhiy olamining manzaralari psixologik ko'lamda, azob va mashaqqat psixologiyasining poetik talqinlarida

o‘z ifodasini topgan.

Beshinchidan – Jek London savqi tabiiysi bilan ilohiy mujda nasib etgan zukkoligi, bilimdonligi sharofatidan Alyaska kabi sirli, mo‘jizaviy o‘lkaga sayohatlar bahonasida bu makonlarda qadim-qadimdan shomonlik dini, shomonlik harakatlari hukm surganligini anglab yetgan. Bu esa uning ijodida shomonizm davri taassurotlari bilan bog‘liq mavzularning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Masalan, “Kish haqida qissa”, “Kish o‘g‘li Kish”, ayniqsa, bevosita ravishda “Buyuk sehrgar” nomli hikoyalarida shomonlik davri voqealari psixologik usulda, mo‘jizaviy realizm maqomida o‘z ifodasini topgan.

Oltinchidan – jonivorlar, ayniqsa, itlar timsoli bilan bog‘liq asarlaridagi realistik talqinlar, itlar yoki bo‘rilar tasviri vositasida avvalo insonlararo ezgulik-yovuzlik, yaxshilik-yomonlik, mehr-oqibat, toshyuraklik kabi muhim ma’naviy-axloqiy muammolar o‘z aksini topgan yaratmalari Jek London yozuvchilik karerasining o‘ziga xos jihatini belgilaydi. Masalan, “Ajdodlar nidosi”, “Oq quloq Bim” qissalari, “Kulrang bo‘ri”, “Gulxan” kabi yana bir qator hikoyalari shu yo‘nalishdagi asarlar sirasiga kiradi.

Jek London badiiy mahorati psixologik tahlil bobidagi san’atkorligi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Atoqli rus adibi Maksim Gorkiyning ta’biricha, adabiyotning bosh fazilati, yetakchi xususiyati – bu uning “insonshunoslik” ekanligidadir. N.G.Chernishevskiyning mashhur ta’rifiga ko‘ra esa, yozuvchi va shoirlar, qolaversa barcha ijod ahli “inson qalbining muhandislari” sanaladi. ayni shu ifoda badiiy adabiyotning, ijodkor faoliyatining yetakchi mohiyatini tushunish imkonini beradi. Kishi ruhiy olamining muhandisligi – bu inson ma’naviyati, qalb tebranishlari, quvonch va iztiroblari, xayol va niyatlari uning ichki olami hosilalari sifatida badiiy-emotsional tarzda ochib berilishi demakdir. Bu badiiy adabiyotda psixologizm masalasini, psixologik mahorat muammosini paydo qiladi.

Jek London asarlarining mashhurligi, ularning jozibadorligini ta’minlagan omillardan yetakchisi – bu inson obraz-tiynatining psixologik jihatdan mukammal talqin etilganligi bilan izohlanadi. J.London ijodiy maktabining jahon adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati ham avvalo shu bilan belgilanadi.

Insoniyat yaratgan ma’noviy mo‘jizalardan biri hisoblanadigan badiiy adabiyotning bosh vazifasi – “hayot guli” (A.Navoiy) insonni tasvirlashdan, uning hayotiy a’mollarini, quvonchu iztiroblarini, umid-orzularini, ma’naviy olami manzaralarini badiiy inkishof etishdan iboratdir. Bu adabiy-ijtimoiy qonuniyat Jek London asarlarida naqadar batafsil o‘z in’ikosini topishi bilan millionlab

shinavandalar e'tiborini qozongan. Akademik Izzat Sultonning yozishicha, "*badiiy asar yaratadigan har bir muallif hayot haqida nimaiki demoqchi bo'lsa, shuning hammasi pirovardida badiiy asarda tasvir etilgan odamlarning yashash sharoiti, intilishlari va o'ylarida o'z ifodasini topadi*"[I.Sulton. 1980,191].

Shu ma'noda Izzat Sulton hayot haqiqati va inson olami talqinida yozuvchi mahoratini, uning zukko so'z san'atkori ekanligini namoyish etadigan omillarning eng muhimi – bu muallifning insoniy qalb dialektikasi jarayonlarini, ya'ni psixologik holatlarini naqadar mohirona ravishda talqin eta olishi bilan bog'liqligini alohida uqtiradi. Darhaqiqat, jahon adabiyoti durdonalarida tasvirlangan Gerakl, Odissey, Farhod, Majnun, Onegen, Knyaz Mishkin, Anna Karenina, Nexlyudov, Otabek, Yo'lchi, Ulug'bek, Bobur, Otaqo'zi singari yetuk badiiy obrazlar avvalo ruhiy olami mukammal tasvir langanligi bilan diqqat markazida turadi.

Jahon adabiyotshunosligida yozuvchining psixologik mahorati asar komponentlaridagi syujet, kompozitsiya, adabiy san'atlar, xarakter, mavzu, falsafiy-ijtimoiy pafos kabi elementlar orasida eng muhimi va yetakchisi sifatida e'tiborga olinishi bejiz emas. Binobarin, yozuvchi psixologik mahoratini teran egallagan bo'lsagina, asari teran chiqadi.

Badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi nuqtayi nazaridan qaraganda, odam hayoti, uning ish-faoliyati, o'ylari, quvonchlari, iztiroblari asosan ruhiyat manzaralari, ichki xayoliy kechinmalari, tushlari orqali talqin etiladi. Bularning barisi qo'shilib, psixologik holatlar tahlili, psixologizm tizimi kabi uslublar majmuini yuzaga keltiradi.

Adabiyotshunos A.B.Yeseninning aytishicha, "*Psixologizm – bu adabiyotning o'ziga xos vositalari ko'magida xayoliy (to'qima) shaxslarning (adabiy personajlar va yetakchi qahramonlarning) his-tuyg'ulari, fikrlari, o'y-xayollari va kechinmalarini mukammal tasvirlay olish uslubidir*" [Есин А.1994,18].

Psixologiya fani har bir shaxsning ruhiy olami masalalarini o'rganib, tadqiq etsa, badiiy adabiyot esa, shu rang-barang va boy psixologik (ruhiy) olamni badiiy jihatdan poetika (obrazlilik) qonunlari bo'yicha badiiy-emotsionallik bilan talqin va tahlil etadi. Yozuvchining o'zi ma'naviy olamida shakllantirgan, teran his qiladigan ruhiyat manzaralari bo'yicha o'zi yaratgan adabiy qahramonlarining psixologik holatlariniyam shunday aniqlik va teranlik bilan badiiy shakllantira oladi. Adabiyotshunos V.V.Komioneyetsning ta'kidlashicha, "*Asarda psixologik tahlilning*

paydo bo‘lishi, uning shakli va tipologiyasi ko‘pincha yozuvchi dunyoqarashiga, maqsadiga, iste’dodi va shaxsiy fazilatlarining xarakteriga, asardagi vaziyatga uyg‘undir”[Компонеец В.1980,47].

Jek London hikoyachilik ko‘lami quyidagicha yo‘nalishlarda e’tiborni tortadi:

- inson uchun eng ulkan boylik, ilohiy mujda bo‘lmish uning erki, haq-huquqi uchun kuyunchaklik, uni jon-jahdi bilan himoya qilish g‘oyasi;

- yosh kuchlarning shakllanish, hayot va oila butligi uchun muttasil qurilish talqinlari;

- nafs ovvoraligidan tiyila bilish, oltin-javohirlar jazavasiga berilmaslik axloqi;

- tasvirda monumentallik, hayotni, voqelikni, har bir obraz faoliyatini mukammal talqin ettish; realistik uslub jozibadorligiga erishish;

- hayot va obraz talqinida psixologik mahorat uquvini va mahoratini egallay olishi; binobarin, Jek London adabiy-badiiy uslubi bag‘rida psixologik talqinning portret, peyzaj. Nutq, muallif nutqi, ichki iztirob, murojaat, xayol, dailog, monolog, murojaat, tush, maqsad, ishq, nafs, niyat, dardkashlik, umid, iltijo. Iztirob kabi yana bir qator turlarini kuzatish mumkin.

- makon va zamon alohiligi maqomida yuqoridagi adabiy tajria majmuining muhim sohalari o‘zbek hikoyalari tarkibida ham namoyon bo‘ladi; bunda psixologizmdan mahoratli keng miqyosda kuzatish mumkin.

Xulosa

Jek London ijod maktabining, salmoq adabiy an’analarining o‘zbek hikoyanavisligi tizimidagi izlari, xayrli nafasi va eng avvalo bu ulkan iste’dod sohibining psixologizmdagi mahorati, bu boradagi iste’dodi qirralariga xos adabiy fazilatlar bilan bog‘liq. Jek London asarlarining mashhurligi, ularning jozibadorligini ta’minlagan omillardan yetakchisi – bu inson obraz-ziynatining psixologik jihatdan mukammal talqin etilganligi bilan izohlanadi. J.London ijodiy maktabining jahon adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati ham avvalo shu bilan belgilanadi[M.Elboyeva.2023;32].

Ta’kidlash joizki, Jek London Yevropa va Amerika ijodkorlari orasida O‘zbekistonda ancha barvaqt, XX asrning 20-yillaridan e’tiboran nomi va asarlari ma’lum bo‘lgan yozuvchi hisoblanadi. 20-yillar so‘nggida Moskvada J.London asarlarining 14 tomlik saylanmasi nashr etilgan bo‘lib, o‘zbekistonlik ziyolilar, kitobxonlar bu noyob asarlar bilan shu nashr orqali ham tanisha boshlaganlar.

Yana bir muhim tomoni shundaki, Jek London xorijiy yurt yozuvchilari orasida o‘zbek tiliga asarlari nisbatan ko‘p tarjima bo‘lgan adib. Hatto, mustaqillik yillarida xorijiy tillarni o‘rganish, ayniqsa, ingliz tilini o‘rganish muhim masalalardan, islohotlar markazidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida kun tartibida turganligidan xorijiy adabiyot namunalarini (ingliz, nemis, fransuz, fors, yapon, koreys tillaridan) bevosita tarjima qilish ishlari shakllandi. Jumladan, yosh avlodning, ziyolilar, ijodkorlarning ingliz tilidagi adabiyot namunalarini o‘z originalida o‘qish tajribalari ham ko‘zga tashlana boshladi.

Adabiyotlar

Засурский Я.Н. *Американская литература XX века*. Издание второе, исправленное и дополненное. Издательство Московского университета, 1984, стр.76. (стр.504).

London J. *Kish haqida qissa*. – T.: “Yosh gvardiya”, 1962. 190-bet.

Рылев К. *М.Горький и дж.Лондон* // https://uglich-jj.livejournal.com/51124.html

Социологический словарь. Николас Аберкомби, Стивен Хилл, Брайан С.Тернер. Перевод с английского под редакцией канд. социол.наук. С.А.Ерофеева. – Москва, Экономика, 1999. – С. 314.

London J. *Men anglagan hayot* // “Kitob dunyosi”, 2014 yil 23 iyul, №14.

Николюкин А.Н. *Американские писатели и литература. – Писатели США о литературе. Том 1*. Москва, “Прогресс”, 1982. Стр.11 (стр.293.)

London J. *Chollar ittifoqi*. “Sharq yulduzi, 1989, 2-son, 120-bet.

Sulton I. *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1980. – 191-bet.

M.Elboyeva. *Jahon adabiyotida Jek Londonning hikoyachilik maktabi va hikoya janriga qo‘shgan hissasi.*Tezis. Rauf Parfi ijodining ma;naviy-ma’rifiy ahamiyati Res. Ilmiy-nazariy anjumani. Vol.1 No.1. 2023. 32-bet.

Есин А. *Психологизм русской классической литературы*. – Москва, “Просвещение”, 1994. – Стр. 18.

Qosimov A. *Adabiyotda psixologik o‘xshashliklar va o‘zaro ta’sir*. – Toshkent, “Fan”, 2004. – 132 b.

Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 224 b.

Means of psychological imagery in the stories of Jack London

Madina Elboyeva[1]

Abstract

The article mentions the contribution of the great story writer Jack London, who occupies an important position in world literature, as an artist of the word, who has his place and weight, in the short story genre, as well as the theoretical ideas presented in the studies of his works, on the basis of which scientific conclusions were given. The story genre has its own development in world literature, and the literature of other nations has been nourished by its poetic interpretations. And this has been the basis for illuminating mutuality in fiction, different worlds of human destiny. In this article, the images of the psychology of human endurance in the works of Jack London, the images of people wandering in search of gold on the roads of remote Alaska in the psychology of human phenomena are interpreted in a cruel realistic system, and in addition, the complex conflicts in the human heart are skillfully illuminated. Opinions are expressed about the leading principle of original interpretation in the writer's work, attempts to realize his personality through artistic lines.

Key words: *realistic prose, Jack London, artistic pathos, Confession, folkloric, genre, story.*

References

Zasurskiy YA.N. Amerikanskaya literatura KHKH veka. Izdaniye vtoroye, ispravlennoye i dopolnennoye. Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta, 1984, str.76. (str.504).

London Dzh. Kish khakida kissa. – T.: «Yosh gvardiya», 1962. 190-bet.

Rylev K. M.Gor'kiy i dzh.London // https://uglich-jj.livejournal.com/51124.html

Sotsiologicheskiy slovar'. Nikolas Aberkombi, Stiven Khill, Brayan S.Terner. Perevod s angliyskogo pod redaktsiyey kand.sotsiol.nauk. S.A.Yerofeyeva. – Moskva, Ekonomika, 1999. – S. 314.

London Dzh. Men anglagan khayot // «Kitob dun'osi», 2014, 23 iyulya, №14.

Nikolyukin A.N. Amerikanskiye pisateli i literatura. – Pisateli SSHA o dokumentakh. Tom 1. Moskva, «Progress», 1982. Str.11

[1] *Madina B. Elboyeva*– Shakhrisabz state pedagogical institute Senior teacher of the Department of Foreign Language Theory
E-mail: melboyeva@shdpi.uz
ORCID ID: 0009-0001-9178-7536
For citation: Elboyeva M.2024. "Means of psychological imagery in the stories of Jack London". *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 85-95.

(str.293.)
London J. Chollar ittifoqi. “Sharq yulduzi, 1989, 2-son, 120-bet.
Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1980. – 191-bet.
M.Elboyeva. Jahon adabiyotida Jek Londonning hikoyachilik maktabi va hikoya janriga qo‘shgan hissasi.Tezis. Rauf Parfi ijodining ma;naviy-ma’rifiy ahamiyati Res. Ilmiy-nazariy anjumani. Vol.1 No.1. 2023. 32-bet.
Yesin A. Psikhologizm russkoy klassicheskoy literatury. – Moskva, “Prosveshcheniye”, 1994. – Str. 18.
Qosimov A. Adabiyotda psixologik o‘xshashliklar va o‘zaro ta’sir. – Toshkent, “Fan”, 2004. – 132 b.
Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 224 b.

ISSN 2181-922X 96—102

Majusiy zohid qismati

Dilrabo Hakimjonova[1]

Abstrakt

Maqolada “Avliyo Sergiy” qissasi qahramoni Stepan Kasatskiy qismati, syujetga prototip o‘laroq olib kirilgan mazkur obraz misolida Injil va xristianlik ta’limotidan bir umr o‘zi taftish qilgan haqiqatni izlab, faoliyatdan topa olmagan Tolstoy “men”i, muallif obrazi kategoriyasi bo‘yicha ayrim mulohazalar berib o‘tilgan. Tahlil asosida talqin va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *Syujet, obraz, konflikt, yechim, muallif obrazi kategoriyasi, tahlil, talqin.*

Kirish

Tolstoy “Avliyo Sergiy” qissasida ruslarning zohidona hayot kechirgan avliyolari haqidagi an’anaviy mavzuni o‘rtaga tashladi. Bu mavzu, bu an’ana Tolstoygacha mavjud edi. Xususan, Sharq adabiyotida. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Barsiso obid haqida rivoyat mavjud. Barsiso obid Iso (a.s) shariatiga mansub kishi bo‘lib, Iso (a.s) osmonga ko‘tarilib ketgandan keyin yetmish yil ibodat qiladi. Shayton yoniga kelib, tariqatiga, ishonchiga kiradi, unga bemorlarga shifo bo‘ladigan bir duoni o‘rgatadi. Natijada bir necha kishini davolab, shuhrat qozonadi. Shayton vositasida obidning uyiga davolash uchun olib kelingan podshohning qiziga nisbatan ko‘nglida vasvasa paydo bo‘ladi, hirsi tufayli zino qiladi. Shaytonning ikkinchi vasvasasiga bo‘ysunib, qizni o‘ldiradi. Uchinchi vasvasasi bilan hech qachon kechirib bo‘lmaydigan gunohga qo‘l uradi – unga sajda qiladi. Avliyo darajasiga ko‘tarilgan Barsiso obid kufr keltirgan holda qatl etiladi. Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov Barsiso obid jinoyatiga quyidagicha izoh bergan:“Haq huzuri va xalq nazarida ulug‘ martabaga erishgan obid shu tariqa uch mudhish jinoyat (zino, qotillik, shirk) sodir etdi, botil ichida o‘lim topdi. Odam uchun bundan-da dahshatli baxtiqarolik yo‘qki, keyinroq Lev Tolstoy “Avliyo Sergiy” asari kengliklari aro ayni

[1] *Dilrabo Hakimjonova Nazirjon qizi* – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi.
E-pochta: xakimovadilrabo420@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-0780-0754
Iqtibos uchun: Hakimjonova, D.N. 2024. “Majusiy zohid qismati”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*, 3 (2): 96-102.

gunohi kabira emini topishga urindi". [Jo'raqulov, 2022, 6]

Bo'lma mag'rur ko'h yoki aso,
Ko'rki, ne ishga qoldi Barsiso. [Alisher Navoiy, 2023, 198]

Tolstoy pravoslavlar va xristianlar o'rtasida tarqalgan mazkur rivoyat syujetini olib, qayta jonlantirdi. Asarga o'z davri kishisini prototip o'laroq olib kirdi. Uning asosiy maqsadi azaldan bor bo'lgan rivoyatni qayta hikoya qilish emas edi. Avliyo Sergiy savdogarning qizi Martaga bo'lgan hirsiga yengilgunga qadar sodir bo'lgan voqealar rivoji Barsiso obid haqidagi rivoyat syujeti bilan o'xshash tarzda berilgan. Gunohkor Stepan Kasatskiyga aylangandan keyingi voqealar esa bevosita Injil va xristianlik ta'limotidan bir umr o'zi taftish qilgan haqiqatni izlab, faoliyatdan topa olmagan Tolstoy shaxsiyatidagi ma'naviy tanazzul, ichki ziddiyatlarni ko'rsatadi.

Asar Kasatskiyning hamma narsadan voz kechib, rohib bo'lish maqsadida monastirga yo'l olishi bilan boshlanadi:"Peterburgda qirqinchi yillarda kishini lol qoldiradigan bir voqea ro'y bergandi: kelishgan barno yigit – knyaz, hamma imperator Nikolay I huzurida fligel-adyutantlikka va yuqori mansabga erishishini bashorat qilgan, zirhpo'sh askarlar – ya'ni kirasirlar polkining komandiri, husnda tengsiz parichehra qiz bilan nikoh to'yiga bir oy qolganda iste'foga chiqdi, qaylig'i bilan munosabatlarini uzdi, chog'roq mulkini singlisiga qoldirdi va rohib bo'lish niyatida monastirga yo'l oldi". [Tolstoy, 2013, 8] Stepan Kasatskiyning rohiblikni tanlashiga asosiy sabab nomus edi. Bo'lajak qallig'ining imperator Nikolay I bilan munosabati borligini bilib qolgandan so'ng ayni shu qarorga keldi. Bundan tashqari asarda singlisi Varvara tilidan ham ikki sabab keltiriladi:

1. "Rohiblikni qabul qilib, boshqalar uchun juda muhim bo'lgan narsalardan nafratlanishini isbotladi". [Tolstoy, 2013, 12]

2. "Unda haqiqiy diniy tuyg'u bor edi. Bu diniy tuyg'u faxr hissi va birinchilik xohishi bilan chatishib ketib, uning ong-shuurida hukmronlik qilardi". [Tolstoy, 2013, 12] Nomus, Meriga nisbatan g'azab va tahqir tuyg'usi, umidsizlik uni "Xudoning huzuriga, buzilmagan vujudida hamon bokiraligini yo'qotmay saqlab kelayotgan ma'sum bolaligiga olib keldi". [Tolstoy, 2013, 12] Syujet yakunida Avliyo Sergiyning gunohkor Stepan Kasatskiyga aylanishi ham bevosita nomus, hirsga borib taqaladi.

Syujet boshlanish nuqtasidan so'ngiga qadar voqealar rivoji bilan parallel ravishda qahramon ismi ham o'zgarib boradi.

1. Kasatskiy. (Rohib bo'lgunga qadar)

2. Sergiy. (Uchinchi yilning oxirida pop martabasidagi rohib

huzurida o‘tkazilgan soch kuzash marosimidan keyin)

3. Sergiy ota. (Igumen vositasida o‘zi xizmat qilgan polkning sobiq qo‘mondoni general bilan uchrashgandan (o‘zidagi mag‘rurlik, shuhratni sezib Igumenning roziligi bilan Tambin xiyoboniga ketadi, zohidga aylanadi) hamda tarkidunyochilikning beshinchi yilida ro‘y bergan Makovkina bilan bog‘liq shov-shuvli voqea – uning tundagi tashrifi, o‘z hirsidan qutulish maqsadida chap qo‘lining ko‘rsatkich barmog‘iga bolta urishi, shundan keyin sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, ayolning monastirga borganligi haqidagi gap-so‘zlardan so‘ng)

4. Buzruk Sergiy. (Zohidlikdagi hayotining sakkizinchi yili bir ayolning o‘n to‘rt yashar farzandi uning duosi bilan tuzalganligi, “ilohiy shifobaxsh kuch” haqidagi maqtovlar tarqalgandan so‘ng)

5. Avliyo ota. (Iblis qalbining to‘rida uning Xudo yo‘lidagi faoliyatini odamlar xizmatiga burib yuborganidan keyin)

6. Gunohkor Stepan Kasatskiy. (Savdogarning qizi Martaga bo‘lgan hirsiga yengilgandan so‘ng)

7. Xudoning quli. (Pashenka bilan uchrashganidan so‘ng)

Tolstoy Kasatskiy obrazini jamiyat, tabiat, din mantig‘iga mos ravishda tasvirlaydi. Mazkur obraz e’tiqod, daraja jihatidan o‘zi yashagan jamiyatdagi oliy tabaqa vakillaridan ancha ustun, baland edi. U rohiblikni qabul qilib, boshqalar uchun juda muhim bo‘lgan narsalardan nafratlanishini isbotladi. Kasatskiy xarakteri qissada quyidagicha berilgan:“U ichmas, qing‘ir yo‘llarga yurmasdi va haddan tashqari haqiqatgo‘y edi”. [Tolstoy, 2013, 9] Doim birinchilikni xohlardi, hatto monastirdalik paytida ham boshqalardan ustunligini ko‘rsatdi:“Kasatskiy monastir yumushlarini bajarishdagina emas, tafakkurda ham o‘zining boshqalardan yuksakligini sezdi”. [Tolstoy, 2013, 13] Sergiy ota uchun mashaqqat ibodat va duoxonlikda emas edi, u hech qachon kutmagan ichki kurashda edi:“Kurashning manbasi ikkita edi: shubha va shahvoniy hirs”. [Tolstoy,2013, 18] Makovkina nayrangi, o‘z hirsidan qutulish maqsadida chap qo‘lining ko‘rsatkich barmog‘iga bolta urib, nafs, ya’ni shahvoniy hirsini yengdi. Bu voqeadan so‘ng Makovkina ham rohibalik yo‘lini tanladi:“Bir yildan keyin ayol rohibalikka qabul qilishning kichik marosimida sochini kalta qilib kestirdi va bir paytlar o‘ziga ahyon-ahyonda xatlar yozib turgan zohid Arseniy rahbarligida monastirda uzlatnishin hayot tarzini qabul qildi”. [Tolstoy, 2013, 22]

Kasatksiyning shon-shuhrat, kibrga berilib ketishi o‘n to‘rt yashar bolaning u qilgan duo orqali sog‘ayib ketishi bilan boshlandi. Odamlar uning qudratiga sajda qilib, dardlariga shifo topadigan bo‘lishdi. Buzruk Sergiyning Xudo yo‘lidagi faoliyatini Iblis odamlar

xizmatiga burib yubordi. Natijada unda shon-shuhrat, kibr paydo bo‘ldi. Makovkina bilan bog‘liq voqeada u nafs sinovidan o‘tgan edi. Shu bois Kasatskiyga avliyolik karomati berildi. Bu ham sinov edi. Ammo ikkinchi sinovdan o‘ta olmadi va hech qachon kechirib bo‘lmaydigan gunohga qo‘l urdi. Qissaning shu yerigacha bo‘lgan syujet Barsiso obid haqidagi rivoyat syujeti bilan ayni.

Tolstoy sharqdan ta’sirlangan. Tasavvuf adabiyotidan xabardor bo‘lgan. Avliyo Sergiyning gunohkor Stepan Kasatskiy darajasiga tushib qolishiga asosiy sabab – kibr va shuhrat. Asarning konseptual ahamiyati ham ayni shu yerda ko‘rinadi. Zero, avliyolik darajasiga ko‘tarilgan Barsiso obidning hech qachon kechirib bo‘lmaydigan gunohga qo‘l urishi shaytonga xos bo‘lgan kibr tufayli edi. Boyazid Bistomiy ham shayton menga ta’sir o‘tkaza olarmikan degan kibri uchun sinaldi. Kasatskiy minnatsiz uzatilgan bir piyola suv uning odamlarga o‘qigan pand-nasihatidan afzalligini tushunib yetdi, kech bo‘lsa-da, mag‘rurlik, ta’ma, kibr, shon-shuhratdan o‘zini chetlatdi:“Biroq Xudoga xizmat qilaman degan zarracha xolis xohish bo‘lganmidi?” – so‘radi o‘zidan va javob qaytardi:“Ha, biroq bu xohishlarning hammasi inson qavmiga xos shuhrat istagi bilan yondi, ulg‘aydi. Kim men singari shuhrattalab bo‘lib yashasa, uning uchun Xudo yo‘q. Men endi Uni izlayman”. [Tolstoy, 2013, 34]

Qissada muallif obrazi kategoriyasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Adabiyotshunos olim Suvon Meli mazkur kategoriyaga quyidagicha munosabat bildiradi:“Muallif obrazi virtual hodisa, ya’ni amalda, aytaylik, personajlar kabi mavjud emas, lekin imkoniyatdan mavjud, ya’ni vujudga kelishi mumkin obraz. Imkoniyatdan mavjudlik yuzaga kelishi uchun qulay shart-sharoit borligini anglatadi. Muallif obrazi asar tarkibidagi qahramonlar kabi hamisha ko‘zga tashlanavermaydi, lekin uning borligi va betinim harakatda ekani muttasil sezilib turadi. Avval aytilganidek, asarda tasvirlanayotgan voqea va obrazlar talqinidan tortib, undagi eng kichik elementgacha – hammasi qaysidir darajada asarni bitgan zot, ijodkor haqida axborot beradi. Bunday axborot, ma’lumot zarrama-zarra yig‘ilib, pirovard-natijada yaxlit qiyofa muallif obrazini vujudga keltiradi”. [Suvon Meli, 2017, 115] Stepan Kasatskiy xarakteri, voqealar rivoji, syujet tarkibidagi konflikt va yechimlar orqali Tolstoy “men”i reallashgan, qaysidir ma’noda obyektivlashgan.

Syujet yakunida muallif obrazi kategoriyasi yanada konkretlashadi. Muallif syujetga prototip o‘laroq olib kirgan Stepan Kasatskiy obrazi misolida o‘zini umr bo‘yi qiynagan jumboqlarga javob qidiradi. Bu Avliyo Sergiyning Pashenka bilan uchrashuvi

jarayonida bevosita ko‘rinadi. Syujet yakunida avliyolikdan gunohkor Stepan Kasatskiy darajasiga tushib qolgan Sergiy umr bo‘yi taftish qilgan haqiqatini topdi:“Pashenka men bo‘lishim kerak bo‘lgan, biroq bo‘la olmagan odam. Men Xudoning nomi bilan odamlar uchun yashadim, u esa odamlar uchun yashayotgandek bo‘lib, Xudo uchun yashayapti”. [Tolstoy, 2013, 34] Endi odamlar uni qiziqtirmay qo‘ygandi:“Unga odamlarning marhamati qanchalik ahamiyatsiz tuyulsa, u Xudoni shunchalar kuchli his qila boshladi”. [Tolstoy, 2013, 35] Tolstoy aytmoqchi bo‘lgan asosiy gap ayni shu yerda. Barsiso obid rivoyatida avliyo darajasiga yetgan Barsiso qismati fojeali yakun topdi. “Avliyo Sergiy” qissasida esa aksincha. Syujet boshlanish nuqtasidan so‘ngiga qadar voqealar rivoji bilan parallel ravishda o‘zgarib borgan Kasatskiy, Sergiy, Sergiy ota, Buzruk Sergiy, Avliyo ota, gunohkor Stepan Kasatskiy ismlari o‘z mohiyatini tamomila yo‘qotdi: “Kasatskiy sakkiz oy sarson-sargardonlikda kezindi, to‘qqizinchi oyda guberniya shaharchasida uni tilanchilar bilan tunab yotgan joyda ushladilar va pasportsizlar qatorida qismga olib ketdilar. U hujjating qayerda, kimsan degan savollarga hujjatim yo‘q, O‘zim Xudoning quliman, deb javob berdi”. [Tolstoy, 2013, 35]

Xulosa

1. “Avliyo Sergiy” qissasi syujeti voqelikda mavjud edi. Keyinroq xristian manbalariga, undan pravoslav jityelariga o‘tgan. Sharqda ham ma’lum bo‘lgan ushbu syujetni Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy ibrat o‘laroq hikoya qilgan. Tolstoy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida kelgan Barsiso obid haqidagi rivoyat syujetini qayta jonlantirdi. Sergiy savdogarning qizi Martaga bo‘lgan hirsiga yengilgunga qadar sodir bo‘lgan voqealar rivoji Barsiso obid haqidagi rivoyat syujeti bilan o‘xshash. Gunohkor Stepan Kasatskiyga aylangandan keyingi voqealar esa bevosita Injil va xristianlik ta’limotidan bir umr o‘zi taftish qilgan haqiqatni izlab, faoliyatdan topa olmagan Tolstoy shaxsiyatidagi ma’naviy tanazzul, ichki ziddiyatlarni ko‘rsatadi.

2. Barsiso obid rivoyatida Barsiso qismati fojeali yakunlanadi. “Avliyo Sergiy” qissasida esa aksincha. Syujet yakunida avliyolikdan gunohkor Stepan Kasatskiy darajasiga tushib qolgan Sergiy umr bo‘yi taftish qilgan haqiqatini topadi.

3. Syujet boshlanish nuqtasidan so‘nggi qadar voqealar rivoji bilan parallel ravishda qahramon ismi ham o‘zgarib boradi.

4. Tolstoy sharqdan tasirlangan. Tasavvuf adabiyotidan xabardor bo‘lgan. Bu Avliyo Sergiyning shuhrat, kibr bosqichidan

o‘ta olmaganida ko‘rinadi. Asarning konseptual ahamiyati ham ayni shu yerda.

5. Stepan Kasatskiy xarakteri, voqealar rivoji, syujet tarkibidagi konflikt va yechimlar orqali Tolstoy “men”i reallashgan, qaysidir ma’noda obyektivlashgan. Natijada muallif obrazi kategoriyasi yuzaga kelgan.

6. Tolstoy mavzuga psixobiografik yondashgan. “Avliyo Sergiy” qissasi yozuvchining “Iqrornoma” romani bilan bevosita bog‘liq.

7. Asarda Xudo va shaxs, jamiyat va shaxs, ego va shaxs munosabatlari asosida ayni syujet talqiniga erishilgan. Asarning o‘zak kontseptsiyasi – Xudoga xos qullik.

Adabiyotlar:

Alisher Navoiy. 2023. Tarixi anbiyo va hukamo. (Abdumurod Tilavov, Ibrohimjon Saydullayev tabdili.) – Toshkent:“Faktor press”. – B. 464.

Ildizlarni izlab. Publitsist Alisher Nazar bilan adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqul suhbati. 2022. –Toshkent: Tafakkur. – B. 95.

Jo‘raqulov, U. 2015. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – B. 362.

Jo‘raqulov, U. 2017. Alisher Navoiy “Xamsa”sida xrontop poetikasi. – Toshkent: Turon-iqbol nashriyoti. – B. 316.

L. Tolstoy. 2013. Sergiy ota. (Rus tilidan Hakim Sattoriy tarj.) – Toshkent: Jahon adabiyoti jurnali. – B. 208.

Suvon Meli. 2017. So‘zu so‘z. – Toshkent: Sharq. – B. 500.

Christian Saint’s Fat

Dilrabo Hakimjonova[1]

Abstract

In the article, the fate of Stepan Kasatsky, the hero of the story "St. Sergius", as an example of this character introduced into the plot as a prototype, some comments are made on the category of Tolstoy’s "I", the author’s image, who searched for the truth that he searched for his life from the Bible and Christian teachings, but could not find it in his work.

[1] *Dilrabo N. Hakimjonova* – Student of Alisher Navo’i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-mail: xakimovadilrabo420@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-0780-0754
For citation: Hakimjonova, D.N. 2024. “Christian Saint's Fat”. *Uzbekistan: Language and Culture* 3 (2): 96-102.

Based on the analysis, interpretations and suggestions are put forward.

Key words: *Plot, image, conflict, solution, category of the author's image, analysis, interpretation.*

References

Alisher Navoiy. 2023. Tarixi anbiyo va hukamo. (Abdumurod Tilavov, Ibrohimjon Saydullayev tabdili.) – Toshkent:"Faktor press". – B. 464.

Ildizlarni izlab. Publitsist Alisher Nazar bilan adabiyotshunos Uzoq Jo'raqul suhbati. 2022. –Toshkent: Tafakkur. – B. 95.

Jo'raqulov, U. 2015. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – B. 362.

Jo'raqulov, U. 2017. Alisher Navoiy "Xamsa"sida xrontop poetikasi. – Toshkent: Turon-iqbol nashriyoti. – B. 316.

L. Tolstoy. 2013. Sergiy ota. (Rus tilidan Hakim Sattoriy tarj.) – Toshkent: Jahon adabiyoti jurnali. – B. 208.

Suvon Meli. 2017. So'zu so'z. – Toshkent: Sharq. – B. 500.

ISSN 2181-922X 103—112

Turkiy matbuot va Turkiston madaniy hayoti

Sarvarbek Tuliboyev[1]

Abstrakt

Turk matbuoti Turkiston jadidchilari tafakkurida o‘z g‘oyalarini shakllantirgan va qarashlarini o‘zgartirgan asosiy manbalardan edi. Nashrlar turkistonliklarni dunyo yangiliklaridan xabardor qilish bilan birga, ularga dunyoning boshqa mamlakatlarida yashayotgan diniy qarindosh jamiyatlarning holatlaridan misollar keltirib, dunyoqarashni shakllantirishga harakat qilgan. Qolaversa, turk matbuoti Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, G‘iyosiddin Hasaniy kabi jadid ziyolilarining asarlari nashr etilgan, ularni ommaga tanitgan muhim bir “minbar” vazifasini o‘tagan. Mazkur maqolada XX asr boshida Turkiston madaniy hayotiga turk matbuotining ta’siri haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *matbuot, gazeta, jurnal, jadid, Turkiston, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, millat oydinlari.*

Dunyo turklari orasida matbuotning paydo bo‘lishi ilk marta Usmonlilar imperiyasi davrida ko‘zga tashlanadi. Aytish mumkin, qator jabhalarda ilg‘or sanalgan Usmonli imperiyasi bu borada G‘arbdan anchagina ortda qolgan edi. Ma’lumki, G‘arbda ilk matbaaga 1436-yilda nemis olimi Iogann Gutenberg tomonidan asos solinib, birinchi kitob 1440-yilda nashr etilgan. Usmonli Imperiyasi o‘sha davrda gullab-yashnagan bo‘lsa-da, salkam 300 yilga yaqin kechikish bilan birinchi turk bosmaxonasi 1727-yilda tashkil etilgan. Ayrim manbalarda Usmonlilar imperiyasida matbaachilikning kech rivojlanishiga davr din ulamolari tomonidan ko‘rsatilgan qarshiliklar sabab qilib ko‘rsatilgan.

Ba’zi tadqiqotchilar ushbu taxminlar asossiz deb bilishadi. Jumladan, professor Nurettin Guz “Bosmaxonaning mamlakatga kech kirib borishi va uning rivojlanmaganiga din va ulamoning hech qanday aloqasi yo‘q. Ular bosmaxonaga qarshi bo‘lmagan, aksincha, uning tashkil etilishi ulamolar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan”-degan fikrlarni bildirib o‘tadi.[Nurettin G. 1989, 166].

[1] *Tuliboyev Sarvarbek Dilmurodovich* – Termiz davlat universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi.
E-pochta: tuliboyevsarvar39@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-8405-8942
Iqtibos uchun: Tuliboyev, S.D. 2024. “Turkiy matbuot va Turkiston madaniy hayoti”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3 (2). 103-112.

Texnik taraqqiyotning yetarli emasligi bosmaxona rivojlanmaganligining asosiy ikkinchi sababi sifatida ko‘rsatiladi. Shuning natijasida 1742-yilda qog‘oz taqchilligi boshlanib, qog‘oz ishlab chiqarish sexini tashkil etish uchun mamlakatga Polshadan ikki usta olib kelinishi manbalarda qayd etiladi. [Nurettin G. 1989, 166].

Bizningcha, asosiy sabab sifatida texnik kadrlar yetishmasligini ko‘rsatish to‘g‘riroq bo‘ladi. Bulardan tashqari, boshqa sohalardagi rivojlanishning sustligi ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Turk adabiyoti tarixida “Lola davri” deb atalgan davrning muhim voqealaridan biri Istanbulda bosmaxonaning ochilishidir. Parijga elchi sifatida jo‘natilgan Mehmed Chalabiyning o‘g‘li Mehmed Said Afandi, asli Vengriyada tug‘ilgan, islom dinini qabul qilgan Ibrohim Mutafarrika (1674–1745) bilan hamkorlikda sultonning va shayxulislomning roziligini olib, 1724-yili Istanbulda birinchi turk nashriyotini ochadilar. Ayrim qarshiliklarga qaramasdan nashriyot 1729-yili ishga tushadi. 1729–1742 yillarda tarix, geografiya, grammatika, lug‘at, sayohatnomalar kabi 17 nomdagi kitoblar bosiladi. Bu turk madaniy hayotidagi katta voqea edi.[Alimbekov A.2005, 107-108].

Birinchi Usmonli rasmiy bosmaxonasi tashkil etilganidan taxminan bir asr o‘tib, 1828-yili Misr gubernatori Mehmet Ali Posho tomonidan Qohirada turk va arab tillarida rasmiy viloyat gazetasi “Vaqoyi Misriya” (Misr voqealari) nashr etiladi. Ushbu gazeta Usmonlilar hukmronligi ostida nashr etilgan birinchi turk gazetasi sifatida tarixga kiradi. Gazetadagi yangiliklarning yarmidan ko‘pi turkcha, qolgani qismi esa arab tilida bo‘lib, har hafta nashr etiladi.

Bugungi Turkiya hududida chop etilgan birinchi gazeta Sulton Mahmudxon II davrida 1831-yil 11-noyabrda Istanbulda nashr etilgan “Taqvimi vaqoye” nomli rasmiy gazetadir. Bu Usmonlilar imperiyasi chegaralarida nashr etila boshlangan birinchi Usmonli turk gazetasi edi. Gazeta Usmonli turk tilidan tashqari arab, arman, fors, fransuz va yunon tillarida nashr qilinadigan haftalik gazeta bo‘lib, rasmiy va norasmiy e’lonlar bilan bir qatorda, imperiya ichidagi hamda xorijdagi muhim voqealarga oid yangiliklar ham chop etiladi. “Taqvimi vaqoye” rasmiy gazeta bo‘lgani uchun maqolalarda asosan davlat qarashlari ko‘proq aks etgan. 1860-yildan boshlab faqat rasmiy e’lonlar va ipmeriyada qabul qilingan qonun matnlari ko‘proq nashr etila boshlanadi.



(“Taqvimi vaqoye” gazetasining 1- soni. Birinchi sahifasi. Muqaddimasi bilan. Manba: TDV İslâm Ansiklopedisi 2010 y. İstanbul. 39-j., 490-492-s.)

Shuningdek, gazeta Usmonli imperiyasi siyosatini boshqa davlatlarga yetkazishda, xalqaro munosabatlarda ham o‘ziga xos vosita vazifasini bajargan deyish mumkin.

“Taqvimi vaqoye”dan to‘qqiz yil o‘tib “Jaridayi havodis” gazetasi o‘z faoliyatini boshlaydi. Mazkur gazeta Uilyam Cherchill ismli ingliz tomonidan chop etiladi. [Hıfzı T.2014, 44].

Gazeta jamoasi mahalliy aholidan iborat bo‘lib, davlat ruxsatisiz uning nashr qilinishi, xohlagan mavzuda yozishi mumkin emas edi. Biroq, uning xorijdagi vaziyatni turk kitobxonlariga yetkazishi, dunyodagi yangi ixtirolar, topilmalar haqida imperiya aholisiga ma’lumotlar berib borishi mumkin edi va bu holat, tabiiyki, aholi orasida gazetaga bo‘lgan qiziqishni oshirgan.

Tanzimot adabiyotining timsoli va boshlanishi bo‘lgan “Tarjimoni ahvol” 1860-1866 yillar oralig‘ida Istanbulda nashr etilgan birinchi xususiy gazetadir. 1860-yil 22-oktyabrda Ogoh Afandi va Shinosiy tomonidan faqat yakshanba kunlari chiqadigan gazeta 1861 yil 22 apreldagi 25-soni bilan haftada uch kun (yakshanba, seshanba, payshanba) kunlari nashr etila boshlanadi.[Olimov Sh. 2020, 3]. Vaqt o‘tishi bilan gazeta “Jaridai havodis” gazetasi bilan raqobatlashish uchun nashrini besh kunga uzaytiradi. Bu gazetada Ahmad Vofiq Posho, Ziyo Posho va Rafiq Beylarning maqolalari tez-tez bosilib turardi. Bu maqolalarda Usmonli jamiyatining qoloqligi sabablari va o‘lkada sodir bo‘layotgan voqealar muhokama qilinib, ba’zi jihatlar tanqid ostiga olinardi. Bundan tashqari, adabiy asarlar

chop etilgan gazetada G‘arb adabiyoti andozasidagi ilk turkiy pyesa bo‘lgan Shinosiyning “Shoir Evleri” (1860) asari ham gazetaning bir nechta sonida nashr etilgan. Gazeta 1861-yilning may oyida Ziyo Posho qalamiga mansub maorif tizimini qattiq tanqid qilgan maqola tufayli ikki haftaga yopiladi. 792-soni nashr etilgan “Tarjimoni ahvol” gazetasi 1866-yil 11-martda o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Usmonli matbuoti keyingi yillarda turli voqealarga guvoh bo‘ldi. Gohida Usmonli sultonlari tomonidan senzura qilingan, ba’zilari yopilgan; ba’zan rivojlanish yo‘lidan boradi.Usmonlilar tarixida ikkinchi konstitutsiyaviy monarxiya (1908-1918) deb atalgan davrda matbuot haqiqiy ma’noda rivojlanib, Turkiyaning bugungi jurnalistika an’analariga asos solindi deyish mumkin.

Turkiyada 2-konstitutsiyaviy monarxiyaning e’lon qilinishi bilan matbuotda senzuraga qo‘yilgan taqiq bekor qilindi. Usmonli imperiyasida yashagan turli til va dinlarga mansub har bir xalq o‘z fikrlarini bildiragan gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi. [Dağlar O. 2008,141]. Bu davrga kelib matbuot jamiyatning ovoziga aylandi. Bundan tashqari, jamiyatning konstitutsiyaviy boshqaruvi hamda ular qabul qilgan qarashlar va olib borilayotgan siyosatni e’lon qilishning eng muhim vositasi bo‘ldi. Jamoatchilik konstitutsiyaviy monarxiyani matbuot orqali tanidi va qabul qildi. Bir so‘z bilan aytganda bu davr matbuoti, ayni damdagi islohotlarni, aholi tushunishi uchun maslahat va muhokama qilinadigan eng muhim minbarga aylandi.

Turli mafkura va da’volar bilan paydo bo‘lgan matbuot nashrlari orasida islomiy va turkiy (yoki turonchi) jurnal va gazetalar alohida o‘rin tutadi. Bu davrda deyarli har bir nashrda Usmonlilar davlati va uning tashqarisidagi turk hamda islom dunyosida sodir bo‘layotgan voqealarga alohida o‘rin ajratiladi. Mintaqaga oid xabarlar bilan bir qatorda, turkiy-turonchi va yangilikchi-islomchi yozuvchilar hamda ziyolilarning maqolalari tez-tez ko‘rina boshladi. Ayni paytda Turkistonda juda faol davr boshlanganligi, (jadidlarning maydonga kela boshlashi), Rossiyaning o‘zgarib borayotgan boshqaruvi va tobora og‘irlashib borayotgan “ruslashtirish” siyosati ham turk matbuotida kundalik dolzarb masalaga aylanib boradi.

O‘sha davrning eng muhim islomiy nashri, shubhasiz, birinchi soni 1908-yil 24-avgustda nashr etilgan “Siroti Mustaqim” jurnali edi. “Siroti Mustaqim” jurnali 1908-yildan 1912-yil 1-martgacha nashr etilgan, jami 182 soni chop etilgan. Jurnalning asoschilari Abu’lala Mardin va Ashraf Edipdir. Jurnal nomi 1912 yildan keyin (183-sonidan) “Sabilur Rashod” ga o‘zgartiriladi va 1925-yilga

qadar shu nom bilan nashr qilinadi. Mazkur jurnal davrning islomiy qarashlarini himoya qilgan muhim nashr sifatida tanilgan.

Jurnal Rossiya hukmronligi ostida yashagan musulmon turklarning diniy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy faoliyati bilan yaqindan qiziqdi. Shunga ko‘ra jurnalning turli sonlarida chor Rossiyasi rejimi va ma’murlarining musulmon turklarga nisbatan o‘zlashtirish va bosim siyosatlari maqola va xabar sifatida keng muhokama qilindi. Jurnalda Rossiya turklari, jumladan, turkistonlik ziyolilarning maqola va maktublari ham o‘rin olgan bo‘lib, bular orqali o‘quvchilar musulmon turk dunyosidan xabardor bo‘lishlari mumkin edi.

“Siroti Mustaqim” dunyo musulmonlarining “ovozi” bo‘lgani bilan ham diqqatga sazovor edi. Shuningdek, yana bir muhim jihati uning sahifalarida rus turklariga oid yangiliklarning kengroq yoritilganligi bo‘ldi. [Özbek N. 1995, 18]. Xususan, Turkiston jadidchilarining yetakchisi Mahmud Xo‘ja Behbudiyning Buxoro haqidagi bir qancha maqolalari mazkur jurnalda ommaga taqdim etiladi. Qolaversa, “Siroti Mustaqim”ning Buxorodagi maxsus muxbiri bo‘lgan G‘iyosiddin Hasaniy ismli muallifning Buxoro haqida ba’zilari imzolangan, ba’zilari imzosiz ko‘plab maqolalari bor. Hatto Buxoroda sodir bo‘lgan tarixiy voqealar, masalan, 1910-yil fevralida sunniy va shia o‘rtasidagi to‘qnashuv “Buxorodan Muxobiru Maxsus” sarlavhasi bilan batafsil bayon etilgan.

Professor Z.Abdurashidov o‘z tadqiqotlaridan birida Buxoro haqidagi ilk xabar “Siroti Mustaqim” jurnalining 1909-yil 21-oktabrdagi 57-sonida e’lon qilindi, deb ma’lumot berib o‘tadi. [Abdurashidov Z. 2022, 79]. Shuningdek, 1909-yil kuzida yangi usul maktabi atrofidagi tartibsizliklar va 1910-yil yanvaridagi shia-sunniy nizolaridan so‘ng turk matbuotida Buxoroga bag‘ishlangan materiallar soni juda ko‘payganini kuzatish mumkin. Ushbu maqolalarda, asosan Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy hayot ko‘proq tahlilga tortiladi.

Buxorolik jadidlar uchun shunday jurnallarni o‘qish xavfli bo‘lsa-da, lekin, ziyolilarning erk va ozodlikka bo‘lgan intilishlari har qanday to‘siqlardan oshib o‘taverdi. Ular amir hukumatidan yashirin joylarda to‘planib, suhbat va munozaralar o‘tkazar edilar. Suhbatlarning asosiy mavzusi ta’limni yaxshilash bo‘lsa-da, asosan, siyosiy masalalarni muhokama qilish muqarrar edi. Ba’zi yig‘ilishlarda jadid yetakchilarining rag‘batlantiruvchi va ruhlantiruvchi nutqlari ham yangrab qolar edi. Eng muhimi, gazetxonlik deb atalgan gazeta o‘qish kechalari o‘tkazilib, unda asosan xorijdan kelgan gazetalar,

masalan, Turkiyada nashr etilgan “Siroti Mustaqim”, Hindistonda nashr etilgan “Hablul matin” va Afg‘onistonda paydo bo‘lgan “Sirojul-Ahbor” kabi gazeta-jurnallar o‘qilib, muhokama qilinar edi.

Turk matbuotining Turkiston madaniy hayotiga ta’siri shu qadar bo‘ldiki, birgina Istanbulda nashr etilgan gazeta va jurnallarning sayohatchilar, ziyoratchilar va savdogarlar orqali Turkistonga kirib borishi pirovardida jadidlar nafaqat, islom olamidagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan xabardor bo‘lishdi, qolaversa, ular (jadidlar) ko‘pgina jihatlarni o‘z faoliyatlari davomida qo‘llay boshladilar. Bu haqida Sadriddin Ayniyning xotiralarida bir qancha ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. [Айний.1963, 184].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonga kirib kelgan taraqqiyparvar gazetalar M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon singari yoshlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti bilan, yangi asrning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan tanishtira boshladi. Xuddi shu yillarda Rossiya, Eron va Turkiyada sodir bo‘lgan inqilobiy voqealar haqidagi xabarlar ham aynan shu nashrlar orqali Turkistonga yetib keldi.

Jadidparast yoshlar orasida Istanbul va boshqa musulmon shaharlardan kelayotgan gazetalarning ta’siri sezila boshlaganidan Buxoro amiri Rossiya hukumati bilan hamkorlikda gazeta o‘qilishining oldini olish choralarini ko‘ra boshlaydi. “Siroti Mustaqim”ning faoli, mashhur islom sayyohi va yozuvchi Osiyoning ko‘p joylariga sayohat qilib, “Olami Islom” nomli kitob yozgan Abdurashid Ibrohim (1857-1944) “Qozonlik rus zobiti Buxoro madrasalarida “zararli” nashrlar tarqalayotganligi, ayrim jurnallarda buzg‘unchi g‘oyalar singdirilgan maqolalar yozilayotganligi va bu maqolalarga xayrixohlik talabalar orasida keng tarqalayognaligini tekshirgan edi”, [Ibrahim A. 1987, 50] deb Buxoro madrasalarida ko‘rgan manzarasini tasvirlaydi. Ko‘rinib turibdiki, “Siroti Mustaqim” jurnalida yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishi va tarqalishi erk hamda ozodlik uchun uyg‘onishda, e’tiqodni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Turkistonda “Siroti Mustaqim”dan keyin e’tiborni tortgan yana bir nashr “Taarufi Muslimin” gazetasi ekanligini taxmin qilish mumkin. 1910-yil 16-aprelda o‘z faoliyatini boshlagan gazeta Qozon, Sibir va Qrim tatarlari tomonidan Rossiyadan tashqarida chop etilgan birinchi matbuot manbaasi edi. U taxminan bir yil faoliyat yuritadi va 1911-yil 2-fevralgacha 32 ta soni nashr etiladi. Bu gazetaning maqsadi Islom olamini bir-biridan xabardor qilish, eng muhimi, barcha musulmon davlatlar o‘rtasida birodarlik va birlikni

rivojlantirish edi. Gazetada Rossiya hududlari ayniqsa Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-siyosiy yangiliklar aks etgan maqolalar tez-tez bosilib turardi. Ba’zi hududlarda gazetaning ko‘ngilli muxbirlari bor edi. Masalan, Buxorodan yozganlar orasida faqat Abdurauf Fitrat o‘zining aniq imzosi bilan maqolalar bergan bo‘lsa, boshqalar esa taxallusdan masalan, “Sherik” yoki oddiygina “Buxoro muxbiri” nomlaridan foydalanganlar.

Gazetadagi Turkistonga bag‘ishlangan maqolalarda o‘lka ruslar qo‘lida qolib, qiynoqqa solinganligi katta tashvish bilan ifodalangan. Ba’zilar Buxoro amiri va boshqa amaldorlarni befarqlikda ayblar ekan, hukmdorlarning o‘ylamasdan qilayotgan ishlari haqida gapiradilar. Turkiston masalalarini tez-tez kun tartibiga olib boradigan nashr, albatta, mintaqada katta qiziqish uyg‘otadi. Chunki Buxoro jadidlari yetakchilaridan biri Abdurauf Fitratning Buxoro vaziri Nasrulloh Parvonachiga ochiq maktubi ushbu gazetada e’lon qilingani bejiz emas. Nasrulloh bekning bosh vazir etib tayinlanishi munosabati bilan fors (tojik) tilida yozilgan maktub turkiyga tarjima qilinmasdan asl holida hijriy 1328, milodiy 1910 yil, 25-adad, 2-jild; 8 dekabr, payshanba sonida e’lon qilingan. Asarni dastlab fors tilidan tarjima qilib, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 1996-yil 9-may sonida e’lon qilgan H. Boltaboev o‘zbek fitratshunosligiga shu kungacha noma’lum bo‘lgan bu maktubni taqdim etgan Tokio universiteti professori, doktor Xisao Kumatsuga minnatdorchilik bildirib o‘tadi.[“ЎзАС”.1996, № 19, 3].

“Ey Vazoratpanoh, biz tartiboti jadidaga muhtojmiz” deb boshlanuvchi maktubda Fitrat juda og‘ir ahvolda bo‘lgan millatni yo‘qsullik botqog‘idan faqatgina “adolatparvar podshoh” va “ezilgan Buxoro millatining besabot tarafdori” bo‘lgan vazir (Nasrulloh parvonachi) yorug‘lik sari olib chiqishini ta’kidlaydi. Uning ezilgan xalq boshiga rahbar bo‘lib kelishi shunchaki ish emas, aksincha, “avvalo hazrati Xoliqning karami”, so‘ng, “adolatparvar podshoh”ning lutfi sabab “umri parishon va istibdodpesha bo‘rilarga o‘lja bo‘lib, qo‘ruvchisiz qolg‘an qo‘ylarg‘a mehribon cho‘ponlikka emas, balki ularning ishlarini tanzim qilish, tartibga solish uchun yuborg‘an”ligini uqtiradi. [“ЎзАС”.1996, № 19, 3].

Fitrat maktubini shu gazetada chop etishga qaror qilar ekan, Buxoro hukumati, vazirning ushbu gazetani o‘qib chiqishiga ishongan, shuning uchun ham xalq dardi ifodalangan gaplarini shu gazetada chop etgan bo‘lishi mumkin. Fitrat Buxoroga qaytgan paytida ko‘pchilikka tanish bo‘lib ulgurgan, qator yoshlar unga

ergashgan shaxs edi. Albatta, Fitratning ziyoli sifatida tanilishi va tan olinishiga Istanbulda yozilgan “Sayha”, “Sayyohi hindi”, “Munozara” kabi asarlari va “Taarufi Muslimin” kabi gazetalarda chop etgan maqolalari katta yordam berdi deyish mumkin.

Turkistonda yangi g‘oyalarning tarqalishiga hissa qo‘shgan yana bir Usmonli nashri Ahmad Hilmiy tomonidan Istanbulda nashr etilgan “Hikmat” gazetasidir. Mazkur gazeta G‘arbga ko‘r-ko‘rona ergashib, ularning puch g‘oyalariga ishongan ziyolilarni ko‘proq tanqid ostiga oladi. “Hikmat”ning birinchi soni 1910-yil 21-aprelda chiqqan. [Olimov Sh. 2020, 7]. Shu kundan boshlab 1911-yil 21-sentyabrgacha u o‘zining nashr faoliyatini haftalik asosda davom ettiradi. Gazeta 1911-yil 21-sentabrda 74-sonida “Ochiq istak” nomli sultonga yo‘llangan maktub tufayli yopiladi. Ahmad Hilmiy ushbu gazetasida Turkiston masalalariga ham e’tibor qaratgan. Abdurauf Fitratning maqolalari esa gazetaning O‘rta Osiyodagi o‘quvchilari sonini oshishiga xizmat qilgan. Fitrat bu gazetada maqolalarini asosan, fors tilida nashr ettiradi. Gazetada bir yilga yaqin faoliyat ko‘rsatgan Fitratning jami yettita maqolasi chop etiladi.

Turkiston bilan qiziqqan va bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida tez-tez “gapiradigan” matbuotdan yana biri “Turk Yurdu” jurnalidir.

Mashhur turkiyshunos olim Ahmet Zaki Validiy Tog‘on o‘zining “Xotiralar”ida “...Nazir To‘raqul bilan Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon) menga alohida yaqin do‘stlar bo‘ldilar. Nazir o‘sha vaqtda vatanparvar turkchi edi. Istambulda chiqadigan «Turk yurti»ni o‘qirdi… Cho‘lpon hali 19 yoshlik vaqtlarida uning uyiga mehmon bo‘lib borganimizda, u turk tarixiga doir asarlarni o‘qir edi, keyin “Turk yurti” kabi turkcha nashrlarni kuzatadi…” [Заки Валидий. 1981] deb ta’kidlab o‘tadi.

Yuqorida tilga olingan gazeta va jurnallarning barchasi minglab ziyoratchilar, talabalar, savdogarlar tomonidan mintaqaga yuborilgan. Ayniqsa, Buxoro amirligida bu ish tizimliroq olib borilganini kuzatishimiz mumkin. Jadidlar shahar markazida kutubxonalar, kitob do‘konlari ochib, mazkur nashrlarni kitobxonlarga taqdim etishga harakat qilganlar. “Tarbiyayi atfol” jamiyati tomonidan Istanbul va chet eldagi boshqa shaharlarga ta’lim uchun yuborilgan talabalarning muhim vazifalaridan biri jadid maktablari, sinf xonalari va kutubxonalari uchun kitoblar, turli matbuot nashrlaridan yuborib turishi kerak edi.

Sadriddin Ayniy ushbu gazeta va jurnallar Buxoroga juda kam nusxada kirib kelsa ham, ular amirning o‘rta asrlarcha og‘ir idora

usuli va mutaassib mullalar ta'siri ostida qoloqlikda qolgan Buxoro ommasining fikriga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaganligini ta'kidlaydi. [Айний. 1960, 72-73].

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, Turk matbuoti Turkistonning nafaqat madaniy, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Natijada, ziyolilar va yoshlar o'rtasidagi o'zgarish jamiyatda o'zini namoyon qila boshlaydi. Yangicha dunyoqarash va zamonaviy fikrlovchi kishilarning ko'payishi, ozodlik va islohotga intiluvchi guruhlarning harakatlari yoki boshqaruv tizimi tez-tez tanqid qilinadigan matbuotning kuchayishi Turkistondagi amir ma'muriyatini ham, rus ma'muriyatini ham bezovta qila boshlaydi. Qolaversa, Usmonli nashrlari Turkiston jadidchilari tafakkurida o'z g'oyalarini shakllantirgan va qarashlarini o'zgartirgan asosiy manbalardan edi. XX asr boshlarida Turkistonda ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan turk matbuoti ta'sirida Turkistonda jadidlar matbuoti rivojlanib, jamiyat hayotida tub burilish yasadi. Ismoil Obidiy boshlab bergan milliy matbuotchilikdan so'ng, Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov singari millat oydinlari tomonidan turli gazetalar faoliyati yo'lga qo'yildi…

Adabiyotlar

Алимбеков А. 2005. Турк адабиёти тарихи (XIII-XVIII асрлар). Ўқув қўлланма. – Т.: . "Шарқ"

Айний С. Танланган асарлар. 8 жилдлик, 1-жилд. – Т.: "Бадиий адабиёт".

Айний С. 1960. Қисқача таржимаи ҳолим. Т.: "Бадиий адабиёт".

Валидий З. 1981. "Бугунги турк эли ва яқин тарихи". I жилд. Истанбул.

Dağlar O. 2008. II. Meşrutiyet'in İlanının İstanbul Basını'ndaki Yansımaları. İstanbul.

TDV.2010. İslâm Ansiklopedisi. 39-j. İstanbul.

Hıfzı T. 2014. 2.Mahmut'tan Holdinglere Türk Basın Tarihi, Remzi Kitabevi. İstanbul.

Ibrahim A. 1987. 20. Asrın Başlarında İslâm Dünyası. İstanbul.

Olimov Sh. 2020. "Türkistan mücadele hareketlerinde Osmanli basininin etkisi". İstanbul.

Nurettin G. 1989. "Türkiye'de Matbaanın Kurulması".–Ankara.

Özbek N. 1995. Abdürreşid İbrahim'in İkinci Meşrutiyet Yılları: Tearüf-i Müslimin ve İslam Dünyası Dergileri. Ankara.

Abdurashidov Z. 2022. "Shimol shamoli" yoki Buxoroning uyg'onishi: Istanbuldan bir nazar.// "O'zbekiston: til va madaniyat"// №-3.

"Ўзбекистон адабиёти ва санъати".// 1996 йил 9-май, № 19.

Turkish press and cultural life of Turkestan

Sarvarbek Tuliboev[1]

Abstract

The Turkish press was one of the main sources that formed their ideas and changed their views in the thinking of the fighters of Turkestan. Publications tried to inform the people of Turkestan about the news of the world, giving them examples of the situation of religious related societies living in other countries of the world and forming their worldview. In addition, the Turkish press published the works of modern intellectuals such as Mahmudhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Ghiyaziddin Hasani, and played the role of an important "minbar" that introduced them to the public. This article talks about the influence of the Turkish press on the cultural life of Turkestan at the beginning of the 20th century.

Key words: *press, newspaper, jadid, Turkestan, Behbudi, Fitrat, Cholpon.*

References

Alimbekov A. 2005. Turk adabiyoti tarixi (XIII-XVIII asrlar). O‘quv qo‘llanma. – T.: “Sharq”

Ayniy S. Tanlangan asarlar. 8 jildlik, 1-jild. – T.: “Badiiy adabiyot”.

Ayniy S. 1960. Qisqacha tarjimai holim. T.: “Badiiy adabiyot”.

Validiy Z. 1981. “Bugungi turk eli va yaqin tarixi”. I jild. Istanbul.

Dağlar O. 2008. II. Meşrutiyet’in İlanının İstanbul Basını’ndaki Yansımaları. İstanbul.

TDV.2010. İslâm Ansiklopedisi. 39-j. İstanbul.

Hıfzı T. 2014. 2.Mahmut’tan Holdinglere Türk Basın Tarihi, Remzi Kitabevi. İstanbul.

Ibrahim A. 1987. 20. Asrın Başlarında İslâm Dünyası. İstanbul.

Olimov Sh. 2020. “Türkistan mücadele hareketlerinde Osmanli basininin etkisi”. İstanbul.

Nurettin G. 1989. “Türkiye’de Matbaanın Kurulması”.–Ankara.

Özbek N. 1995. Abdürreşid İbrahim’in İkinci Meşrutiyet Yılları: Tearüf-i Müslimin ve İslam Dünyası Dergileri. Ankara.

Abdurashidov Z. 2022. “Shimol shamoli” yoki Buxoroning uyg‘onishi: Istanbuldan bir nazar.// “O‘zbekiston: til va madaniyat”// №-3.

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”.// 1996 yil 9-may, № 19.

[1] *Sarvarbek D. Tuliboev* – Teacher of the Uzbek literature department of Termiz State University.
E-mail: tuliboyevsarvar39@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-8405-8942
For citation: Tuliboev, S.D. 2024. “Turkish press and cultural life of Turkestan”. *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 103-112.

ISSN 2181-922X 113—120

Qahramon ruhiyatini yoritishda konfliktning o‘rni

Rushana Zaripova[1]

Abstrakt

Konflikt badiiy asarning o‘qishliligini ta’minlovchi muhim elementlardan bo‘lib, u yozuvchiga qahramonlar ruhiyatini ochishda katta yordam beradi. Bir so‘z bilan aytganda har qanday hayotiy jarayon deysizmi, ijtimoiy hayot deysizmi, badiiy asar deysizmi barining rivojlanishida va hattoki, so‘nishida ham konflikt (ziddiyat) muhim rol o‘ynaydi. Qolaversa, inson hayotining ilk bosqichidan boshlab ziddiyatlar bilan hamnafas qadam tashlaydi. Ushbu maqolada Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarida qahramon ruhiyatini yoritishda konfliktning o‘rni nechog‘lik ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *konflikt, obraz, badiiy mahorat, badiiy psixologizm, hikoya, janr, ruhiyat, davr muammosi, badiiy tasvir.*

Badiiy asarning qiziqarli chiqishi, xarakter qirralarini ochilishida konfliktning o‘rni katta. Yozuvchi so‘zlar vositasida manzara va inson portretini chizar ekan, ularni harakatsiz qilib emas, balki ularni muttasil harakatda ifodalaydi. Asar qahramonlari muttasil harakatda bo‘lar ekan, o‘zaro to‘qnashuvlardan iborat bo‘lgan harakatda bo‘ladilar. Bu to‘qnashuvlar shaxslar o‘rtasida, shaxs bilan jamiyat o‘rtasida, yoki shaxsning ichki, ya’ni ruhiyatidagi ziddiyatlar asosida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, badiiy asar syujeti konfliktsiz yashay olmaydi. Shunday ekan, konfliktning o‘zi nima? - degan savolga javob izlab ko‘rsak. Nazariy adabiyotlarda konflikt haqidagi fikrlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Akademik I. Sulton konfliktga quydagicha tarif beradi: “Konflikt badiiy asarda tasvirlangan xarakterlar, ifoda etilgan g‘oyalar, kayfiyatlar kurashidir. Syujetida konflikt bo‘lmagan asar ta’sirchan bo‘lmaydi, chunki unda hayotiy haqiqat yorqin va izchil ifodalanmaydi. Faqat xarakterlar to‘qnashuvi natijasidagina odamlarning ichki dunyosi ochiladi. Konflikt butun asar syujeti va mazmunining yo‘nalishini

[1] *Zaripova Rushana Robertovna*– Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.
E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-8207-2819
Iqtibos uchun: Zaripova, R.R. 2024. “Qahramon ruhiyatini yoritishda konfliktning o‘rni”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3 (2). 113-120.

ta’min etadi. Konfliktsiz syujet “yasash” mumkin emas. Chunki syujet o‘zining chuqur mohiyati jihatidan harakat qilayotgan konfliktdir” [Sulton I. 2005, 110].

T. Boboyev konfliktga quyidagicha ta’rif beradi: “Konflikt – badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasidagi yuzma-yuz kurash yoki qahramonlarning o‘z atrofini qurshab olgan muhiti, o‘z-o‘zi bilan ruhiy to‘qnashuvi, olishuvi.” Konflikt – syujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch. Agar syujetni avtomobil deb faraz qilsak, konflikt uning dvigatelidir; syujet – tashqi ko‘rinish bo‘lsa, konflikt uning ichki oqimidir. Yozuvchi badiiy syujet orqali muayyan davrning ijtimoiy konfliktlarini ifodalaydi, ularga o‘z munosabatini bildiradi, qahramonlar xarakterini ochadi, estetik idealini olg‘a suradi” [Бобоев 2002, 65].

Demak, asar syujeti konfliktsiz yashay olmaydi. Konflikt asar syujetini harakatga keltiradigan asosiy kuch ekan, usiz badiiy asarning estetik qiymati ham pastlab boradi, bu esa adabiyot uchun katta yo‘qotishga sabab bo‘ladi. Ushbu fikrlar yana shuni ko‘rsatadiki, konflikt badiiy asar qahramonlarining xarakterini ochishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Abduqayum Yo‘ldoshevning “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasida ***ruhiy konflikt*** ustunlik qiladi. Qahramon o‘zi bilmagan holda, aniqrog‘i e’tiborsizligi sababli bir qizni baxtsiz qilib qo‘ygani, uni vijdon azobiga soladi. Qahramon ruhiyatida kechayotgan ziddiyatlar uning xarakterini ochishga va asarning emotsional ruhini ko‘tarishga xizmat qiladi.

Yozuvchi asarlaridagi ayrim ziddiyatlar ma’lum epizodlarda davom etib, keyinchalik g‘oyib bo‘lsa, ayrim ziddiyatlar asarning bosh qismidan boshlanadi, voqealar rivojlangan sari konflikt ham rivojlanib boradi va asar so‘ngida yechiladi.

Masalan, **ichki konfliktni** biz qahramonning ongida sodir bo‘lishi, bunda qahramonning o‘z qo‘rquvlari, shubhalari yoki axloqiy qarashlari bilan kurashishi aks etishi deb bilsak, ko‘pincha qiyin qarorlar, hissiy tartibsizliklar yoki o‘z-o‘zini kashf qilish atrofida sodir bo‘ladigan ichki konflikt Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarida ko‘plab uchraydi. Masalan, muallifning mashhur “Puankare” hikoyasida:

...O‘, Xudoyim, bu “bag‘ishlash”lar va “kafolat”lar ortida nima turganini bilmasam ekan!.. Ammo nima qilay. Sal sarkashlik qilsam, rahbarim to‘nini teskari kiyib oladi, ana undan keyin xayr, aspirantura, xayr, ilmiy ish! Odatdagidek, yomonlikning bundayrog‘ini tanlashga to‘g‘ri keldi.

...Yo rab! Bu nima degan gap axir! Axir bu... mening erkaklik

sha’nimni balchiqqa qorish bilan barobar emasmi? Nega, nega u birinchi kechadan keyinoq menga umr yo‘ldoshi bo‘lganligini ta’na qiladi? Nima, u bo‘lmasa men bir umr bo‘ydoq o‘tarmidim?...

Bir ko‘ngil: “Kostyumni yelkangga il-da, chiq-ket. Hammasiga tupur. Dunyo keng”, dedi. Boshqa ko‘ngil: “Sen erkakmisan yo hajiqiz? Tug‘ilajak zuryodingda nima ayb? Otalik mas’uliyati bormi senda o‘zi? O‘zing tirik bo‘la turib xotiningni yesir, bolangni sag‘ir qilmoqchimisan?” dedi... [Yo‘ldosh A. 2022, 70].

Yuqoridagi misollar adibning mashhur “Puankare” asaridagi bosh qahramon–universitet o‘qituvchisining turli vaziyatlardagi ichki konflikti edi. Xuddi shunday holatni “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Timsohning ko‘z yoshlari” qissalarida ham ko‘rishimiz mumkin:

“...Hayhot, o‘zimni aldashga ne hojat, men axir mehmonnigina emas, u olib kelayotgan maktubniyam kutmayapmanmi? Go‘yo sarf bo‘lgan vaqtim, o‘lgan asab hujayralarim evaziga... o‘lpon olib kelishlarini kutayotganday... Axir, aslini olganda, men qay birini ko‘proq zoriqib kutyapman: qiznimi, maktubnimi... Qanchalar mayda, xudbin odamman-a... Bir kamim endi birovlarning to‘shagiga kirib, ularning suhbatidan voqif bo‘lishim qoluvdi... Uyat, uyat, sh qadar uyatki...

Yo‘q, hali kech emas, o‘zimning iblisona niyatlarimdan voz kechishim, barini, barini mutlaqo boshqacha tarzda bajarishim kerak. Hozir... hozir... o‘ylab ko‘ray... Bo‘ldi! Tamom! Men endi aniq bilaman: xat o‘z egasiga yetib borishi kerak... [Йўлдош А. 1998, 52].

Yuqoridagi holat “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasidan olingan bo‘lib, unda bevaqt vafot etgan hamkasb, hamxonasining o‘rniga (sunbulaning ilk shanbasida) uchrashuvga chiqqan muallifning ichki ziddiyatlari aks etgan. Xuddi shunday shaxsning ongida sodir bo‘lib, ichki ziddiyatlari aks etishi “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasida ham kuzatiladi:

“...bundan yetti-sakkiz yil burungi bilan ayni kunlardagi tashqi ko‘rinishim o‘rtasidagi ancha sezilarli tafovut xususida o‘ylarkanman, “ehtimol, meni tanimas” degan dudmol tusmolga bordimu, to yigitchaning o‘zi b iron nima demagunicha... miq etmay o‘tiraverishga qaror qildim. Mabodo u haddidan oshsa, men ham bezbetlik qilib o‘tiraveraman: “Men–men emasman”, deb. Nima qipti, o‘tgan safar o‘rtog‘imdan voz kechgandim, bus afar o‘zimdan...” [Йўлдош А. 2003, 33].

Ma’lum bo‘lganidek, badiiy asar voqalarini yanada kitobxon shuuriga singishiga, kitobxon qalbini larzaga kelishida konflikting o‘rni beqiyos. Munaqqid olim Matyoqub Qo‘shjonov ta’kidlaganidek:

“konflikt-hayotdagi real qarama-qarshiliklarning badiiy ifodasidir. Asarda esa, u syujetni harakatga soluvchi asosiy kuch, rivoj beruvchi prujina, richagdir. Syujetni asar skeleti deb faraz qilsak, konflikt unga jon beradigan, harakatga keltiradigan yurakdir.” *[Қўшжонов 2018, 338].*

Abduqayum Yo‘ldoshning “Bankir” romani “Daryo”ga nisbatan o‘tkir syujet asosiga qurilgan. Roman voqealari salkam o‘ttiz yildan orttiqroq davr voqelarini o‘z ichiga oladi. Asarda endi-endi shakllanib keayotgan bankirlar sulolasining ilk vakillaridan biri Tolib Bakirov hayoti va kechmishlari tasvirlanadi. Shuningdek, asar davomida Bakirovning qizi Nozima, kuyovi Narimon, sadoqatli shifokori Jamol, qo‘l ostidagi xizmatkorlari, o‘rinbosari Mannonov va Bakirovning ashaddiy raqibi Murtazo Yo‘lbarsov kabi ppersonajlar xarakteri ochib beriladi.

Ichki (psixologik) konflikt haqida so‘z ketar ekan, “Bankir” qahramonlari ham his-tuyg‘u, ichki va tashqi ziddiyatlardan xoli emas. Asar davomida bankining qizi Nozima eridan yetarli mehr ololmaydi. Ayniqsa, erining bankdagi boshqa ayol bilan oshiq-mashuq bo‘lib yurishini bilgach, undan battar nafratlanadi. Uning uchun er, oila degan narsalar ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Mehrni boshqalardan, ko‘chadagilardan izlay boshlaydi. Ko‘chadagi tayini yo‘q Dilmurod bilan ilk uchrashuvdan so‘ng uning qalbida ba’zi ziddiyatlar sodir bo‘ladi:

“…Nozimaning ko‘ngli sal bezovta edi. Axir, har qalay, boshida eri bor ayol. Buning ustiga, shaharda kim ko‘p –Tolibjon bankirni tanigan ko‘p… U uyiga keldiyu, ustidagi mog‘or isi o‘rnashib qolgan kiyimlarini yulqib otdi va o‘ziing marmar hovuzida orom olib yotarkan, sal o‘zini bosib olganday bo‘ldi va: “Hechqisi yo‘q, degan qarorga keldi. – Hali Dilmurodjonimga shunday uylar oberib, shunday yasantirayki, Olyaxon-Molyaxonlar ko‘rganida alamdan barmoq tishlab qolsin! O‘zi boshida hammmasi shunday kechsa kerka-da, axir, hali bu sohada tajribam yo‘q. keyin hammasi yaxshi, yaxshiyam gapmi, zo‘r bo‘lib ketadi, zo‘r…” *[Йўлдош А. 2012, 78].*

Yoki, Nozimaning yarim kechasi shahar chekkasidagi restoranlarning birida ko‘rib qolgan Jamolning “Nozima, uyga boring, bu yurishlar siga yarashmaydi” –deyishiga ovoz chiqarib aytmasada, ich-ichida unga e’tiroz bildiradi. Bu holatni yozuvchi shunday tasvirlaydi:

“Nozimaning ich-ichidan sovuq ehtiros ko‘tarildi. “Nega menga xo‘jayinlik qilyapsiz? Do‘xtir bo‘lsangiz o‘zingizga! Hammaga mumkin ekan-u, nega menga mumkin emas?! Hammaga yarashadi-

yu nega menga bu yurishlar yarashmas ekan?! Nega hamma erkin, o‘z holicha yurgan shaharda men erkin bo‘la olmayman?!”– deb baqirgisi keldi uning. Ammo ko‘pchilik ichida o‘zini sharmada qilishni istamadi. – Yoqimli maslahatingiz uchun rahmat!–dedi Jamolga yeb yuborguday bo‘lib qararkan, o‘rnidan turib eshik tomon yurdi.” *[Йўлдош А. 2012, 80-81].*

Ichki konflik qahramonning ongida sodir bo‘lib, bunda ularning qo‘rquvlari, shubhalari yoki axloqiy qarashlari bilan kurashishi, ko‘pincha qiyin qarorlar, hissiy tartibsizliklar yoki o‘z-o‘zini kashf qilish asnosida yuzaga kelar ekan, bu kabi holga “Bankir” romanining ko‘plab joylarida duch kelamiz.

Masalan, banker Tolibjon Bakirovni bir necha marta muqarrar o‘limdan qutqarib qolgan Jamolning xotini va qizining avtohalokatga uchrab, bevaqt vafot etishiga o‘zini asosiy sababchi deb bilishi, yolg‘iz kechalarda “agar o‘shanda ularni qishloqqa yubormaganimda, balki…” kabi savollar bilab o‘zini cheksiz javobsiz savollar girdobiga uloqtirishi; Nozimaning avval Dilmurod bilan ishqiy munosabatga kirishib, aldanib qolgach, o‘z eridan ololmagan e’tiborni otasinning tansoqchisi Nodirdan izlashi, o‘sha holatdagi o‘zining ichki dunyosidagi evrilishlar, Nozimaning dugonasi Olyaning tuzalmas kasallikni yuqtirib olib, “Daryo” romanidagi Tojiboy kabi iztiroblar girdobida qolishi; bankirning kuyovi Narimon o‘z aybini yashirish uchun ayoli oldida turli holatlarga tushishi, yoki Yo‘lbarsovdan videotasvirni olish uchun sodir etgan kirdikorlari, Muratzo Yo‘lbarsovning Tolibjon Bakirovga nisbatan cheksiz adovati (dastlab bankirning jasadini xo‘rlamoqchi bo‘lishi, keyin bu fikrdan qaytishi) kabi holatlarda ichki konfliktni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Qahramonning voqealarning oldindan belgilab qo‘yilgan yo‘nalishi yoki o‘zgarmas kelajak bilan kurashi inson va taqdir ziddiyati deb tushundik. Ushbu turdagi mojarolar ko‘pincha iroda erkinligi, taqdir va muqarrarlikka qarshi kurash holatlarini aks ettiradi. Bu holat ijodkorning “Daryo” romanida Berdiqulning taqdirga tan bermay Tohir bilan abadiy dushman bo‘lishi bir misol. Yoki, shu asardagi personajlardan biri Gulnoza turmushga chiqib ketgan bo‘lsada, ba’zida o‘z taqdiriga qarshi isyon qilib qoladi.

“Bankir” romanida esa Tolib Bakirovning tabiatidagi kurashuvchanligi, uning juda qiyin paytlarda ham “taqdirimda bori shu ekan-da” deb o‘tirmasdan, maqsadiga jiddu-jahd bilan kirishishi, Jamolning bankir Tolibjon Bakirovni zaharlashganidan so‘ng, shunchaki taqdirga tan bermasdan, bankirni asrab qolish

uchun kurashgani bunga misol bo‘la oladi.

Ijodkor romalari konfliktining va voqelar rivojining ishqiy mojaro bilan bog‘lanishi inson ruhiyati mantig‘iga juda mos keladi. Ya’nikim, “Daryo” romanida Tohir va Berdiqul o‘rtasidagi konflikt aynan Jamila ismli qiz sababli yuzaga kelaadi. Yoki, o‘z xohishi bilan advokat Fayzulla bilan ketib qolgan bo‘lsa-da, Gulnozaning eriga nisbatan sovuq munosabatda bo‘lishining tub ildizi ham aynan ishqiy mojaroga borib taqaladi. “Bankir” romanida ham bu holatni ko‘rishimiz mumkin. Nozima va Narimon o‘rtasidagi ziddiyatga ham, Narimon bilan qaynotasi Bakirov o‘rtasidagi ziddiyatga ham ana shu ishqiy munosabatlar sababchi qilib ko‘rsatiladi. Yoki, adibning “Puankare” hikoyasida “birinchi kechadayoq qovun tushirgan” bosh qahramon butun umr ayoli bilan murosa qilolmay o‘tadi. “Timsohing ko‘z yoshlari” qissasidagi Salomat va muharrir o‘rtasidagi ba’zan oshkora, ba’zan maxfiy ziddiyatlar zammirida ham xonadosh Munisa hayotida sodir bo‘layotgan ishqiy mojaro bilan bog‘liq.

Ijodkor badiiy asar yozish jarayonida, qahramonlarini tanlash jarayonida hayot bilan hamohangligiga alohida ahamiyat beradi. Chunki san’at va adabiyotning o‘rganish ob’ekti – hayot. Hayot esa insonlar taqdiri, turish-turmushi, ruhiyat manzillarini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda har bir ijodkor uchun ahamiyatli bo‘lgan bir jihat bor: yozuvchi asaridagi qahramonning ruhiyatini davr va muhitdan kelib chiqib tasvirlaydi va o‘sha ruhiyatni kitobxon ong-u shuuriga singdirishga intiladi. Chinakam yetuk asarlarning asrlar osha xalq qalbidan o‘chmasligi sababi ham shunda. Masalaning to‘g‘ri va aniq qo‘yilganligidadir. Abduqayum Yo‘ldosh ham davr va muhitning inson omiliga qanchalik ta’sir etishini “Puankare”, “Tushov”, “Alvido, go‘zallik!” kabi hikoyalari, “Bankir”, “Daryo” kabi romanlari misolida ko‘rsatib beradi. Mana shu o‘rinda Akademik M. Qo‘shjonovning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratsak: “Adabiyotning bosh prinsiplaridan biri kishilar ongiga ta’sir qilish. Bu ta’sirni adabiyot ikki yo‘l bilan o‘tkazadi. Hayotning ijobiy tomonlarini ulug‘laydi, salbiy tomonlarini qoralaydi. Hayotning salbiy va ijobiy tomonlari esa istalgan jamiyatda bo‘lishi mumkin. Eski tuzum zaminida adabiyot hayotning salbiy tomonlariga qarshi ayovsiz kurashgan bo‘lsa, yangi tuzum zaminida xalqning olg‘a siljishiga to‘siq bo‘ladigan kamchilik va nuqsonlarga qarshi ayovsiz kurashadi, o‘zining jangovarlik prinsipini sira ham kamaytirmaydi, kamaytirgan taqdirda qaysi bir janrda bo‘lishidan qat’i nazar konfliktsizlik botqog‘iga botib qolishi hech gap emas.” *[Қўшжонов 1988, 56].*

Demak, adabiyot inson ongiga ta’sir o‘tkazish uchun hayotning

salbiy va ijobiy tomonlarini yoritadi, bu narsa, albatta, konflikt bilan amalga oshiriladi, shundan kelib aytish mumkinki, badiiy asarni badiiy jihatdan yuqori darajaga ko‘taruvchi, uni insoniyat ruhiy olamiga ta’sir o‘tkazishiga ko‘maklashuvchi unsurlardan biri bu – konfliktdir. Zero, konfliktdan chekingan asarlar badiiylikdan yiroqlashish bilan bir qatorda adabiyotda ham muhim o‘rin egallamaydi. Konfliktning yana bir xususiyati uning xarakterlarni ochib berishidir.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, badiiy asarda konflikt o‘tkirlashib borgan sari uning estetik saviyasi ham ortib boradi. Ijodkorlar hayotdagi zidiyatlarini o‘z asariga olib kirar ekanlar, uni bo‘rttiribroq, yorqinroq tasvirlashga intiladilar, bu esa asarni emotsional ruhini ko‘taradi. Inson paydo bo‘libdiki, u ziddiyatlar qurshovida yashaydi, ana shu ziddiyatlar uning ongini o‘stirib boradi, mana shu ijtimoiy ziddiyatlarni badiiy yo‘sinda adabiyotga olib kirilishi va uning badiiy asarda aks etishi, o‘tkir syujetli asarlarning dunyoga kelishiga omil bo‘ladi, bunday o‘tkir ziddiyatlarga ega bo‘lga syujet, albatta, o‘quvchini badiiy asarga qiziqishini ortiribgina qo‘ymay, uni ongiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

Sulton I. 2005. Adabiyot nazaryasi. – T.: “O‘qituvchi”.
Бобоев Т. 2002. Адабиётшунослик асослари. – T.: “O‘zbekiston”.
Қўшжонов М. 2018. Танланган асарлар. “Шарқ”
Қўшжонов М.1988. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. Монография – T.: “Ғ. Ғулом”
Yo‘ldosh A. 2022. Puankare. – T.: “Akademnashr”.
Йўлдош А. 1998. Сунбуланинг илк шанбаси. – T.: “Ёзувчи”
Йўлдош А. 2003. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. – T.: “Янги аср авлоди”
Йўлдош А. 2012. Банкир. Роман. – T.: “Тафаккур қаноти”

The role of conflict in illuminating the psyche of the hero

Rushana Zaripova[1]

Abstract

Conflict is one of the important elements that ensure the readability of a work of art, and it greatly helps the writer to reveal the psyche of the characters. In a word, conflict plays an important role in the development and even in the extinction of any life process, social life, artistic work. In addition, from the first stage of human life, one steps in harmony with conflicts. This article talks about the role of conflict in illuminating the psyche of the hero in the works of Abduqayum Yoldoshev.

Key words: *Conflict, image, artistic skill, artistic psychology, story, genre, psyche, period problem, artistic image.*

References

Sulton I. 2005. Adabiyot nazaryasi. – T.: "O'qituvchi".
Boboev T. 2002. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: "O'zbekiston".
Qo'shjonov M. 2018. Tanlangan asarlar. "Sharq"
Qo'shjonov M.1988. Abdulla Qahhor mahorati. Monografiya – T.: "G'. G'ulom"
Yo'ldosh A. 2022. Puankare. – T.: "Akademnashr".
Yo'ldosh A. 1998. Sunbulaning ilk shanbasi. – T.: "Yozuvchi"
Yo'ldosh A. 2003. Timsohning ko'z yoshlari. – T.: "Yangi asr avlodi"
Yo'ldosh A. 2012. Bankir. Roman. – T.: "Tafakkur qanoti"

[1] *Rushana R. Zaripova* – Doctoral student of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-8207-2819
For citation: Zaripova, R.R. 2024. "The role of conflict in illuminating the psyche of the hero". *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 113-120.

ISSN 2181-922X 121—128

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Traditional images of the classical ghazal and their translations

Aidakhon Bumatova[1]

Abstract

Alisher Navai is one of the prominent poets and thinkers of the Uzbek nation. He is the founder of old Chaghatai language and literature that in its turn resulted to become the foundation for the modern Uzbek. He was the first ever known poet that was determined to compose in Chaghatai, the language that un his times used to be considered to be the language of the common, and thus no good for either literature in general or poetry in specific. Unfortunately, the poetic genius of Navai is not as widely recognized throughout the world as it deserves to be. The inspiration makes the poet create, while it is the translation of their work that provides the poet to be truly appreciated throughout the world. In this article, the comparative translation of three stanzas and their five English translations of the poet's ghazal that starts with the line "Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur" will be analyzed. For the analysis the stanzas one, six and seven have been chosen.

Keywords: *poetic translation, classical poetry, Alisher Navai, poetic language, preservation of images in translation.*

Introduction

The ghazal by Alisher Navoi that begins with the line "Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur" is written in the aruz prosody known as hazaj musaddas akhrab maqbuz mahzuf, with the scansion pattern of "– – V / V – V – / V – –". Each line consists of ten syllables, with a logical pause presented as 5+5. The ghazal is composed of seven couplets, with the word "bo'lubtur" serving as the radif, and the words "qaro, balo, davo, fido, oshno, havo, baqo, navo" chosen as the rhyme. It is a love poetry. In his tazkira titled "Majolis un-nafois," Alisher Navoi mentions that the original matla of the ghazal belonged to

[1] *Aidakhon M. Bumatova* – DSc researcher, Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
E-mail:aidabumatova@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-6757-475X
For citation: Bumatova A.M., 2024. "Traditional images of the classical ghazal and their translations". *O'zbekiston: til va madaniyati,* 3 (2), 121-128.

his prematurely deceased student named Mirzobek. Navoi highly praises Mirzobek's talent and, in honor of him, uses the couplet left by Mirzobek as the matla and completes the entire ghazal.

For the moment of the conducting of the current research, five published translations of the ghazal have been officially published. The translations that are the subject of the current reseach are the followings:

1. "Pearls from the ocean" [Pearls from the ocean 2000];
2. "Selected gazels of Navoi" [Sultanova 2015];
3. "From the treasury of meaning" [Xolbekova 2020];
4. Divan of Alisher Navoi "Universal man" [Smith 2021];
5. "Twenty-one ghazals" [Daly 2016];

The reseach paper will focus on the translations made by both Uzbek and English translators.

Main Part

In this couplet, two poetic devices – zulqofiyatayn, the usage of a double-rhyming, and tardi aks, reverse repetition, are used simultaneously. The phrases "balo qaro" in the first line and "qaro balo" in the second line create a double rhyme, as they rhyme with each other. Additionally, since these phrases are used in reverse order, the device of tardi aks is also achieved.

First Couplet:	Meaning:
Kozung ne balo qaro bo'lubtur,	Why have your eyes become so dark,
Kim jonga qaro balo bo'lubtur.	That they have become a turbulent calamity for this soul?

The darkness of the beloved's eyes is considered a symbol of beauty in classical ghazal composing tradition. Black is also known to represent a collection of mysteries, pain, and problems. The layers of meaning in the couplet are constructed based on these traditional symbols. That is, the beloved's eyes are so dark that nothing can be more beautiful. At the same time, this very darkness, this beauty, becomes a calamity that brings sorrow and grief to the lover's heart.

Translations of the couplet:

"Pearls from the ocean" [Pearls from the ocean 2000]	"Selected gazels of Navoi" [Sultanova 2015]	"From the treasury of meaning" [Xolbekova 2020]	Divan of Alisher Navoi "Universal man" [Smith 2021]	"Twenty-one ghazals" [Daly 2016]
What a misfortune your dark eyes have proved to be	And how happened so that thy eye so black became,	Your eyes' turning black is a misfortune,	So, how did it happen that so black Your eye became...	Fortune's wheel halts heavily before your dark eyes:

For the life of my soul they turned into a terrible, plight.	And the soul because of that black one dark became.	For it'd cause the soul a black mistfortune.	due to that black one, soul of the dark to spy became.	My soul suspended in the absence of those eyes.

In the translation from "Pearls from the Ocean", the rhyme and wordplay are not preserved. The meaning of the first line does not correspond to the original–both lines discuss the calamity of the eyes, and the concept of "beauty" in the first line is not reinstated.

In the translation from "Selected Gazels of Navoi", the use of contrastin the original text is preserved. The translator has somewhat reinstated the original wordplay. However, in English, it is customary to use the plural form when referring to a person's eyes. Considering that using the plural does not change the meaning of the text or the meter of the line, we believe it is correct to include the word "eyes". Furthermore, according to the translation, the poet's heart darkens because of the dark eyes. It is important to remember that in English, the phrase "dark soul" is used to describe someone as "malevolent" or "evil-hearted". In Uzbek, a phrase capable of expressing the distress and pain in the heart has been modified to describe a generally bad person. This image is not used in the original text. The beloved's eyes darken the poet's world.

In "From the Treasury of Meaning" the first line is also incorrectly interpreted. The translated form of the couplet results in a similar changed meaning as presented in "Pearls from the Ocean".

Although the first line from "Divan of Alisher Navoi 'Universal Man'" collection is correctly interpreted, the second line can be read with logical stress placed in two different ways: 1) it can imply that the heart is darkened, similar to the meaning in "Selected Gazels of Navoi", and that the darkening is due to spying; 2) it can be interpreted as the darkness coming to the heart for spying. Either way, the original meaning is not reinstated. It is unclear why the notion of "spying" was included in the line.

In the translation from "Twenty-One Ghazals", images not present in the original, such as "Fortune's wheel" and "heart's demise" are included. We believe the translator formed their text based on the translation provided in "Pearls from the Ocean", where the word "misfortune" was artistically reworked into "Fortune's wheel halts heavily". The image in the second line that the inability to see the beloved's eyes causes the heart's demise is not relevant to the original or other translated texts.

Sixth couplet	**Meaning**
Boqiy topar ulki bo‘ldi foniy,	The one who embraces transient nature of this world achieves eternity,
Rahravg‘a fano baqo bo‘lubtur.	For the traveler, transiency has become eternity.

“Fanā” and “baqā” are symbols frequently used in Sufi literature. “Fanā” (transiency) refers to the nature of this world and all its people and things, signifying the temporary, the finite, the elements that will eventually pass away or come to an end. “Baqā” (eternity) is the antonym of “fanā” and is often attributed to God. Islamic Sufism includes beliefs about God, His creation of the universe and humanity, and the relationships between humans, God, and the universe. This couplet encapsulates these ideas.

Whatever a person achieves in this world will eventually end and pass away. Whatever one accumulates throughout the life is left behind after death for others to inherit. This process continues endlessly. The idea that everything in this world remains in this world, and that a person cannot take anything with themselves after death, is a common theme in classical ghazals. According to this teaching, the human soul is believed to have once been part of the divine light of God and constantly strives to reunite with its original source, to attain eternity. However, for hearts preoccupied with the transient pleasures of this world, this is not possible. Thus, avoiding attachment to this world and always remembering the true destination and abode–acknowledging “fanā” and striving for it–is simultaneously an approach to “baqā”.

A traveler follows the principle of “fanā” throughout life, striving to reach “baqā” at the end of the journey, the end of life.

The translations of the couplet:

“Pearls from the ocean”	“Selected gazels of Navoi”	“From the treasury of meaning”	Divan of Alisher Navoi “Universal man”	“Twenty-one ghazals”
The soul sought eternity but became finite	If mortal one’s devotee, he’ll be ever noted,	He who been mortal became immortal.	If who can die is a devotee that does, it’s noted down:	My very soul solidifies what once was vapor
For its companion – the body – infinity became	A small path for the frog the place of mark became.	For a traveler the immortality became mortal.	for frog the place of the path a mark to try, became.	And vapor becomes friend – your body, your dark eyes.

There are two principal issues in the translation from “Pearls from the Ocean”. Firstly, the thought in the translation is the opposite of the original text. The heart does not strive for eternity because it is mortal; rather, it becomes eternal because it embraces the flickering nature of a transient world. Secondly, the human body, unlike the non-material soul, cannot claim eternity, as it is a material element and ultimately doomed to perish.

There is also a significant deviation from the original text in the translation from “Selected Gazels of Navoi”. It is unclear how the phrase “he’ll be ever noted” in the first line relates to the couplet. Additionally, the word “baqā” in the second line is mistakenly confused with the word “frog” (baqa) by the translator, resulting in an extremely awkward sentence.

In the translation from "From the Treasury of Meaning" the words “fanā” and “baqā” are translated as “mortal” and “immortal”. While the dennotative meaning of these terms comply with the words used by the translator, the connotative meanings remain uncovered in this context. There are two more differences from the original text. First, in the original text, the action has not yet taken place, while in the translation, the use of the present perfect tense emphasizes that the action has already been completed. Second, the phrase “For a traveler, the immortality became mortal” creates cognitive dissonance for the reader. As mentioned earlier, “fanā” in the couplet specifically refers to the transiency of the world, not just the body. Expressing this idea as “through detachment from the world, achieving eternity” would help reveal the true meaning of the original.

The translation from the “Divan of Alisher Navoi ‘Universal Man’” collection once again repeats the mistakes made in the “Selected Gazels of Navoi” translation. Due to the translator relying on another translator’s text, who in her turn have incorrectly interpreted the original in the first place, results in the translation that is not only irrelevant to the original text but also confusing.

In “Twenty-One Ghazals” the translator repeatedly recreates the image of the eyes from the first couplet in each subsequent couplet, and this one is no exception. The translator’s approach of creating a text with no relation to the original continues in this couplet. Therefore, it is impossible to conduct a deeper comparative analysis of the translation and the original text, as these two texts are entirely unrelated.

Seventh couplet:	**Meaning**
To tuzdi Navoiy oyati ishq,	Navoi's words that celebrate love
Ishq ahli aro navo bo'lubtur.	Have become famous among lovers.

Navoi's love ghazals become popular and well-known among lovers, being passed down from mouth to mouth. His ghazals are legendary among lovers. They see their daily states reflected in them and learn the etiquette of love from these texts.

The translations of the couplet:

"Pearls from the ocean"	"Selected gazels of Navoi"	"From the treasury of meaning"	Divan of Alisher Navoi "Universal man"	"Twenty-one ghazals"
When Navoiy compiled his verses of love	Before Novoiy announced his verse of love,	Since Navoi has created the verses of love,	Before Navoi was ever reading this poem about love,	When Navoiy wrote his poems of yearning love,
To all those in love they turned into a melody.	It'd already for lovers' vital spark became.	For lovers they sang as divine from above.	it had been read by lovers who a spark to fly became!	Lovers heard him, his songs of dark, infinite eyes.

The final stanza of this ghazal has been rendered relatively well by each translator. The translation from "Pearls from the ocean" uses the dennotative meaning of the words "navo", which is "melody". In general, the translation of the stanza is correct. In the translations of "Selected gazelles of Navoi" and "Divan of Alisher Navoi 'Universal man'", it is said that these ghazals became a spark among lovers even before Navoi composed his ghazal and read it. A somewhat illogical statement. In the translation given in "From the treasury of meaning", there is a grammatical error in the connection process between the verses, but it is possible to restore the meaning through literal translation. Therefore, the translation can be rated as satisfactory. Despite the fact that the black eye is still sung in the translation in "Twenty-one ghazals", it is in this stanza that the general meaning of the original can be inferred.

Summary

Due to the word limitations of the paper, unfortunately, it was not possible to introduce the whole texts of all translations here. However, by showcasing only the abovementioned three stanzas and their five different translations allow to come to some crucial conclusions:

1. None of the translations are free of the human factor mistakes; by this we mean the incorrect interpretations of the original material. Thus, we can assert that the translation starts with the interpretation of the text in the source language. Probably, working with the professionally made interpretation of the text would be beneficial for the further translations;

2. It's critical to be able to comprehend the source text. It seems as clear as the day, nevertheless, in case of the translations made by English speakers, who most likely were not able to understand Uzbek, they either repeated the mistakes that had been done by the other translators or digressed from the source text completely. As the representative of the culture, we are delighted that this poetry is being translated into English. Nevertheless, if this creates false or incorrect versions, there is no use of doing this task at all. As promoting Navai with this level of quality will lead to a completely unfair idea to Navai's genius that he is a mediocre poet who completely lacks logics;

3. Probably, creating the prose translations that are based on the professional interpretations of Navai's ghazals in the English language might assist in the creation of high-quality translations in the future.

References

Daly D. Twenty-one ghazals, Alisher Navoiy. – Servena Barva Press, Summerville, Massachussets, 2016.

Pearls from the ocean. Навоий шеъриятидан инглизчага таржималар тўплами / Тузувчи Й.Парда. – Т.: Шарқ нашриёт-манбаа концерни, 2000.

Smith P. Divan of Alisher Navoi "Universal man". Translation and introduction Paul Smith. – NEW HUMANITY BOOKS BOOK HEAVEN, LA, USA 2021.

Sultanova D.S. Selected gazels of Navoiy. –T.: Navroʻz nashriyoti, 2015.

Xolbekova B. Ma'nolar xazinasidan. From the Treasury of Meaning [Matn]. Gʻazallar tarjimalari parallel matnlari bilan. Translations of ghazals with their parallel texts. – Toshkent: «MASHHUR-PRESS» nashriyoti, 2020.

Mumtoz g‘azallarda an’anaviy obrazlar va ularning tarjimalari

Aidaxon Bumatova[1]

Abstrakt

Alisher Navoiy O‘zbek millatining atoqli shoir va mutafakkirlaridan biridir. U eski Chig‘atoy tili va adabiyotining asoschisi bo‘lib, bu til keyinchalik zamonaviy o‘zbek tilining asosiga aylandi. U Chig‘atoy tilida ijod qilishni maqsad qilgan birinchi taniqli shoir edi, bu til o‘sha davrda oddiy xalqning tili deb hisoblanar va shuning uchun ham adabiyot, xususan, she’riyat uchun mos emas degan tushuncha mavjud bo‘lgan. Afsuski, Navoiyning poetik dahosi butun dunyoda munosib e’tirof topmagan. Shoirlar ilhom ta’sirida yaratadilar, lekin ularning ijodini dunyo bo‘ylab chinakamiga yoyilishiga sababchi bo‘lib ularning asarlarining tarjimasi xizmat qiladi. Ushbu maqolada, shoirning “Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining uchta bayti va ularning beshta inglizcha tarjimasi qiyosiy tahlilga tortiladi. Tahlil uchun birinchi, oltinchi va yettinchi baytlar tanlangan.

Kalit so‘zlar*: she’riy tarjima, mumtoz she’riyat, Alisher Navoiy, poetik til, obrazlarning tarjimada saqlanishi.*

Adabiyotlar

Daly D. Twenty-one ghazals, Alisher Navoiy. – Servena Barva Press, Summerville, Massachussets, 2016.

Pearls from the ocean. Навоий шеъриятидан инглизчага таржималар тўплами / Тузувчи Й.Парда. – Т.: Шарқ нашриёт-манбаа концерни, 2000.

Smith P. Divan of Alisher Navoi “Universal man”. Translation and introduction Paul Smith. – NEW HUMANITY BOOKS BOOK HEAVEN, LA, USA 2021.

Sultanova D.S. Selected gazels of Navoiy. –T.: Navro‘z nashriyoti, 2015.

Xolbekova B. Ma’nolar xazinasidan. From the Treasury of Meaning [Matn]. G‘azallar tarjimalari parallel matnlari bilan. Translations of ghazals with their parallel texts. – Toshkent: «MASHHUR-PRESS» nashriyoti, 2020.

[1] *Bumatova Aidaxon Merganovna* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
E-pochta: aidabumatova@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-6757-475X
Iqtibos uchun: Bumatova, A.M. 2024. “Mumtoz g‘azallarda an’anaviy obrazlar va ularning tarjimalari”. O‘zbekiston: til va madaniyati, 3 (2), 121-128.

ISSN 2181-922X 129—139

Ekvivalentlikka doir nazariy qaydlar

Matluba Qudratova[1]

Abstrakt

Mazkur maqola tarjimashunoslikning ekvivalentlik muammosi mavzusiga bag‘ishlangan. Tarjimashunoslarning ekvivalentlik tushunchalariga oid fikrlari, ilmiy qarashlari o‘rganilib, ularga munosabat bildirilgan. Ekvivalentlikning bir-biridan farqli jihatlariga ko‘rib chiqilgan. So‘z birikmasi va gap darajasida ekvivalent tanlash masalasi turli xil manbalardan olingan misollar orqali tadqiq etilgan. Maqola so‘ngida qisqacha xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *tarjima, ikvivalentlik, badiiy matn, she’riy matn, ilmiy-texnik matn.*

Kirish

Tarjimaning o‘ziga xosligi shundaki, dastlabki matnga zaruriy o‘zgartirishlar kiritilganiga qaramay, u asl nusxani to‘liq almashtirish sifatida qabul qilinadi. Bunday holda, tarjima qilingan matnni qabul qiluvchi retseptorlar uni asl matn bilan mutlaqo bir xil deb hisoblaydi. Biroq, bunday o‘ziga xoslik faqat nazariy jihatdan erishish mumkin bo‘lgan tarjima idealidir, tarjima amaliyotida mumkin emas.

Shu munosabat bilan, 19-asrda "tarjimasizlik nazariyasi" ishlab chiqilgan. Vilgelm fon Gumboldtning ushbu lingvistik nazariyasi, shubhasiz, 19-asrning eng ta’sirli lingvofalsafiy tushunchalaridan biridir. Keyin tilning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, uni boshqa tillardan ajratib turuvchi barcha o‘ziga xos xususiyatlarni: har bir alohida tilning o‘ziga xos tuzilishi, grammatik tuzilishi va lug‘at tarkibini ochib berish tilshunoslikning asosiy yo‘nalishi bo‘ldi.

Bularning barchasi tilning o‘ziga xosligini, milliy xususiyatlarini tashkil etadi. Shu sabablarga ko‘ra, lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarni boshqa tilga o‘tkazishning mumkin emasligi haqida taxmin paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, tarjima asl

[1] *Matluba Qudratova* – TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
E-pochta: qudratovamatluba467@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-27-95-3420
Iqtibos uchun: Qudratova, M. 2024. “Ekvivalentlikka doir nazariy qaydlar”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3 (2): 129-139.

nusxani to‘liq takrorlashi va to‘liq bo‘lishi kerak deb hisoblangan shunga o‘xshash, shuning uchun tarjima, birinchi navbatda, badiiy matn, umuman imkonsiz bo‘lib chiqdi. [http://socialtranslation. ru/ maqola. php ?artic le_id=395].

Tarjima bu jarayonda tuzatib bo‘lmaydigan ma’no va badiiy yo‘qotishlar muqarrar, bajarib bo‘lmaydigan vazifa bo‘lib ko‘rindi, Ikki yondashuv aniqlandi, ularning ikkalasi ham qoniqarsiz deb topildi: asl nusxaga qat’iy rioya qilish, asosiy til va adabiyotning o‘ziga xosligini qurbon qilish (asosan so‘zma-so‘z tarjima) yoki asl matndan uzoqlashish va manba matnni maqsadli tilda takrorlash. , uning xususiyatlari va lingvomadaniy jihatlariga alohida e’tibor qaratish (ya’ni,erkin tarjima, adaptatsiya). Shunga asoslanib, asl nusxani aniq takrorlash sifatida tarjima qilish mumkin emasligi e’lon qilindi.

"Chiroyli bevafolar" amaliyoti tarjimada o‘xshashlikka erishish qiyinligini anglashning ma’lum darajasini ko‘rsatadi. "Chiroyli bevafolar" tarjima qilinmaslik nazariyasiga javob edi. Ushbu turdagi tarjimalarning mohiyati quyidagicha ta’riflanadi: asl nusxaning barcha o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq aks ettiruvchi tarjimani yaratishning iloji bo‘lmagani uchun tarjimaning asosiy vazifasi uning "go‘zalligi" (tarjima orqali berilgan estetik zavq) bo‘ladi. Asl nusxaga sodiqlik ahamiyatsiz omil bo‘lib qoladi, asl asar faqat asos qilib olinadi, aslida tarjimon qabul qiluvchi til o‘quvchilarining didini qondirishga qaratilgan o‘z asarini yaratgan. Bunday "tarjimalar" dastlabki matnlarga noaniq o‘xshardi va "tarjimon"ning fantaziyasi va iste’dodiga qarab turli darajadagi muvaffaqiyatga ega bo‘lgan deyarli alohida mustaqil san’at asarlariga aylandi [http://d ocs. podelise.ru/docs/ Ind ex-2992. html?page=7].

" Chiroyli bevafolar " ijodkorlaridan biri Irinarx Vvedenskiy bo‘lib, u Charlz Dikkens va U.Tekereyning romanlarini rus tiliga tarjima qilgan [http://sch-yuri.ru/transltn/vvedensky.htm].

Bu haqda uning o‘zi "Tekerayning "Vanity Fair" romanining, Otechestvennye zapiskidagi tarjimalari haqida" va "Zamonaviy"maqolasida. “Bularning barchasidan shunday xulosa kelib chiqadiki, iste’dodli tarjimon yozuvchini badiiy qayta yaratishda, avvalambor, shu yozuvchining ruhiga, g‘oyalari mazmun-mohiyatiga, so‘ngra bu fikrlarni to‘g‘ri ifodalash uslubiga e’tibor beradi. Tarjima qilishni rejalashtirayotganda, siz muallifingizni o‘qib chiqishingiz, u haqida o‘ylashingiz, uning g‘oyalari bilan yashashingiz, aqli bilan o‘ylashingiz, qalbingiz bilan his qilishingiz va hozircha shaxsiy fikrlash tarzingizdan voz kechishingiz kerak.

Bu yozuvchini siz nafas olayotgan osmonga va siz rivojlanayotgan jamiyatga koʻchiring, oʻtkazing va oʻzingizga savol bering: agar u siz bilan bir xil sharoitda yashab, harakat qilsa, u oʻz gʻoyalariga qanday shaklni bergan boʻlar edi? Ushbu yondashuv tarjima paytida asl matnga kiritilgan deyarli har qanday oʻzgarishlarni asoslab beradi va ularni asl muhitni saqlash va etkazish zarurati bilan bogʻlaydi.

Tarjimaning zamonaviy semiotik nazariyasi nuqtai nazaridan, "chiroyli kofirlar(bevafolar)"ni faqat pragmatik tomonni saqlash va takrorlashga qaratilgan matnni tarjima qilishning oʻziga xos urinishi deb hisoblash mumkin. Asl ma'nolar asl asardan olingan va yangi shaklga kiritilgan, tarjimonning fikriga koʻra, oʻquvchilarning adekvat idrokiga tayanishi mumkin edi [Garbovskiy 2007: 128¬129].

Zamonaviy tarjimashunoslik nuqtai nazaridan, ikkala pozitsiya ham notoʻgʻri. Asl nusxadagi barcha ma'nolarni mutlaqo toʻliq koʻchirish imkonsiz boʻlishiga qaramay, tarjimon asl nusxaga yaqinlashib, uni boshqa tilda qayta yaratishga qodir.

E.Sapirning fikricha, "umumlashtiruvchi, chet tili vositalariga zarar yetkazmasdan uzatish mumkin boʻlgan tildan tashqari san'at va xususan, mohiyatan tarjima qilib boʻlmaydigan lingvistik san'at" mavjud [Sapir 1993: 196]. Ushbu iqtibosga asoslanib, tarjima, garchi har jihatdan bir xil boʻlmasa ham, mumkin. A. Meyye ham xuddi shunday deydi: "Har qanday til oʻzi vositasi boʻlgan jamiyat uchun zarur boʻlgan darajada ifoda etadi... Har qanday fonetika, har qanday grammatika yordamida xohlagan narsani ifodalash mumkin" [Ortega i Gasset. 1991: 529]. Shu bilan birga, hamma narsani ifodalashning ushbu potentsial imkoniyati har doim ham ma'lum bir tilda amalda amalga oshirilmaydi, bu esa keng qamrovli tarjima uchun qiyinchiliklar tugʻdiradi. Biroq, mutlaq oʻziga xoslikning yoʻqligi tillararo muloqotni amalga oshirishga umuman toʻsqinlik qilmaydi.

Asl nusxa va tarjima oʻrtasida mutlaq tenglikka erishish mumkin emasligi sababli, mazmunning umumiyligini bildiruvchi "ekvivalentlik" atamasi kiritildi, ya'ni. asl va tarjimaning semantik yaqinligi. P. M. Toper "ekvivalent" atamasining nazariyaga qachon va qayerda kirganligi haqidagi fikrlar xilma-xilligini qayd etib, shunday yozadi: "Ammo shuni aniqlash mumkinki, "ekvivalent" atamasi birinchi marta zamonaviy tarjimashunoslikda mashina tarjimasiga nisbatan qoʻllanila boshlandi.

R. Jeykobson esa "Tarjimaning lingvistik jihatlari haqida" (1959) maqolasida uni "inson" tarjimasi uchun taklif qilgan. [Topper 2001: 176]

Keling, "ekvivalentlik" tushunchasining quyidagi ta'riflarini

topadigan ensiklopedik manbalarga murojaat qilaylik:

Ekvivalentlik - tenglik turi munosabati (ER)

[http://www.vedu.ru/bigencdic/73055/].

Ekvivalent - ekvivalent, ekvivalent, qaysidir jihatdan biror narsani to‘liq almashtiruvchi [Ushakov 2000: 1395-1396].

Ekvivalent - teng qiymatga ega, ekvivalent, boshqasiga teng, uni butunlay o‘rnini bosuvchi narsa [Zamonaviy rus adabiy tili lug‘ati 1965: 1734]. Ekvivalent – tenglik bo`lib, , teng bo‘lish, biror narsaning o‘rnini bosuvchi [Zamonaviy xorijiy so‘z lug‘ati 1994: 700].

Ekvivalentlik: 1. Bir-biriga tenglashtirilgan birliklarning semantik umumiyligi. 2. Belgilar va matnlar orasidagi munosabatlarni qamrab oladi.

Belgilarning ekvivalentligi hali matnlarning ekvivalentligini anglatmaydi va aksincha, matnlarning ekvivalentligi ularning barcha segmentlarining ekvivalentligini umuman anglatmaydi. Bundan tashqari, matnlarning ekvivalentligi ularning lingvistik ko‘rinishlaridan tashqariga chiqadi va madaniy ekvivalentlikni ham o‘z ichiga oladi. "Ekvivalentlik" va "ekvivalent" atamalari turli madaniyatlarda o‘xshash kommunikativ funktsiyalarni bajaradigan manba va maqsadli matnlar o‘rtasidagi munosabatni bildiradi. Adekvatlikdan farqli o‘laroq, ekvivalentlik natijaga yo‘naltirilgan. 4. Ekvivalentlik - bu adekvatlikning alohida holati (manba va yakuniy matnlarning funktsional konstantasi bilan adekvatlik) [Nelyubin 2003: 253-254]. Ushbu ta’riflardan biz "ekvivalentlik" tushunchasining asosiy semasini olamiz - bu tenglik, ekvivalentlik.

Shu bilan birga, ta’riflarning bunday umumiyligiga qaramay, tarjima tarixida ekvivalentlik muammosi turli pozitsiyalardan ko‘rib chiqildi. Ekvivalentlikni talqin qilishda olimlarning fikrlari turlicha. Ba’zilar ekvivalentlik tushunchasini tarjimashunoslik uchun mos bo‘lmagan tushuncha sifatida qat’iyan rad etadilar [Honig, Kussmaul 1982; Shmitt 1986]. Meri Snel-Xornbi o‘zining "Tarjimashunoslik. "Integratsiyalashgan yondashuv" shuningdek, "ekvivalentlik" tushunchasini tarjima nazariyasida asos qilib bo‘lmaydi degan nuqtai nazarga amal qiladi: "Ekvivalentlik atamasi noaniq va noaniq bo‘lib, loyqa yozishmalar darajasidan deyarli mavjud bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi simmetriya illyuziyasini ham anglatadi, tarjimaning asosiy muammolarini buzadi" (Snell-Hornby 1995: 22).

Ekvivalentlik tushunchasi bir qancha sabablarga ko‘ra qattiq tanqid qilingan. Van den Broeck va Larose ekvivalentlik effektini imkonsiz deb hisoblaydilar, chunki bir qator savollar tug‘iladi: bu

ta’sirni qanday va kimga o‘lchash mumkin? Qanday qilib matn turli vaqtlarda va madaniyatlarda bir xil ta’sirga ega bo‘lishi va bir xil javobni uyg‘otishi mumkin? [Broeck 1978; Larose 1982]

Naida Yu.Ya. o‘zining “Tarjima ilmi yo‘lida” [Naida 1978: 115] kitobida tarjimaning ko‘plab turlari mavjudligini tan olmay turib, tarjimadagi yozishmalar tamoyillarini ko‘rib chiqish mumkin emasligini aytadi. Tarjima turlarining farqini uchta asosiy omil bilan izohlash mumkin: 1) xabarning xarakteri; 2) muallifning niyati; 3) auditoriya turi. Shunga asoslanib, matnning ekvivalentligi uning har bir aniq vaziyatda ko‘rsatilgan omillarga muvofiqligiga qarab ko‘rib chiqilishi kerak, bu esa lingvistik vaziyatga qarab ekvivalentlik tushunchasini o‘zgartiradi.

V.S.Vinogradov [Vinogradov 2001: 18] tarjimaning ekvivalentligi, asl nusxadan har doim nisbiy tushunchadir deb hisoblaydi. Aytish mumkinki, har qanday tarjima hech qachon asl nusxaning kanonik matni bilan mutlaqo bir xil bo‘lmaydi. Asl nusxaga yaqinlashish darajasi ko‘plab omillarga bog‘liq - tarjimonning mahoratiga, tillar va madaniyatlarni taqqoslash xususiyatlariga, tarjima qilish usuliga, tarjima qilingan matnlarning tabiatiga.

V.S.Vinogradovning fikricha, tarjima nazariyasidagi ekvivalentlik deganda “asl va tarjimadagi mazmun, semantik, stilistik va funksional-kommunikativ ma’lumotlarning nisbiy tengligini saqlash tushunilishi kerak. Bundan tashqari, asl nusxa va tarjimaning ekvivalentligi, birinchi navbatda, matnda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning umumiy tushunchasi, shu jumladan nafaqat ongga, balki qabul qiluvchining his-tuyg‘ulariga ham ta’sir qiladigan va nafaqat aniq ifodalangan matnda, balki bilvosita subtekstga ham tegishlidir” [O‘sha yerda: 19]. Ekvivalentlik - mazmunan, semantik, stilistik va funktsional - kommunikativ ma’lumotlarning nisbiy tengligini saqlash. TL me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zgarmagan kontent rejasini etkazish uchun zarur va yetarli darajada amalga oshirilgan tarjima ekvivalent tarjima hisoblanadi. Bu ta’rifni L.S. Barxudarov taqdim etadi. [Barxudarov 1975: 186].

V. S. Vinogradov va L. S. Barxudarovning ta’riflari keng ko‘lamli bo‘lib, tarjima ekvivalentligi ko‘plab talablarni o‘z ichiga oladi, ular orasida quyidagi umumiy talablarni ajratib ko‘rsatish mumkin: har xil turdagi ma’lumotlarni uzatishda tenglikni saqlash, ya’ni kontent rejasi.

A. Shvaytser bo‘yicha ekvivalentlik ierarxik kategoriyadir. Darajalar sintaktikdan semantikgacha, pragmatikgacha. Ekvivalentlikning eng past darajasi sintaktik darajadagi

ekvivalentlikdir. Tarjima birligi sifatida so‘z tanlanishi mumkin bo‘lganda erishiladi. Sintaktik darajadagi ekvivalentlik, masalan, predikat so‘z emas, balki so‘z birikmasi bo‘lsa ham mumkin. Semantik darajadagi ekvivalentlikka chekinish ko‘pincha passiv ovoz yoki fe’llarning shaxssiz shakllarini saqlab qolishning mumkin emasligi bilan bog‘liq. Pragmatik darajada chekinish taqiqlanadi - matnning pragmatikasi har qanday sharoitda saqlanishi kerak [Швейцер 1988].

V. N. Komissarov ekvivalentlik ta’rifini - yuqorida keltirilganlarga qaraganda ancha ixcham va kengroq qilib quyidagicha shakllantirdi: "ekvivalentlik - bu tarjima matnining asl matnga mumkin qadar maksimal lingvistik yaqinligi" [Komissarov 1980: 152-153].

Gert Yager, nemis tarjimoni olimi, o‘z asarlarida kommunikativ ekvivalentlik, bu asl nusxa va tarjimaning teng kommunikativ ahamiyatini anglatishi haqida gapiradi.

Kommunikativ ahamiyatning o‘zi bu matn tomonidan asl nusxa va tarjimaning retseptorlari ongida uyg‘otadigan aqliy tasvirdir. Ammo tasvir nomoddiy tushuncha bo‘lib, uni kuzatish yoki o‘lchash mumkin emasligi sababli, kommunikativ ekvivalentlik tushunchasi noaniq. G.Yeger yechim sifatida kommunikativ ahamiyatni uning lingvistik eksplikati, ya’ni matnning o‘zi mazmuni bilan almashtirishni taklif qiladi, bu esa ekstralingvistik omillar bilan o‘zaro ta’sirda psixik obrazni yaratadi. Til birliklarining ma’nolaridan kelib chiqadigan matn mazmuni funksional ahamiyatga ega deb ataladi, shuning uchun asl va tarjimaning funktsional ahamiyatining mos kelishi ularning funktsional ekvivalentligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, Jager talqinidagi funksional ekvivalentlik yuqorida muhokama qilingan tarjima ekvivalentligi tushunchalariga yaqin [Jager 1975; 1982].

Ingliz tarjimoni J. Ketford ham “ekvivalentlik” tushunchasiga ta`rif berishga harakat qildi. U tarjimaning umumiy ta’rifini beradi, unga ko‘ra tarjima bir tildagi matn materialini boshqa tildagi matn tarjimasi bilan almashtirishdir. Ushbu ta’rifga ko‘ra tarjimaning asosiy muammosi tarjima ekvivalentlarini topishdir. J.Ketford tarjima ekvivalentligini turli tillardagi matnlarni solishtirish orqali aniqlash mumkin, deb hisoblaydi. Bitta matndagi tizimli almashtirishlar (kommutatsiyalar) orqali boshqa matn qanday o‘zgartirilishi kuzatiladi [http://ru.scribd.com/doc/97199603/95074003-J-C-Catford-A-Linguistic-Theory-of-Translation-Oxford - Univ-Press-1965]. Ushbu kontseptsiyaga ko‘ra tarjima jarayonining

yakuniy maqsadi aynan matn ekvivalentligi shartidir. Ekvivalentni kontekstdan mustaqil ravishda doimiy ekvivalent yozishma deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga, J. Catford "tarjima" o‘rniga "transfer" atamasini taklif qiladi. U ekvivalentlik tushunchasini manba tildagi so‘z ma’nosini ko‘rsatuvchi til yordamida qayta yaratish imkoniyati sifatida talqin qilganda inkor etadi. Ammo ekvivalentning, ya’ni doimiy va ekvivalent, ekvivalent yozishmaning yo‘qligi gap mazmunining boshqa yo‘l bilan adekvat uzatilishiga umuman xalaqit bermaydi: variant yozishmalari bilan. Agar maqsad tilda manba so‘zning bir xil ma’nosini etkazish uchun so‘zlarning sinonim qatorlari mavjud bo‘lsa, so‘zlar o‘rtasida variant yozishmalar o‘rnatiladi. Ingliz tilida justice so‘zi noaniq emas, u faqat bitta doimiy ma’noga ega, lekin rus tiliga tarjima qilishda foydalanish kontekstidan kelib chiqqan holda uchta variantli yozishmalardan birini tanlash kerak: adolat, haqqoniyat, adliya [Agar maqsad tilda manba so‘zning bir xil ma’nosini etkazish uchun so‘zlarning sinonim qatorlari mavjud bo‘lsa, so‘zlar o‘rtasida variant yozishmalar o‘rnatiladi. Ingliz tilida justice (adolat) so‘zi noaniq emas, u faqat bitta doimiy ma’noga ega, lekin rus tiliga tarjima qilishda foydalanish kontekstidan kelib chiqqan holda uchta variantli yozishmalardan birini tanlash kerak: adolat, haqqoniyat, adliya [Retzker1974].

J.Ketford tarjimashunoslikning keyingi rivojlanishida katta rol o‘ynagan pozitsiyani ilgari surdi. Uning ta’kidlashicha, "ekvivalentlik" atamasi tarjimaning ta’rifida asosiy o‘rin tutadi; tarjima nazariyasining asosiy vazifasi tarjima ekvivalentligining mohiyatini va unga erishish shartlarini aniqlashdir.

Ekvivalentlik tarjimaning zaruriy sharti ekanligidan kelib chiqib, bu shart nimadan iboratligini va tarjima paytida nimani saqlash kerakligini aniqlash kerak.

Zamonaviy tarjimashunoslikda “ekvivalent” tushunchasini aniqlashning uchta asosiy yondashuvi mavjud.

Birinchi yondashuvni “an’anaviy” deb atash mumkin, aynan shu yondashuv yaqin vaqtgacha tarjimashunoslikda yetakchi o‘rinni egallab kelgan. U tarjimada tillar asosiy rol o‘ynaydigan lingvistik nazariyalarni o‘z ichiga oladi. Tarjimonning asosiy vazifasi ko‘rsatilayotgan tildagi asl matnning semantik mazmunini imkon qadar to‘liq darajada to‘g‘ri etkazishdir. Ba’zi hollarda ekvivalentlik tushunchasi o‘ziga xoslik bilan almashtiriladi, tarjimada asl nusxaning butun mazmuni saqlanib qolishi kerakligi ta’kidlanadi. A.V. Fedorov, masalan, "ekvivalentlik" o‘rniga "to‘liqlik" atamasini ishlatib, bu foydalilik asl nusxaning semantik mazmunini to‘liq uzatishni o‘z

ichiga oladi [Fedorov 1983: 127]. Biroq, amalda, ushbu tezisning tasdig‘i topilmadi, bu esa bir qator shartlar va dastlabki bayonotdan chetga chiqish zarurligiga olib keladi. Shunday qilib, L.S. Barxudarov o‘zgarmaslik haqida faqat nisbiy ma’noda gapirish mumkinligini ta’kidlaydi, tarjima jarayonida yo‘qotishlardan qochishning iloji yo‘qligini, boshqacha aytganda, asl matnda ifodalangan ma’nolar hajmining to‘liq ko‘chirilmasligini qayd etadi. Shu yerdan u tarjima matni to‘liq va mutlaq ekvivalent bo‘la olmaydi, degan mantiqiy xulosaga keladi [Barxudarov 1975: 10-11].

Ammo bu xulosa kontent rejasi o‘zgarishsiz va to‘liq hajmda o‘tkazilishi kerakligi haqidagi qoidaga zid kuchga kiradi Yondashuv o‘ziga qarama-qarshidir, buning natijasida uni obyektiv va samarali deb e’tirof etib bo‘lmaydi.

Ikkinchi yondashuv - asl nusxaning o‘zgarmas qismini, boshqacha aytganda, saqlanishi tarjimaning asl nusxaga ekvivalentligini saqlaydigan qismini izlashdir. Ko‘pincha kommunikativ maqsad, manba matnining vazifasi yoki asl nusxada tasvirlangan vaziyat o‘zgarmas sifatida ilgari suriladi.

Ammo bu yondashuv bilan biz boshqa muammoga duch kelamiz. Asl matnning qaysi qismi invariant sifatida tanlangan bo‘lishidan qat’i nazar, har doim bu qism etkazilmaydigan tarjimalarni topish (yoki yaratish) mumkin, ammo shunga qaramay, aloqa maqsadi saqlanib qoladi. Qarama-qarshi holat ham mumkin: tarjimada invariant qism saqlanib qolgan holda, tillararo aloqa tugallanmagan. Bundan xulosa qilishimiz mumkin: yoki o‘zgarmas qism saqlanmasdan qilingan tarjimalar tarjima emas (agar ular aloqa vazifasini bajarsa, bu haqiqat emas) yoki bu yondashuv noto‘g‘ri pozitsiyaga asoslanadi.

Nihoyat, tarjima ekvivalentligini aniqlashning empirik yondashuvi mavjud. Ushbu yondashuv V.N.ning asarlarida taqdim etilgan va ishlab chiqilgan. Komissarov [Komissarov 1973; Komissarov 1990]. V. N. Komissarov invariant qismni topishga urinishdan foyda yo‘q, tarjima amaliyotining o‘ziga tayanish kerak, deb hisoblaydi. Ko‘p sonli haqiqatda tugallangan tarjimalar va tegishli asl matnlarni taqqoslash asl nusxa va tarjimaning ekvivalentligi qanday asosga asoslanganligini aniqlash imkonini beradi. Xuddi shunday tajriba V.N.Komissarovga asl nusxaga semantik yaqinlik darajasi tarjimadan tarjimaga qadar turlicha bo‘lishi, ularning ekvivalentligi esa asl nusxa mazmunining turli qismlarini saqlashga asoslangan degan xulosaga kelish imkonini berdi. Qaysidir ma’noda bu yondashuv J.Ketford nazariyasiga mos keladi.

J.Ketford ikkita matnning ekvivalentligini empirik tarzda belgilashni taklif qiladi: ma'lum bir matnning mavjud tarjimalarini tahlil qilishga murojaat qilish yoki tajribali tarjimon tomonidan amalga oshirilgan tarjimaning yangi versiyasini yaratish. Aniqlangan ekvivalentlar rasmiy ravishda bir-biriga mos kelmasligi mumkin (ya'ni manba va maqsadli tillar tizimlarida bir xil o'ringa ega) va leksik ma'nolari bo'yicha, chunki tillarning ma'no tizimi har xil va bu parametrga ko'ra asl va tarjima birliklari ham mos kelmasligi mumkin.

J.Ketford situatsion xususiyatlar to'plami tushunchasini kiritadi. Matnga tegishli kontekstli vaziyat belgilari to'plami - bu u yoki bu lingvistik shaklni tanlashni belgilovchi o'ziga xos xususiyatlar; uning fikriga ko'ra, ularni fonologiyadagi o'ziga xos xususiyatlar bilan taqqoslash mumkin [Skoumal 1971: 238-239]. Ekvivalentlik asl matn va tarjimadagi xususiyatlarning mos kelishida namoyon bo'ladi. Situatsion xususiyatlar qanchalik keng tarqalgan bo'lsa, kontekstga mos keladigan xususiyatlar to'plami qanchalik mos kelsa, tarjima shunchalik adekvat bo'ladi.

Demak, tarjima ekvivalentligi na rasmiy muvofiqlikni, na ma'no tengligini anglatmaydi. J.Ketford ekvivalentlikning yagona sharti empirik tahlil orqali ochiladigan aniq kommunikativ vaziyatda kontekstni almashtirish imkoniyati deb hisoblaydi. Elementar ma'nolar ma'lum bir matn uchun muhim bo'lgan o'ziga xos vaziyat belgilari to'plamini ifodalaydi. Bundan xulosa shuki, tarjimada ekvivalentlik dastlabki tildagi matn va ko'rsatma tildagi matnning o'ziga xos belgilari o'rtasida muvofiqlik o'rnatilganda yuzaga keladi; tarjimada qanchalik ko'p xususiyatlar o'z muvofiqligi va aksini topsa, u shunchalik ekvivalent bo'ladi. [http://blacktwhite.com/ru/articles2.php].

J.Ketford o'z nazariyasida yozishmalarga rasmiy yondashuvdan uzoqlashadi, empirik tarzda aniqlangan "vaziyatli" ekvivalentlikni ta'kidlaydi. Bir tomondan, bu yondashuv haddan tashqari umumlashtirishga yo'l qo'ymasdan, ma'lum bir matn uchun maxsus tegishli xususiyatlar asosida asl nusxa va tarjima o'rtasidagi muvofiqlikni ko'rib chiqishga imkon beradi; boshqa tomondan, tarjima matnidagi o'zgarishlarni kuzatish orqali empirik tahlil. asl matnga o'zgartirishlar kiritish ko'p mehnat talab qiladigan va ko'p vaqt talab qiladigan ko'rinadi.

Uchinchi yondashuvning kamchiliklariga (mehnat talab qiladigan, uzoq, ko'p vaqt talab qiladigan) qaramay, u eng ta`sirli va samarali bo'lib tuyuladi, chunki u yetarlicha obyektiv natijalarga

olib kelib,

bevosita tarjima amaliyotiga asoslanadi va asl va tarjimaning qiyosiy tahliliga asoslanadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, “ekvivalentlik” tushunchasining halicha aniq va o‘ziga xos ta’rifi mavjud bo‘lmasada, ko‘pchilik ta’riflar tavsif yoki inkor yo‘li bilan berilgan. Biroq, yuqoridagilarning barchasini umumlashtirishga harakat qilsak, tarjima ekvivalentligi tushunchasining asosiy mohiyatini mazmunning ekvivalentligi, axborotning tengligi orqali aniqlash mumkin. Ushbu tushunchani talqin qilishda ko‘proq e’tibor tarjimada asl nusxaning mazmunini saqlash va uzatishga qaratilgan. Shunga asoslanib, biz ekvivalentlikni mazmunning maksimal erishish mumkin bo‘lgan umumiyligi va asl va tarjimaning eng to‘liq semantik o‘xshashligini tushunamiz.

Adabiyotlar

Комиссаров В.Н. Общая теория перевода: проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых. – М.: Наука, 1999.

Комиссаров В.Н. Слово о переводе. – М.: Научный Вестник,1973.

Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М.: Наука, 2004.

Латышев Л. К. Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания. – М., 1988.

Muller V.K., Boyanus S.K. English-Russian Dictionary. – Kiev: Kannon, 1997. – PP. 43–1371.

Muller V.K. English–Russian Dictionary. – Moscow: State Publishing House of Foreign and National Dictionaries, 1961. – PP. 221–1152.

Николаиди О.В. // Понятие древности и эквивалентности при переводе различных торговых аннотаций с английского языка на русский. №1. – «Научный Вестник», 2002. – С. 253–254.

Oxford Thesaurus of English (Second Edition). – Oxford: Oxford University Press, 2004. – PP. 197–936.

Федоров, А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): учеб. пособие для ин–тов и факультетов иностр. языков / А. В. Федоров. – 5–е изд. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ; М.: ООО «Издательский Дом «ФИЛОЛОГИЯ ТРИ», 2002.

Херца А.И. Адекватность и эквивалентность при переводе ролевых компьютерных игр. – Красноярск, 2016.

Лопатин М.А. Проблема понятий адекватности и эквивалентности перевода. Уральский государственный университет путей сообщения Преподаватель кафедры “иностранные языки и межкультурные коммуникации” https://human.snauka.ru/.

Theoretical notes on equivalence

Matluba Qudratova[1]

Abstract

This article is devoted to the issue of equivalence of translation studies. The opinions and scientific views of translators regarding the concepts of equivalence were studied and their reactions were expressed. Considered different aspects of equivalence. The issue of equivalent selection at the phrase and sentence level is explored through examples from various sources. Brief conclusions are given at the end of the article.

Key words: *translation, equivalence, artistic text, poetic text, scientific and technical text.*

References

Komissarov V.N. Obshchaya teoriya perevoda: problemy perevoda vedeniya v uchrezhdeniyakh zarubezhnykh uchenykh. – M.: Nauka, 1999.

Komissarov V.N. Slovo o perevode. – M.: Nauchnyy Vestnik,1973.

Komissarov V.N. Sovremennoye perevodovedeniye. – M.: Nauka, 2004.

Latyshev L. K. Perevod: problemy teorii, praktiki i metodiki prepodavaniya. – M., 1988.

Myuller V.K., Boyanus S.K. Anglo-russkiy slovar'. – Kiyev: Kannon, 1997. – PP. 43–1371.

Myuller V.K. Anglo-russkiy slovar'. – Moskva: Gosudarstvennoye izdatel'stvo inostrannykh i natsional'nykh slovarey, 1961. – S.P. 221–1152.

Nikolaidi O.V. // Ponyatiye drevnosti i ekvivalentnosti pri perevode razlichnykh torgovykh annotatsiy s angliyskogo yazyka na russkiy. №1. – «Nauchnyy Vestnik», 2002. – S. 253–254.

Oxford Thesaurus of English (Second Edition). – Oxford: Oxford University Press, 2004. – PP. 197–936.

Fedorov, A. V. Osnovy obshchey teorii perevoda (lingvisticheskiye problemy): ucheb. posobiye dlya in–tov i fakul'tetov inostr. yazykov / A. V. Fedorov. – 5–ye izd. – SPb.: Filologicheskiy fakul'tet SPbGU; M.: OOO «Izdatel'skiy Dom «FILOLOGIYA TRI», 2002.

Khertsa A.I. Adekvatnost' i ekvivalentnost' pri perevode rolevykh komp'yuternykh igr. – Krasnoyarsk, 2016.

Lopatin M.A. Problema ponyatiy adekvatnosti i ekvivalentnosti perevoda. Ural'skiy gosudarstvennyy universitet puti soobshcheniya Prepodavatel' kafedry «inostrannyye yazyki i mezhkul'turnyye kommunikatsii» http://human.snauka.ru/.

[1] *Matluba Qudratova* – Karshi Institute of Irrigation and Agro technology at the National Research University, TIIAME".
E-mail: qudratovamatluba467@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-27-95-3420
For citation: Qudratova, M. 2024. "Theoretical notes on equivalence". *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 129-139.

CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Fransuz Uyg‘onish adabiyotining til xususiyatlari

Gulmira Absalamova[1]

Abstrakt

Ushbu maqolada Uyg‘onish davri hisoblangan XVI-asr Fransiyada adabiyot, san’at, madaniyat rivojlanishi natijasida fonetika, grammatika, morfologiya, sintaksis hamda so‘z boyligida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan shunga ko‘ra tilshunoslik terminlarining ham qo‘llanilish ko‘lami hamda ahamiyati ortib borishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *vokalizm, tembr, bo‘g‘in, so‘z turkumi, urg‘u, ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘in, sintetik, analitik, rod kategoriyasi, artikl.*

O‘tgan asrlardan farqli o‘laroq, XVI-asrda o‘sha davrning talaffuzi bo‘yicha ko‘plab bugungi kundagi zamonaviy holatiga kelganligini tadqiqotimiz jarayonida aniqladik. XVI-asr oldingi asrlarga nisbatan fonetika evolyusiyasini belgilab bergan: so‘z urg‘usi, monoftonizatsiya (diftong monoftongga aylanib, unli tovush o‘zgarishi), burun undoshlari tizimining fonemalar sifatida shakllanish tendensiyalarni davom ettirdi. Ushbu davrdagi o‘zgarishlarga so‘z so‘ngidagi undoshlarning keskin jarangsizlashuvi, so‘z ohiridagi *-e* ning o‘qilmasligi va burun tovushlari tufayli undosh guruhlarning kamayishini aytishimiz mumkin. Ahamiyatga ega bo‘lgan burun fonemalarining hosil bo‘lishi bilan bir qatorda unlilarda ochiq va yopiqlik ko‘rinishi yuzaga kelib, tobora etimologik xarakterini yo‘qotganligini kuzatish mumkin [1].

So‘z urg‘usi XVI-asrda belgilanib, bu so‘zlar guruhlarini shu darajada birlashtirib fonetik birlikka aylantiradiki, ularning elementlari bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi [2]. Ketma-ketlik butunning genetik birligiga hissa qo‘shadi, har qanday yakuniy undosh quyidagi singari so‘zning boshlang‘ich unlisiga tayanadi:

[1] *Absalamova Gulmira Sharifovna* – Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, dotsent, PhD.
E-pochta: absalamovagulmira88@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-6105-4752
Iqtibos uchun: Absalomova, G.Sh. 2024. “Fransuz Uyg‘onish adabiyotining til xususiyatlari”. *O‘zbekiston: til va madaniyati* 3 (2): 140-146.

sur un banc. So‘zdagi urg‘u oxirgi bo‘g‘inga yoki oxirgi bo‘g‘indagi talaffuz qilinmaydigan -*e* harfiga tushadi.

Fransuz vokalizmi XVI-asrda burun unlilari bilan ifodalangan yangi fonemalar qatori bilan boyitildi. Shuning uchun burun tovushi, xuddi lablashuv va ochiqlik kabi, fransuz fonetikasining tegishli xususiyatiga aylanadi. Har qanday unli to‘rtta: *voyelle antérieure / voyelle postérieure; voyelle ouverte / voyelle fermée; voyelle labialisée / voyelle non labialisée; voyelle orale / voyelle nasale* kabi qarama-qarshilikka ega bo‘ldi. XVI-asr oxirida fransuz tilida *ã, õę, œ* kabi burun tovushlari hosil bo‘ldi. XVI-asrning oxiriga qadar, tilshunoslarning guvohlik berishicha, -y ning tabiati haqida aniq bir fikr yo‘q edi; ular buni ko‘proq yopiq tovush deb bilishgan. Qadimgi fransuz tilida etimologik xususiyatga ega bo‘lgan *voyelle ouverte / voyelle fermée* qarama-qarshiligi o‘rta fransuz tilida muhim o‘zgarishlarga uchradi. Tembr (ochiq yoki yopiq) unli tovushning nutq zanjiridagi holatiga tobora ko‘proq ta’sir qildi. Unli tovushning tembri nafaqat undan keyingi undoshlarga, balki, birinchi navbatda, bo‘g‘inning xarakteriga ham bog‘liq bo‘la boshladi. Bu XVII-asrning oxirida ham saqlanib qoldi. Unli tovushning ohangi nafaqat unga ergashgan undoshlarga, balki, eng avvalo, bo‘g‘in tabiatiga ham bog‘liqdir. So‘z oxirgi unli talaffuz qilinmaganda, oxirgi bo‘g‘in yopiq bo‘lib, unli ochiq tovushga aylandi. O‘tgan asrlarda boshlangan yana bir qancha jarayonlar XVI - asrda davom etdi, ba’zilari esa tugadi. Bu vaqtda *au* diftongi yopiq *o* ga *autre [aótre > otra]* kabi aylandi.

So‘z ohiridagi undoshlarning aksariyati asr oxiriga kelib talaffuzda jarangsizlashdi, bu esa fransuz tilining bo‘g‘in turi sifatida ochiq bo‘g‘inni kuchaytirdi. So‘z so‘ngida bo‘g‘inlarning ko‘p qismi ochiq bo‘g‘in bo‘lib, faqat so‘z ohiri ikki undosh bilan tugagan bo‘g‘inlar yopiq bo‘lib qoldi: vert [vert > ver].

Urg‘usiz *e* ning talaffuzda urg‘usizlashuvi unlidan keyin nafaqat so‘z oxirida, balki so‘z ichida ham kelasi zamon shakllarida ot va ravish so‘z turkumlaridagi so‘zlarda kuzatildi: *aise(e)ment, vra(e)ment, remu(e)ment, pri(e)rai, salu(e)rais* kabi. Urg‘u tushgan -*e* jarangsizga almashdi: *peser, mais je pèse, tu pèses; chante - je > chantè - je* kabi. Boshqa holatda *z, v , vr* harflari oldidan yopiq bo‘g‘in *o* ga urg‘u tushsa, *s* tovushi oldidan kelganida jarangsizlashadi, yopiq bo‘g‘inda esa portlovchi tovushga aylanishi kuzatildi: *chose et chouse, sanglot et sanglout, fossé et foussé* singari. Bu kabi talaffuz qilgan insonlarni *“ouistes”* lar deya atashgan.

XVI- asr morfologiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tahlil va tartibga solish tendensiyasi ushbu asrda davom etayotgan edi.

Ammo tilning ikki qarama-qarshi holatida, biri qadimiy va sintetik, ikkinchisi – zamonaviy va analitik, XVI-asr bir necha xil shakl va ma'nolarning birgalikda qolishi hamda ulardan foydalanishdagi ko'plab qarama-qarshiliklari bilan ajralib turdi.

Ot va sifat so'z turkumidagi *–s* (-lar) ko'plik shakliga aylanib, otlarga alohida *-al, -ail / aux, -el / -eux* singari ko'plik qo'shimchasi qo'shilgan holda yasaldi. Ushbu shakllarining ozmi, ko'pmi, barqaror holatiga qaramasdan, *-als* ko'rinishida analogik shakllarning paydo bo'lishi ham kuzatildi: *canal, canals; bals, bocals, cals, madrigals; bails, soupirails, gouvernails .*

Birlik shakldan hosil bo'lgan *–ouils* da ko'plik belgisi ham tez-tez uchraydi: *genouils, verrouils* kabi. Sifat so'z turkumidagi *-e* qo'shimchasi jenskiy rodni ifodalash uchun *al, -el* bilan tugaydigan *libérale, royale, cruelle, éternelle, telle, quelle* singari sifatlarga ham yoyildi.

-e jenskiy rod belgisi sifatida qaralib, u o'zgarmas tugallangan mujskoy rod sifatlaridan o'chiriladi va quyidagi kabi shakllarni keltirib chiqaradi: *olimpicq, diabolicq, tiranicq; fidel, rebel; agil, viril.* Biroq, bu sinfdagi so'zlarda *-e* ikkala rod uchun uchun ham saqlanib qolgan holatlari ham mavjud.

Tilda sifatlarning mujskoy rod shakli *beau, bel; fou, fol; mou, mol; vieux, vieil; nouveau, nouvel* singari berilgan. Analitik gaplarda qiyosiy va ustunlikni belgilash uchun: *plus (moins) facile; le (la, les) plus (moins) facile* kabi shaklda qo'llanilgan.

Aniq artikldan foydalanish, bir tomondan, mavhum otlarga taalluqli bo'lib, bu esa unga artikl qo'llanilmasligi lozim bo'lgan umumlashtiruvchi qiymatni ham beradi, boshqa tomondan, artiklning qo'llanilishi endi sintaktik funksiyasi bilan ham qattiq chegaralanmaydi. Qoida umumiy bo'lmasa-da, artikl to'ldiruvchiga ko'ra otdan oldin qo'llangan. Bu davrda noaniq artiklning rivojlanishi aniq artiklga nisbatan orqada qoladi. Sifatdan oldin kelgan otlar gohida noaniq artikl bilan ishlatiladi. O'zgarmas bo'lib qolgan maqol hamda hikmatli so'zlarda artiklning qo'llanilmaslik qoldiqlari ushbu zamonda ham misoldagi singari saqlanib qolgan: *A grand cheval grand gué; Petite pluie abat grand vend.*

Qism bildiruvchi artikllarga keladigan bo'lsak, tadqiqotimizdan ko'rinadiki, uning qo'llanilishi hali hanuz *"manger pain"* va *"manger du pain"* kabi tizimlashmagan edi.

Ushbu davr morfologiyasinig bir qismi bo'lgan olmosh so'z turkumida ham anchagina o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Shaxs olmoshlarining qo'llanilishi ko'payib, ba'zi o'rinlarda belgisiz holati

ham kam emas edi. Bu davrda kishilik olmoshining asta-sekin shaxssiz shaklga kirish hodisasi *il faut* kabi kuzatildi.

je, tu, il olmoshlari o‘z muxtoriyatini yo‘qotib, bora-bora ajralgan olmosh sifatida qo‘llanishdan to‘xtaydi, ular fe’l bilan birga kelib, bosh gapda bugungi kundagidek urg‘usiz olmosh vazifasida qo‘llandi va urg‘uli holatda o‘z o‘rnini *moi, toi, lui* mustaqil kishilik olmoshlariga bo‘shatib berdi. To‘ldiruvchi olmoshlar fe’ldan oldin qo‘llanib, O‘rta asr fransuz tilidagi tartib kuzatildi, shuningdek, vositali to‘ldiruvchi olmosh bilan, vositasiz to‘ldiruvchi olmoshdan oldin qo‘llanildi. Tildagi *“mon, mes, tes, ses, notre , votre , leur, ton , son (ma , ta , sa) nos, vos, leurs”* egalik sifatlari o‘rniga, aniq artikl bilan egalik olmoshlari *“le mien”* ko‘rinishida qo‘llanila boshlagani aniqlandi.

Bu zamondagi fe’l so‘z turkumi tadqiqida, uning shaxssiz shakli sanalgan ravishdosh va hozirgi zamon sifatdoshi (participe présent) XV-asrdan beri chalkashliklarga duch keladi, hozirgi zamon sifatdoshining egaga moslashish hodisasi tushib qolib (gérondif) ravishdoshdan oldin qo‘llanilishi aniqlandi. Biroq keyinchalik sifatga ergashgan holda hozirgi zamon sifatdoshi jenskiy rodda *-e* va –s ko‘plik shaklini olishga moyil bo‘lib bordi. Qo‘shma zamonlardagi barcha mayllar XVI-asrda to‘ldiruvchi bilan o‘tgan zamon sifatdoshining moslashuvi shakllandi. Yordamchi fe’l vazifasini bajargan “*être”* doimo o‘tgan zamonlarda “*vous fussiez esté”* kabi saqlanib qoladi, ammo bu davrda *“j’ai sortez”* singari jumlalarda “*être”* o‘z o‘rnini *“avoir”* ga bo‘shatib bergan holatlarni ham uchratish mumkin. Aspektual ma’noga ega perifrastik iboralar eskirib, tobora harakatning boshi yoki oxirini bildiruvchi fe’llar “*il se met à ... , il commence à ... , il continue de ... , il est en train de”* gap qurilmalarida almashtirilgan [3].

O‘tgan asrga nisbatan zamon shakli, ma’nosi va ishlatilishida sezilarli o‘zgarishlar yo‘q edi. O‘tgan zamon yordamida uzoq o‘tgan zamon (l’antériorité) ni ifodalashga moyillik tobora muhim ahamiyat kasb etgan. Istak (subjonctif) maylidan foydalanishda ma’lum cheklovlar bo‘lib, asosan, xabar (indicatif) maylida qo‘llangan, shubhaga urg‘u berilmagan *“croire”* va *“penser”* fe’llaridan keyinchalik foydalanildi. Bu davrda his-tuyg‘uni ifodalovchi *(regret, étonnement, douleur, plaisir)* fe’llar hali istak maylini talab qilmas edi. O‘timsiz fe’lning olmoshli shaklidan kamroq foydalanadi va ba’zida, hatto olmoshli “*se combattre --combattre, se dormir-dormir, se marcher-marcher”* fe’llardan ham voz kechgani kuzatiladi.

Evolyutsiyaning analitiklikka yo‘naltirilgan holati

morfologiyada ham, sintaksisda ham ta'kidlanadi. Ko'p hollarda inversiya yasalib, so'roq, kesim, hol bilan kiritilgan gap, to'g'ridan-to'g'ri so'z tartibini hosil qildi. Ega orqali kelgan so'zlarning tartibi uni ishlatadigan har qanday so'z birikmasining vazifasini bajardi, shu jumladan, predlog bilan kelgan noaniq shakl bugungi kundagi to'ldiruvchining shaxssiz shakliga quyidagicha "*car de trouver nourrice suffisante n'estoit possible en tout le pays* (Rabelais)" aylandi. Garchi qo'shma zamonlar shu davrga qadar o'z ustuvorlik qiymatida bo'lsa-da, zamonlar moslashuvi har doim ham kuzatilmadi. XVI-asrning qo'shma gaplari murakkab bo'lib, aniqlik kiritish maqsadida *"que"* bog'lovchili murakkab gaplar ko'payib bordi, davomiylikni ifodalash uchun *quand, incontinent que, lorsque cependant que, tant que* payt ravishlari qo'llandi. Bu davrdagi ergashgan qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gaplarga nisbatan ko'proq qo'llanilishi bilan ajralib turgan.

XVI-asr o'zidan oldingi va keyingi asrlardan yozuv, san'at, hunarmandchilik hamda ilm-fanning gullab yashnashi oqibatida leksikasining boyishi bilan farq qiladi.

Renessans davri ilmiy terminologiyaga asos solgan XIV-asr an'analarini davom ettirdi. XVI-asr XIV-asr kabi ko'plab maxsus atamalarni yaratdi. Gumanitar fanlar, grammatika, tarix, din, falsafa va aniq fanlar lotinlashtirilgan yurtlarning joylashuvi, lotin tilidagi kalkalar, derivatsiya yoki kompozisiya orqali o'sha davrdagi tirik tillardan so'z o'zlashtirish bilan sohaga oid so'zlar oshib bordi.

Fransuz tili leksikasi, joiz bo'lsa, lahjadagi leksikaga ham tayandi. Misol uchun *"poulin"* so'zi Pikard yoki Normand kabi qadimiy dialektga tegishlidir. Derivatsiya va qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasash *-ance, -ence , -ité , -té* suffikslari bilan namunadagidek *bienseance* (R.Estienne), *clairvoyance* (Montaigne), *vraisemblance* (Amyot), *stupidité* (Calvin) ot hosil qildi. Fe'l so'z turkumiga qo'shilgan *-age* qo'shimchasi orqali *attelage, navigage, fruitage, pelage* kabi jamlovchi otlar yasaldi. Sifat so'z turkumiga *-able, -ible, -ique* qo'shimchasining *énergique, fanatique, tragique* (Rabelais)*, irrévocable, plausible, pliable, remarquable, sociable* kabi qo'shilgan.

Fe'llarda, asosan, affiksatsiya va parasintetik qo'shimcha qo'shilishi namunadagi *avoisiner, degrafer, ramasser, derouter, assombrir* singari shaklga keldi. Ushbu davrda faqat og'zaki nutqda qo'llangan qo'shma otlar yozma nutqqa *cache - nez, casse - noix, chasse - mouches, porte - clés, porte feuille, porte - croix, porte - drapeau* kabi shakllarda kirib kelishi kuzatildi.

Yuz yillik urushdan so‘ng, Lyudovik XI ko‘pgina viloyatlarni shtatlarga birlashtirishga muvaffaq bo‘lgach, qirol hokimiyatining nufuzi ortdi. Birlikka intilishlar milliy iboraga aylanishga loyiq tilga ega bo‘lishga intilishlar bilan chambarchas bog‘liq. Biroq XVI-asrning boshlari lotin tilining adabiy til sifatida nafaqat ta’lim va fanda, balki harflarda ham hukmron edi: o‘sha davrda lotin tilida fransuz tilidan o‘n barobar ko‘p she’riy asarlar nashr etilgan [4]. Bunday sharoitda Rable o‘zining ulkan dostoni *“langage vulgaire, le français”* fransuz tilida yozib jasorat ko‘rsatdi [5]. Ushbu ijod namunasi uni bir qator yangi so‘z va atamalar yaratishga imkon beradi.

Bu zamonda *“L’Ordonnance de Villers – Cotterêts”* (1539) farmoni fransuz tilidan foydalanishni belgilab qo‘yadi. Bu esa, o‘z o‘rnida, ko‘plab yangi so‘zlar va atamalar yaratishni taqozo etdi. *“L’Ordonnance de Villers – Cotterêts”* (1539) farmoniga ko‘ra, fransuz tilidan ma’muriyat ishi va sud jarayonlarida foydalanish belgilangan edi. Taxminan, shu asrning o‘rtalarida fransuz tili *“défense et l’illustration”* harakati Pleyada tomonidan boshqarilgan. Milliy til maqomiga erishish uchun fransuz tili o‘zining adabiy qonun-qoidalariga [5] ega bo‘lishi kerak edi. Grammatiklar bunga erishdilar va, birinchi navbatda, fransuz imlosida ma’lum tartib o‘rnatishga va ma’lum grammatik qoidalarni shakllantirishga muvaffaq bo‘lishdi, ulardan ba’zilari bir nechta zamonaviy tasniflar va qoidalar uchun bugungi kunda ham namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Бородина Практикум по истории французского языка/Мелитина Александровна Бородина, Луиза Михайловна Скрелина. – 1985.25-с.

Болдина Л.А. История французского языка. – Больдина, 2006. – 121-с.

Болдина Л.А. История французского языка. Больдина, 2006. – 122-с.

Гак Курс перевода. Французский язык. /Владимир Григорьевич Гак, Юлия Иосифовна Львин. – 1970.-38-с.

Болдина Л.А. История французского языка. – Больдина, 2006.–127-с.

The Significance of French Linguistic Terms in Renaissance Use

Gulmira Absalamova[1]

Abstract

In this article, significant changes in phonetics, grammar, morphology, syntax, and vocabulary were observed as a result of the development of literature, art, and culture in France in the 16th century, which is considered the Renaissance period, and accordingly, the use of linguistic terms. It is thought about the increase in scope and importance.

Key words: *vocalism, timbre, syllable, phrase, accent, open syllable, closed syllable, synthetic, analytical, rod category, article.*

References

Borodina Praktikum po istorii frantsuzskogo yazyka/Melitina Aleksandrovna Borodina, Luiza Mikhaylovna Skrelina. – 1985.25-s.

Boldina L.A. Istoriya frantsuzskogo yazyka. – Bol'dina, 2006. – 121-s.

Boldina L.A. Istoriya frantsuzskogo yazyka. Bol'dina, 2006. – 122-s.

Gak Kurs perevoda. Frantsuzskiy yazyk. /Vladimir Grigor'yevich Gak, Yuliya Iosifovna L'vin. – 1970.-38-v.

Boldina L.A. Istoriya frantsuzskogo yazyka. – Bol'dina, 2006.–127-s.

[1] *Gulmira Sh. Absalamova* – Samarkand Agroinnovations and Research University, Chair of Fundamental and Humanitarian Sciences, PhD, associate professor.
E-mail: absalamovagulmira88@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-6105-4752
For citation: Absalomova G.Sh. 2024. "The Significance of French Linguistic Terms in Renaissance Use". *Uzbekistan: language and culture* 3 (2): 140-146.

Uzbekistan: Language and Culture 2024/3(2)
ISSN 2181-922X 147—153

Indonez tilidagi inglizcha o‘zlashmalarning pragmatik xususiyatlari

Boburjon Samigov[1]

Abstrakt

Ushbu maqolada indonez tiliga ingliz tilidan o‘zlashgan birliklar va ularning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zlashmalar mavzusi va uni pragmatik jihatdan tadqiq etilishi jahon tilshunosligida dolzab muammolardan sanaladi. Maqolaning kirish qismida muammoning o‘rganilish darajasi jahon, indonez va o‘zbek tilshunosligi doirasida bahsga tortiladi. Ishning asosiy qismida o‘zlashmalar pragmatik xususiyatlari, xalq ongida namoyon bo‘lishi va bu xorijlik tomonidan tushunilishidagi muammolar yoritiladi. Shu bilan birga o‘zlashtirishda kalkalash usuli, xususan, so‘zlar yoki harflar o‘rnini almashtirish orqali kalkalash usullari misollar bilan dalillanadi.

Kalit so‘zlar: *O‘zlashmalar, indonez tili, ingliz tili, pragmatika, kalkalash.*

Kirish

O‘zlashma so‘zlar hamma tillarda bo‘lgani kabi indonez tilida ham ijtimoiy, madaniy, siyosiy, diniy faktorlar asosida o‘zgarishlarga uchraydi. Bu holatlar tadqiqotga muhtoj, chunki, chet tilini biluvchi inson shu birlikni indonez tilida uchratib, tabiiy ravishda original konnotativ ma’nosini fikridan o‘tkazadi. Indonez tilidagi o‘zgarishga uchragan “o‘zlashma so‘z”ning ma’nosini bilmaslik ikki xalq vakili o‘rtasida tushunmovchilik va xatto ziddiyatni ham olib kelish mumkin. Bunda so‘z pragmatikasi tadqiqi muhim rol o‘ynaydi. “Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas; uning doirasiga so‘zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o‘zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalar kiradi. Masalan, nutq subyekti bilan bog‘liq holda quyidagi masalalar o‘rganiladi: bayonning oshkora va yashirin

[1] *Boburjon Samigov* – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi.
E-pochta: asrorjonovichsamigov@gmail.com
ORCID ID: 0009-0004-4358-965X
Iqtibos uchun: Samigov B.A. 2024. “Indonez tilidagi inglizcha o‘zlashmalarning pragmatik xususiyatlari”. *O‘zbekiston: til va madaniyat,* 3 (2): 147-153.

maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat va’da berish, uzr so‘rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so‘zlashish qoidalari; so‘zlovchining maqsadi; so‘zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg‘armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar.”

Indoneziya o‘z rivojlanishi davrida ayniqsa 17 asrlarda savdo-sotiq, savdogarlik munosabatlar sababli, shuningdek, mustamlaka davrlarida mintaqaviy tillardan va chet tillaridan elementlar yoki so‘zlarni o‘zlashtirgan. So‘zlar talaffuz va yozish nuqtai nazaridan indonez tilida qo‘llaniladigan qoidalarga moslashtirilib o‘zlashtiriladi [Mudiah 2020].

Elementlarga o‘zgartirishlar, ya’ni imlo, talaffuz, shakl va ma’noga o‘zgartirishlar kiritilganligi sababli begonadek tuyuladigan singdirilgan lug‘at paydo bo‘ladi. Shunga muvofiq, Chaer fleksion va agglutunativ tillarida (xorijiy tillar) asosiy shakl yoki lug‘at avvalo affiksatsiya jarayoni, reduplikatsiya jarayoni yoki kompozitsiya orqali grammatik so‘zga aylanishi kerakligini ta’kidlaydi.

Indonez tilshunosligi xorijiy tillar o‘zlashishi jarayoni, muayyan tasniflarini o‘z ichiga olgan ilmiy tadqiqot ishlari indoneziyalik tilshunoslar, inglizzabon tadqiqotchilar ishlarida salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Keyingi o‘rinlarda rusiyzabon tilshunoslar, yapon olimlari ham “Indonez tiliga kirgan o‘zlashma so‘zlar” mavzusida ingliz va Yevropa tillari, Janubiy Osiyo, Uzoq sharq tillari, arab va fors tillari nutqati nazaridan maqolalar, monografiyalar, dssertatsiyalarni kuzatdik.

O‘zbek indonezshunoslari tomonidan “O‘zlashmalar” mavzusiga qaratilgan ilmiy ishlar topilmadi. Indonezshunos tadqiqotchi, tarjimon Sanjar Turdiyevning tilshunoslik sohasida “Indonez tilida uslubiy sinonimlar”, adabiyot sohasida “Hayril Anvar ijodi” hamda “Indonez shoiri Hayril Anvar va o‘zbek shoiri Usmon Nosir ijodidagi mushtarakliklar” mavzusida qator ilmiy xorijiy va mahalliy maqolalari, tezislari, forum, simpozium, seminarlardagi ma’ruzalari bilan tanishdik. Yuqoridagi mutaxassislar ilmiy yo‘nalishda Indonez adabiyoti, pedagogikasi bilan shug‘ullanib keladilar. Indonez tilshunosligi doirasida ilmiy faoliyat olib boradigan tadqiqotchilarga katta ehtiyoj bor. Tilshunoslikning muhim jabhalarini o‘zbek mutaxassisi tomondan ochilishi o‘zbek talabalari, o‘rganuvchilari uchun ham til o‘rganishdagi qiyinchiliklarga oson kalit bo‘lib xizmat qilgan bo‘lar edi.

Indonez tilidagi inglizcha o‘zlashmalarning orfografik jihatdan o‘zgarishi borasida bir nechta tadqiqotlar o‘tkazilgan, jumladan, Kaehler (“Standardisation and development of newspapers’ bahasa Indonesia 1978), Marcellino (An Analisis of Lexical Modernization in Indonesian Mass Media, 1990), Sudarno (Kata Serapan dari Bahasa Belanda (Golland tilidan indonez tiliga kirgan so‘zlar, 1993) va Marchellino (“Proses Pengindonesiaan Kata Pinjaman Bahasa Inggris: Suatu Tinjauan Fonologis dan Morfologis”- “Indoneziyada inglizcha so‘zlardan foydalanish jarayoni: fonologik va morfologik sharh 1996). Indoneziya tilshunosligida ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlarning semantik o‘zgarishlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar juda kam kuzatiladi. Ingliz tilidagi o‘zlashma so‘zlarning semantik o‘zgarishlari bo‘yicha Marchellino (1990) tomonidan amalga oshirilgan bir tadqiqot mavjud. U 1945-1986 yillarda Indoneziya ta’lim sohasida, fan va texnologiya, din mavzularida Indoneziya jurnallarida aks etgan inglizcha o‘zlashma so‘zlarning semantik o‘zgarishlarini o‘rganadi. U uchta so‘zning semantik kengayishi hodisasini topdi: *popular (popular – ingliz; mashhur – o‘zb), isyu (issue – eng., masala – o‘zb.), komisi (commission – eng., komissiya – o‘zb.)* Ingliz tilidagi o‘zlashma so‘zlarning semantik o‘zgarishlari bo‘yicha boshqa bir tadqiqot Vijana (2012) ga tegishli. Uning tadqiqoti Indoneziya yoshlarining hazil, qo‘pollik qilish, haqorat qilish, to‘g‘ridan to‘g‘ri dangal gapirish vaziyatlarida ishlatadigan slenglarida ingliz tili so‘zlarining semantik o‘zgarishlarini tahlil qiladi.

Indonez tili semantikasi bilan yana bir tilshunos f.f.f.d. dotsent *Hulkar Turdiyeva* shug‘ullanganini kuzatdik. U Indoneziyaning Muhammadiah Malang Universiteti tashkil qilgan xalqaro konferensiyasida “Indonez tiliga kirgan forscha o‘zlashmalar va ularning indonezcha ma’nolari” [Turdieva 2020] mavzusida yalpi majlisda ma’ruza qiladi. Unda fors tilidan kirgan birliklar semantik tasniflanib, asl ma’nosi indonez tilida qanchalik o‘zgargan yoki o‘z ma’nosida qolganiini nasriy va poetik misollar bilan dalillab, o‘zlashmalar bilan ishlaganda juda ehtiyotkor bo‘lish, lug‘atga murojaat qilib indonez tilidagi ma’nosini aniqlab, keyin qo‘llash yoki munosabat bildirish kerakligini ta’kidlaydi [Internet sahifasi].

Xorijiy til birligi o‘zlashganidan keyin o‘sha til madaniyati, hayot tarzi, qadriyatlari, mentaliteti bilan moslashib ketadi.

Shu o‘rinda xorijlik turist Indoneziyaga sayohatidan qilgan suhbatini keltirishni joiz deb topdik. Turist do‘konga kirgan va sotuvchidan muayyan brenddagi “soatlar”ni so‘ragan. Sotuvchi xaridorga “Zero” deb javob bergan. “Zero” ingliz tilidan tarjima

qilinsa, “nol, hech narsa, bir tiyinga qimmat” kabi ma’nolar maydonini ifodalaydi. Turist hayolga toldi: “Men so‘ragan soat “nol” rupiah ya’ni tekinmi?” deb o‘yladi. Chunki u turist bayram kunlari Indoneziyada katta chegirmadagi yoki biror shart evaziga 100 foiz chegirma savdolar ham bo‘lib turishini bilardi. Ana shu an’anaga ishoramikin deb hayrat aralash xursand bo‘lishga ham ulgurdi. Sotuvchining yana bir marta “Zero” degani hayolini salbiy tomon yetakladi. “Balki siz so‘rayotgan brend yaxshi emas (bir tiyinga qimmat)” demoqchimikin? Lekin qaysi sotuvchi o‘z mahsulotini yomonlaydi?!” Tushunmagan nigohini anglagan bir indonez millatli xaridor turistga yaqinlashdi va inglizchalab: “Biror yordam kerakmi, janob?” deb so‘radi. Tursit: “Ha, rahmat, sotuvchining “zero” deb nimani nazarda tutganini tushunmayapman.” Indonez kishi qah-qah urib kuldi. “Zero” ya’ni “hech narsa” (nothing) so‘zi indonez tilida “kosong”. Kosong so‘zining “nol”, “qolmadi”, “sotilib tugadi” ma’nolari bor. Siz so‘ragan soat sotilib tugagan. (sold out)”. Bu yerda ko‘rinadiki, indonez sotuvchisi o‘zlashgan so‘zni o‘zining til madaniyatidan kelib chiqqan holda xorijlik bilan suhbatda qo‘llaydi va pragmatik buzilish va anglashilmovchilikni vujudga keltiradi. Demak, o‘zlashma so‘zning o‘zini emas, ma’nosini til madaniyatidan kelib chiqqan holda ham tadqiq qilish kerak. Chunki, til millatning ma’naviyati va madaniyati bilan bevosita va bilvosita aloqadordir. Dunyo tillari orasida sof tilning o‘zi yo‘q ekan, ma’lum bir tilning tarovati o‘z til so‘zlari hisobiga yashashi bilangina belgilanmaydi. Harakatdagi tillarning ma’lum darajada boshqa tillar bilan aralashishi, birining ikkinchisiga ta’sir etib borishi til jarayoni uchun barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

O‘zlashmalar qabul qilishda kalkalash usuli ko‘p tillarda sermahsul metod bo‘lib, bu holat indonez tiliga ham xos. Biz taqdiqotimizda aynan **“indonez tilida so‘zlar yoki harflar o‘rnini almashtirish orqali kalkalash”xususida to‘xtalamiz:**

Kalkalash (fransuzcha: nusxa olish, taqlid qilish). Bu usul tarjima jarayonida ko‘p qo‘llaniladi. Unda muqobilsiz leksik birlikning tarkibiy qismlari tarjima tiliga aslidagidek, so‘zma-so‘z o‘giriladi. Masalan, ingliz tildagi *green revolution* birikmasi o‘zbek tiliga *yashil revolutsiya*, *copyright - mualliflik huquqi, foreign school - xorijiy maktab, cold arms - sovuq qurol* birikmasi sifatida so‘zma-so‘z tarjima qilingan. Frazeologik birliklarni ham tarjima qilishda leksik jihatdan farq qiladigan yoki muqobil variantlar bilan tarjima qilishdan ko‘ra, kalkalash usuliga murojaat qilish samarali bo‘ladi. Indonez tili misolida, ingliz tilidagi “*to lose face*” degan birikmasi

aslida xitoy tili丢臉/丢脸 iborasining so‘zma-so‘z tarjima qilinishi evaziga ingliz tiliga kirib kelgan. Ingliz tilidan esa, indonez tiliga kalka usuli bilan tarjimasi o‘zlashgan: **kehilangan muka –**lug‘aviy: *yuzni yo‘qotish* - beroleh malu – uyatga qolish. “uyatga qolish”, “nufuzini yo‘qotish” ma’nolarini anglatadi.

So‘zlar yoki harflar o‘rnini almashtirish orqali kalkalash: so‘zlarni jargonlashtirish maqsadidan tashqari, mahalliy va xorijiy tildan kirib kelgan so‘zlarning o‘rnini almashtirishga ham aytiladi. Bu holat, ayniqsa Sharqiy Yava orollari millati nutqiga xos bo‘lib**, *bahasa walikan*** – **valikan tili** deb nomlanadi. Aytishlaricha, *valikan tili* bir vaqtlar Malang shahridan bo‘lgan jangchilar tomonidan dushman va raqibni ajrata olish uchun foydalanilgan muloqot usuli bo‘lgan. Shunday qilib, valikan tili o‘sha erda paydo bo‘lgan va hali ham Malang shahri yoshlari orasida urf bo‘lib kelmoqda. Masalan, ***Ngalam – Malang*** (Sharqay Yavadagi shahar); ***Tamales Sam! - Selamat Mas!*** (Tabriklaymiz janob!); ***Tangames - Semangat*** (Dadil bo‘l); “***Kane*** *nih baksonya*”-"***Enak*** *nih_baksonya"* (Bu bakso juda mazali); ***Ewul – Luwe*** *(qorni och, yava tilidan),* ***makan – nakam*** *(ovqat, ovqatlanmoq) bro aku ewul, beli nakam yuk*".(Og‘ayni, qornim och qoldi, yeydigan narsa sotib olaylik).

Shu ko‘rinishda ingliz tilidan kirgan o‘zlashmalarni ham indonezcha “valikan tili” uslubi bilan kalkalangan holatini kuzatdik:

Woles **<** selow “slow” (sekin, hechqisi yo‘q).

Misol: A: Sori ya gw gak bisa anterin lu pulang kemarin (Sorry I couldn’t drive you home yesterday) – Uzr kecha seni uyingga eltib qo‘ya olmadim.

B: Iya gapapa, woles aja bro (It’s okay, no big deal)- Hammasi joyida, hech qisi yo‘q, og‘ayni.

Siob < mbois ‘boyish’ (so‘zma so‘z: o‘g‘il bolalarga xos; ma’nosi: zamonaviy, so‘nggi trendda, urfda). Misol: “Wow, kamu mbois banget, bro!” “Wow, you’re really cool, my friend!” – “Voy, ko‘rininshing juda zamonaviy, o‘rtoq.”

O‘zbekistonda indonezshunoslik o‘zbek izlanuvchilarining o‘rni bilan beqiyos va ularning tadqiqotlariga hamisha muhtoj. Indonezshunoslikning til, adabiyot, pedagogika, madaniyat masalalari o‘zbek tili, madaniyati, adabiyoti bilan chog‘ishtirilib o‘rganilsa, har ikki tomonga ham holis nuqtai nazar bilan qaray olamiz va bilimlarimiz ham kengaya boradi. Zero solishtirib o‘rganish ta’limda ijobiy samara berishi yillar davomida pedagoglar tajribasida sinalgan.

Adabiyotlar

Mudiah, "Pergeseran Makna Kata Serapan dalam Bahasa Indonesia pada Tribun Timur", Skripsi, Universitas Muhammadiyah Makassar, 2020, h.22. diakses pada 7 Oktober 2022.

Kaehler, H. (1978). "Standardisation and development of newspapers' bahasa Indonesia" in Papers from the Conference on the Standardisation of Asian Languages, Manila, Philippines, December 16-21, 1974. Department of Linguistics Research School of Pacific Studies. The Australian National University. P. 243-250

Marcellino. M. (1990). An Analisis of Lexical Modernization in Indonesian Mass Media.The Graduate Linguistics Seminar Series. Washington, D.C: Georgetown University.

Sudarno. (1993). Kata Serapan dari Bahasa Belanda/ Inggris. Jakarta: Arikha Media Cipta

"Proses Pengindonesiaan Kata Pinjaman Bahasa Inggris: Suatu Tinjauan Fonologis dan Morfologis". In Bahasa Nasional Kita: Dari Sumpah Pemuda ke Pesta Emas Kemerdekaan (1928-1995), ed. Soenjono Dardjowidjojo. Bandung: Penerbit ITB.

Hulkar Turdieva. Persian influence in Indonesia. Universitas Muhammadiah Malang. 2020.

https://www.researchgate.net/publication/366986806_Persian_loanwords_in_Indonesian_language

English loanwords in Indonesian language and its pragmatic features

Boburjon Samigov[1]

Abstract

In this article, the loanwords from the Indonesian language and their pragmatic characteristics are analyzed. The topic of language borrowing and its pragmatic research is a crucial issue in Indonesian linguistics. The introductory section of the article examines the problem at the global, Indonesian, and Uzbek linguistics levels. The main body of the work emphasizes the pragmatic aspects of borrowed words, their impact on public perception, and challenges in their comprehension by non-native speakers. Furthermore, the instructional technique of emphasis

[1] *Boburjon Samigov* – Indonesian language teacher at Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: asrorjonovichsamigov@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-4358-965X

For citation: Samigov B.A. 2024. "English loanwords in Indonesian language and its pragmatic features". *Uzbekistan: Language and Culture,* 3 (2): 147-153.

in learning, specifically through word or letter replacement methods, is demonstrated with examples.

Key words: *loanwords, Indonesian, English, Pragmatics, Calque.*

References

Mudiah, "Pergeseran Makna Kata Serapan dalam Bahasa Indonesia pada Tribun Timur", Skripsi, Universitas Muhammadiyah Makassar, 2020, h.22. diakses pada 7 Oktober 2022.

Kaehler, H. (1978). "Standardisation and development of newspapers' bahasa Indonesia" in Papers from the Conference on the Standardisation of Asian Languages, Manila, Philippines, December 16-21, 1974. Department of Linguistics Research School of Pacific Studies. The Australian National University. P. 243-250

Marcellino. M. (1990). An Analisis of Lexical Modernization in Indonesian Mass Media.The Graduate Linguistics Seminar Series. Washington, D.C: Georgetown University.

Sudarno. (1993). Kata Serapan dari Bahasa Belanda/ Inggris. Jakarta: Arikha Media Cipta

"Proses Pengindonesiaan Kata Pinjaman Bahasa Inggris: Suatu Tinjauan Fonologis dan Morfologis". In Bahasa Nasional Kita: Dari Sumpah Pemuda ke Pesta Emas Kemerdekaan (1928-1995), ed. Soenjono Dardjowidjojo. Bandung: Penerbit ITB.

Hulkar Turdieva. Persian influence in Indonesia. Universitas Muhammadiah Malang. 2020.

https://www.researchgate.net/publication/366986806_Persian_loanwords_in_Indonesian_language

ISSN 2181-922X 154—158

Lingua-pragmatic analysis of the concept of Hospitality in Uzbek language

Nargiza Erkaboeva[1]

Abstract

This article is devoted to the study of the concept of Hospitality in Uzbek language from lingua-pragmatic aspect and the use of daily expressions related to it in communication. Although its socio-cultural significance is rather high, hospitality hasn't been *investigated sufficiently in the linguistic aspect.* The author refers to the content of the concept "Hospitality ", consider the structure of the concept and ways of its representation. *The significance of hospitality, which is one of these aspects, and its place in our national cultural life will be discussed in this article.*

Key words: hospitality, guest, host, attitudes, respect, honor, truthfulness, communication.

Introduction

Hospitality is a part of our people's lifestyle that has evolved over many centuries, forming a school of ethics and refinement based on life experience. The concept of hospitality embodies a general meaning, involving hospitality, generosity, graciousness, and respect for guests as integral parts of this concept. Similarly, hospitality is considered as a human virtue. Because hospitality involves not being hospitable, arranging tables for guests and serving delicious meals to guests, but also visiting someone's home with the intention of honoring their dignity, is also a reflection of hospitality.

Moreover, when someone enters your home as an honored guest, with an open heart and good intentions, they are appreciated as " Atoi Xudo " in Uzbek meaning God's gift . Hospitality is indeed a delicate virtue, considering it elevates individuals, demanding wisdom and ethicality. This process may be considered as pride in Uzbek mentality .

Karim Makhmudov mentions, etiquette, virtues, rules, order, and national characteristics of hospitality ceremonies in

1 *Nargiza T. Erkaboeva* – PhD researcher in Alisher Navoiy Tashkent State University of the Uzbek language and literature.
E-mail: nterkaboeva@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-8296-1185
For citation: Erkaboeva, N.T. 2024. "Lingua-pragmatic analysis of Hospitality in Uzbek language". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (2): 154-158.

his book "Mehmonnoma". The scholar's emphasis on the respect for hospitality in the book is consistent, highlighting both its theoretical and practical aspects. Especially, advice on guests and hosts, hospitality rules, types of guests, suggestions for guests, and types of hospitality are discussed, emphasizing hospitality not only as a ceremony but also as an integral part of national culture. He provides several life examples and folk tales that it depends on the host's mood, behavior, manners and attitude in order to welcome the guests.

Especially the sayings "If nobody visits someone's home, they should not blame people, everyone should pay attention and respect their own customs and manners," (Uyiga mehmon kelmay qolsa, odamlardan o'pkalay bermay, har kim o'ziga, odob-axloqiga nazar tashlamog'i joiz), "If host has any bad manners or habits ,guests may reject this person ," (Mezbonning ko'pchilikka malol keladigan odati bo'lsa, bundaylardan ham mehmon yuz o'giradi) and "If anyone who can't be hospitable with other people ,he or she should be alert when he visists others too."(Mehmonni malol ko'radigan odam o'zi ham mehmon bo'lganda, malol kelishini o'ylashi kerak) Indicate that hospitality is a moral-aesthetic process in our mentality.

It should be emphasized that in the ethical and educational aphorisms of almost all civilizations in the East that advice on daily activities related to the people's lifestyle is analyzed from the point of view of the present time. In aphorisms such as "Kutadgu Bilig", "Devon Lug'ati Turk", "Qobusnoma", "Axloqi Muxsiniy", "Makorim ul-Axloq", "Guliston", "Boston", "Mahbub ul Qulub", the person's role in society, his life in the household, and his daily activities are expressed through an aesthetic system

If we read the chapter "Mehmon olmoq va mehmon bo'lmoq zikrida" in "Qobusnoma" by Kaykovus , we may come across the rules of hospitality as well as good and bad peculiarities of it in the book.(Kaykovus. 1994.Qobusnoma. 53 b.) The following conclusions have been made according to this book when we welcome guests:

– Every day, when inviting guests, it is necessary to invite them once, as food and services are considered a blessing and perfect. (har kuni mehmon chaqirgandan ko'ra, ularni bir marta chaqirish lozim, toki dasturxonga qo'yilgan ne'matlar bodastir va aybsiz bo'ladi)

– Take the lead in welcoming guests into your home and treat them kindly so that they may bless you. (uyingizga qadam ranjida qilgan odamning oldiga peshvoz chiqing va ular bilan chiroyli

muomala qilingki, ular sizning duoingizni qilsin)

– Do not say to the guest, "Take this, take that or Help yourself! Why aren't you eating anything? These are all for you!" if there are some lacks, we will provide them next time.It is not appropriate to say such things, especially to a person with moral ideals. (mehmonga «Undan oling, bundan oling. Nega hech nima emayapsiz, bulaming bari sizlar uchun qo'yilgan. Agar dasturxonda yetishmovchilik bo'lsa, uzr, boshqa kelganlaringizda batafsil qilamiz», degan mulozamatni hadeb aytayvermang. Bunday so'zlar, ayniqsa, tarbiyali insonlarga yarashmaydi.)

Apart from these ancient sources, we may come across a lot of phrases which are related to Hospitality in the modern works too. For instance, a researcher, Leyla Kholmuradova and some other authors analyzed several phraseological units expressing the concept Hospitality in their article "Comparative analysis of the usage of concept "hospitality" in the of English, Russian and Uzbek languages on the basis of the English translation of the novel "Silence" by S.Ahmad". In this work we can see the examples of phrases which honor the guests and hospitality:

– Bugun Mirvali mehmon olib keladi, juda yaqin qadrdoni emish, yaxshiroq tayyorgarlik ko'ring, deb tayinlashganidan u tishining kavagida asrab yurgan bedanalarni ziralab tovoqqa bosdi. (Said Ahmad "Jimjitlik", 26b)

– (Today, Mirvali will come with his friend with whom are good together.As he asked to get ready perfectly,then he put the eggs of the quail which he was keeping carefully)

– Menga qarang. Ertaga nozik mehmon keladi. Besh-o'nta bedana tutib, patina yulib qo'ying. (Listen to me. Tomorrow a big cheese will be our guest. Catch some quails and prepare them.)

– Mehmon ketishga chog'lanayotganda Mirvali, ovqat tayyor ozroq nasiba,oling, deb iltimos qilsa ham, menisam olyot kutyapti, deb o'tirishga unamadi. The guest refused Mirvali's request for sinking his teeth into the meal saying that the plane was waiting for him.)

– Guldastalar ko'targan bolalar hurmatli mehmon sari qushdek uchib borishardi. U gullarga ko'milib ketdi. Respublikamizning eng mashhur kishilari non-tuz ko'tarib, oliy martabali mehmon istiqboliga peshvoz chiqdilar.(Some children with bouqets of flowers were running towards the guests. He was surrounded by flowers.The celebrities of our Republic met the big cheese to butter up him.) (Eshkuvvatovna, K. L., Tuychievna, M. S.,

Furkatovna, S. D. 2021).

Even there exist a lot of daily expressions which are used among Uzbek people when they meet each other. As Hulkar Turdiyeva identified these expressions with the help of live observations.

Here are the phrases that are used by Uzbek people every day:

Please come to ours, we're waiting. (Albatta biznikiga boring/ keling, kutaman. (If you can't come, I will get upset.) (Bormasangiz / kelmasangiz xafa bo'laman.)

Come to us for staying for longer time or a night. (O'tiradigan (yotadigan) bo'lib boring / keling)

Come home, be our dear guest. (Uyga o'ting/keling, aziz mehmonimiz bo'ling.)

It won't be interesting without you (Siz bo'lmasangiz qiziq bo'lmaydi)

Come to ours, let's have tea. (Biznikiga keling/boring, choylashamiz) (Turdiyeva, 2024)

In Uzbek language, phrases like "keling/boring, aylanib", "bir keling uyimizga", "mayli, chiqinglar", "yuring, olib ketaman, aylanib kelasiz", "kelarsiz", "bir piyola choyimiz bor!" are often used sincerely to conclude a conversation in a friendly tone, express appreciation for the listener, and leave a positive impression.

Conclusion

So, after having investigated several sources and materials, we have found out that Uzbek nation is so hospitable and appreciate the guests in any cases. It is obvious from the expressions which they use in their daily circumstances. Uzbeks have always been respected for their hospitality around the world. Representatives of many countries emphasize this value and always treat it with respect, admiration. This quality is passed down from Uzbek ancestors to younger generations.

References

Mamatov A.E. 2019. Modern linguistics. – Toshkent: Noshir.
Kuvonova F. 2007. The art of hospitality. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
Turdiyeva H.K. 2024. Lingua-pragmatic analysis of Persian and Uzbek politeness in cross-cultural communication. Tashkent.
Mahmudov K. 1989. Mehmonnoma. Tashkent: Yosh gvardiya.
Kholmuradova L. 2022. The special features of the concept "Hospitality" in Uzbek language. Vol. 49. No. 04. April 2022
Muhammadjonova L., Obidjonova F. 2017. "ETIKET". Toshkent.

O‘zbek tilida mehmonnavozlik konseptining lingvopragmatik tahlili

Nargiza Erkaboyeva[1]

Abstrakt

Mazkur maqola o‘zbek tilida Mehmonnavozlik tushunchasini lingvopragmatik jihatidan o‘rganishga va u bilan bog‘liq kundalik iboralarni muloqotda qo‘llanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Garchi Mehmonnavozlik konseptining ijtimoiy-madaniy ahamiyati juda yuqori bo‘lsa-da, u tilshunoslik nuqtai nazaridan yetarlicha tadqiq qilinmagan. Muallif "Mehmonnavozlik" tushunchasining mazmuniga murojaat qilib, tushuncha tuzilishini va uning ifodalash usullarini ko‘rib chiqadi. Ushbu maqolada mehmonnavozlikning ahamiyati, milliy madaniy hayotimizdagi o‘rni va boshqa jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *mehmondo‘stlik, mehmon, mezbon, munosabatlar, hurmat, izzat, rostgo‘ylik, muloqot.*

Adabiyotlar

Mamatov A.E. 2019. Modern linguistics. – Toshkent: Noshir.
Kuvonova F. 2007. The art of hospitality. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
Turdiyeva H.K. 2024. Lingua-pragmatic analysis of Persian and Uzbek politeness in cross-cultural communication. Tashkent.
Mahmudov K. 1989. Mehmonnoma. Tashkent: Yosh gvardiya.
Kholmuradova L. 2022. The special features of the concept “Hospitality” in Uzbek language. Vol. 49. No. 04. April 2022
Muhammadjonova L., Obidjonova F. 2017. “ETIKET”. Toshkent.

[1] *Erkaboeva Nargiza Tojiyevna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.
E-pochta: nterkaboeva@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-8296-1185
Iqtibos uchun: Erkaboyeva, N.T. 2024. “O‘zbek tilida mehmonnavozlik konseptining lingvopragmatik tahlili”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*, 3 (2): 154-158.

ISSN 2181-922X 159—167

“Alpomish” dostonida milliy marosimlarning tasvir xususiyatlari

Shaxnoza Asqarova[1]

Abstrakt

Ushbu maqola xalq og‘zaki ijodiga oid asarning yoki lug‘at boyligida mavjud so‘zlarning qadimiyligini aniqlash uchun uni yondosh xalqlar ijodida yoki o‘sha millat tilida mavjudligini o‘rganish yaxshi natija beradi. Bu borada “Alpomish” dostoni mazmuniga oid asosiy voqealar oltoy, tatar, boshqird, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlarda ertak, rivoyat, doston shaklida mavjud ekani asar nihoyatda qadim zamonlarda yaratilganidan darak beradi. Asar o‘zbek xalqining qadim hayot tarzini o‘zida mujassam qilgan, epik san’atkorlar tomonidan asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib kuylab kelingan eng go‘zal asar hisoblanishi bugungi kunda nafaqat til va adabiyot ahliga, balki barcha boshqa soha vakillariga ham sir emas. Mazkur durdonaning qirqdan ziyod o‘zbek variantlari va turli versiyalari bor bo‘lib, har bir variant va versiya juda ko‘p tadqiqotlarni talab etadi. Bu doston o‘zbek tilshunosligidagina emas, balki dunyo dostonchiligida o‘zining zalvorli mavqe-maqomiga ega ekanligi haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: *doston, xalq og’zaki ijodi, termin, leksik birliklar, folklorshunoslik.*

Dostonning o‘rganilish masalasi haqida gap borar ekan, uning ko‘p tadqiqot, maqola va tezislar yaralishiga asos bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ammo “Alpomish” dostonining jahon folklorshunosligidagi o‘rni, mifologik asoslari, badiiy va leksik qatlamlari, eposning xalqimizning tarixi, urf-odat va an’analari bilan bog‘liq xususiyatlari uning izlanuvchilarni yana ko‘plab tadqiqotlarning dunyoga kelishiga sabab bo‘la oladi, degan fikrga yo‘llaydi.

O‘zbek tili tarixini o‘rganish uchun eng muhim manba turli og‘zaki va yozma yodgorliklar bo‘lib, ularning aksariyati pergament yoki qog‘ozda qo‘lyozmalar shaklida taqdim etilgan. Bu manbalarda saqlangan matnlar o‘z davri ijtimoiy hayotining turli ehtiyoj va talablariga javob bergan. Ular hozir tilshunoslikda qo‘llanilayotgan

[1] *Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna* – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktoranti (DSc), PhD
E-mail: asqarovash85@mail.ru
ORCID ID: 0009/0006/6892/4324
Iqtibos uchun: Asqarova, Sh.K. 2023. “Antroponimik birliklarning tarjimada aks ettirish masalasi”, *O‘zbekiston: til va madaniyat,* 3 (2): 159-167.

maqsadlar uchun mo‘ljallanmagan. Bu holat og‘zaki va yozma manbalardan olingan lingvistik ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish bo‘yicha tadqiqotchilar oldiga bir qancha murakkab savol va vazifalarni qo‘yadi. Ushbu lingvistik ma’lumotlarni xronologik va mahalliy ma’noda adekvat talqin qilish faqat matnshunoslik asosidagina amalga oshirilishi mumkin. Bunday matnlardan eng nodir namuna hisoblanmish “Alpomish” dostoni lingvotekstologik tahlil uchun asosli manbadir.

Professor To‘ra Mirzayev doston variantlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida uning “Alpomish”, “Alpamis”, “Alpamis botir”, “Alip – manash”, “Alpamsha”, “Alpamisha va Barsin xiluv” kabi nomlarda atalishini qayd etadi. Hatto “Dada Qo‘rqut kitobi”ning uchinchi bo‘y (doston)i “Bamsi Bayrak” o‘zining syujet voqealari jihatdan “Alpomish”ga yaqin turishini ta’kidlaydi. Olimlarning ma’lumot berishiga qaraganda, XIX-asr oxirida Ya.F.Kal o‘zbek-qo‘ng‘irot urug‘i aynli aymog‘iga mansub baxshi Omonnazardan dutor jo‘rligida doston tinglagani va bu doston “Alpomish” dostoni bo‘lishi kerakligi haqida ma’lumotlar ham bor . Bundan kelib chiqib, “Alpomish” dostoni o‘zbek qahramonlik eposining eng qadimgi va mukammal namunasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. O‘zbek folklorshunosligida uning o‘nlab variantlari to‘liq va parcha holida yozib olingan. Qadimgi an’analar asosida doston kuylagan Jasoq baxshi, Yo‘ldosh baxshi, Jumanbulbul, Ernazar baxshilar o‘z tajribalarini Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir, Po‘lkan, Abdulla shoir, Nurman Abduvoy o‘g‘liga meros qilib qoldirganlar. “Alpomish” eposi bebaho merosning noyob va jilokor mo‘jizasi bo‘lib nom qozondi. 1928 yilda Mahmud Zarifov ustoz Hodi Zarif rahbarligida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan ikki oy davomida “Alpomish”ning to‘liq matnini yozib oldi. Hozirgi kunda dostonning Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Xushboq Mardonaqul o‘g‘li, Berdi baxshi (Berdiyor Pirimqul o‘g‘li), Saidmurod Panoh o‘g‘li, Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li variantlari nashr etilgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytgan doston esa bir necha marta ustoz H.Zarifov va T.Mirzayev nashrga tayyorlagan shaklda e’lon qilindi. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganish orqali zamonaviy avlod vakillari ma’lum bir millatning yillar davomida yaratilib sayqallangan turmush tarzi, urf-odati, an’ana-marosimlari, o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli, dunyoqarashi hamda ruhiyati haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bu orqali ma’lum bir xalqning o‘zligini anglash, tahlil qilish, ongda aks ettirish xislatlari, unga bo‘lgan sa’y-harakatlari, millatning ko‘p ming yillik turmush tarzi, qadriyatlari aks etgan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodini

o‘rganish degani o‘sha xalqning o‘zini o‘rganishdir.

Bugungi ma’naviyatimizdagi yangilanish jarayoni, shubhasiz, adabiy merosimizni, shu jumladan xalq og‘zaki ijodini, uning badiiyati, mifologik qatlamini qay darajada o‘zlashtirishmiz bilan belgilanadi. Buning uchun esa eng avvola san’atga, adabiyotga zamin bo‘lgan xalqimizning qadim mifologik tasavvurlarini, baxshichilik san’atini yaxshi o‘rganishimiz, tahlil va tadqiq etishimiz lozim bo‘ladi. Zero, epik ijod har bir xalqning badiiy tarixidir . Masalan, dostonda qadimiy va hozir ham mavjud bo‘lgan milliy urf-odatlarimiz bilan bog‘liq marosimlarni tasvirlashda, baxshining epik an’anaga qay darajada rioya etganligini kuzatilsa, eposning, ayniqsa qahramonlik dostonlarining bevosita marosim bog‘liq jihatlari hali yetarli darajada o‘rganilmaganiga guvoh bo‘lish mumkin. Yetakchi folklorshunos olim Jabbor Eshonqulovga ko‘ra, arxaik eposda, jumladan, “Alpomish” dostonida ham marosimlarning muhim o‘rin tutishi va ustivor qonuniyat kashf etishi kuzatiladi. Biroq, qahramonlik eposi birgina marosimlardan kelib chiqadi yoki tug‘iladi deb xulosalash masalani o‘ta jo‘n hal etish bo‘ladi. Marosim epik formalarning transformatsiyasi orqali yuzaga chiqadi. Ushbu arxaik epik formaning bevosita marosim bilan aloqadorlik tomonlarini tadqiq etish eposning tub asoslarini yoritishda o‘ta muhimdir. Bu o‘rinda ikki jihatga alohida to‘xtalib o‘tish zarur: Birinchidan, eposning marosimlardagi o‘rni va funksiyasi . Bugungi kunda O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida davom etayotgan qadimiy an’ana – to‘y-tomosha va boshqa marosimlarning baxshilar ishtirokida o‘tkazilishi. Ikkinchidan, marosimlarning eposda aks etishi, ya’ni marosimlarning epos syujetida tutgan o‘rni.

Qadimdan mavjud bo‘lgan, xalqimiz hayotining ajralmas qismi, ta’bir joiz bo‘lsa pirovard maqsadi bo‘lmish to‘y-to‘noq, turli marosimlar, urf-odatlar, irim-sirim, ta’bularining asosi “Alpomish” dostonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki, hech bir eposda xalqimizning kundalik maishiy hayoti badiiy jihatdan bu darajada batafsil ifodalanmagan. Ollohdan farzand so‘rash, uning tug‘ilishidan oldin ovga chiqish, suyunchi berish, farzandning tug‘ilishi, uni etakka solib ism qo‘yish, beshik to‘y, to‘y maslahati, jarchidan foydalanish, chufurron to‘y va yana ko‘plab odat va marosimlar biz tadqiq qilayotganimiz “Alpomish” eposidan joy olishi muhim ahamiyatga ega.

Epos va marosimni o‘rganishda birinchi navbatda qiyosiy tipologik metodning ustivorligini inkor etmagan holda, struktural, lingvopoetik va ruhiy tahlil kabi ko‘plab metodlarga ham suyanish

lozim bo‘ladi. Qiyosiy tipologik tahlilda birinchidan, marosimlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan uni epos va eposdagi motivlar bilan muqoyasalash imkoniyati tug‘uladi. Lingvopoetik va ruhiy tahlil metodlari epos va marosim semantikasini chuquriroq yoritib berishda asosiy omil bo‘ladi. Struktural metod esa epos va marosim tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki arxaik epos bilan marosim strukturasi o‘zaro uyg‘un kelishini ko‘ramiz. Shomonning shajarasi, uning tanlanishi, homiy ruhlar ko‘magida bo‘lishi, o‘zga dunyoga safar, yovuz ruhlar bilan jangi, o‘zga qiyofaga ega bo‘lishi bu shomonlik marosimiga xos xususiyatdir. Arxaik, jumladan, “Alpomish” eposida ham shajaraga alohida urg‘u berilishi, Hakimbekning tug‘ilishi va doimo pirlar ko‘magida bo‘lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga otlanishi, yovuzlikka (yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, yetti yillik zindon, ya’ni ramziy “o‘lik”lik holatidan so‘ng, qayta tirilib chiqib, Qo‘ltoy qiyofasiga kirishi struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligini ko‘ramiz. Qolaversa, eposning genitik xususiyati uning janr strukturasini o‘rganish orqali ochiladi. Epos va marosim haqida so‘z ketganda, mutaxassislar ularni bir-biriga bog‘lab turuvchi eng muhim jihat: eposning xalq ijodining spetsifik namunasi sifatida marosim va marosim folklori bilan bevosita aloqadorligida ko‘rishadi.

Marosimning eposda aks etishi haqida so‘z ketar ekan, uning asosan ikki: a) maishiy turmushda o‘z ijro o‘rniga ega bo‘lib, eposda ham badiiy aks etgan (farzandning tug‘ilishi, ism qo‘yish, beshikkerti qilmoq, atashtirib ro‘mol o‘ramoq, sovchi qo‘ymoq, qalliq o‘ynamoq va hakoza; b) maishiy turmushda ijro o‘rni unitilib, badiiy holatga ko‘chgan (farzand tug‘ilishidan oldin ovga chiqish, kuyovga kelin tomonidan shartlar qo‘yilishi va h.) jihatlarini tadqiq etish lozim bo‘ladi. “Alpomish” dostonida farzandning tug‘ilishi, unga ism berilishi bilan bog‘liq o‘rinlar qisqa satrlarda aytilib ketgan bo‘lsada, u doston syujetida muhim ahamiyatga ega. Doston qahramoni Hakimbek yetti yoshga to‘lganda Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon parli yoyni otgani uchun “Alpomish” deb ataladi: “Shunda barcha xaloyiqlar yig‘ilib kelib aytdi: ...bu Alpomish alp bo‘lsin. To‘qson alpning biri bo‘lib sanaga o‘tdi”. Qadim marosimlarda, xususan, shomonlikda marosimdan so‘ng qahramonga ikkinchi ism berilgan. Bu birinchidan shomonning eranlar tomonidan tanlanganligini va ruhiy kamolatga yetganligini bildirsa, ikkinchi tomondan uning boshqa qiyofaga kirganligini, mo‘jizaviy qudratga ega bo‘lganligini ham ko‘rsatgan. Bugungi kunda ham respublikamizning janubiy

viloyatlarida ba’zan oilada o‘g‘il farzand tug‘ilsa uni “orqalik” ekan deb, hamda insu jins, har xil yomon ruhlardan asrash maqsadida bolaga dastlab yolg‘on ism beriladi. Agar shunday qilinmasa, u xastalikka chalinishi mumkin degan qarash mavjud. Ma’lum bir muddatdan so‘ng kichik bir marosim o‘tkazilib, bolaga haqiqiy ism qo‘yilgan. Eposda marosim hech qachon batafsil tasvirlanmaydi, balki, uning muhim nuqtalari o‘zining badiiy aksini topgan bo‘ladi. Eng e’tiborli jihati, marosim epos tizimida syujetni yuzaga keltirib, epik xarakter kasb etadi. “Alpomish” dostonidagi Hakimbekka ikkinchi ism berilishi bilan bog‘liq xalqa olib tashlansa, doston mazmuniga jiddiy putur yetadi. Demak, marosim ma’lum ma’noda epos syujet xalqasining yuzaga kelishiga zamin bo‘lishi bilan birga bevosita badiiy estetik funksiya bajaradi. Barchinning eldan ajratilib, baland bir tepalikka o‘tov tikishi dostonda shunday tasvirlanadi: “O‘n ming uyli qo‘ng‘irotdan chiqarib, Barchinning o‘tovini ko‘tarib, ho‘, anaday ovloq tepaning boshiga tikib qo‘ydi. Bul o‘tovda qirqin kanizlari bilan Barchin o‘tirdi”. Bu yerda diqqatimizni tortadigan ikki jihatga to‘xtalib o‘tish zarur. Birinchisi, Barchin o‘tovining tepalikka tikilishi. Tepalik, tog‘ bu qadimda marosimlar o‘tkaziladigan muqaddas joy hisoblangan. Ikkinchisi, o‘tovning oq va baxmal ekanligi. Oq va qizil (baxmal) rang birinchi navbatda ikki olam (erkak va ayol birligining makoni) haqidagi qadim tushunchalarni o‘zida ifoda etgan. Shuning uchun ham bu ikki rang eposda ham, marosimlarda ham aniq ramziy ma’noga ega. O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida uzatilayotgan qiz to‘y kuni biror bir qarindoshi yoxud qo‘shnilaridan birinikida, ya’ni o‘z uyidan uzoqroqda bo‘ladi. Qizning dugonalari uzatilayotgan qizni yashirishib, “qiz yashirdi” marosimini o‘tkazadi. Kuyov tomondan tanlangan vakil bo‘lg‘isi kelinni topib olishi kerak. Ana shu “qiz yashirdi” marosimidan so‘nggina, bo‘lg‘usi kelindan vakillar rozi - rizolik olishadi. Dostonda ham ayni marosim o‘z aksini topgan: “Qadimgi rasimi shunday bo‘ladi, Barchinoyni qiz opqochdi qiladi,... Bir yerda bularni topib oladi”. Ana shu kabi marosimlarni yaxshi bilmasak, Barchinning o‘tov tikib, o‘z elidan ajralib chiqishini oddiygina talqin qilishimiz tabiiy. Aslida esa, “Alpomish” kabi klassik eposda, biror bir detal noo‘rin kelmaydi va ularning har biri o‘zining chuqur ma’nosiga ega. Barchinning alohida o‘tov tikib, o‘z elidan ajralib chiqishi, bu bir tomondan qizning balog‘atga yetganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan uning ihota qilinishini anglatadi.

“Qizyashirish”, ya’ni turmushga chiqayotgan qizning jamoadan ajratilishi, uning ihota qilinishi, ya’ni har xil noxushliklardan, yomon ko‘zlardan saqlash uchun qilingan amaliy harakat bo‘lib, Barchinning

tepalikka, o‘tov tikishi esa ana shu qadim marosimning dostondagi badiiy ifodasidir. Sochning marosim va folklordagi o‘rni, funksiyasi va poetik ko‘lami juda muhim jihatdir. Soch siypatar, umuman sochning o‘rilishi bu qiz bolaning balog‘atga yetganligi anglatuvchi unsurlardan biri bulib, u qadimiy soch magiyasi bilan bog‘liq marosimning transformatsiyaga uchragan bir ko‘rinishidir. Soch magiyasi birinchi navbatta hosildorlik kultiga bo‘lgan e’tiqoddan kelib chiqqan. “Alpomish” dostonidagi “soch siypatar” marosimida ham ana shunday qadim tasavvurlar o‘z ifodasini topgan. “Kokillaring o‘rilgandir tol-tol, har biriga bersa yetmas dunyo mol”. Bu o‘rinda soch bir tomondan, bo‘yi yetgan qizning go‘zallik belgisi bo‘lsa, ikkinchi tomondan xalqimizga oid bo‘lgan qiz-juvonlar sochini “qirq kokil” qilib maydalab o‘rish odati ham qadim-qadim zamonlarga borib taqalishidan dalolatdir.

Bundan tashqari soch, yol bu ruhga tegishli. Birovning sochi yoxud yoliga egalik qilish, uning ruhga egalik qilish, uni o‘ziga tobe etish bilan barobar hisoblangan. Frezer soch qadim marosimlarda eng yuksak mavqeda bo‘lganligini, ibtidoiy inson sochni tarash, oldirish, kuydirish orqali tabiatga va ruhga ta’sir qilish mumkin deb hisoblaganligini ta’kidlaydi.

Arqon, tayoq, oyna marosimlarda eng ko‘p ishlatiladigan predmetlardir. Ularni birlashtirib turuvchi jihat esa, bu uchala jism qadim tasavvurlarga ko‘ra ikki dunyo o‘rtasidagi chegara, belgini ifodalashidir. Shuning uchun kuyov-kelin yo‘liga tashlanadigan arqon, tayoq (baqan) bu ularni bir dunyodan ikkinchi bir dunyoga qadam qo‘yganligini anglatgan. Shuning uchun ham homilador ayol tayoq yoki arqondan hatlamaydi, oqar suvda cho‘milmaydi, tunda ko‘zguga qaramaydi, sochini kesmaydi degan odatlar bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Oyna aslida suvning atributi hisoblanadi, suv tabiiy xususiyati bilan ko‘zguga tenglashtirilgan. Suv esa ikki dunyo o‘rtasidagi chegara. Shuning uchun ham suvning barcha din va turli xil marosimlardagi o‘rni juda baland. “Kampir o‘ldi” marosimi nikoh to‘yining bir qismi hisoblanadi. Bu marosim ba’zi joylarda kelining uyida, ayrim hududlarda kelin kuyovnikiga olib kelingandan keyin amalga oshirilgan. “Alpomish” dostonida u kelin, ya’ni Barchinning uyida amalga oshiriladi. N.P. Lobacheva bu marosim o‘tgan asrning o‘rtalarida O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlarning barchasida uchrashini ta’kidlaydi. Bu marosim bugungi kunda saqlanib qolgan. Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida xuddi dostonda aynan keltirilgani kabi kelin tomonda amalga oshiriladi. Chimildiq

tutilgan uyga kirmoqchi bo‘layotgan kuyov navkarlarining yo‘li to‘silib, ostonada turgan bir kampir it bo‘lib “irillaydi”. Odatda it bo‘lib irillaydigan kampir kayvoni, uvali juvali va obro‘ - e’tiborli, eng muhimi, kelin tomonning eng yaqinlaridan biri bo‘lishi kerak. Kampirning “ulushi” berilgach, kuyov ichkariga kiritiladi. Shundan so‘ng “kampir o‘ldi” marosimi boshlanadi.

Ma’lumki, nikoh hamma vaqt o‘lim va tug‘ilish orasidagi muhim bir vosita, hayot – o‘lim - hayot davomiylik siklining boshlanishi hisoblangan. O‘lib tiriluvchi ma’budlar haqidagi qadim tasavvurlarga ko‘ra, keksa qish yer yuzini tark etgandan so‘ng, u yangi – bahor qiyofasida dunyoga keladi. O‘lim yo‘q ekan, tug‘ilish ham bo‘lmaydi; qish “o‘lmasa”, bahor “tug‘il”maydi. Aslida o‘lim va tug‘ilish bir holatning ikki ko‘rinishi xalos. Dostondagi “kampir o‘ldi” marosimida ham xuddi ana shu narsa, ya’ni bir fasl(sikl) o‘rnini, ikkinchi bir fasl olganligi, “kampir” o‘lib, yangi oila dunyoga kelayotganligi, mangu davomiylik siklining ramziy ifodasidir. Tabiat faslini keksa kampir qiyofasida tasavvur qilish “Choy momo”, “Sust xotin” marosimlarida o‘zining yanada yorqinroq ifodasini topgan. Ma’lumki, o‘lib tiriluvchi ma’budlar haqidagi ko‘plab miflar mavjud. Bunday miflarga xos bo‘lgan eng muhim xususiyat ularning tabiat va hosildorlik kultini o‘zida mujassam etgani va ularning ko‘pchiligi, albatta, ayol qiyofasida bo‘lganidir. Har fasl almashganda esa ularga qurbonliklar qilinib, maxsus marosimlar o‘tkazilgan.

Xulosa shundan iboratki, doston va marosim bir-biri bilan chambarchas bog‘liq jarayon. Marosimlarning tarixiy ildizlarini tadqiq qilishda “Alpomish”ga o‘xshash eposlarimizga murojaat etishimiz tabiiy. Eposdagi motivlarni esa marosimlar bilan qiyosiy o‘rganganimizdagina ularning mazmun-mohiyati yanada chuqurroq ochiladi. Epik ijodkorning qobiliyati, iqtidori an’analarga nechog‘liq rioya qilib, ajdodlardan avlodlarga meros qilib kelinayotgan qadimiy dostonga o‘z xissasini qo‘shib, uni qanchalik o‘z originalligini saqlagan holda yangilay olganligida namoyon bo‘ladi. Biz o‘zbeklarda oilada o‘g‘il farzand tug‘ilsa unga Alpomish deb ot qo‘yib, jilla qursa o‘z ismi ustidan erkalab Alpomish deb chaqirish odat tusiga kirgan. Ayniqsa, keksalarning yigitlar balog‘atga yetganda “Alpomishday kuchli bo‘l, mard bo‘l, jasur bo‘l” deb nasihat qilishi doston qahramonining nechog‘li bugungi zamonaviy odamlarimiz uchun ham qadrli ekanidan dalolatdir.

Adabiyotlar

Алпомиш. Достон. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Ҳоди Зарифов ва Тўра Мирзаев. –

Тошкент: Фан, 1999. - 820 б.
Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героической эпос. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, I947. –520 с;
Лобачева Н. П. Различние обрядовие комлекси в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахистана. Домусулманская верования и обряди в Средней Азии.-М.: Наука. 1975. - С. 302-320.
Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан, 2008.- С. 70-160.
Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. – Л.: Наука. 1974. - С.76.
Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986, 65-119 б.
Фрэзер Дж. Фольклор в Ветхом завете. – М.: 1989. - С. 263-265.

IMAGE CHARACTERISTICS OF NATIONAL CEREMONIES IN THE EPIC "ALPOMISH"

Shakhnoza Askarova[1]

Abstract

In this article, in order to determine the antiquity of a work of folklore or words in the vocabulary, it is good to study its existence in the works of neighboring peoples or in the language of that nation. In this regard, the fact that the main events related to the content of the "Alpomish" epic exist in the form of fairy tales, narratives, and epics in Altai, Tatar, Bashkird, Kazakh, Karakalpak and other Turkic nations indicates that the work was created in extremely ancient times. The fact that the work embodies the ancient way of life of the Uzbek people and is considered the most beautiful work that has been sung by epic artists for centuries is not only important for people of language and literature, but also for all other people. It is not a secret to industry representatives. There are more than forty Uzbek variants and different versions of this masterpiece, and each variant and version requires a lot of research. This epic is written not only in Uzbek linguistics, but also in world epics.

Key words: *epic, national oral creativity, term, lexical units, folklore.*

References

Alpomish. Doston. Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar: Hodi Zarifov va To‘ra Mirzayev. – Toshkent: Fan, 1999. - 820 b.

[1] *Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna* – Doctoral student of Tashkent State University of Oriental Studies (DSc), Doctor of Philosophy (PhD).
E-mail: asqarovash85@mail.ru
ORCID ID: 0009/0006/6892/4324
For citation: Asqarova, Sh.K. 2024. “Image characteristics of national ceremonies in the epic "Alpomish". *Uzbekistan: Language and Culture* 3 (2): 159-167.

Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskoy epos. – Moskva: Gosudarstvennoye izdatelstvo xudojestvennoy literaturi, I947. –520 s;

Lobacheva N. P. Razlichniye obryadoviye komleksi v svadebnom seremoniale narodov Sredney Azii i Kazaxistana. Domusulmanskaya verovaniya i obryadi v Sredney Azii.-M.: Nauka. 1975. - S. 302-320.

Mirzayev T. Epos i skazitel. – Tashkent: Fan, 2008.- S. 70-160.

Putilov B. Epos i obryad // Folklor i etnografiya. – L.: Nauka. 1974. - S.76.

Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986, 65-119 b.

Frezer Dj. Folklor v Vetxom zavete. – M.: 1989. - S. 263-265.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O‘zbekiston: til va madaniyat (O‘zTM) – zamonaviy O‘zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog‘liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san’at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O‘zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta’lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san’at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo‘nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochtasiga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo‘llash mumkin.

Barcha qo‘lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

O‘zbek va ingliz tillarida 100–150 so‘zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo‘limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo‘limlari sarlavhasi – to‘q bo‘yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq koʻrsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan boʻlsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Koʻchirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan koʻchirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Koʻchirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday koʻchirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida toʻrtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta boʻlsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qoʻlyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* oʻzbek lotin alifbosi tartibida koʻrsatiladi.

V.1. Qoʻlyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qoʻlyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada oʻzi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qoʻlyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Koʻchirilgan asr (agar mavjud boʻlsa). Asar nomi. Qoʻlyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qoʻlyozma: OʻzFASHI, № 742.

Matnda qoʻlyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17[a]]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi.* Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari.* Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug‘bek. 2018. *O‘zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari.* Toshkent: Mumtoz so‘z. https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi.* Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O‘zbek matnshunosligi qirralari.* Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. http://press-pubs.uchicago.edu/founders/.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi”. *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. “Termin, badiiy so‘z va metafora”. *O‘zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko‘rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo‘lmasa, internet adresi ko‘rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o‘zgarmas ID bo‘lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya’ni manbani boshqaruvchi http://dx.doi.org/ manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. “O‘zbekiston san’atida temuriylar siymosi”. *O‘zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek…); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. https://uza.uz/uz.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini *“The Chicago Manual of Style, 16th Edition”* qo‘llanmasi yoki *https://www.chicagomanualofstyle.* havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropo- logy and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interes- ting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any

opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;
- a list of references of no more than five (5) pages;
- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).
- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and l2 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([ ]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([ ]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of The Chicago Manual of Style.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. ("and others"):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. "Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War." In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elswehre:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. "Handbook on Canvassing for the Consulship." In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. htpp: //press-pubs.uchicago.edu/founders

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to http://dx.doi.org / in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network."*American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010…"); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." New York Times, February 27. http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko‘chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlctscls.tsuull.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 16.07.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. “Cambria” garniturasi.
Nashr b.t. 11,125.

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
“YASHNOBOD NASHR” bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.